- 1.2. Spektral nurlanish.Yer atmosferasi tashqarisida quyosh nutrlanishi.Yer sirtida quyosh nurlanishi.Quyosh harakati, qiyosh vaqtı, quyoqsh holati. Quyoshning og’ish, tik va azimutal burchaklari. Quyosh holatini hisoblash. Quyoshning ixtiyoriy va qiya og’ishi

**Tayanch so’z va iboralar:** fotovol’taika, yarimo’kazgichlar, quyosh energiyasi, elektr o’tkazuvchanlik, yorug’lik, elekrtr energiyasi.

**Darsning maqsadi:** Magistrlarga fotovol’taika fanining asosiy tushuncha va qonunlari haqida ma’lumot berish.

### **Idetiv o’quv maqsadlari:**

- 1.1.1. Fotovol’taika fanining predmeti haqida ma’lumot bera oladi.
- 1.1.2. Fotovol’taika fanini boshqa fanlar bilan bog’liqligini izohlay oladi.
- 1.3. Fotovol’taika fanining asosiy tushunchalari haqida ma’lumot bera oladi.

### **1-asosiy savolning bayoni: Kirish**

Fotovaltaikaning fizik asoslari fanni o’qitishdan maqsad - quyosh energetikasi materiallaridagi fizik hodisalarning asosiy nazariyalari, printsiplari va qonuniyatlar bilan tanishtirishdan iborat.

Fanni o’qitishning vazifalari-talabalarda kelajakda mustaqil ilmiy tadqiqot va amaliy ishlab chiqarish jarayonlarida quyosh energetikasi materiallari sifatida yarimo’tkazgich materiallarni fizik-kimyoviy xossalari bo’yicha ajrata bilish, ish vazifasi talablariga mos keluvchi yarimo’tkazgich asboblarning xossa va parametrlarini nazariy hisoblay bilish va yarata olish o’quv va malakalarini hosil qilishdan iborat.

So’nggi yillarda O’zbekistonda quyosh energiyasidan elekrt energiya manbai sifatida amaliy foyalanishga katta e’tibor bermoqda, chunki u barqaror rivojlanish va mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini hal qiluvchi omilidan biri bo’lib hisoblanadi. O’zbekistonning iqlim sharoitlari va geografik joylashuvi quyosh energiyasidan energiya manbai sifatida foydalanish kabi istiqbollarni taminlaydi.

Bugungi kunda O’zbekstondagi tabiiy sharoit, quyosh energiyasi sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish uchun samarali platforma bo’lib hisoblanadi, dunyoda erishilgan natijalardan yanada kengroq foydalanish va kengaytirishga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, bu vazifalarni amalga oshirish uchun quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirishda bu sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlashni kengaytirish va tubdan yaxshilashni hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo’ladi.

2017 yil 29 may kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda qayta tiklanadigan energiyani rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy

sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida'gi qarori e'lon qilindi.

“Fotovaltaikaning fizik asoslari” fanni o'qitishdan maqsad – quyosh energiyasi va gebrid tizimlarni o'rganish, amaliy qo'llash prinsiplari va metodikalari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni shakillantirishdan iborat.

“Fotovaltaikaning fizik asoslari” fanning vazifasi – magistrlargacha quyosh energiya sining ishlatilish sohalari, qurilmalarning ishlash prinsiplari, texnologiyalari va konstruksiyalarining tushinish uchun quyosh energiya manbalarida sodir bo'ladigan turli elektrofizik hodisalar bo'yicha fizik jarayonlarni o'rganishda tadqiqot usuli yoki usullarini kompleks qo'llash, o'lchash va kuzatish natijalarini qayta ishlash va tadqiqot qilish asoslarini o'rganishdan iborat. Jumladan, bugungi kunda keng amaliy ahamiyatga ega bo'lgan energiya iqtisodiy tejamkor qurilmalardagi jarayonlarni modellashtirish va elektr uzatish texnologiyalarini rivojlanishi masalalarini hal qilishda samarali qo'llash malakalariga ega bo'ladilar.



**Ras. 1. 1E- Trilemma energetkaning rivojlanishi [2, 5]**

Zamonaviy energetikaning rivojlanishini 3E-tirilemma [2,5]deb ataladigan sxema bo'yicha tushuntirish mumkin (ras.1.1E). Iqtisodiyotni faollashtirish (**E:Ekonomika**) va aholini o'sib borishi energiyani(**E:Energetika**) ishlab chiqarishni oshishini talab qiladi. Bu o'z navbatida ekologik (**E:Ekologiya**) muommoni, atrof – muhitni ifloslanishiga olib keladi. Agar teskarisi, ifloslanishni chiqindilarini cheklash amalga oshirilsa, bu iqtisodiyotni rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bu trilemmani rivojlanishini amalga oshirishni faqat ekologik toza energiya ishlab chiqish orqala bajarish mumkin.

Energiya istemoli insoniyat jamiyat uchun harakterli holdir. Xozorgi vaqtgacha energetikaning rivojlanishida qiyinchilik sezilgan emas edi, chunki energiya ishlab chiqarish asosan foydali qazilmalar hisobiga (tabiiy gaz, neft', ko'mir) qazib olish hisobiga bo'lar edi, ishlatish qulay edi. Xozorgi vaqtida 75% elektr energiyani ishlab chiqarish mineral' va organik yonilg'ilarni yoqish hisobiga to'g'ri keladi. Energetika xozirgi kunda o'zining an'anaviy mahsulotlarining organik foydali qazilmalarni qazib olishning chegarasiga yaqinlashib qoldi. Bundan tashqari tabiiy gaz, neft', ko'mir

ximiya sanoatini rivojlanishi uchu eng kerakli mahsulot hisoblanadi. Energetikani yuqori suratlar bilan rivojlanishi saqlab qolish uchun an'anaviy foydali yonilg'i qazilmalari foydalanish qiyinlashib bormoqda. Energiya manbalarining mahsulotini yoqish va qayta ishslash hisobiga atrof muhit ifloslanmoqda, ko'mir va yadro yonilg'si hisobiga Yerning ekologik holati yomonlashmoqda. Xozirgi zamонави о'lchamlarda energiya ishlab chiqish iqlim o'zgarishini qaytmas halokatli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Shularni hisobga olgan holda, qayta tiklanuvchan energiya ma'nbalaridan foydalanishga qiziqishni oshiradi, undan keng foydalanish kelajakda Yerning ekologik balansiga ta'sir qilmaydi [1,2]. Qayta tiklanuvchan energiya ma'nbalari to'g'risida gapirliganda (al'ternativ energetika) yoki muqobil energetika ma'nbalari, birinchi navbatda quyosh energiyasi nazarga olinadi.

Bunga sabab, Yer atmosferasiga kiruvchi quyosh nurlanishing integral oqimi  $2 \cdot 10^{17}$  Vt qiymatni tashkil qiladi. Bu vaqt davomida yig'indi dunyodagi barcha elektrostantsiyalarning quvvati

$3 \cdot 10^{12}$  Bt ni tashkil etadi, ya'ni  $10^6$  marta kichik bo'lgan. Bunday energiya turidan foydalanish atrof-muhitni ifloslantirishdan holi va planetamizningissiqlik balansini buzmaydi. Fotoelektrik usul yordamida energiyani almashtirish real' holda elektrostantsiya qurishda vauni ishlatishda arzon va yuqori samarali quyosh elementlaridan (QE) foydalanishga imkoniyat yaratadi. QE larini afzal va kamchiliklari mavjud. Asosiy afzal tomonlarini qarab chiqaylik:

- to'g'ridan -to'g'ri quyosh energiyasini elektr energiyasiga almashtirish;

- quyosh energiyasining zaxiralari insoniyat istemol qilib ishlatadigan vaqtga nisbatan cheksiz ekanligi;

- energiyani markazlashmagan holda ishlab chiqarish, elektr uzatish liniyalariniuzunligini qisqartirish;

- ekologik havsiz;

- quruishda integratsiyalash (devorga, tomgao'rnatish mumkinligi);

- yuqori darajali ishonchli;

- harakatlanuvchi qismi bo'limgani uchun hizmat kpo'rsatish soddalashadi va muddati oshadi;

- yuqori kvalifikatsiyali hizmat talab qilinmaydi;

- amalda qurilmaning xar qanday quvvatini hosil qilish mumkin.

Asosiy kamchiliklari:

- elektr ishlab chiqarish yorug'lika bog'liqligi, QE dagi energiyani akkumullyatsiya qilishni talab qiladi, undan yorug'lik etarli bo'limgan vaqtarda foydalaniladi;


- elektr energiyaning baholanishi yuqori.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar bo'llishiga qaramasdan, xozir gi kunda QE maxsus energetika sohalarida keng qo'lanilmoqda [1,3];

- energiya markazlardan uzoq joylarda, (ekspeditsiyalarda, navigatsiyada, kosmik qurilmalarda) ishlatilmoqda;

- katta bo'limga avtomatik hududlarda avtonom manba sifatida (aloqa tizimida, kuzatish tizimida, metiokuzatish tizimida, avtoyo'llarni nazorat qiliashda, navigatsiyada va signal belgilarida, elektron qurilmalarda va boshqa sohalarda);

Hozirgi vaqtida qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan olinayotgan elektr quvvati mamlakatimizda umumiy ishlab chiqarilayotgan energiya hajmining atigi o'n foiziga to'g'ri kelmoqda. Prizidentimiz O'zbekistonda nihoyatda katta salohiyat mavjud bo'lishiga qaramasdan, quyosh va shamol singari qayta tiklanuvchi energiya manbalari imkoniyatlaridan to'liq darajada foydalanimayotgani ta'kidlab o'tidi. Iqtisodiy tarmoqlar va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalar va qyta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish davlat siyosatining hozirgi bosqichidagi dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.



1.2-rasm.Quyoshning tuzilishi

**Quyosh spektri.** Keyingi yillarda Quyoshning massasi, temperaturasi va fizik tabiatini o'rGANISH borasida yig'ilgan ma'lumotlar Quyosh to'g'risidai bizga yetarli darajada aniq tasavvur hosil qilish imkonini berdi.Yerdagi ko'pgina fizik va biologoik hodisalar Quyosh ta'siri tufayli sodir bo'ladi.

Quyosh sokin bir osmon jisidek ko'rinsa-da, aslida u yirik va quvvatli fizik jarayonlarni "boshidan kechirayotgan" yulduzlardan biri hisoblanadi. Shu tufayli Quyoshni o'rGANISH har jihatdan barcha tabiy fanlari uchun, ayniqsa, fizika fani uchun juda katta ahamiyatga ega.

Quyosh milliardlab yulduzlarning bir vakili bo'lib, kattaligi va temperaturasiga ko'ra o'rtacha yulduzdir. Astronomiyada Yerdan Quyoshgacha bo'lgan masofa aniq o'lchanib (149,6 million kilometr), u uzunlik o'lchovining birligi sifatida qabul qilingan va bir astronomic birlik (1a.b.) deb yuritiladi. Nur bu masofani 8,5 minutda bosib o'tadi. Quyoshning diametri 1 million 400 ming kilometr bo'lib, Yer diametridan tahminan 110 marta katta. Quyosh sirtining temperaturasi Selsiy shkalasida 5800 gradus atrofida bo'lib, bu temperature markazga tomon ortib boradi va uning yadrosida Quyosh taxminana 16 million gradusga yetadi. Quyoshning 1

sekund davomida chiqarayotgan energiyasi  $4 \cdot 10^{26}$  J bo'lib, 12 ming trillion tonna ko'mirni yoqishda ajraladigan energiya miqdoriga tengdir. Uning Yerga tushayotgan energiyasining miqdori ham kam bo'lmasa-da, biroq u Quyoshdan ajralayotgan butun energiyaning atigi 2 milliarddan bir qismini tashkil qiladi.

Quyoshning markazida bosim 200 milliard atmosferaga yetadi. Uning o'rtacha zichligi 1,41 g/sm<sup>3</sup>. Quyosh ulkan temperaturali olov shardan iborat bo'lib, uni tashkil qilgan gaz oddiy gazlarga nisbatan o'z xususiyatlarini bilan keskin farq qiladi va *plazma* deb yuritiladi. Plazma holatida modda ionlashgan atomlar va erkin elektronlardan iborat bo'ladi. Bunday qaynoq yuqori temperaturali zich plazma tutash spektrni beradi. Biroq bunday nurlanish Quyoshning atmosfera qatlidan o'tishida, turli atomlar tomonidan mos to'lqin uzunliklardagi nurlarning yutilishi tufayli Quyosh spektri chiziqli yutilish spektriga aylanadi (1.2-rasm).

1938 yilda G.Bete (AQSH) Quyoshning energiya manbai yadro reaksiyasi degan fikrni aytdi. Quyosh markazida 20 mln. gradus va uning zichligi 115 g/sm<sup>3</sup> bo'lgan moddadan yadro vodorod (H) o'zaro uglerod bilan ta'sirlashibazot izatopi va gamma-kvantga aylanadi:



Gamma-kvantning bir qism energiyasi nurlanadi. Azotning beqaror atomi 14 min. dan so'ng og'ir uglerod izotopiga aylanadi. Bunda bir proton neytronga aylanadi, positron va neytrino chiqaradi:




Reaksiya natijasida uglerodning og'ir izotopi vodorod va ikkinchi protonni yutib azot va gamma - kvantga hosilqiladi:




O'z navbatida azot, bir protonni yutib, yengil kislород va gamma -kvantga aylanadi:



Yengil kislород izotopi azotga aylanadi:




Oxirida



To'rt vodorod yadrosini yo'qolishi natijasida geliy yadrosi hosil bo'ladi va bu holda  $C_6^{12}$  bu reaksiyada faqat katalizator vazifasini bajaradi. 1 kg vodorod geliyga aylanishida ajralib chiqan energiya, 15 000 tonna tosh ko'mir yonganda ajralib chiqan energiyaga ekvivalentdir. Termoyadro reaksiyasi proton-proton siklda ham borishi mumkin, ikki vodorod yadrosi qo'shilishi natijasida deyton – og'ir vodorod yadrosiga aylanadi, positron va gamma-kvant hosil bo'ladi:





1.3-rasm. Quyosh spektri. Yuqorida: qulaylik uchun qismlarga ajratilgan; pastda: uning turli kinyoviy elementlarga mosligi.

Deyton bilan vodorod reaksiyasi geliy va gamma-kvant hosil qiladi:



Reaksiya natijada yengil geliy hosil bo'ladi, geliy geliy bilan ta'sir qilganda beriliy va gamma -kvant hosil bo'ladi:



Beriliy bilan elektron birikishi nartijasida litiy va gamma-kvant hosil bo'ladi:



Litiy bilan vodorod ta'sirlashganda ikkita geliy atomi hosil bo'ladi:



Agar C-N sikli bo'yicha termoyadro reaksiyasi borsa reaksiya yadro markazida bo'ladi, proton-proton sikli bo'yicha borsa termoyadro reaksiya qolgan hamma qismlarda bo'lishi mumkin. Quyoshning aniqlangan yoshi salkam 5 miliard yilni ko'rsatadi. Bunday katta davr davomida tinimsiz nurlanayotgan Quyoshning yo'qotadigan energiyasi qanday fizikjarayon hisobiga to'latib, turilishi muommosini hal qilish, asriy orzulardan hisoblanadi. Bu to'g'rida turli fikrlar, o'nlab ilmiy gipotezalar tug'ildi. Biroq ko'pi o'zini oqlamadi. 1938-1939 yillarda A.Edington, K. Veyszekker va G.Byoteler yoritgichlarning energiya manbayi bo'la oladigan yadroviy reaksiyalarning nazariy hisob -kitobi ishlab chiqildi.

Quyoshning markaziy qismi- yadro, uning ichki qismida termoyadro reaksiyasi sodir bo'ladi. Yadroning radiusi 0,3 Quyosh radiysiga teng. Nurlanish energiyasini uzatuvchi zona-u 0,3 dan 0,9 gacha Quyosh radiusiga teng. Bu zonaning o'rtacha temperaturasi 5 mln gradusdan kamroq, bosimi -10 mlard atmosfera. Bunday holda yadro reaksiyasi bo'lmaydi. Bu zona yadroda ajralgan nurlanishni uzatadi halos.

**2-savol bo'yicha dars maqsadi:** Magistrlarga issiqlik nurlanish haqida ma'lumot berish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

1.2.1.Issiqlik nurlanishi haqida malumot bera oladi

**2-asosiy savolning bayoni:**

Nurlanish issiqligi yoki nurning issiqligi tushunchasi o'zida elektromagnit nurlanishning bir shaklini ifodalaydi. Elektromagnit to'lqin - vaqt bo'yicha davriy o'zgaruvchi elektromagnit signal bo'lib, u elektr va magnit maydon tashkil etuvchisidan tashkil topadi. Uni tarqalishi uchun vaqt kerak bo'ladi, uning kuchlanish vektori tarqalishda elektr maydon va magnit induktsiya yo'naliishiga parallel bo'ladi.

Elektromagnit to'lqinlarining tarqalish tezligi Maksvell nazariyasidan aniqlanishi mumkin:

$$c = \frac{1}{\sqrt{\epsilon_0 \mu_0}}, \quad (1.14)$$

bu erda  $\epsilon_0$  – elektr maydon doimiysi,  $\mu_0$  – magnit maydon doimiysi. Shuni takidlash lozimki, bu yerda tezlik, masalan suvdagi to'lqin tezligi yoki tovush to'lqin tezligi kabi chastotaga bog'liq emas. Amalda elektromagnit to'lqinlarini har qanday to'lqin uzunligida uyg'otish va uni kuzatish mumkin. 1.1.-jadvaldan foydalanib turli to'lqin uzunligi uchun issiqlik nurlanishining xarakterini aniqlash mumkin.

1.1-jadval. Nurlanish hosil qiluvchi molekulyar va atom hodisalari

To'lqin uzunligi, m	Nurlanishning xarakteri	Hodisa
$10^{-5}$ dan kichik	Radioaktiv	Radioaktiv atom yadrosini uyg'ongan holatga o'tishi
$10^{-5}-10^{-3}$	Rentgent	Atomdag'i ichki elektronning trayektoriyasini o'zgarishi
$10^{-3}-0,4$	Ultrabinafsha	Atomdag'i tashqi elektronning trayektoriyasini o'zgarishi
0,4-0,7	Ko'rinvchi nurlar	Atomdag'i tashqi elektronning trayektoriyasini o'zgarishi
$0,7-10^2$	Infraqizil	Molekulaning tebranishlar chastotasini va aylanish tezligini o'zgarishi

Elektromagnit to'lqinni shakillanishi nuqtai nazaridan qaraganda juda muhim bo'lgan narsa, nurlanish tezlanuvchan zaryad hosil qiladi va zaryadning tezlanishida energiya magnit maydon o'zgarishiga sarflanadi.

Jismarning temperaturalarini oshirish natijasida bo'ladigan nur sochishi issiqlik nurlanishi deyiladi va bu tabiatda keng tarqalgandir. Jismarni turli xil usullar bilan yorug'lik nurini chiqarishga majbur etish mumkin. Tabiatda bo'ladigan elektr, magnit hodisalarning eng keng tarqalgan turi issiqlik nurlanishidir. Jismarning temperaturasini oshirsak, jismdag'i elektr zaryadlarining (elektron, proton, ionlar) tebranma harakati ortadi, avvalo qizaradi, temperaturasi pasaytirib borgan sari aksincha, teskari bo'ladi. Temperatura pasaya borgan sari jismni yutgan to'lqin uzunligi orta boradi.

Jismlarni nur chiqarish temperaturasi absolyut noldan farq qiladigan istalgan temperaturadagi barcha jismlarga xosdir. Har qanday jism nurlanishi bilan birga boshqa atrofdagi jismlar chiqarayotgan nur energiyasini bir qismini yutadi va yutilgan nur hisobiga jismlar isiydi.

Jismlar nur chiqarish yo'li bilan energiyasini yo'qotib, nur yutish natijasida energiya olib issiqlik muvozanati vujudga keladi. Jismlarni nur chiqarish va nur yutish qobiliyatlarini miqdoriy baholash uchun quyidagi xarakteristikalar kiritiladi. Jismni to'la nur chiqarish qobiliyatini  $-E$ . Bu jism sirtini birlik yuzidan 1 sekundda chiqariladigan energiya kattaligidir. Jismni to'la nur yutish qobiliyatini  $-A$ . Bu jismning yutgan nuriy energiyasining shu jismga to'shayotgan hamma nurlar energiyasiga nisbatidan iboratdir. U o'lchovsiz kattalikdir. Tajriba ko'rsatadiki, jismlarning chiqargan nur energiyasini miqdori turli xil to'lqin uzunliklari uchun turlicha bo'ladi. Shuning uchun spektral nur chiqarish va spektral nur yutish qobiliyati degan tushuncha kiritiladi. Jismlarni spektral nur chiqarish qobiliyati  $-E_\lambda$  to'lqin uzunligini tor intervali  $\lambda - \frac{\Delta\lambda}{2}$ , dan  $\lambda + \frac{\Delta\lambda}{2}$  gacha bo'lgan oraliqqa aytiladi. Jismlarning nur yutish qobiliyati  $- A_\lambda$ . Barcha real jismlarni nur yutish qibiliyati 1 dan kichik bo'ladi. Masalan: spektrning ko'rindigan qismida alyuminiy 0,1; mis 0,5; suv 0,67 nur yutish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'ziga tushuvchi hamma nur energiyasini har qanday temperaturada butunlay yutadigan jismni absolyut qora jism deyiladi  $A_\lambda=1$ . Qora kuya absolyut qora jismga misol bo'la oladi va uning qiymati  $A_\lambda=0,95$ . Absolyut qora jismga ichki sirti qoraytirilgan va devorida kichik teshigi bor, berk dumaloq jismni misol qilib olish mumkin. Jismlarni nurlanish muvozanati nur chiqarish va nur yutish qobiliyatlarini mos ravishda  $E'$ ,  $E''$  va  $A'$ ,  $A''$  orqali belgilasak, birinchi jism yuza birligidan 1 sekunda ikkinchi jismga qaraganda n marta ko'p energiya nurlanadi.

$$E' = nE'' \quad (1.12)$$

Bu vaqtida birinchi jism 2-chi jismga nisbatan n marta ko'p energiya yutishi kerak.

$$A' = nA'' . \quad (1.13)$$

Keyingi ikki tenglamani nisbatidan foydalansak,

$$E'/A' = E''/A'' \quad (1.14)$$

Agar izolyatsiyalangan sistema nur chiqarish qibiliyatları  $E'$ ,  $E''$ ,  $E'''$ , va nur yutish qibiliyati  $A'$ ,  $A''$ ,  $A'''$ , o'lган jismlardan iborat bo'lsa, bu jismlardan birtasi absolyut qora jism bo'lsa, u vaqtida

$$\frac{E'}{A'} = \frac{E''}{A''} = \frac{E'''}{A'''} = \dots \mathcal{E} . \quad (1.15)$$

$\mathcal{E}$  - absolyut qora jismning nur chiqarish qibiliyati.

Agar jism biror to'lqinni uzunligini yutmasa, u holda bu jism o'sha to'lqin uzunligida nur chiqarmaydi  $E_\lambda = A_\lambda \cdot \mathcal{E}_\lambda$ ,  $A_\lambda=0$ ;  $E_\lambda=1$ . Agar jismning nur yutish qibiliyati  $A$  va absolyut qora jismni nur chiqarish qibiliyati  $\mathcal{E}$  ma'lum bo'lsa, (1.14) formuladan uning nur chiqarish qibiliyatini aniqlashga imkon beradi.

Asolyut qora jismning nazariy jihatdan tushuntirish fizikada juda katta ahamiyatga ega bo'lib, u energiya kvanti tushunchasini kashf etilishiga sababchi

bo‘ldi.  $f(v, T)$  funksiyaning ko‘rinishini nazariy jihatdan keltirib chiqarish uchun sarf bo‘lgan mehnatlar uzoq vaqt masalani umumiyligini yechimini bera olmadi. 1879 yili avstriyalik fizik Stefan tajriba natijalarini tahlil qilib ko‘rib, istalgan jismning energiyaviy yorituvchanligi absolyut haroratning to‘rtinchini darajasiga mutanosib degan fikrga keldi.

Absolyut qora jismning nurlanish maksimumi  $T=1259^0$  K da  $\lambda_{\max}$  infraqizil nurlanishga to‘g’ri keladi. Jismning to‘la nur chiqarish qobiliyati- $\varepsilon$  ning temperaturaga bog’liqligi Stefan –Boltsman qonunini ifodalaydi. Bu qonun ta’rifi: absolyut qora jismning to‘la nur chiqarish qobiliyati absolyut temperaturasining to‘rtinchini darajasiga proportionaldir.

$$\varepsilon = \sigma T^4, \quad (1.16)$$

$$\varepsilon(v, T) = \int_0^{\infty} \varepsilon(v, T) dv = \sigma T^4. \quad (1.17)$$

$\varepsilon(v, T)$  -absolyut qora jism uchun nur sochish oqim zichligi, uning birligi  $[\varepsilon]$  –  $J/m^2 s$ . Bu yerda  $\sigma$  - Stefan –Boltsman doimiysi.  $\sigma = 5,67 \cdot 10^{-8} Vt m^{-2} gr^{-4}$ . T-absolyut harorat

Issiqlik nurlanishini hosil bo‘lishi, jismlardagi atomlar issiqlik ta’siri ostida tezroq harakatlanadilar, qattiq materiallarda esa muvozanat holatga nisbatan tezroq tebranadilar. Bunda harakatlanuvchi atomlar to‘qnashadilar. Elastik bo‘lmagan to‘qnashishlar natijasida ichki energiya bir yoki ikki atomda ham ortadi va harakat energiyasi kamayadi. Imkoniyatlardan biri ortib boruvchi ichki energiyani – elektromagnit to‘lqin shaklida nur chiqarishdir. Nurlanish vaqtida atomdagagi elektron qobig’i mikroskopik antena kabi tebranadi. Elektromagnit nurlanish boshqa atomni uyg’otadi yoki jismni tashlab chiqib ketadi; bu issiqlik nurlanishidir. Atomlar har qanday temperaturada harakatlanadi, shunga ko‘ra hamma jismlar har qanday temperaturada issiqlik chiqaradi. Elektromagnit to‘lqin energiyasi, ya’ni nurlanish kuchi, berilgan temperaturada to‘lqin uzunligiga bog’liq bo‘ladi. Chiqish energiyasi xarakterli  $\lambda_i$  to‘lqin uzunligida eng katta bo‘ladi, bunda egri shakl “energiya-to‘lqin uzunlik” ideal holda jismning nurlanishi faqat temperaturaga bog’liq bo‘ladi. Chiqaruvchi energiyaning maksimal to‘lqin uzunligi, mos ravishda quyidagi munosabat bilan ifodalanadi

$$\lambda_i = \frac{b}{T}, \quad (1.18)$$

b-materialga bog’liq bo‘lmagan doimiy,  $0,2884 \cdot 10^{-2} m/K$ . Bu Vin qonuni deb ataladi.

1893 yil nemis fizigi Vin tomonidan yaratilgan to‘lqin uzunligi  $\lambda_{\max}$  temperaturaga bog’liqligi Vin qonuni bilan umumiyligini quyidagicha ifodalash mumkinifodalanadi.

$$f(v, T) = v^2 F\left(\frac{v}{T}\right), \quad (1.19)$$

Bu yerda F-chastotaning temperaturaga nisbatining noma’lum funksiyasi. Grafikdan Vin qonuni izohlaylik buning uchun, ko‘mirning turli temperaturalarda nurlanish spektridagi energiya taqsimoti olamiz. Grafikdan temperaturani ortishi

bilan nur chiqarish qobiliyati orta borishinni ko'rish mumkin.  $\lambda_{\max}$  to'lqin uzunligi esa kamayadi, taqsimot egri chiziqni maksimumi chapga siljiydi.

Chiquvchi to'lqinlarning alohida belgisi interferentsiya hodisasi, qutublanish qonuniyatları, o'tish va qaytish hamma haqiqiy elektromagnit to'lqinlar spektriga hamda issiqlik nurlanishi o'rini. Nurlanish energiyasining xarakterli xususiyati, boshqa asosiy issiqlik uzatish turlaridan farqi, bu yerda oraliq uzatuvchi moddaning yo'qligidir, aksincha, bo'shliqda to'lqin tarqalishi maksimal bo'ladi. Jismning birlik sirtidan o'tuvchi energiya zichligi  $q_e$  ni aniqlashda, energiya oqimlarining alohida to'lqin uzunligi yig'indisidan foydalanish mumkin:

$$q_e = \int_0^{\infty} I_e d\lambda, \quad (1.20)$$

$I_e = I_e(\lambda, t)$  to'liq oqimning energiyasi temperaturaga bog'liq bo'ladi:

$$q_e = q_e(T). \quad (1.21)$$

Tushuvchi nurlanish materialda yutilishi yoki sochilishi mumkin, nurlanishning xarakteriga bog'liq holda materialdan o'tishi ham mumkin. Jism  $Q_0$  hamma tushuvchi energiyani yutsa, uni "absolyut qora jism" deb ataladi, uning absorbtion hossasi  $Q_0 = Q_a$

$$a = \frac{Q_a}{Q_0} = 1. \quad (1.22)$$

Plank qonuniga ko'ra absolyut qora jismning spektral nurlanish intensivligi,  $\text{W}/(\text{M}^2 \cdot \text{m})$

$$I_e = \frac{c_1 \lambda^{-5}}{e^{c_2/T} - 1}. \quad (1.23)$$

Bu yerda  $c_1 = 2\pi c^2 h = 3,73 \cdot 10^{-16} \text{W} \cdot \text{m}^2$ ;  $c_2 = ch/k = 1,44 \cdot 10^{-2} \text{m} \cdot \text{J/K}$ ;  $k = 1,3804 \cdot 10^{-23} \text{J/K}$  Bol'tsman doimiysi;  $c = 2,9979 \cdot 10^8 \text{ m/s}$  -yorug'likning bo'shliqdagi tarqalish tezligi;  $h = 0,663 \cdot 10^{-33} \text{J} \cdot \text{s}$ -Plankning doimiysi yoki kvant ta'siri deyiladi..

Absolyut qora jismning spektral nurlanish intensivligi taqsimotini to'lqin uzunligiga bog'lanishi turli T temperaturalardagi qiymatlari 1.1-rasmida berilgan. Absolyut qora jismning modeli, berk holatda devorda kichik tirkish bo'lган uchun juda yaxshi mos keladi. Bu nurlanish kichik tirkish orqali o'tganda, devordan qayta qaytganda katta ehtimollik bilan to'liq yutiladi. Real materiallar orasidan absolyut qora jismlarga mos keladigani kuchli bo'laklangan, lekin yupqa nozik sirtli tuzilmalardan tashkil topgan jismlar kiradi. Vin qonuni orqali quyoshning temperaturasini ham aniqlash mumkin. Quyosh nurlanishining maksimum energiyasi to'lqin uzunligi  $\lambda_{\max} = 0,47 \text{ mkm}$  ga teng.

$$T = \frac{b}{\lambda_{\max}^4} = \frac{0,289}{0,47 \cdot 10^{-4}} = 6160K.$$

Demak, quyosh sirti harorati  $6160^0\text{K}$  ga teng ekan. Stefan-Boltsman va Vin siljish qonunlari absolyut qora jism nurlanishining xususiy qonunlaridir. Ular turli temperaturalarda energiyani to'lqin uzunliklari bo'yicha taqsimlanishining manzarasini bermaydi. D.U.Reley kynroq D.D.Jins klassik stftistik fizirfsining teng taqsimlanish teoremasiga asoslandi va quydag'i formulani taklif qildi.

$$E_v(T) = \frac{8\pi\nu^2}{c^3} kT, \quad (1.24)$$

(1.24) formulani Reley - Jins formulasi deb ataladi. Reley - Jins formulasi energiyaning erkinlik darajasi bo'yichateng taqsimlanish haqidagi klassik statistik teoremaga asosan  $f(v, T)$  funksiyani aniqladi. Klassik fizika doirasida ko'p urinishlar bo'lgan, faqat 1900 yilga kelib nemis olimi M. Plank tomonidan  $\varepsilon = f(\lambda, T)$  ko'rinishdagi formulani nazariy ravishda olishga tuyassar bo'lgan. Plank g'oyasiga ko'ra elektromagnit to'lqin energiyasi alohida ossilyatorlarda yoki kvantlarda chiqishi va yutilishi mumkin.

Kvant energiyasi kattaligi  $\varepsilon$ ,  $2\varepsilon$ ,  $3\varepsilon$  va ne bo'lishi mumkin. Kvant energiyasi miqdori nurlanish chastotasiga to'g'ri proportsional

$$\varepsilon = h\nu = \frac{hc}{\lambda}, \quad (1.25)$$

bu yerda  $c$  – yorug'likning bo'shliqdagi tezligi,  $\lambda$  – yorug'lik to'lqin uzunligi. Masalan: yashil yorug'lik nuri uchun  $\lambda=0,555$  mkm.  $E = \frac{h \cdot c}{\lambda} = 3,6 \cdot 10^{-19} J$ . Barcha yorug'lik to'lqin uzunliklari uchun kvant energiyasini topish mumkin. Plank issiqlik nurlanish kvant xarakteri to'g'risidagi tasavvurga asoslangan holda absolyut qora jism nur chiqarishini quyidagi ifodasini olgan:

$$\varepsilon_\lambda = \frac{2\pi hc^2}{\lambda^5} \frac{1}{e^{\frac{hc}{\lambda kT}} - 1}, \quad (1.26)$$

$k$  – Boltsman doimiysi,  $T$  – absolyut temperatura,  $e$  – natural logarifmlar asosi. Plank formulasi tajriba natijalariga mos keladi, bu formuladan Stefan-Boltsman va Vin qonunlarini keltirib chiqarish mumkin.

Absorbsiya nuqtai nazaridan qaralganda, odatdagi issiqlik nurlanishida hal qiluvchi qiymatni sirtning nozik sitructurasi belgilaydi. Juda tekis (polirovkalangan) sirtdan issiqlik nurlanishi qaytadi va qaytish darajasi (agar  $Q_r$ - energiya bo'yicha qaytish o'qimi) juda kichik bo'ladi.

$$r = Q_r / Q_0. \quad (1.27)$$

Kulrang qattaq jismlarda issiqlik nurlanishini o'tkazish qobiliyatini

$$t = Q_t / Q_0, \quad (1.28)$$


0 ga teng. Real jismlarda  $a < 0$ . Agar bunda  $a = const$  va  $\lambda = const$  bo'lsa, qo'laniladigan terminologiyaga ko'ra "kulrang jism" deb ataladi. Lekin real jismlarda  $a = a(\lambda, T, \varphi) \neq const$  (1.2-rasm). U holda kulrang jismni nurlanish modeli deb hisoblash mumkin (bunda  $\varphi$  nurlanish yo'nalishini xarakterlovchi burchak). Shunga ko'ra

$$a(\lambda, T, \varphi) + r(\lambda, T, \varphi) + t(\lambda, T, \varphi) = 1 \quad (1.29)$$


Agar "kulrang" jism  $a < 0$  bo'lsa, tushuvchi energiyaning bir qisminigina yutadi, lekin  $Q_a = aQ_0$  bo'lib, issiqlik muvozanatida bo'ladi, ya'ni u shuncha miqdor energiya chiqaradi  $Q_e = aQ_0$ , nisbiy nurlanish koeffitsienti esa

$$\varepsilon = Q_e / Q_0 = a. \quad (1.30)$$

Shu sababli, jismlarning issiqlik muvozanatlani xususiyatidan nurlanish va absorbiyalash issiqligi tengligi (Kirixgof qonuni) kelib chiqadi.



1.4-rasm. Nurlanishning spektral intensivligi egriligi absolyut qora jism ( $a=1$ ), kulrang jism ( $a < 0, a = const$ ) va real jismlar ( $a < 0, a \neq const$ ) uchun (Imre ma'lumotiga asosan) keltirilgan.



1.5-rasm. Absolyut qora jism nurlanishi intensivligining Plank taqsimoti (Imre ma'lumotiga asosan) keltirilgan.

Jismning xarakteristikasining qiymati 1 ga ko'proq taqriban yaqinlashsa, absolyut qora jismga o'xshash bo'ladi,  $\varepsilon$  ni qoralik darajasi deb ataladi.  $a = a(\lambda, T, \varphi)$  bo'lsa,  $\varepsilon = \varepsilon(\lambda, T, \varphi)$  bo'ladi.

$\varepsilon$  ning normal sirtga mos tushuvchi nurlanish qiymatlari ( $\varphi = 0$ ) turli temperaturalarda 1.2-jadvalda berilgan.

1.2-jadval. Normal sirtga tushayotgan nurlanishning turli materiallarda qoralik darajasi

Material	Temperatura $T, {}^\circ\text{C}$	$\varepsilon$ ning qoralik darajasi
1.Alyuminiy:		
shlefovka qilingan	225-575	0,030-0,057
g'adir-budir	26	0,055
60°C temperaturada oksidlangan	200-600	0,11-0,19
volframli ip	3300	0,39
2.Temir:		
quylgan	925-1115	0,87-0,95

tekis oksidlangan	115-525	0,78-0,82
shlefovka qilingan	425-1020	0,242
3.Po'lat:		
varaqli shlifovka qilingan	940-1100	0,52-0,61
varaqli polirovka qilingan oksid bilan	25	0,82
oksidlangan,g'adir-budir	40-370	0,94-0,97
4.Cho'yan:		
eritilgan	1300-1400	0,29
qayta ishlangan	830-990	0,6-0,7
polirovka qilingan	200	0,21
5.Latun:		
prokatli	22	0,06
varaqli, xiralashtirilgan	50-350	0,22
polirovkalangan	245-375	0,028-0,37
6.Mis:		
Elektrolitik shlifovka	80-115	0,018-0,023
yalttilatilgan	22	0,072
600°C temperaturada oksidlangan	200-600	0,57-0,87
eritilgan	1075-1275	0,16-0,13
7.Qo'rg'oshin:		
toza oksidlanmagan	125-225	0,057-0,075
kulrang oksidlangan	25	0,281
200°C temperaturada oksidlangan	200	0,63
8. Kumush toza, shlifovka qilingan	225-625	0,0198-0,035
Oltin polirovka qilingan	225-625	0,018-0,035
9. Platina:		
toza, shlifovka qilingan varaq	225-625	0,054-0,104
ip	25-1230	0,036-0,192
10. Simob, juda toza	0-100	0,09-0,053
Rux :		
shlifovka qilingan tovar ko'rinishida	225-325	0,045-0,053
400°C temperaturada oksidlangan	400	0,11
oksidlangan po'lat varaqla polirovka qilingan	28	0,228
oksidlangan po'lat varaqla kulrang polirovka qilingan	24	0,226
11. Qalay po'lat varaqla polirovka qilingan	25	0,043-0,064
12. Molibdenli ip	725-2600	0,096-0,292
13. Nikel:		
toza shlefovka qilingan	225-375	0,07-0,087
600°C temperaturada oksidlangan	200-600	0,37-0,48
nixrom	125-1034	0,64-0,76
14.suv	0-100	0,95-0,963
15.Abest	24-374	0,93-0,96
16.Gips	20	0,906
17. Dub yog'ochi:		
o'tkirlangan	20	0,906
qayta ishlanmagan sirt	20-100	0,92-0,94
18. Kvarts eritilgan g'adir -budir	20	0,932
19. G'isht:		
qizil g'adir -budir	20	0,93
ko'zli shamotli	1100	0,75

yong'inga qarshi turuvchi	-	0,8-0,9
kulrang qog'oz (matovaya)	20-100	0,92-0,94
20. Suvoq g'adir-budir ohakli	10-18	0,91
21. Mramor kulrang shlifovka qilingan	22	0,931
22. Lak:		
23. Oq	40-95	0.8-0.95
24. Qora yaltiraydi	25	0.875
Qora yaltiramaydi	40-95	0.96-0.98
25. Rezina:		
Varaqli tekis	23	0.945
Engil kulrang g'adir-budir	24	0.859
26. Shisha tekis	22	0.937
27. Rubroid	21	0.910
28. Bitumlangan qog'oz	20	0.8-0.9
29. Ko'mir tozalangan, 0.9% zola tarkibli	125-625	0.81-0.79
30. Farfor emallangan	22	0.924
31. Oq emallangan po'lat varaqlar	19	0.897
32. Maslyanoy kraska turli rangda	100	0.92-0.96
33. Sham	95-270	0.952
34. Qora matovoy	75-145	0.91
35. Qora yaltiroq po'latli	21	0.821
36. Alyuminli kraska	10	0.27-0.67

### Muhokama uchun savollar

1. Fotovol'taika qanday fan?
2. Quyosh energiyasining fizik obektlari deyilganda nimalar tushiniladi?
3. Foton energiyasi deyilganda nimalar tushiniladi?
4. Yer sirtida quyosh nurlanishi.
5. "Fotovol'taika" fanini o'qitishdan maqsad nima?
6. Nima sababdan "Fotovol'taika" fanining muommolari hozirgi vaqtda dolzarb bo'lib hisoblanadi? Sababini izohlang.

### Adabiyotlar

1. Sims R.E.H. Renewable energy: a response to climate change // Solar Energy. 2004. Vol. 76. P. 9-17.
2. Sen Z. Solar energy in progress and future research trends // Progress in Energy & Combustion Science. 2004. Vol. 30. P. 367-416.
3. Gremenok V.F. Thin film solar cells based on Cu(In,Ga)Se2 // Proceedings of the VI International Youth Environmental Forum "ECOBALTICA'2006", Saint-Petersburg, 27-29 June 2006 / SPbSPU; editors:M. Fiodorov [et al]. St.-Petersburg, 2006. P. 24-28.
4. McNelis B. The photovoltaic business: manufactures and markets // Series on Photoconversion of Solar Energy. 2001. Vol. 1. P. 713-739.
5. Hamakawa Y. Solar PV energy conversion and the 21st century's civilization // Solar Energy Materials and Solar Cells. Vol. 74. 2002. P. 13-22.

## 2-ma’ruza. Yarim o’tkazgichlar fizikasi

### Asosiy savollar:

2.1. Yarimo’tkazgichlar fizikasining asosiy tushunchalari. Yarim o’tkazgichlarning optik xossalari.

2.2. Yarimo’tkazgich materiallar va ularning tuzilishi. Yarim o’tkazgichlarning yoruglikning yutishi va sochilishi. O’tkazuvchanlik.

**Tayanch so’z va iboralar:** metallar, yarimo’kazgichlar, dielektriklar, elektr o’tkazuvchanligi, temperatura, yorug’lik, optik xossalari, kvant nazariyasi, atom, molekula, kristall, spektroskopiya, texnika, energetika, materiya, to’lqin, zarra, dualizm, elektron, vakuum, energiya, massa, harakat miqdori.

**Darsning maqsadi:** Magistrlarga quyosh elementlarining optikasi va spektraskopiya fanining asosiy tushuncha va qonunlari haqida ma’lumot berish.

### Idetiv o’quv maqsadlari:

2.1. Yarimo’tkazgichlar fizikasi haqida ma’lumot bera oladi.

2.2. Yarimo’tkazgichlar fizikasining asosiy tushunchalarini izohlay oladi.

2.3. Yarim o’tkazgichlarning xossalarni biladi: metallar, yarimo’kazgichlar, dielektriklar, modda, jism va energiya haqida ma’lumot bera oladi.

### 1-asosiy savolning bayoni: Yarim o’tkazgichlarning xossalari

*Ushbu mavzuda yarim o’tkazgichlarning optik xossalari qarab chiqilgan.*

**Yarim o’tkazgichlarda xususiy o’tkazuvchanlik, aralashmali o’tkazuvchanlik.**

Tabiatda shunday moddalar borki, ularning birlik hajmda elektronlar soni o’tkazgichlarga nisbatan kam, lekin izolyator (dielektrik)larga nisbatan ko‘p. Shu sababli bunday moddalarni **yarimo’tkazgichlar** deb ataldi. Yarimo’tkazgich moddalarda temperatura ortishi bilan ularning solishtirma qarshiligi kamayadi. Juda past temperaturalarda yarimo’tkazgich modda dielektrik bo‘lib qoladi. Metallarga yorug’lik ta’sir etganda ularning elektr o’tkazuvchanligi deyarli o‘zgarmaydi. Yarimo’tkazgichga yorug’lik tushirilganda ularning elektr o’tkazuvchanligi ortadi.

Shunday qilib, yarimo’tkazgichlarning asosiy farqli tomonlariga elektr o’tkazish qobiliyatiga ko‘ra metallar bilan dielektriklarning oraliq holatini egallaydi;

b) isitilganda va yorug’lik tushirilganda solishtirma qarshiligi kamayadi.

Yarimo’tkazgich xususiyatiga ega bo‘lgan elementlarga germaniy, kremniy, tellur, selen va h.k.lar kiradi. Sizga kimyo fanidan ma’lumki, kimyoviy elementlar atom tuzilishi va xususiyatiga ko‘ra, D. I. Mendeleyevning davriy jadvalida yarimo’tkazgich elementlar asosan III, IV va V guruhlarda joylashgan.

### Yarimo’tkazgichlarning tuzilishi. Xususiy o’tkazuvchanlik.

Yarimo’tkazgichlarda elektr tokining tabiatini tushunish uchun, ularning tuzilishini bilish kerak. Buning uchun tarkibida hech qanday chet moddalar bo‘lmagan toza kremniy kristalini qaraylik. Siz atom tuzilishi bilan tanishgansiz. Unda atomda elektronlar qobiq-qobiq bo‘lib joylashishini ham bilib olgansiz.


Kremniy atomida elektronlar qavatlar bo'yicha joylashganda uning eng tashqi qobig'ida to'rtta elektroni joylashadi. Qo'shni atomlar bir-birini shu elektronlar vositasida tutib turadi. Har bir atom qo'shni atom bilan o'zining bitta elektroni orqali bog'lanadi. Natijada ikkita atom o'zaro ikkita elektron orqali bog'lanadi. Bunday bog'lanishni **kovalent bog'lanish** deyiladi. Kovalent bog'lanishda qatnashayotgan elektronlarni **valent elektronlar** deb ham yuritiladi. Demak, valent elektronlar butun kristall atomlariga tegishli bo'ladi.

**Elektron o'tkazuvchanlik.** Past temperaturalarda juft elektronlar hosil qilgan bog'lanish kuchli bo'lib, uzilmaydi. Shu sababli past temperaturalarda kremniy elektr tokini o'tkazmaydi. Temperatura ko'tarilganda valent elektronlarning kinetik energiyasi ortadi. Ayrim bog'lanishlar uzila boshlaydi. Ulardan ayrimlari borib-kelib, yurgan yo'lidan chiqib, metalldagi kabi erkin elektronga aylanadi. Mazkur elektronlar elektr maydoni ta'sirida yarimo'tkazgich bo'ylab ko'chadi va elektr tokini hosil qiladi (2.1-rasm).

Erkin elektronlarning ko'chishi tufayli yarimo'tkazgichda tok hosil bo'lishiga **elektron o'tkazuvchanlik** yoki qisqacha **n-turdagi o'tkazuvchanlik** (lotin. *negativus* – manfi y) deyiladi.

**Kovakli o'tkazuvchanlik.** Kovalent bog'lanishda qatnashgan elektron chiqib ketgan joyda **kovak** hosil bo'ladi. Neytral atomdan manfiy zaryadli chiqib ketgan joy musbat zaryad ega bo'ladi.

Bo'sh kovakni kovalent bog'lanishdagi boshqa elektron kelib berkitadi. Lekin endi kovak boshqa joyda paydo bo'ladi. Shunday qilib, elektronning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishida, kovaklarning ham nisbatan ko'chishi ro'y beradi.



2.1-rasm.

Elektr maydoni bo'lmaganda elektronlarning va shunga mos kovaklarning ko'chishi tartibsiz bo'ladi. Elektr maydoni qo'yilganda erkin elektronlar bir tomonga, kovaklar ikkinchi tomonga ko'chadi. Xuddi shunday yarim o'tkazich boshida hosil bo'lgan kovakka qo'shni atomdan elektronning sakrab o'tishida musbat zaryadli kovak o'tkazgichning oxiri tomon siljiydi (2.2-rasm). Bunday o'tkazuvchanlikni yarimo'tkazgichlarning **kovakli o'tkazuvchanligi** yoki qisqacha **p-turdagi o'tkazuvchanlik** (lotin. *positivus* – musbat) deyiladi.




## 2.2-rasm.

Shunday qilib, sof (hech qanday aralashmalarsiz) yarimo‘tkazgichlarda erkin elektronlarning harakati bilan bog‘liq elektron o‘tkazuvchanlik, kovaklar harakati bilan bog‘liq kovakli o‘tkazuvchanlik bo‘ladi. Aralashmalarsiz, sof yarimo‘tkazgichdagi o‘tkazuvchanlikni **xususiy o‘tkazuvchanlik** deyiladi. Bunda mazkur moddadagi elektron va kovakli o‘tkazuvchanlik deyarli teng bo‘ladi. Sof yarimo‘tkazgichlarda erkin elektronlar va kovaklar soni kam bo‘lganligidan elektr o‘tkazish qobiliyati kichik bo‘ladi.

**Aralashmali yarimo‘tkazgichlar: donorli aralashmalar.** Endi sof yarimo‘tkazgichli kremniyga ozgina aralashma kiritaylik. Dastlab kremniy atomlari orasiga besh valentli mishyak (As) kiritaylik. Bunda kremniyning to‘rtta kovalent bog‘lanish hosil qiluvchi elektroni o‘rnini mishyakning to‘rtta elektroni egallaydi. Mishyakning beshinchi elektroni bo‘s sh qolib, erkin elektronga aylanadi (2.3 a-rasm).

Natijada erkin elektronlar soni kovaklar sonidan ortiq bo‘ladi. Yarimo‘tkazgichning solishtirma qarshiligi keskin kamayadi. Bunda qo‘shilgan mishyak atomlarining soni yarimo‘tkazgich atomlari sonining o‘n milliondan bir qismini tashkil etganda, erkin elektronlarning konsentratsiyasi ( $1 \text{ sm}^3$  ga to‘g‘ri kelgan elektronlar soni) sof yarimo‘tkazgichnikiga nisbatan ming barobar katta bo‘ladi. Qo‘silganda osongina elektronini beradigan aralashmalarni **donorli aralashmalar** deyiladi. Donorli aralashmalarda asosiy tok tashuvchi zarralar elektronlar bo‘lganligi uchun, ularni **n-turdagi yarimo‘tkazgichlar** deyiladi. Kovaklar bunday yarimo‘tkazgichlarda asosiy bo‘lmagan zaryad tashuvchilarga kiradi.



## 2.3-rasm.

**Akseptorli aralashmalar.** Sof yarimo‘tkazgichli kremniyga indiy moddasini aralashtiraylik. Indiy (In) uch valentli bo‘lganligidan, uning uchta elektroni kremniy atomi bilan kovalent bog‘lanish hosil qiladi. Bunda indiyning qo‘shti atomlar bilan normal holdagi juft elektronli kovalent bog‘lanish hosil qilishi uchun bitta elektron yetmaydi. Natijada kovak hosil bo‘ladi. Kristallga qancha indiy atomi kiritilsa, shuncha kovak hosil bo‘ladi (2.3 b-rasm).

### Muhokama uchun savollar

1. Qanday xususiyatiga ko‘ra ularni yarimo‘tkazgichlar deb nomlashgan?
2. Elektron o‘tkazuvchanlik qanday zarralarning harakati bilan bog‘langan?

3. Elektron bilan kovak uchrashganda qanday hodisa ro'y beradi?
4. Nima sababdan yarimo'tkazgichning qarshiligi unga kiritilgan aralashmagakuchli darajada bog'liq?

5. Akseptor aralashmali yarimo'tkazgichda qanday zaryad tashuvchilar asosiy hisoblanadi?

D.I. Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy sistemasi jadvalini oling. Undan III va V guruhdan aralashma sifatida ishlatsa bo'ladigan elementlarni yozib oling. IV guruhdagi yarimo'tkazgich bilan aralashmali yarimo'tkazgich hosil bo'lish chizmasini chizing.

### **3- ma'ruza. Yarimo'tkazgichlarni legirlash. Asosiy va noasosiy yoki muvozanatli va nomuvozanatli zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi**

#### **Asosiy savollar:**

1. Yarimo'tkazgichlarni legirlash.

2. Asosiy va noasosiy yoki muvozanatli va nomuvozanatli zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi.

**Tayanch so'z va iboralar:** nuqson, kirishma, taqiqlangan zona, kirishmaviy yutilish, akseptor va donor kirishmalar, zonalararo rekombinasiya, mahalliy rekombinasiya, sirtiy rekombinasiya, yopishish markazi, tuzoq, demarkasion sathlar

**Darsning maqsadi:** Magistrlarga yarimo'tkazgichlarni legirlash va asosiy va noasosiy yoki muvozanatli va nomuvozanatli zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi haqida ma'lumot berish.


#### **Idetiv o'quv maqsadlari:**

1.1. Yarimo'tkazgichlarni legirlash haqida ma'lumot haqida ma'lumot bera oladi.

1.2. Yarimo'tkazgichlarning asosiy va noasosiy yoki muvozanatli va nomuvozanatli zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasini izohlay oladi.

#### **1-asosiy savolning bayoni:**

**2. Yarimo'tkazgichlarni legirlash.** Yarimo'tkazgich materiallarni legirlashda mos ravishda yarimo'tkazgichlarga qo'shimchalar kiritish orqali ularning hossalarini o'zgarishini samarali nazorat qoilish tushiniladi. Yillar o'tishi bilan yarimo'tkazgichlarni legirlash bilan bog'liq bo'lgan muommolari bo'yicha bajarilgan ishlar soni ko'payib bormoqda. Ge va Si bilan birga,  $A^{III}B^V$  turdag'i birikmalar ham o'rganilmoqda, birinchi navbatda GaAs, InSb, GaSb lar o'rganilmoqda. Sun'iy olmos,  $A^{II}B^{VI}$ ,  $A^{II}B^{VI}C_2^V$  birikmalar, kremniy karbid, xal'kogenidlar ikkinchi va to'rtinchi D.I.Mendeleev davriy sistemasining gruppa elementlari ustida ishlar olib borilmoqda. Yarimo'tkazgichni legirlash monokristallarni o'stirish jarayonida va epitaksial qatlamlarni eritmalarda, aralashmalarda gaz fazasida o'stirishda qo'laniladi. Legirlashning asosida diffuziya hodisasi va keying yillarda ionli legirlash ko'proq qo'lanilmoqda.



Ras.3.1. Cu(In,Ga)Se<sub>2</sub> da yupqa plenka hosil qilish, bir stadiyali bug'lantirish usulida

Yaimo'tkazgich kristallarida bir qator nuqsonlar bo'lishi mumkin. Yaimo'tkazgichning elektr xossalari boshqarish maqsadida unga *kirishmalar* (tanlangan boshqa atom elementlari) kiritiladi. Bu nuqsonlar (jumladan, kirishmalar) elektronlar uchun yarimo'tkazgichning taqiqlangan zonasida yangi hodisalarni vujudga keltiradi, ular muayyan energiya sathlari va elektronlarni tutib olish kesimlariga ega bo'ladilar (3.1-rasm). Yarimo'tkazgichlarda yorug'likning yutilishi undagi kirishma markazlarini ionlanish yoki uyg'onishga olib kelishi mumkin, bunday yutilish- *kirishmaviy yutilish* deb ataladi. Yarimo'tkazgichlarga kam konsentrasiyali akseptor va donor kirishmalar kiritilganda uning taqiqlangan zonasida diskret sathlar vujudga keladi.

**Nomuvoranat holatdagi o'tkazuvchanlik.** Biror tashqi ta'sir oqibatida yarim o'tkazgichda nomuvoranatiy zaryad tashuvchilarning vujudga kelishi uning o'tkazuvchanligini o'zgartiradi. Umumiylashtirish holda to'la solishtirma elektr o'tkazuvchanlik quyidagi tenglik bilan ifodalanadi:

$$\sigma = \sigma_n + \sigma_p = e(\mu_n n + \mu_p p), \quad (3.1)$$

Bu o'rinda nomuvoranatiy zaryad tashuvchilarning vujudga keltirish sharoiti va darajasi tashuvchilarning harakatchanligini aniqlaydigan omillarga ta'sir qilmaydi va shu sababli harakartchanliklar ( $\mu_n$ ) va ( $\mu_p$ ) o'zining muvozanat sharoitdagi qiymatini saqlaydi, deb hisoblaymiz. U holda

$$n = n_0 + \Delta n, \quad (3.2)$$

$$p = p_0 + \Delta p. \quad (3.3)$$

(3.2) va (3.3) ifodalardan foydalanib, (3.1) ni quyidagicha yozish mumkin:


$$\sigma = e(\mu_n n_0 + \mu_p p_0 + \mu_n \Delta n + \mu_p \Delta p). \quad (3.4)$$

Bundan nomuvoranatiy o'tkazuvchanlik


$$\Delta \sigma = e(\mu_n \Delta n + \mu_p \Delta p), \quad (3.5)$$

kelib chiqadi.  $\Delta n$ ,  $\Delta p$  va  $\Delta \sigma$  kattaliklarga qanday omillar ta'sir qiladi? Bu savolga javob berish uchun yarimo'tkazgichda yorug'lik ta'sirida nomuvoranat o'tkazuvchanlik vujudga keladigan holni qarab chiqaylik. Elektron tomonidan  $\hbar\omega \geq E_i$  energiyali ( $E_i$  – kirishma markazining ionlashish energiyasi), fotonning yutilishi: a) donor kirishma markazi neytral bo'lganida elektronning kirishma sathidan

o'tkazuvchanlik zonasiga o'tishiga; b) neytral akseptor kirishma hamda elektronning V zonadan kirishma sathiga olib keladi (3.2-rasm)



3.2-rasm.Taqiqlangan zonada nuqsonlar hosil qilgan sathlar.



3.3-rasm.Yarimo'tkazgichda kirishma markazlarida yutilish bilan bog'liq bo'lган optik o'tishlar sxemasi. 1,2-ionlashgan akseptor va donor kirishma atomlarida yorug'likning yutilishidagi optik o'tishlar; 3,4- neytral donor va akseptor kirishma atomlarida yorug'likning yutilishidagi optik o'tishlar; 5<sub>a</sub>,5<sub>b</sub>- yorug'likning yutilishi tufayli kirishma donor va akseptor atomlarining asosiy holatdan qo'zg'algan holatga o'tishi.

Kirishmaviy yutilish nazariyasiga muvofiq, fotonlar energiyasining  $\hbar\omega \geq E_D$  sohasi uchun bunday yutilish koeffisienti spektrni quyidagicha ifodalash mumkin:


$$\alpha(\hbar\omega) \sim \frac{N_D}{\hbar\omega} \cdot \frac{(\hbar\omega - E_D)}{[C_0 + (\hbar\omega - E_D)]^4}, \quad (3.6)$$

bundagi  $E_D$ -donor markazining ionlanish energiyasi,  $N_D$ - donor konsentrasiyasi,  $C_0$ -kirishmaviy holatlarning effektiv massasini va Bor radiusini o'z ichiga olgan muayan doimiy kattalik. Kirishmaviy markazlar (masalan Si dagi B, P kirishma) asosiy holatlardan tashqari yana bir qator qo'zg'atilgan holatlarga ega bo'lishi mumkin.  $\hbar\omega < E_i$  energiyali foton elektronni asosiy holatdan ma'lum bir qo'zg'atilgan holatga o'tkazadi. Bunda chiziq-chiziq yutilish spektri kuzatiladi (3.3-rasm). Fotonning energiyasi  $\hbar\omega \geq E_g - E_i$  bo'lganda valent zona bilan ionlangan donor orasida yoki ionlangan akseptor bilan o'tkazuvchalik zonasi orasida optic o'tish yuz berishi mumkin. Hisoblashlarni ko'rsatishicha, ionlangan akseptor -o'tkazuvchanlik zonasi orasida optic o'tish bilan bog'liq yutilish holida yutilish koeffisientini

$$\alpha(\hbar\omega) = A_5 N_A^- (\hbar\omega - E_g + E_A)^{1/2}, \quad (3.7)$$

ko'rinishda ifodalash mumkin, bu yerda  $A_5$ - doimiy,  $N_A^-$  -ionlangan akseptor lar konsentrasiyasi. Yarimo'tkazgichlarda donorlar ham akseptorlar ham mavjud bo'lishi mumkin; buholda qisman, ba'zan esa to'la kompensasiya yuz beradi. Tegishli energiyali fotonlar ta'sirida elektronlar ionlangan akseptorlar dan ionlangan donorlarga o'tishi mumkin. Kichik ionlanish energiyasiga ega kirishma atomlarning

deyarli barchasi uy haroratida issiqlik harakati oqibatida ionlangan bo'ladi. Shuning uchun bunday kirishmalarning yutish spektrini gaqtetarlich past haroratlarda kuzatish mumkin.



3.4-rasm.Bor kiritilgan Si da kirishmaviy yutilish spektri.


## 2-asosiy savolning bayoni:

Pekombinasiya mexanizmlari ikki turli belgi bo'yicha -rekombinasiya jarayonida energiyaning qanday shaklda ajralishi bo'yicha va rekombinasiya aktiga olib keluvchi elektron o'tishlar turlari bo'yicha guruhlanadi.

Elektron o'tishlar turlari bo'yicha rekombinasiya mexanizmlari uch xil bo'ladi:

1. Zonalararo rekombinasiya.
2. Mahalliy (lokal) markazlar (holatlar) orqali rekombinasiya.
3. Sirtiy rekombinasiya.

**Zonalararo rekombinasiya** jarayonida elektron o'tkazuvchanlik zonasidan bevosita valent zonaga o'tadi, bunda u taqiqlangan zona kengligicha yoki undan ortiqroq energiyani qandaydir tarzda uzatadi (3.4, b-rasmdagi 1 o'tish).



3.4-rasm.  $E_e + dE'$ ;  $E_v + dE$  to'plamholatlar orasidagi (a) va har xil rekombinasiya mexanizmlari holatlarida (b) elektron o'tishlar: 1- zonalararo o'tishlar, 1<sub>a,b</sub> - zarbdan ionlanish, 2,2<sub>a</sub>-kirishma orqali o'tishlar, 3-kirishmalararo o'tishlar, 4-eksitoniy rekombinasiya.


Mahalliy (lokal) markazlar (holatlar) orqali rekombinasiyada elektron kovak bilan qo'shilishidan oldan taqiqlangan zonadagi qandaydir mahalliy markaz tomonidan titib olinadi, keyin u valent zonaga o'tib kovak bilan rekombinasiyalashadi (3.4, b-rasmdagi 2-o'tish). Rekombinasiyada ishtirok etgan mahalliy markazlar rekombinasiya markazlari deb ataladi. Kirishmaviy holatlar,

panjaraning o'z nuqtaviy nuqsonlari, dislokasiyalari va boshqalar ana shunday rekombinasiya markazlari bo'ladi.

3.4- rasmdagi 2 va 2a o'tishlar elektron (yoki kovak) erkin bo'lib, kovak (yoki elektron) mahalliyrekombinasiya markazida bog'langan holatda bo'lidan yuz beradigan elektron-kovak rekombinasiyasini ta'svirlaydi. 3 o'tish kirishmalar aro rekombinasiya deb ataladi, u ikki xil –donor va akseptor kirishmalar mavjud bo'lidan amalga oshadi. 4 o'tish eksiton rekombinasiyasi deb ataladi. O'tkazuvchanlik zonasidagi elektron kovak bilan bog'lanib, natijada eksiton hosil bo'ladi( bunda  $E_{eks}$  energiya ajraladi), so'ngra eksitonning elektronni va kovakni kovagi qo'shiladi-eksiton yo'qoladi (bunda  $E-E_{eks}$  energiya ajraladi).

Sayoz energiya sathlarigaega bo'lidan mahalliy markazlar ko'pincha yopishish markazlari vazifasini bajaradi, chunki ular yuqoridagi shartni qanoatlantiradi. Ammo kichik rekombinasion kesimga ega bo'lidan chuqur sathlar ham yopishish markazlari bo'la oladi.

Markaz tutib olgan zaryad tashuvchining issiqlik harakati tufayli ruxsat etilgan zonaga o'tish ehtimolligi rekombinasiyalanish ehtimolligiga teng bo'lidan  $E_{dn}$  va  $E_{dp}$  sathlar elektronlar kovaklar uchun *demarkasion sathlar* deyiladi.  $E_{dn}$  demarkasion sathdan yuqorida va  $E_{dp}$ dan pastda joylashadigan barcha sathlar, mos ravishda, elektronlar va kovaklar uchun yopishish sathlari vazifasini,  $E_{dn}$  va  $E_{dp}$  orasidagi sathlar esa ko'pincha rekombinasion sathlar vazifasini o'taydi (3.5-rasm).



3.5-rasm. Fermi kvazisathlari va demarkasion sathlarning yarim o'tkazgichning taqiqlangan zonasida joylashishi:  $E_{dn}$ -elektronning,  $E_{dp}$ -kovakning demarkasion sathlari,  $F_n, F_p$ - mos ravishda elektron va kovakning Fermi kvazi sathlari.

Bu bo'linish nisbiydir, chunki chuqur sathlar mavjud bo'lidan rekombinasiya sayoz sathlar orqali boradi, ammo uning tezligikichik, zaryad tashuvchilarning yashash vaqt katta bo'ladi. Rekombinasion sathlar bilan bir qatorda yopishish sathlarining mavjud bo'lishi zaryad tashuvchilar o'rtacha yashash vaqtini oshiradi.

Rekombinasiya jarayonida energiya qanday turda ajralishiga qarab rekombinasiya mexanizmlari ikki asosiy turga bo'linadi:

- nurlanishli rekombinasiya;
- nurlanishsiz rekombinasiya.

#### **Muhokama uchun savollar:**

- Kristallarning nomukammalliklarini izohlab bering.
- Kristallarning nomukamalliklari va nuqsonlarida yorug'likning sochilishi qanday yuz beradi?

3. Optik rekombinasiya nima?
4. Optik rekombinasiya qanday turlarga bo'linadi?

### **Adabiyotlar**

1. H.Akramov, S.Zaynobiddinov, F.Teshaboyev "Yarimo'tkazgichlarda fotoelektrik hodisalar". -T.: "O'zbekiston", 1994. -272 b.

2.B.Ф.Греенок, М.С.Тиванов, В.Б.Залесский. Солнечные элементы на основе полупроводниковых материалов. //Международный научный журнал "Альтернативная энергетика и экология" №1(69) 2009.59-115 с.

## **4-ma'ruza. Generatsiya va rekombinatsiya**

### **Asosiy savollar:**

- 1.Nurning yutilishi va yutilish koeffitsienti, yutilish chuqurligi.
- 2.Generatsianing jadalligi, rekombinatsiya turlari, yashash vaqt.
- 3.Diffuziya uzunligi, sirt rekombinatsiyasi.

**Tayanch so'z va iboralar:** termik ionlanish, zona, muvozanatiy zaryad tashuvchilar, rekombinasiya, nuqson, kirishma, taqilangan zona, kirishmaviy yutilish, akseptor va donor kirishmalar, zonalararo rekombinasiya, mahalliy rekombinasiya, yutilish spektri, sochilish va qaytish spektri, sirtiy rekombinasiya, yopishish markazi, tuzoq, demarkasion sathlar

**Darsning maqsadi:** Magistrlarga yarimo'tkazgichlarda nuring yutilishi va yutilish koeffitsienti, yutilish chuqurligi haqida ma'lumot berish.

### **Idetiv o'quv maqsadlari:**

1.1. Yarimo'tkazgichlarda nuring yutilishi va yutilish koeffitsienti, yutilish chuqurligi haqida ma'lumot haqida ma'lumot bera oladi.

1.2. Yarimo'tkazgichlarda generatsianing jadalligi, rekombinatsiya turlari, yashash vaqtini izohlay oladi.

1.3..Diffuziya uzunligi, sirt rekombinatsiyasi haqida ma'lumot haqida ma'lumot bera oladi.

### **1-asosiy savolning bayoni: Yarim o'tkazgichlarda yorug'likning yutishi va sochilishi**

Yarimo'tkazgichlarda temperatura ko'tarilganda bir vaqtida ham zarralarning (atomlar yoki ionlarning) panjara tugunlari atrofida tebranishlari amplitudasi ortadi, ham elektronlarning energiyalari bo'yicha taqsimoti o'zgaradi, termik ionlanish kuchayadi, ya'ni zonalarda erkin elektronlar va kovaklar soni ortadi.

Biror temperaturada termodinamik muvozanat sharoitida yarim o'tkazgichda mavjud bo'lgan erkin zaryad tashuvchilar (elektronlar va kovaklar) *muvozanatiy zaryad tashuvchilar* deyiladi.

Zonalarda erkin zaryad tashuvchilar termik ionlanishdan tashqari ta'sirlar oqibatida (masalan, yorug'lik ta'sirida) ham paydo bo'lishi mumkin. Yorug'lik ta'siri oqibatida zonalarda erkin zaryad tashuvchilar paydo bo'lishi hodisasi ichki *fotoeffekt* deb ataladi.

Yarimo'tkazgichlarda ortiqcha (muvozanatdagi miqdorga nisbatan) zaryad tashuvchilar kontakt (yoki p-n – o'tish) orqali injeksiyalanish hisobiga, kuchli elektr

maydonlar ta'sirida, yuqori energiyali zarralar nurlari ta'siri oqibatida va boshqa sabablar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Bunday elektronlarga energetik to'siqlarni engish uchun zarur bo'lgan energiyani tashqi manba beradi va uni asosan elektronlar jamg'aradi, biroq kristall panjaraning issiqlik energiyasi (temperaturasi) deyarli o'zgarmaydi. Tashqi ta'sir mavjud bo'lganda shu tarzda kristall panjara va elektronlar orasidagi muvozanat buziladi. Shu sababdan yarim o'tkazgichda tashqi ta'sir tufayli vujudga keladigan zaryad tashuvchilarini *nomuvozanatiy zaryad tashuvchilar* deyiladi.

Odatda nomuvozanat zaryad tashuvchilar konsentrasiyasi juda katta bo'lmaydi va ular jamg'argan energiya kristall panjara atomlari (ionlari) issiqlik tebranishlari energiyasiga nisbatan anchagina kichik bo'ladi. Ichki fotoeffektni yuzaga keltiruvchi tashqi ta'sir to'xtaganidan so'ng muayan vaqt mobaynida panjara va elektronlar orasida yana issiqlik muvozanat qaror topadi, bunda nomuvozanatyiy zaryad tashuvchilar tashqi manbadan olingan energiyani panjaraga berib, *rekombinasiyalanib* ketadi. Biroq, panjara va butin kristallning temperaturasi, binobarin, muvozanatiy zaryad tashuvchilarning konsentrasiyasi ozgarmay qoladi. Tashqi ta'sirning mavjud bo'lishi va bo'lmasligi nomuvozanatiy zaryad tashuvchilar konsentrasiyasini o'zgartiradi, ammo muvozanatiy konsentrasiyaga ta'sir qilmayda. Elektronlar va kovaklarning to'la konsentrasiyalari ( $n$ ,  $p$ ) muvozanatiy ( $n_0$ ,  $p_0$ ) va ortiqcha ( $\Delta n$ ,  $\Delta p$ ) kontsentrasiyalar yig'indisiga teng bo'ladi:

$$n = n_0 + \Delta n, \quad (4.1)$$

$$p = p_0 + \Delta p. \quad (4.2)$$

$\Delta E$  generatsiyalash energiyasi kristall panjaradagi kovalent bog'lanishlarni uzishga sarf bo'ladigan va oqibatda erkin zaryad tashuvchilar jufti yuzaga keladigan jarayon xususiy *generatsiyalash jarayoni* deb ataladi.

Bu jarayonda yarim o'tkazgichning taqiqlangan zonasini energiyasiga teng yoki undan kattaroq energiya sarflashi zarur. Agar generatsiyalash jarayoni oqibatida tegishli zonada kirishmaviy markaz bilan bog'langan bir ishorali zaryad tashuvchilar paydo bo'lsa, bu jarayon kirishmaviy generatsiyalash jarayoni deb ataladi. Xususiy va kirishmaviy generatsiyalash jarayonlari muvozanat sharoitida ham, mivozanatsiz sharoitda ham yuz berisi mumkin.

Moddalarning xossalari uning qanday molekulalardan tuzilganligiga va bu molekulalar o'zaro qanday joylashganligiga bog'liq. Fizika, ximiya va biologiyadagi ko'pgina fundamental masalalarni hal qilishda moddadagi molekulalarning miqdorini, ularning tuzilishini va boshqa xossalarni keng temperatura, bosim va konsentratsiya intervalida, hamda turli agregatlarda bilish talab etiladi. Bunday talablarga javob bera oladigan universal metodlardan biri molekulyar spektroskopiyadir. Molekulyar spektroskopiya elektromagnit to'lqinlarning modda bilan o'zaro ta'siri natijasida moddalarning xususiyatlarini moddalarni tashkil etgan molekulalarning harakatiga qarab o'rjanuvchi fandir. Elektromagnit nurlanish modda bilan ta'sirlashganda modda tomonidan yutilishi, sochilishi va qaytishi mumkin. Elektromagnit nurlanishning to'lqin uzunligi bo'yicha taqsimlanishi spektr deyiladi. Nurlanishning modda bilan ta'siriga qarab nurlanish spektri, yutilish spektri, sochilish spektri va qaytish spektriga ajraladi. Spektroskopiyani umumiy holda atom

spektroskopiyasi va molekulyar spektroskopiyaga bo'lib o'rganadi. Kogerent yorug'lik manbai-lazerlar kashf qilinganidan keyin spektroskopiya yana kogerent nurlar spektroskopiyasi, ya'ni lazerlar spektroskopiyasi va kogerent bo'limgan nurlar spektroskopiyasiga, klassik spektroskopiyaga bo'lindi.

1.  $\gamma$ -nurlar spektroskopiyasi to'lqin uzunligi  $10^{-10}$ - $10^{-11}$  m yoki chastotasi  $3 \cdot 10^{18}$ - $3 \cdot 10^{20}$  Hz.

2. Rentgen nurlari spektroskopiyasi  $\lambda = 10^{-8}$ - $10^{-10}$  m,  $v = 3 \cdot 10^{16}$ - $3 \cdot 10^{18}$  Hz.

3. Optik spektroskopiya  $\lambda = 10^{-3}$ - $10^{-8}$  m,  $v = 3 \cdot 10^{12}$ - $3 \cdot 10^{16}$  Hz.

Bu sohaning o'zi ya'na infraqizil, ko'rish va ultrabinafsha oblastlarga bo'linadi.


4. Radiospektroskopiya  $\lambda = 10^{-4}$ - $10^{-2}$  m,  $v = 3 \cdot 10^6$ - $3 \cdot 10^{12}$  Hz (bunga mikro to'lqin spektroskopiyasi, EPR, YaMR lar kiradi).

Har bir oblast molekulyar sistema harakatining ma'lum bir turi haqida ma'lumot beradi. Masalan, ko'rish va ultrabinafsha sohada elektron o'tishlar haqida ma'lumot olinsa, infrakizil oblastda molekula atomlarining muvozanat vaziyati atrofida tebranishi haqida ma'lumot olinadi.

Molekulaning spektri moddaning xususiyatlari haqida to'liq ma'lumot beradi. Molekulaning spektriga qarab nafaqat modda qanday molekulalardan tashkil topganligi haqida, hatto molekulalarning o'zaro joylashishi bir-biri bilan qanday bog'langanligi haqida ham ma'lumot olish mumkin. Masalan,  $AlCl_3$ ,  $Al_2Cl_6$ ,  $CH_2Cl_2$ , O-, p-xlorbenzol va xokazolarning tuzilishini qarash lozim.

**To'g'ri o'tishlar.** Xususiy yutilish deb fotonning energiyasi yarimo'tkazgichning taqiqlangan zonasi kengligiga teng yoki undan ortiq bo'lgan nurlanish ta'sirida elektronlarning bog'langan holatdan erkin holatga o'tishiga aytildi.


Musaffo yarimo'tkazgichlar  $\hbar\omega < E_g$  bo'lganida yetarlicha shaffofdir  $\hbar\omega \geq E_g$  bo'lganda esa  $\alpha(\hbar\omega)$  yutilish koeffisienti 0,1 eV chamasidagi spektral oraliqda  $10^4 - 10^5 sm^{-1}$  gacha keskin ortadi, ammo fotonning kattaroq energiyali sohasida  $\alpha(\hbar\omega)$  ancha sust o'zgaradi.



4.1-rasm.Uy temperaturasida GaAs kristallida xususiy yutilish koeffisienti bilan foton energiyasi orasidagi bog'lanish (uzulukli chiziq-nazariyaga, nuqtali chiziq-tajriba natijasiga talluqli).


4.1-rasmida  $\alpha(\hbar\omega)$  ning keskin o'sa boshlashiga mos keluvchi energetik sohani yarim o'tkazgichning yorug'likning yutish asosiy sohasi chegarasi yoki soddaroq

qilib yarim o'tkazgichning xususiy yutish chegarasi deyiladi. Bundan, yutish chegarasi zonalar chegaralari yaqinidagi holatlar orasidagi electron o'tishlarga mos kelishi tushunarlidir. Yarim o'tkazgichning elektr o'tkazuvchanligini belgilaydigan ko'p miqdordagi kirismalar, nuqsonlarning mavjud bo'lishi xususiy yutilish chegarasining keskinligini kamaytiradi. Xususiy yutilish koeffisientining chastotaga bog'lanishini tekshirilayotgan yarimo'tkazgichning energetik zonalari tuzilishi belgilaydi. Yarimo'tkazgichlar energetik zonalari tuzilishiga qarab to'g'ri zonali (4.2-rasm) va noto'g'ri zonali (4.3-rasm) turlarga bo'linadi. To'g'ri zonali yarim o'tkazgichlar (InSb, InAs, GaAs, PbS, CdS va boshqalar, 4.2-rasmida o'tkazuvchanlik zonasidagi elektronlar energiyasi minimumi (o'tkazuvchanlik zonasiga tubi) va valent elektronlar energiyasi maksimumi (valent zona shipi).



4.2-rasm. Yarimo'tkazgichda to'g'ri optik o'tishlar.

Brillyuen zonasining bir nuqtasiga (elektron to'lqin vektori  $\mathbf{k}$  ning bir qiymatiga) to'g'ri keladi. Noto'g'ri zonali yarimo'tkazgichlar (Ge, Si, GaP va boshqalar, 4.3-rasm)da esa o'tkazuvchanlik zonasiga tubi va valent zona shipi Brillyuen zonasining turli nuqtalarida bo'ladi (ular uchun  $\mathbf{k}$  ning qiymatlari har xil).



4.3-rasm. Yarimo'tkazgichda noto'g'ri optik o'tishlar.

Shunga muvofiq ravishda yarimo'tkazgichlardagi zonalararo optic o'tishlar to'g'ri va noto'g'ri o'tishlarga ajraladi.

$$\alpha(\hbar\omega) = A_5 N_A^{-} (\hbar\omega - E_g + E_A)^{1/2}, \quad (4.3)$$

(4.3) ifodadagi  $\alpha(\hbar\omega)$  ni quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\alpha(\hbar\omega) = - \frac{\left( \frac{dI_v(x)}{dx} \right)}{I_v(x)}. \quad (4.4)$$

(4.4) formulaning surati birlik hajmda birlik vaqtda yutilgan yorug'lik energiyasini ko'rsatadi. Shuning uchun ham har qanday optic o'tishlar uchun (4.4) formulani

$$\alpha(hv) = -\frac{P(hv) \cdot h\omega}{I_{v_0}}, \quad (4.4)$$

ko'rinishda ifodalash mumkin; bundagi  $h\omega$ - foton energiyasi;  $P(hv)$  –yorug'lik to'lqini maydoni ta'sirida birlik hajmda birlik vaqtda sodir bo'ladigan zonalararo elektron o'tishlarning to'la soni:

$$P = \frac{2}{(2\pi)^3} \int d^3k_i \int W_{ij} [f(k_i) - f(k_j)] d^3k_j \quad (4.5)$$

(4.5) ifodada integrallash yutilishdagi boshlang'ich va oxirgi holatlarni mos ravishda xarakterlovchi  $k_i$ ,  $k_j$  to'lqin vektorlarining barcha qiymatlari bo'yicha bajariladi.  $f(k_i)$ ,  $f(k_j)$  funksiyalar  $k_i$ ,  $k_j$  to'lqin vektorlarini boshlang'ich va oxirgi holatlarda electron mavjudligi ehtimolligidir;  $W_{ij}$ -birlik vaqtda ayrim  $k_i \rightarrow k_j$  o'tishning ehtimolligi.

$[f(k_i) - f(k_j)]$  ko'payuvchi to'la egallagan yoki bo'm-bo'sh holatlar orasidagi optic o'tishlarni istesno qiladi.

$\alpha(\hbar\omega)$  spektral bog'lanish zonalararo  $E_v \rightarrow E_c$  o'tishlar xarakterigamuhim darajada bog'liq. To'g'ri o'tishning qisqacha tavsifi bilan chegaralanamiz: g'alayonlar nazariyasining birinchi taqribiga muvofiq zonalararo to'g'ri optic o'tishlar uchun o'tish ehtimolligi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$W_{if} = \frac{2\pi}{h} \cdot \frac{e\vec{\epsilon}}{2m_o\omega} |M_{if}^\xi|^2 \delta[E(k_i) - E(k_j) + \hbar\omega], \quad (4.6)$$

bundagi  $\delta[E(k_i) - E(k_j) + \hbar\omega]$  –Dirak  $\delta$  - funksiyasi bo'lib, yorug'lik yutilishining kvant xarakterini aks ettiradi va energiya saqlanishi qonunini ifodalarydi, ya'ni faqat

$$E(\vec{k}_i) = E(\vec{k}_j) + \hbar\omega, \quad (4.7)$$

Shartni qanoatlantiruvchi o'tishlargina mavjud bo'lishi mumkin.  $|M_{if}^\xi|$  - kvazi to'lqin vektori  $\vec{k}_i$  holatdan  $\vec{k}_f$  holatga optik o'tish matrisa elementining komponenti bo'lib,

$$M_{if}^\xi = \int \psi_f^* e^{i\vec{k}_f \cdot \vec{r}} \cdot (\hat{P}) \psi_i d^3r, \quad (4.8)$$

munosabatdan aniqlanadi; bundagi  $\psi_f^*$  -oxirgi holat to'lqin funksiyasining kompleks qo'shimchasi,  $\psi_i$  -boshlang'ich holat to'lqin funksiyasi,  $\vec{k}_f$  -fotonning to'lqin vektori,

$\hat{p} = -ih\nabla$  –impul's operatori,  $\nabla$  –gradient operatori,  $\vec{\xi}$  –qutublanish birlik vektori.

Elektronning o'tkazuvchanlik zonasini va valent zonasidagi holatlarni tegishli Blox to'lqin funksiyalari bilan ifodalanadi:

$$\begin{aligned} \psi_f &= U_f(r) e^{i\vec{k}_f \cdot \vec{r}} = U_c(k_c r) e^{i\vec{k}_c \cdot \vec{r}}; \\ \psi_i &= U_i(r) e^{i\vec{k}_i \cdot \vec{r}} = U_V(k_V r) e^{i\vec{k}_V \cdot \vec{r}}. \end{aligned} \quad (4.9)$$

$U_c(r), U_V(r)$  funksiyalar  $\mathbf{k}$ -fazoda panjara doimiylariga teng davriy funksiyalardir.

$\vec{k}_v \rightarrow \vec{k}_c$  optik o'tishning  $\xi$ -yo'nalishdagi matrisa elementi

$$M_{cv} = p_{cv}^\xi \cdot \delta(\vec{k}_c - \vec{k}_v - \vec{k}_f), \quad (4.10)$$

ko'rinishda bo'ladi, impul's operatorining matrisa elementi esa

$$p_{cv}^\xi = \int U_{ci}^*(r) \cdot (\xi \hat{p}) U_v(r) \cdot d^3 r, \quad (4.11)$$

ko'rinishda bo'ladi.  $\delta(\vec{k}_c - \vec{k}_v - \vec{k}_f)$  ko'paytuvchi Dirak  $\delta$ -funksiyasi bo'lib, optik o'tishda kvaziimpul's saqlanish qonunini ifodalaydi, ya'ni

$$\hbar \vec{k}_c = (\hbar \vec{k}_v + \hbar \vec{k}_f). \quad (4.12)$$

(4.12) ifoda optik o'tishning tanlash qoidalaridan biridir.

Elektronning kvaziimpul'si umumiy holda Brillyuen zonasiga chegarasi ( $\pi/a$ ) chamasida, ya'ni taxminan  $10^8$  sm<sup>-1</sup> chamasidabo'ladi, fotonlar uchun esa  $10^5$  sm<sup>-1</sup> dan oshmaydi. Ravshanki, fotonning to'lqin vektori  $\vec{k}_f$  ningkattaligi elektronlarning  $\vec{k}$  to'lqin vektorining kattaligidan ancha kichik, shuning uchun  $(\vec{k}_c, \vec{k}_v)$  ga nisbatan  $\vec{k}_f$  ni hisobga olmaslik mumkin, uholda (4.12) quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\hbar \vec{k}_c \sim \hbar \vec{k}_v; \vec{k} \sim \vec{k}_v. \quad (4.13)$$

Impul's saqlanishi qonuni shuni ko'rsatadiki, kristallelektronlarning nurlanish maydoni bilan o'zaro ta'sirlashishda elektronning to'lqin vektori o'zgarmaydigan otishlargina mumkindir. Zonalar diagrammasida ularga to'g'ri bertikal chiziqlar mos keladi (4.2-rasm).

Yakka atomdagagi singari, kristallarda elektronlarning optik o'tishlari tanlash qoidalarni qanoatlantirilishi kerak. Optik o'tishlar uchun tanlash qoidalari boshlang'ich va oxirgi holatlarning  $U_v(r)$  va  $U_c(r)$  to'lqin funksiyalari bilan bog'liqdir. Bu qoidalari umumiy holda gruppalar nazariyasi yordamida aniqlanadi. Ammo,  $U(r)$  funksiyalar simmetriyasini ularning juftlik xossasi bilan, ya'ni koordinataishorasi o'zgorganida o'z ishorasini saqlab qolishi yoki o'zgartirish xossasi bilan xarakterlash kifoyadir. Agar o'tkazuvchanlik zonasiga va valent zonadagi elektronlarning holatlari har xil juftlikka ega bo'lgan Blox to'lqin funksiyalari tasvirlansa, u holda  $p_{cv}^\xi$  juft funksiya bo'ladi. Bunda,  $E_v$  holatdan  $E_c$  holatga optic o'tishni *ruxsat etilgan o'tish* deyiladi.

Agar elektronlarning o'tkazuvchanlik zonasiga va valent zonadagi holatlarni bir xil juftlikka ega bo'lgan Blox to'lqin funksiyalari tasvirlansa (bunda  $\| p_{cv}^\xi \|_{k=k_0=0} = 0$ ), bu holda  $E_v$  holatdan  $E_c$  holatga optic o'tishni *taqiqlangan o'tish* deyiladi. Bunda simmetriya bo'yicha taqiq faqat Brillyuen zonasidagi yuqori simmetriyaligi nuqtalar uchungina bajariladi. Bu nuqtalar fazodagi  $p_{cv}^\xi$  matrisa elementi  $\vec{k}$  ning silliq o'zgaruvchan funksiysi bo'ladi. Shuning uchun  $\vec{k}_0$  maxsus nuqta atrofida bu funksianing  $(\vec{k} - \vec{k}_0)$  darajalar bo'yicha qatorga yoyish mumkin:

$$p_{if}^\xi = p_{if}^\xi(\vec{k}_0) - (\vec{k} - \vec{k}_0) \left[ \nabla_k p_{if}^\xi(\vec{k}) \right]_{\vec{k}=\vec{k}_0} + \dots \quad (4.14)$$

Agar tanlash qoidalari barcha o'tishlarni ruxsatlangan bo'lsa, u holda  $p_{cv}^\xi(k)$  matrisa elementini yxshtaqpibda o'zgarmas va (4.14) yoyilmaning  $\vec{k}_0=0$  nuqtadagi birinchi hadiga tehg deb hisoblash mumkin:

$$p_{if}^{\xi}(\vec{k}) = p_{if}^{\xi}(0) = p_{cv}^{\xi}. \quad (4.15)$$

Agar o'tishlar simmetriya mulohazalari bo'yicha taqiqlangan ( $p_c^{\xi}(0)=0$ ) bo'lsa, uholda  $\vec{k} \neq 0$  ga tegishli matrixa elementini (3.14) ifodaning ikkinchi hadini aniqlaydi:

$$p^{\xi} = \vec{k} \left[ \nabla_k p^{\xi}(\vec{k}) \right]_{k=0}. \quad (4.16)$$

Bunda o'tishning ehtimolligi  $\vec{k}$  ga proporsional ravishda ortib boradi. Sodda zonalar strukturasi holida o'tkazuvchanlik zonasiga va valent zona parabolik bo'ladi, ekstremum lar  $\vec{k}_0=0$  nuqtada (Brillyuen zonasiga markazi) bo'ladi, teng energiyali sirtlar markazi

$\vec{k}_0=0$  Bu holda optik o'tishlar energiyasida joylashgan sferalar bo'ladi.

$$\hbar\omega = E_g + \frac{h^2 k^2}{2m_r}. \quad (4.17)$$

Formula bilan aniqlanadi, bunda  $E_g$ -taqiqlangan zona kengligi,  $m_r = \frac{m_n \cdot m_p}{m_n + m_p}$ .

elektronlar va kovaklarning keltirilgan effektivmassasi. Kvant o'tishlar nazariyasiga ko'ra, xususiy yutish chegarasi sohasida yutilish koeffisienti  $\alpha(\hbar\omega)$  ning fotonlar energiyasiga bog'lanishi to'g'ri ruxsat etilgan o'tishlar uchun

$$\alpha(\hbar\omega) = A_1 (\hbar\omega - E_g)^{1/2} / \hbar\omega, \quad (4.18)$$

taqiqlangan o'tishlar uchun

$$\alpha(\hbar\omega) = A_2 (\hbar\omega - E_g)^{3/2} / \hbar\omega, \quad (4.19)$$

ko'rinishda bo'ladi; bunda  $A_1, A_2$ -chastotaga bog'liq bo'limgan, ammo optic o'tishda ishtirok qiluvchi zonalar parametrлari va bazi xalqaro doimiyлarni o'z ichiga oluvchi koeffisientlar. Ba'zi bir noto'gri zonali yarim o'tkazgichlar (Ge,Si) uchun  $\vec{k}_{max} \neq \vec{k}_{min}$ ; kvant tanlash qoidalari ko'rato'g'ri o'tishlar uchun  $\vec{k}=0$ da taqiqlangan bo'ladi (3.3-rasm).

**Zonalararo noto'g'ri o'tishlar.** Agar birholatdan ikkinchi holargao'tishda electron ning to'lqin vektori o'zgarsa, bunday o'tishni *noto'g'ri o'tish* deyiladi. Impul'sning saqlanish qonuniga ko'ra noto'g'ri optik o'tishda fonon ishtirok qilishi kerak. Elektronning fonon bilan o'zaro ta'siri hisobga olinganda uning energiya va to'lqin vektori saqlanish qonunlari noto'g'ri o'tishlar uchun quyidagicha ifodalanadi:

$$E_f = E_i + \hbar\omega \pm E_q; \vec{k}_{\bar{f}} = \vec{k}_i + \vec{k}_f \pm \vec{k}_q, \quad (4.20)$$


Bundagi  $E_q, k_q$ -fononning energiyasi va to'lqin vektori, (+) ishora fononning yutilishi, (-) ishora esa uning chiqarilishiga mos tushadi. Fonon chiqarilisi yoki yutilishi bilan birgalikdasodir bo'ladi. Agar chiqarilishi yoki yutilishi bilan noto'g'ri o'tish (4.3-rasmida) ikki pog'onali jarayon sifatida qaraladi: elektron dastlab valent zonadagi  $E_i, \mathbf{k}_i$  holatdan foton ta'sirida (uni yutib) o'tkazuvchanlik zonasidagi oraliq (virtual)  $k_k, \mathbf{k}_k$  holatga to'g'ri o'tadi (1-o'tish), keyin esa  $\vec{k}_q$  to'lqin vektorli fononni yutib yoki chiqarib oxirgi  $E_f, \vec{k}_f$  holatga o'tadi (2-o'tish). Yorug'lik o'tishining boshqa variantlari ham mavjud. Masalan, nurlanish ta'sirida valent zona chuqurdagi electron  $k=k_{min}$  tolqin vektorli o'tkazuvchanlik zonadagi holatga "vertikal o'tish" bajaradi (3-o'tish); bunda

chuqurda hosil bo'lgan kovakfonon chiqarib yoki yutib valent zonaning shipi yaqinidagi  $k=0$  holatga o'tadi (4-o'tish). Bunday oraliq jarayonlarni virtual jarayonlar, zarralarning oraliq holatlarini esa virtual holatlar deyiladi.

## **2-asosiy savolning bayoni: Yarimo'tkazgichlar sirtidan yorug'likning qaytishi**

Nomuvuzanatholatdagi zaryad tashuvchilar yarimo'tkazgichning sirtida undagi holatlar orqali rekombinasiyalashi mumkin. Sirt holatlarini keltirib chiqaruvchi sabablar quyidagilar:

1. Kristall panjara elektr potensiali davriyligining sirtda uzulishi unda *Tamm sathlarini* hosil qiladi.



4.4-rasm. Sirt sathlari ( $P_1$  va  $P_2$ )ning hosil bo'lishi (P-rekombinasiya,  $P_D$ -donor,  $P_A$ -akseptor).


2. Sirt atomlarining valent bog'lanishlari to'latilmaganligi sababli *Shokli sathlari* hosil bo'ladi.

3. Sirt qatlamiga adsorbsiyalangan atomlar va kristallsirtining boshqa nuqsonlari ham *sirt sathlarini* hosil qiladi.

Qattiq jismlarning energetik zonalari strukturasini nazariy tekshirganda kristallni ideal, barcha yo'nalishlar bo'yicha cheksiz deb faraz qilingan. Haqiqiy kristallda yuqoridagi kabi ideallikdan chetlantiradigan, potensial davriylikni buzadigan nuqsonlar mavjud.

4.4-rasmda sakkiz atomdan iborat, ikki yoqdan cheklangan zanjirchada sirt sathlarining vujudga kelish sxemasi tasvirlangan. Bu holda ikkita ( $P_1$  va  $P_2$ ) sirt sathi vujudga keladi. Tamm sathlari konsentrasiyasi  $N_s \sim 10^{15}$   $\text{sm}^{-1}$  sirdagi atomlar konsentrasiyasi bilan aniqlanadi. Bunday katta zichlik sirt zonasining paydo bo'lismiga olib kelishi mumkin. Bu zonadagi elektronlar faqat sirt bo'ylab harakatlanishi mumkin. Ba'zi hollarda sirt zonasini qisman o'tkazuvchanlik zonasini ustiga tushishi mumkin. Sirt sathlari donor (4.4<sup>b)</sup>-rasm), akseptor (4.4<sup>v)</sup>-rasm) va rekombinasiya markazi vazifalarini bajarishi mumkin. Tamm sathlari atomar toza sirtlarda kuzatilgan. Ammo, oddiy sharoitda – kristall sirtni yupqa oksid qatlami qoplaganda – Tamm sathlari yo'qoladi, chunki bu holda kristallning chegarasidapotensial davriylik tiklan bo'ladi.

Shokli sathlari paydo bo'lishining sababi sirtdag'i atomlarning ximyaviy bog'lanishi to'ldirilmaganligidadir. Shokli modelida sirtdag'i atom potensial chuqurning shakli buzulmagan bo'ladi. Bu modelni atomning bir o'lchovli zanjitiga tatbiqan qaraganda panjara doimiysi kamaya borgach taqiqlangan zonada ikki energetik sath yuzaga keladi, ularning biri valent zonadan, ikkinchisi o'tkazuvchanlik zonasidan ajralgan bo'ladi. Shokli sathlari konsentrasiyasini ham atomlarning sirtdag'i konsentrasiyasini belgilaydi. Shokli sirt sathlarinima sababdan mavjud bo'lishini kristalldagi ximyaviy bog'lanishlar tahlili tushintiradi. Bu nuqtai nazardan sirtdag'i sathlar panjaraning uzulishi tufayli mavjud bo'ladigan juftlanmagan elektronlar borligi tufayli paydo bo'ladi. Shokli hamda Tamm sathlari faqat ideal sirtda mavjud bo'lishi mumkin. Ma'lumki, haqiqiy kristall sirtida ham mikroskopik, ham makroskopik strukturaviy nuqsonlar bo'ladi. Ular jumlasiga nuqtaviy nuqsonlar va ularning guruhlari, sirtiga chiqqan dislokasiya lar va boshqa nuqsonlar kiradi. Bundan tashqari, haqiqiy sharoitda kristallning sirtida hamma vaqt adsorbsiyalangan yoki ximyaviy bog'langan atomlar bo'ladi.



4.5-rasm. Sirtda yutilgan molekulaning mahalliy sathi (P).

4.5-rasmdagi zona strukturasida BC tikka to'g'ri chiziq kristallning erkin bir sitinitasvirlaydi. Shu sirtga M zarra yopishgan bo'lsin. Bu zarra shu joyda panjara potensiali davriyilagini buzadi va taqiqlangan zonada donor yoki akseptor tipidagi P diskret sath paydo bo'ladi. P sath akseptor sath bo'lsin. Kvant mexanikasiga ko'ra, elektronning to'lqin funksiyasi M zarr atrofida maksimumga ega, elektron shu joyda joylashishi mumkin. P sathning vaziyati M zarranining kristall sirtidan qanday masofada bo'lishiga ham bog'liq bo'ladi. Bu masofa ortgan sari sath yuqoriga ko'tarila boradi, to'lqin funksiya yoyilib ketadi, M zarra sirtdan etarlicha uzoqlashganda P sath o'tkazuvchanlik zonasiga kiradi, undagi elektron erkin bo'lib oladi,

### **3-asosiy savolning bayoni: Yutilish va qaytarish koeffitsientlari orasidagi bog'lanish**

**Yutilish koeffisienti.** Optik nurlanish bilan yarimo'tkazgich ta'sirlashganda, uning sirtidan qisman qaytadi, qisman sirtda yutiladi va qisman yarim o'tkazgichdan yutilmasdan o'tadi. Ularni mos ravishda qaytuvchi, o'tuvch va yutiluvchi energiya koeffisienti bilan baholanadi.

O'tkazish koeffisienti

$$T = P_{otgan} / P_{tush}, \quad (4.21)$$

Qaytish (sochilish) koeffisienti

$$R = P_{qaytgan} / P_{tush}, \quad (4.22)$$

Yutilish koeffisienti

$$A = P_{yutilgan} / P_{tush}, \quad (4.23)$$

bu yerda  $P_{o'tgan}$  – o'tgan nurlanishning quvvati,  $P_{qaytgan}$  – qaytgan nurlanish quvvati,  $P_{yutilgan}$  – yutilgan nurlanishning quvvati,  $P_{tush}$  – tushuvchi nurlanish quvvati.

Ma'lumki, yorug'lik to'lqini yarimo'tkazgich sirtiga tushganda yorug'lik oqimining  $P_R$  qismishu sirtdan qaytadi,  $P_T$  qismi yarim o'tkazgichdan o'tib ketadi,  $P_r$  qismi sochiladi va  $P_\alpha$  qismi o'tkazgich hajmida yutiladi. Bu qismlarning tushayotgan to'la yorug'lik oqimi  $P_0$ ga nisbatlari:

$$R = \frac{P_R}{P_0}; T = \frac{P_T}{P_0}; r = \frac{P_r}{P_0}; A = \frac{P_\alpha}{P_0}, \quad (4.24)$$

Mos ravishda, qaytarish, o'tkazish, sochish (sochilish) koeffisientlari, yutilish qobilyati deb ataladi. Energiyaning saqlanish qonuniga ko'ra, bu koeffisientlarning yig'indisi 1 ga teng:

$$R + T + r + A = 1. \quad (4.25)$$

Bu koeffisientlar yarim o'tkazgichlarning xossalari, nurlanishning to'lqin uzunligiga, tushish burchagiga, qutublanish hamda namuna sirtining ishlanishiga, uning qalinligiga bog'liq bo'ladi.

Yorug'lik yutilishining bir necha mexanizmlari bor. Yorug'lik yutilishi mexanizimi qanday bo'lsa ham, yarimo'tkazgich hajmida fotonlar oqimi Buger-Lambert qonuniga binoan eksponensial ravishda kamayib boradi:

$$I_\nu(x) = I_{\nu_0}(1 - R_\nu)e^{-\alpha x}, \quad (4.26)$$

Bu yerda  $I_0$ - yarimo'tkazgich sirtiga tushayotgan v-chastotalifotonlar oqimi, foton/  $\text{sm}^2\text{s}$ (yoki yoruglik intensivligi,  $\text{Vt/sm}^2$ );  $I_{\nu_0}(1 - R_\nu)$ -yarim o'tkazgich ichiga kirgan fotonlar oqimi;  $I_\nu(x)$ -sirtdan x masofa ichkaridagifotonlar oqimi;  $\alpha$ -yutilish koeffisienti,  $\text{sm}^{-1}$ ;  $R_\nu$ -qaytarish koeffisienti.

Yutilishning ko'rsatgichi  $\alpha$  – sirtgacha bo'lган masofaga teskari kattalik bo'lib, boshlang'ich tushayotgan nurlanish quvvatini  $e=2,71$  marta susaytiradi, x chuqurlikda quyidagi ko'rinishda ifoda qilinadi:

$$P(x) = P_{tush}e^{-\alpha x}, \quad (4.27)$$

$$\alpha = -\frac{1}{x} \ln \frac{P(x)}{P_{tush}}, \quad (4.28)$$

bu yerda  $P(x)$ - x-chuqurlikda nurlanishning quvvati. Yutilish koeffisienti bilan tushuvchi nurlanishning to'lqin uzunligi orasidagi bog'lanishni  $\alpha(\lambda)$  – yutilish spektri deb ataladi. Agar man qilingan (taqiqqlangan) zona uncha katta bo'lmasa ( $\Delta E = 1\text{eV}$ ), elektronning valent zonadan o'tkazish zonasiga issiqlik yoki nurlanish (boshqa) ta'sir bilan ko'chirish mumkin. Masalan, Ge uchun man qilingan zona kengligi 0,72 eV, Si uchun esa 1,11 eV. O'tkazgichlar uchun man qilingan zonaning kengligi nolga teng, yarim o'tkazgichlar uchun 2 eV dan oshmaydi, dielektriklar uchun 2 eV dan katta bo'ladi. 4.6-rasmdan energiyaning bir qismi valent zonaning 1 buzilishiga sarflanadi va qolgan qismi elektronni valent zonadan o'tkazish zonasiga ko'chishiga sarflanadi. Elektronning o'tish zonasiga o'tishi uchun yutilgan foton energiyasi ma'n qilingan zona kengligidan kata bo'lishi kerak:

$$E_{ph} = hv \geq E_g, \quad (4.29)$$

bu yerda  $E_{ph}$  – tushuvch foton energiyasi,  $E_g$  – man qilingan zonaning kengligi, h-Plank doimiysi,  $v$  – nurlanishning elekromagnit tebranish chastotasi. Shu sababli xususiy yutilish spektri aniq chegara qiymatlar bilan ifodalanadi, uni fotoeffektning qizil chegarasi deb ataladi.

$$\lambda_{chegra} = ch / E_g, \quad (4.30)$$

$\lambda_{chegra}$  chegara sohada fononlar, eksitonla yutiladigan sohalarda to'g'ri bo'lмаган о'tishlar kuzatilishi mumkin 4.6-rasmdagi 2 soha.  $\lambda_{chegra}$  kattalik temperatura, tashqi maydon ta'sirlari va yarim o'tkazgichning legerlashda aralashmalar ta'sir qiladi.

Yarim o'tkazgich nurlantirilganda unda zaryad tashuvchilarda o'zgarish bo'ladi, bunday elektr o'tkazuvchanlikni –fotorezistivli effekt deb ataladi. Umumiy o'tkazuvchanlik bu holda


$$\sigma = \sigma_0 + \sigma_{ph}, \quad (4.31)$$

$\sigma_0 = e(n_0\mu_0 + p_0\mu_p)$  – qorong'idagi xususiy o'tkazuvchanlik,  $\sigma_{ph}$  – foto o'tkazuvchanlik,  $\mu_n; \mu_p$  – tesik va elektronlar harakarchanligi,  $n_0$  va  $p_0$  – bir xil og'irlikli konsentrasiyadagi erkin elektronlar va teshiklar, e- elementar zaryad. Yorug'lik yutilishini yarim o'tkazgichda samaradorligini aniqlashda kvantlar chiqishi hisobga olinadi

$$\eta_{ph} = \frac{\Delta n + \Delta p}{2N_{yut}}, \quad (4.32)$$

bu yerda  $\Delta n, \Delta p$  – yorug'lik nurlarini yutishda ortiqch zaryad tashuvchilarning miqdori,  $N_{yut}$  – yutilgan fotonlar soni [6]. Ideal holda  $\eta_{ph} \approx 1$  bo'ladi, ya'ni bir yutilgan foton bir juftli electron vateshiklar jufti hosil qiladi.

Kirishmaning konsentrasiyasini ortishi  $\lambda_{chegra}$  pasaytiradi valent zona shipida to'lishi yoki o'tkazuvchi zonaning tubida energetik sathlar atrofida pasayadi. Temperatura ortishi ko'pchilik yarim o'tkazgichlarda  $\lambda_{chegra}$  qiymatini oshishiga, man qilangan zona kengligi kamayishiga olib keladi. Elektr maydoni ta'sirida  $\lambda_{chegra}$  uzun to'lqinli soha tomonga siljiydi (Keldish-Frans effekti), magnit maydoni ta'sirida esa qisqa to'lqinli tomon siljiydi (Landau yoyilishi). 3 va 4 soha 4.6-rasmida aralashma tomonidan yutilish ko'rsatilgan, (foton energiyasi aralashma atomlarini ionlashtirishga sarf qilinadi).



4.6-rasm. Yarimo'tkazgich materiallarning optik yutilishi(uzuluksizegri chiziq) vafotoo'tkazuvchanlikkaspektral bog'lanishi (shtrihlangan egri chiziq): 1-xususiy yutilish; 2- fonon va eksitonning ta'sirida to'g'ri bo'limgan o'tishlar; 3,4-qo'shimchalarining yutilishi [5]

Aralashmaning ionizasiya energiyasi  $\delta E_{ar} \ll E_g$  bo'lganda, aralashmaning yutilish spektri IQ-sohaga siljigan bo'ladi. Aralashma atomlaridagi elektronlar asosan uyg'ongan holatda bo'ladi, shu sababli yutilish spektri bir qancha oraliqlarda bo'ladi (misol uchun 4.1-rasmdagi 3 va 4. Eksiton yutilishfotonning shunday yutilish energiyasiga mos holda, valent zonadagi elektron atomdan ajralmaydi, u uyg'ongan holatga o'tadi, kovak hosil bo'ladi, ya'ni elektr dipol – eksiton hosil bo'ladi. Eksitonning yutilish spektrlari ingichka chiziq bo'lib,  $\lambda_{chegra}$  sohada (rasmda ko'rsatilmagan). 4.6-rasmdagi 5 soha panjarali yutilishga mos keladi, yorug'lik kvantlari fononlarni generasiya qiladi va yarim o'tkazgichning issiqlik eneriyasi ortadi. Bunday yutilish spektri amalda uzuliksiz bo'ladi, chunki spektrlar orasi juda kichik bo'ladi.

### Muhokama uchun savollar

- Yarimo'tkazgichlarda to'gri o'tishlarni izohlab bering.
- Yarim o'tkazgichlarda noto'g'ri o'tishlar qanday yuz beradi?
- Yarimo'tkazgichlar sirtidan yorug'likning qaytishini nima?
- Yarimo'tkazgichlar sirtidan yorug'likning qaytishi qan?
- Yarimo'tkazgichlardagi o'tkazish koeffisientini izohlab bering.
- Yarim o'tkazgichlarda qaytish (sochilish) koeffisienti tushuntiring.
- Yarimo'tkazgichlar sirtida yorug'likning yutilish koeffisienti nima?
- Yarimo'tkazgichlar sirtida va ichida bo'ladigan hodisani tushuntiring.

### Adabiyotlar

- H.Akramov, S.Zaynobiddinov, F. Teshaboev "Yarimo'tkazgichlar parametrlarini aniqlash usullari". -T.: "O'zbekiston", 1994. -272 b.
- S.Zaynobiddinov, H.Akramov "Yarimo'tkazgichlarda fotoelektrik hodisalar". -T.: "O'zbekiston", 2001. -320 b.

3.Б.Ф.Греценок, М.С.Тиванов, В.Б.Залесский. Солнечные элементы на основе полупроводниковых материалов. //Международный научный журнал "Альтернативная энергетика и экология" №1(69) 2009.59-115 с.

4. Фаренбрух А., Бьюб Р.Солнечные элементы: теория и эксперимент/пер. с анг. под ред. М.М. Колтуна.М.: Энергоатомиздат, 1987.

## **5- ma'ruza. Yarimo'tkazgichlarda zaryad tashuvchilar xarakati**

### **Asosiy savollar:**

5.1.Yarimo'tkazgichlarda n-p o'tishlar, yarimo'tkazgichlarda p-n-o'tishni shakllantirish.

5.2. Yarimo'tkazgichlardagi muvozanatsiz elektron va teshiklar

5.3. Diffuziya va dreyfi.

**Tayanch so'z va iboralar:** diffuziya, dreyf, injektsiya, to'gri p-n o'tish, o'rtacha yashash vaqt, diffuziya hodisasi

**Darsning maqsadi:** Magistrlarga Yarimo'tkazgichlarda n-p o'tish, zaryad tashuvchilar xarakati, diffuziya va dreyfi haqida ma'lumot berish.

### **Idetiv o'quv maqsadlari:**

5.1. Yarimo'tkazgichlarda n-p o'tishlar haqida ma'lumot bera oladi.

5.2. Yarimo'tkazgichlardagi muvozanatsiz elektron va teshiklar haqida ma'lumot bera oladi.

5.3. Yarimo'tkazgichlarda p-n-o'tishni shakllantirishni izohlay oladi.

5.4.Diffuziya va dreyfi haqida ma'lumot haqida ma'lumot bera oladi.

### **5.1-asosiy savolning bayoni:**

Metallar-yarimo'tkazgich va yarimo'tkazgich- yarimo'tkazgich kontaktlari Om qonuniga bo'yсинmaydi. Kontaktlarning qarshiliklari qo'yilgan kuchlanishning kattaligiga bog'liq, kuchlanish kattaligi birday bo'lganda tok yo'naliشining o'zgarishi bilan kuchli o'zgarishi mumkin.

Yarimo'tkazgich - metall kontaktida bo'ladigan elektron jarayonlar ikki yarimo'tkazgich kontaktida bo'ladigan jarayonlardan farq qiladi. Biroq biz faqat ikkita yarimo'tkazgich kontaktlarida bo'ladigan jarayonlarni ko'rish bilan cheklanamiz, chunki bu jarayonlar tobora ajoyib texnikaviy qo'llanishlarga ega bo'lmoqda.

Yarimo'tkazgich o'zlarining o'tkazuvchanlik xarakterlariga ko'ra elektron yarimo'tkazgichlar(n-tip), teshikli yarimo'tkazgich(p-tip), boladi.n-tip yarimo'tkazgichlarda asosiy zaryad tashuvchilar harakatchan manfiy elektronlar, p-tip yarimo'tkazgichlarda esa asosiy zaryad tashuvchilar musbat zaryadli teshiklar bo'ladi. Ikki yarimo'tkazgich kontaktida elektronlar va teshiklar bir yarimo'tkazgichdan ikkinchisiga o'tish imkoniga ega bo'ladi va shuning uchun yarimo'tkazgichlar orasida, shuningdek metallar orasida ham kontakt potentsiallar farqi yuzaga keladi, yupqa chegaraviy qatlama esa kontakt elektr maydoni yuzaga keladi.

Agar kontakt ikkita bir xil tipdagi yarimo'tkazgichdan tashkil topgan bo'lsa, u holda har ikkala yarimo'tkazgich bir xil zarralar n yoki p bilan almashadi va bu holda hodisa ko'p jihatdan ikkita kontaktlashuvchi metall holidagi singari bo'ladi.

Yarimo'tkazgichlardan biri n-tip bo'lган va ikkinchisi p- tip bo'lган hol to'g'risida to'xtalamiz. Bunday kontaktlar *elektron-teshik o'tishlar* yoli *n-p o'tishlar* deb ataladi.

Ikki yarimo'tkazgichni bir-biriga siqish bilan bunday sof kontaktini hosil qilish mumkin emas, chunki sirlarning gadir- budurliklari tufayli bu ikki yarimo'tkazgich faqat ayrim nuqtalardagina tegishadi; bu ikki yarimo'tkazgich kontaktida havo oraliqlari ham bo'ladi va shuning uchun bu oraliqlarda oksid pardalari hosil bo'lib, kontaktning murakkab tuzilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun p-n –o'tish hosil qilish uchun sof yarimo'tkazgich plastinkasiga (Si, Ge ga) ikkita aralashma – bitta donor aralashma va bitta aktseptor aralashma kiritiladiki va ularni shunday taqsimlanadiki, bir uchida bir aralashma ortiqcha bo'lsin, ikkinchi uchida esa boshqa aralashma ortiqcha bo'lsin. Bunday qilinganda plastinkaning bir yarmida elektron o'tkazuvchanlik, ikkinchi yarmida esa teshik o'tkazuvchanlik yuzaga keladi, shu bilan birga har ikkala soha orasida har ikkala aralashmalar bir –birini kompensatsiyalaydigan yupqa o'tish qatlami joylashadi.

Dastlab tok bo'lmagandagi p-n- o'tishni ko'raylik. Issiqlik harakati tufayli elektronlar n-sohadan p- sohaga o'tadi (va u yerda teshiklar bilan rekombinatsiyalanadi), teshiklar esa p-sohadan n-sohaga o'tadi (va u yerda elektronlar bilan rekombinatsiyalanadi). Shuning uchun n-sohada ajralish chegarasining yaqinida musbat hajmiy zaryad, p- sohada esa manfiy hajmiy zaryad paydo bo'ladi; n-soha musbat potentsial oladi va unda elektronning energiyasi kamroq bo'lib qoladi (chunki elektronning zaryadi manfiy) sohaning potentsiali manfiy bo'ladi va unda elektronning energiyasi ortadi. Elektronlarning potentsial energiyalari taqsimot egri chizig'i  $W_e$ . 5.1-a rasmdagi tutash chiziq ko'rinishida bo'ladi. Aksincha, musbat teshiklarning  $W_t$  energiyasi n-sohada ko'p va p-sohada kam bo'ladi (punktir egri chiziq).

Muvozanat holatda kontakt orqali o'tadigan to'liq tok nolga teng bo'ladi. Bu tok, asosiy zaryad tashuvchilari faqat elektronlar bo'lган metallardan farqli, elektronlar va teshiklarning harakati tufayli yuzaga keladigan toklar yig'indisidan iborat bo'ladi.


Avvalo shuni takidlab o'tish joizki, har qanday yarimo'tkazgichda asosiy zaryad tashuvchilardan tashqari biror miqdorda asosiy bo'lмаган zaryad tashuvchilar ham bo'ladi. Shuning uchun elektron yarimo'tkazgichda o'tkazuvchanlik elektronlar bilan birga uncha ko'p bo'lмаган miqdorda bo'lsa ham teshik yarimo'tkazgichda teshiklardan tashqari, biror miqdorda o'tkazuvchanlik elektronlari bo'ladi. Odatda, asosiy bo'lмаган zaryad tashuvchilar soni asosiy zaryad tashuvchilar sonidan kam bo'ladi.

Kontakt maydoni asosiy bo'lмаган zaryad tashuvchilarning harakatiga yordam beradi va ular potentsial cho'qqidan "dumalb" ketadi. Kontaktga yaqin sohada generatsiyalanayotgan barcha asosiy bo'lмаган zaryad tashuvchilar p-n– o'tish orqali harakatlanadi va n dan p ga qarab yo'nalgan biror i<sub>H</sub>tok kuchini hosil qiladi. Bu tok kuchi amalda n- va p- yarimo'tkazgichlar orasidagi potentsiallar farqiga bog'liq bo'lmaydi va faqat vaqt birligi ichida kontaktga yaqin sohada paydo bo'layotgan asosiy bo'lмаган zaryad tashuvchilar miqdori bilan aniqlanadi. Asosiy bo'lган zaryad tashuvchilar (o'ngdan chapga harakatlanuvchi teshiklar va chapdan o'ngga harakat lanuvchi elektronlar) esacqarama-qarshi p dan n ga yo'nalgan i<sub>0</sub> tokni hosil

qiladi. 5.1-a rasmdan ko'rinish turibdiki, potentsial to'siqni oshib o'tuvchi kontakt maydoni asosiy zaryad tashuvchilarning harakatiga to'sqinlik qilar ekan. Muvozanat holatida potentsial to'siqning shunday balandligi yuzaga keladiki, bunda to'la tok

$$i = i_0 + i_H = 0, \quad (5.1)$$


bo'ladi. Endi kontakt orqali tok o'tgandanima bo'lishini ko'raylik. Kontaktga shunday ishorali kuchlanish beraylik, bunda n-sohada manfiy va p-sohada musbat potentsial bo'lsin (5.1-b rasm). u holda n-sohada elektronlarning energiyasi ortadi, p-sohada esa kamayadi, potentsial to'siqning balandligi kamayadi.



5.1-rasm.p-n- o'tishdagi elektr toki

Bunda asosiy bo'limgan zaryad tashuvchilar toki  $i_H$  yuqorida aytganimizdek, o'zgarmaydi. Asosiy bo'lgan zaryad tashuvchilar toki  $i_0$  esa ortadi, chunki endi elektronlarning katta qismi potentsial to'siqni yengib, chapdan o'ngga o'ta oladi va shuningdek teshiklarning ko'p qismi o'ngdan chapga o'ta oladi.Buning natijasida kontakt orqali p- dan n- ga yo'nalgan  $i = i_0 - i_H$  tok o'tadi; qo'yilgan kuchlanishning ortishi bilantok kuchi tez orta boshlaydi.

Agar n-sohaga tok manbaining musbat qutibi, p-sohaga manfiy qutibi ulangan bo'lsa, boshqacha hol ro'y beradi (5.1-v rasm).Bu holda potentsial to'siq balandligi ortadi va asosiy zaryad tashuvchilarning  $i_0$  toki kamayadi.Bu bayon qilinganlarga ko'ra, p-n- o'tishning vol't-amper xarakteristikasi 5.2-rasmida tasvirlangan singari bo'ladi.




5.2-rasm. p-n- o'tishning VAX 5.3-rasm. Juda qisqa p-n- o'tishning VAX (tunel effekti)

Tok p- sohadan n-sohaga qarab yo'nalganda, tok kuchi katta bo'ladi va kuchlanish ortishi bilan tez ortadi, tokning bu yo'nalishi uchun kontakt kam

qarshilikka ega bo'ladi (tok uchun bu o'tish yo'nalishi). Agar tok n- dan p-sohaga qarab yo'nalgan bo'lsa, uholda tok kuchi juda kichik o'ladi va kuchlanishga bog'liq bo'lmaydi (to'yinish toki). Tokning bu yo'nalishi uchun kontaktning qarshiligi katta bo'ladi (tok uchun berk yo'nalish).

**Yarimo'tkazgichlarda p-n-o'tishni shakllantirishi.** Biror yarimo'tkazgich kristalining bir tomonida *n*-turdagi, ikkinchi tomonida *p*-turdagi yarimo'tkazgichni hosil qilaylik (5.1-rasm). Yarimo'tkazgichning o'rta qismida erkin elektronlar tezgina bo'sh kovaklarni to'ldiradi. Natijada yarimo'tkazgichning o'rta qismida zaryad tashuvchilar bo'limgan soha hosil bo'ladi. Bu sohaning xususiyati dielektriklarday bo'ladi.



kovaklar   berkituvchi qatlam   elektronlar


5.3-rasm.

Shunga ko'ra bu soha bundan keyin elektronning p-sohaga, kovakning n-sohasiga o'tishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli uni **berkituvchi qatlam** deyiladi.


Mazkur yarimo'tkazgichnitok manbaiga ulaylik. Dastlab yarimo'tkazgichning p-sohasini manbaning manfiy qutibiga, n-sohanimanbaning musbat qutubiga ulaylik.

Bunda elektron manbaning musbat qutibiga, teshiklar manbaning manfiy qutibiga tortiladi. Natijada berkituvchi qatlam kengayadi. Yarimo'tkazgich orqali deyarli tok o'tmaydi. Bunday holat teskari p-n o'tish deb ataladi.

Endi yarimo'tkazgichning p-sohasiga manbaning musbat qutibi, n-sohaga manfiy qutubini ulaylik. Bunda elektronlar n-sohadan itarilib p-sohaga tortiladi.



5.4-rasm.



5.5-rasm.

Kovaklar esa p-sohadan itarilib, n-sohaga tortiladi. Natijada berkituvchi qatlam torayadi va undan zaryad tashuvchilar o'ta boshlaydi. Yarimo'tkazgichdan tok o'tadi. Bunday holatni *to'gri p-n o'tish* deyiladi. To'g'ri p-n o'tishda yarimo'tkazgich elektr qarshiligi, teskari p-n o'tishga nisbatan bir necha marta kichik bo'ladi. Yarimo'tkazgich p-n o'tish tufayli tok faqat bir yo'nalishda o'tadi. Uning bu xususiyatidan yarimo'tkazgichli asboblarda foydalaniladi.

## 5.2. Yarimo'tkazgichlardagi muvozanatsiz elektron va teshiklar

**2-asosiy savolning bayoni:** p- va n- tip yarimo'tkazgichlar kontaktni ko'rib chiqdik vat ok bu kontakt orqali o'tish yo'nalishida o'tmoqda deb faraz qilamiz (5.6-rasm). p-sohadagi teshiklar p-n-o'tishga qarab harakatlanadi va bu sohadan o'tib, n-sohaga asosiy bo'limgan zaryad tashuvchilar sifatida kiradi va u yerda elektronlar bilan rekombinatsiyalanadi. n- sohadagi elektronlar ham xuddi shunday, ular ham ajralish chegarasidan o'tib, p-sohaga tushadi va u yerda teshiklar bilan rekombinatsiyalanadi. Biroq bu rekombinatsiyalar bir onda ro'y bermaydi, shuning uchun n-sohada teshiklarning ortiqcha kontsentratsiyasi n-p- sohada esa elektronlarning ortiqcha kontsentratsiyasi n<sub>e</sub> hosil bo'ladi. Bunda n-sohadagi ortiqcha teshiklar o'ziga elektronlarni tortadi va shunday qilib elektronlar kontsentratsiyasi ham ortadi, hajmiy zaryad, xuddi tok bo'limgandagi singari, hosil bo'lmaydi, p-sohada ham xudda shunday bo'ladi, u yerda elektronlar kontsentratsiyasining ortishi teshiklar kontsentratsiyasining ortishiga olib keladi.

Shunday qilib, p-n- o'tish orqali elektr tok bo'lganida yarimo'tkazgichda elektronlar va teshiklar muvozanatsiz bo'lib qoladi. Ularning kontsentratsiyasi muvozanat holatidagi qiymatidan katta bo'ladi, bunda go'yo n-sohaga teshiklar, p-sohaga elektronlar "nurlanayotgandek" bo'ladi. Bayon qilinayotgan bu hodisa elektronlar va teshiklar *injektsiyasi* deyiladi.

Elektronlar va teshiklarning muvozanat holati yarimo'tkazgichlarning muvozanat holati yarimo'tkazgichlarni yoritishta'sirida ham bo'lishi mumkin, hatto yarimo'tkazgich bir jinsli bo'lganda ham bu hodisa bo'laveradi. Bunday holda elektronlar va teshiklar kontsentratsiyasining kristallda taqsimlanish ularning rekombinatsiya tezligiga bog'liq bo'ladi. Bunday holda elektronlar va teshiklar kontsentratsiyasining o'zgarishi yorug'lik ta'sirida yarimo'tkazgichning elektr o'tkazuvchanligi o'zgarishiga sabab bo'ladi (foto o'tkazuvchanlik). Ortiqcha elektronlar va teshiklar harakatchanligi oshgan sari ular rekominatsiyalana boradi va ularning kontsentratsiyasi kamayadi. Shuning uchun ortiqcha elektronlar va teshiklar kontsentratsiyalarining kristallda taqsimlanish ularning rekombinatsiyalash tezliklariga bog'liq bo'ladi.

Yarimo'tkazgichlarda biror usul bilan kristallning barcha joylarida birday bo'lgan ortiqcha elektronlar va teshiklar kontsentratsiyasi hosil qilgan bo'lsin, bu ortiqcha zaryad tashuvchilar rekombinatsiya natijasida yo'qolgan bo'lsin. Elektronlar va teshiklar kontsentratsiyasi -dn ning dt vaqt ichida kamayishi ularning ortiqcha kontsentratsiyalari n ga va vaqtga proportional bo'ladi

$$-dn = \frac{1}{\tau} ndt. \quad (5.2)$$


Bu yerda  $\frac{1}{\tau}$  - rekombinatsiyalash ehtimolligini aniqlovchi proprtsiyonallik koefitsienti,  $\tau$  - kattalik esa ortiqcha zaryad tashuvchilarning o'rtacha yashash vaqt deb ataladi. Bu kattalik materialning xili va sifati, uning holatiga va undagi aralashmalarining mavjudligiga bog'liq bo'ladi. Yozilgan tenglamani integrallab quyidagini topamiz

$$n = n(0) \exp(-t/\tau), \quad (5.3)$$

Bu yerda n(0)- ortiqcha zaryad tashuvchilarning boshlang'ich kontsentratsiyasi,  $\tau$ -esa muvozanatsiz zaryad tashuvchilarning rekombinatsiyasi tufayli  $e=2,71$

kamayish uchun ketgan vaqt.Yashash vaqt tushunchasidan foydalanib, biz elektronlar va teshiklar ning fazodagi taqsimotiga qaytishimiz mumkin (5.6-rasm).

Buning uchun kristallning o'ng qismida (n-sohada) p-o'tishga parallel va undan x va (x+dx) masofada joylashgan teshiklar bilan chegaralangan  $\infty$  yupqa qatlamni ko'raylik.Berilgan kuchlanish kichik bo'lganda o'tish yaqinida elektr maydonda dref tokini diffuziya tokiga nisbatan nazarga olmaslik mumkin.



5.6-rasm.p-n- o'tishda elektronlar va teshiklar injektsiyasi

x tekislik sirtining har bir birligi orqali vaqt birligi ichida diffuziya tufayli qatlam ichiga  $-D_T \frac{dn_T}{dx}|_x$  sondagi teshik o'tadi, bu yerda  $D_T$ - n sohada teshiklarning diffuziya koefitsienti,  $(x+dx)$  tekislik orqali qatlamdan chiqadigan teshiklar soni

$$-D_T \frac{dn_T}{dx}|_{x+dx} = -D_T \frac{dn_T}{dx}|_x - D_T \frac{d^2 n_T}{dx^2} dx \quad (5.4)$$

Buning uchun vaqt birligi ichida diffuziya tufayli hajm birligidagi teshiklar miqdorining to'liq ortishi  $+D_T \frac{d^2 n_T}{dx^2}$  ga tehg bo'ladi. Bundan tashqari, qatlam ichida rekombinatsiya, tufayi teshiklar soni kamayadi. Vaqt birligida hajm birligidagi teshiklarning kamayishi

$n_T / \tau$  ga teng. Statsionar holatda diffuziya tufayli keluvchi teshiklarning soni rekombinatsiya tufayli yo'qoluvchi teshiklarsoniga teng bo'lishi kerak.Shuning uchun n-sohada ortiqcha teshiklar kontsentratsiyasining (xuddi shuningdek unga tehg bo'lgan ortiqcha elektronlar kontsentratsiyasining) fazodagi taqsimlanishini aniqlash uchun quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$\frac{d^2 n_T}{dx^2} - \frac{n_T}{L_T^2} = 0 \quad (5.5)$$

bu yerda  $L_T = \sqrt{D_T \tau_T}$  belgilash kiritilgan.

Masalaning chegaraviy shartlari shunday bo'ladi,  $x=0$  bo'lganda,  $n_T = n_{T_0}$ , bu yerda  $n_{T_0}$  –

n-soha chegarasidagi ortiqcha teshiklar kontsentratsiyasi. Bundan tashqari,  $x \rightarrow \infty$  bo'lganda  $n_T \rightarrow 0$  bo'ladi, chunkio'tishdan yetrlichka kata masofada barcha ortiqcha teshiklar elektronlar bilan rekombinatsiyalashga ulguradi.Yuqorida

yoxzilgan tenglamaning chegaraviy shartlarniqanoatlantiruvchi yechimlarin quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$n_T = n_{T_0} \exp(-x/L_T) \quad (5.6)$$

Bu yechim injektsiyalangan teshiklar kontsentratsiyasi masofanio'tishdan uzoqlashgan sari eksponentsiyal qonunga muvofiq kamayishini ko'rsatadi. Biz kiritgan  $L_T$  xarakteristik uzunlik ortiqcha teshiklar kontsentratsiyasi  $e=2,71$  marta kamaygan masofadir.  $L_T$ -kattalik diffuzion siljish uzunligi yoki qisqacha, teshiklar ning diffuzion uzunligi deyiladi.

p-sohada injektsiyalangan elektronlar kontsentratsiyasi ham eksponentsiyal qonunga muvofiq kamayadi, biroq elektronlarning diffuzion uzunligi  $L_e = \sqrt{D_e \tau_e}$  bilan aniqlanadi.

### **3-asosiy savolning bayoni:**

Qattiq jismda issiqlik ta'sirida yoki notejis taqsimlanish tufayli zarralar (atomlar, ionlar, elektronlar, kovaklar) ning ko'chishi *-diffuziya hodisasi* yuz beradi. Agar bir jinsli hajmning har xil sohalaridagi zaryad tashuvchilar soni farqli bo'lib qolsa, u holda mana shu sohalar orasida zaryad tashuvchilarining yuqori temperaturali sohasidan past temperaturali sohaga yo'nalgan diffuzion oqimi vujudga keladi. Bu oqim ko'rileyotgan sohalar orasida muvozanat tiklanmaguncha davom etadi.

Umuman olganda diffuzion oqim paydo bo'lishining asosiy sharti shu muhitda ximiyaviy potentsiyallar farqining mavjud bo'lishidir. Bu holda oqim yo'naliishiga ko'ndalang bo'lgan birlik yuzadan o'tayotgan zarralar soni  $N$  ni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$N = -D(d\mu/dx) \quad (5.7)$$

Bunda  $D$ - diffuziya koeffitsienti,  $\mu$ - ximiyaviy potentsiyal. - ishora oqimning  $d\mu/dx$  gradient kamayishi tomonga yo'nalganini bildiradi. Agar ximiyaviy potentsiyal  $\mu$  faqat muhitdagi zarralar soni farqi bilan belgilanadigan bo'lsa, bu holda yuzaga kelgan oqim *erkin diffuziya* deyiladi. Erkin diffuziya tufayli muhitdagi zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi tenglashadi.

Tabiatda bunga teskari bo'lgan, ya'nizaryad tashuvchilar taqsimlanishining notejisligini kuchaytirishga olib keluvchi hodisalar ham mavjud. Bular asosan tashqi ta'sirlar tufayli yuz berishi mumkin bo'lgan hadasalar bo'lib, bu hodisalar *majburiy diffuziya* deb ataladi. Ular quyidagi turrlarga bo'linadi:

*Termodiffuziya*-temperatura farqi ( $dT/dx$ ) ta'sirida yuzaga keladigan diffuziya. Bu holda zarralarning oqimi temperatura pastroq bo'lgan tomonga yo'nalgan bo'ladi.

*Elektrodiffuziya*-elektr maydoni yoki potentsiallar farqi ( $dp/dx$ ) tufayli yuzaga keladigan diffuziya. Bu holda zarralar yoki zaryad tashuvchilar qarama-qarshi zaryadli qutublar tomoniga harakatlanadilar.

*Baridiffuziya*-diffuzion oqim og'irlilik kuchi hosilqilgan maydon yoki yuqori bosimlar farqi ( $dp/dx$ ) tufayli yuzaga keladi. Bu hodisa asosan moddalarning kristallanishi jarayonlarida va qattiq deformatsiyalanishi paytida vujudga keladi. Yarimo'tkazgichning o'tkazuvchanlik zonasiga qandaydir tashqi ta'sirlar- yorug'lilik, elektr maydon yoki ionlashtiruvchi nurlanish yprdamida qo'shimcha elektronlar kiritaylik. Bu qo'shimcha elektronlar kontsentratsiyasi koordinata o'qlariga bog'liq

bo'lsin, ya'ni notejis taqsimlangan bo'lsin(buni masalan, yarimo'tkazgich sirtininotejis yoritish yo'li bilan hosil qilish mumkin). Buning natijasida elektronlar diffuziyasi yuzaga keladi.Soddalik uchun oqimni x o'qi bo'y lab yo'nalgan desak, birlik vaqt ichida birlik yuzadan oqib o'tuvchi elektronlar soni

$$I_n = -D_n \frac{dn}{dx}, \quad (5.8)$$

bu oqimga mos keladigan elektr tokining zichligi

$$J_{nx} = eD_n \frac{dn}{dx}, \quad (5.9)$$

ko'rinishda ifodalanadi.Shunga o'xhash ifodalarni kovaklar uchun ham yozish mumkin

$$I_p = -D_p \frac{dp}{dx}, \quad (5.10)$$

$$J_{px} = eD_p \frac{dp}{dx}. \quad (5.11)$$

Muvozanat holatda, elektronlar va kovaklar soni bir-biriga teng bo'ladi.Demak, mana shunday bir jinsli bo'limgan yarimo'tkazgichda diffuzion tokka qarshilik ko'rsatuvchi statikmelektr maydon mavjud bo'ladi.Masalan, duffuziya tufayli ma'lum bir sohada ortiqcha elektronlar yig'ilib qoladi, binobarin, manfiy ishorali hajmiy zaryad paydo bo'ladi, deylik.Elektronlar ko'chgan joyda esa musbat hajmiy zaryad qoladi.Mana shu hajmiy zaryadlar hosil qilgan elektr maydon endi elektronlarning ko'chishiga, ya'ni diffuziyaga xalaqit bera boshlaydi.Hosil bo'lgan elertr maydon  $\vec{E}$  bo'lsa, unga mos keluvchi elektr toki zichligi  $\vec{j}_E = ne\mu_n \vec{E}$  ( $\mu_n$  - elektronlar harakatchanligi) bo'ladi.

Shunday qilib yarimo'tkazgichning ixtiyoriy sohasida istalgan paytdagi elektronlar tok zichligi

$$j_n = ne\mu_n E + eD_n dn / dx \quad (5.12)$$

va shunga o'xhash kovaklar tok zichligi

$$j_p = pe\mu_p E + eD_p dp / dx \quad (5.13)$$

Umumiyl tok zichligi esa ularning yig'indisidan iborat bo'ladi:

$$j = j_n + j_p = e[(n\mu_n + p\mu_p)E + (D_n dn / dx - D_p dp / dx)] \quad (5.14)$$

Mana shunday holatga jism ichidagi zaryad tashuvchilarining , hajmiy zaryadning va elektr maydonning muayan taqsimoti mos keladi.Bu taqsimotnianiqlash uchun (5.8) ifodadan tashqari yana

$$\text{div}E = \frac{4\pi\rho}{\epsilon} \quad (5.15)$$

ko'rinishidagi Puasson saqlanish tenglamasidan ham foydalaniladi.Ma'lum bir sohadagi zaryad tashuvchilar soni generatsiya tufayli ortadi,rekombinatsiya r tenglamasi va zaryad tashuvchilar soni generatsiya tufayli ortadi, rekombinatsiya tufayli kamayadi.Undan tashqari ma'lum bir hajimga kirayotgan elektronlar soni undan chqayotgan elektronlar soniga teng bo'lmasligi mumkin.Shularni hisobga olgan holda yarimo'tkazgichning o'tkazuvchanlik zonasidagi elektronlar kontsentratsiyasining vaqt bo'yicha o'zgarishi quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{\partial n}{\partial t} = Q + \beta \alpha I - \frac{n}{\tau} + \frac{1}{e} \operatorname{div} \vec{j}, \quad (5.16)$$

bu yerda  $Q$ -issiqlik tufayli generatsiyalangan elektronlar soni,  $\beta \alpha I$  – yorug'lik ta'sirida hosil bo'layotgan elektronlar soni,  $n/\tau$  – rekombinatsiya tezligi,  $\frac{1}{e} \operatorname{div} \vec{j}$  – elektronlarning ko'chishi tufayli kamayishi. (5.14)- (5.16) tehglamalar ko'pgina umumiylar masalalarni echishda elektronlar sonini, zaryadlar va maydon taqsimotinitopish uchun qo'lanilishi mumkin. Muvozanat holat ( $j_n = 0, j_p = 0$ ) da elektr maydon x o'qi bo'y lab yo'nalgan bo'lsa, (5.6) ifodadan

$$n \mu_n E_x = -D_n \frac{dn}{dx} \quad (5.17)$$

tenglik kelib chiqadi. Agar elektrostatik potentsialni  $\varphi$  bilan belgilasak,

$$E_x = -\frac{d\varphi}{dx} \quad (5.18)$$

bo'ladi va elektronning potentsial energiyasi- $e\varphi$  ga teng. Bol'tsman formulasiga ko'ra, yarimo'tkazgichda aynish bo'lмаган holda  $n = C \exp(\frac{e\varphi}{k_0 T})$  bo'ladi ( $C$ -konstanta). U holda

$$\frac{1}{n} \frac{d\alpha}{dx} = \frac{e}{k_0 T} \frac{d\varphi}{dx} \quad (5.19)$$

(5.20) va (5.21) ni (5.13) ga qo'ysak:

$$\frac{D_n}{\mu_n} = \frac{k_0 T}{e} \text{ yoki } D_n = \frac{k_0 T}{e} \mu_n \quad (5.20)$$

Shunga o'xshash, kovaklar uchun:  $D_p = \frac{k_0 T}{e} \mu_p$  (5.21)

Mana shu diffuziya koeffitsienti, temperature, harakartlanayotgan zarra zaryadi va harakatchanligini bog'lovchiifoda Eynshteyn munosabati deb ataladi.

### Muhokama uchun savollar

1. Yarimo'tkazgichlarda to'gri o'tishlarni izohlab bering.
2. Yarim o'tkazgichlarda noto'g'ri o'tishlar qanday yuz beradi?
3. Yarimo'tkazgichlar sirtidan yorug'likning qaytishini nima?
4. Yarimo'tkazgichlardagi diffuziya hodisasi izohlab bering.
5. Yarim o'tkazgichlarda birlik yuzadan o'tuvchi zarralar soni qanday ifodalanadi?
6. Yarimo'tkazgichlarda erkin diffuziya qanday sodir bo'adi?
7. Yarimo'tkazgichlarda majburiy diffuziya qanday sodir bo'ladi?
8. Yarimo'tkazgichlardagi termodiffuziya, elektrodiffuziya, baridiffuziyani izohlab bering.
9. Yarimo'tkazgichlarning  $n$ -turdagi va  $p$ -turdagi turlarini izohlang.
10. p-n turdag'i o'tishlarni izoxlang.
11. Yarimo'tkazgichlar sirtidan yorug'likning qaytishi qan?
12. Yarimo'tkazgichlardagi o'tkazish koeffisientini izohlab bering.
13. Yarim o'tkazgichlarda qaytish (sochilish) koeffisienti tushuntiring.
14. Yarimo'tkazgichlar sirtida yorug'likning yutilish koeffisienti nima?

## 6-ma'ruza. Diod, diod kuchlanishi va diod tenglamasi

### Asosiy savollar:

1. Ideal diod tenglamasini keltirib chiqarish.
2. Fundamental tenglamalar.
3. Fundamental tenglamalarni  $p-n$ -o'tishga qo'llash

**Tayanch so'z va iboralar:** diod, yarimo'tkazgichli diod, donor aralashma, monokristal, salt yurish EYK, diffuziya hodisasi,

**Darsning maqsadi:** Magistrlarga diod, diod kuchlanishi va diod tenglamasi haqida ma'lumot berish.

### Idetiv o'quv maqsadlari:


- 6.1. Ideal diod tenglamasini keltirib chiqarishni biladi.
- 6.2. Fundamental tenglamalar haqida ma'lumot bera oladi.
- 6.3. Fundamental tenglamalarni  $r-n$ -o'tishga qo'llashni izohlay oladi.

### 1-asosiy savolning bayoni: Yarimo'tkazgichli diod

Yarimo'tkazgichlarda  $p-n$  o'tishni hosil qilish uchun  $p$  va  $n$  o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan ikkita yarimo'tkazgichni mexanik ravishda ulash yetarli bo'lmaydi. Chunki bu holda ulardagi oraliq katta bo'lmaydi.  $p$  va  $n$  o'tishdagi qalinlik atomlararo masofaga teng bo'ladigan drajada kichik bo'lishi kerak. Shu sababli donor aralashmaga ega bo'lgan germaniy monokristali yuzalaridan biriga indiy kavsharlanadi. Diffuziya hodisasi tufayli indiy atomlari germaniy monokristali ichiga kiradi. Natijada  $Ge$  yuzasida  $p$ - tipidagi o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan soha hosil bo'ladi.


Germaniy monokristalining indiy atomlari kirmagan sohasi avvalgidek  $n$ -tipdagi o'tkazuvchanlikka ega bo'ladi. Oraliq sohada  $p-n$  o'tish hosil bo'ladi. Bitta  $p-n$  o'tishga ega bo'lgan yarimo'tkazgichli asbobga **yarimo'tkazgichli diod** deyiladi.

Yarimo'tkazgichli diodga yorug'lik, havo va tashqi elektr, magnit maydonlarining ta'sirlarini kamaytirish uchun germaniy kristali germetik berk metall qobiqqa joylashtiriladi.



6.1-rasm.

Yarimo'tkazgichli diodning shartli belgisi 6.1-rasmida keltirilgan. Ma'lumki, bir yarimo'tkazgich namunasida elektron ( $n$ ) o'tkazuvchanlikli va kovak ( $p$ ) o'tkazuvchanlikli ikki soha hosil qilish mumkin. Elektronlar  $n$ -sohadan  $p$ -sohaga diffuziyalanib o'tib, asosan uning hajmida rekombinatsiyalanib ketadi, chegaraning  $n$ -soha tarafidagi tor qatlamda esa donor ionlardan iborat musbat qo'zg'almas hajmiy zaryad qoladi.



6.2-rasm. p-n-o'tishning energetik sxemasi:a- yoritilmagan (muvozanatdagi) hol;b,v-yoritilgan(nomuvozanat) hol.

Kovaklar esa  $p$ -sohadan  $n$ -sohaga diffuziyalanib o'tib, asosan uning hajmida rekombinatsiyalanib ketadi.Chegaraning  $p$ -soha tarafidagi tor qatlamda esa aktseptor ionlardan iborat manfiy qo'zg'almas hajmiy zaryad qoladi. Hajmiy zaryadlar paydo bo'lishi bilan birga chegaraviyqatlamda  $n$ -sohadan  $p$ -sohaga yo'nalgan elektr maydon va uning ta'sirida elektronlar va kovaklarning drejf oqimlari vujudga keladi.Hajmiy zaryadlar chegaraviy qatlamning shakillanishi to drejf oqimlari diffuzion oqimlarga tenglashgyuncha davom etadi. $p$ - va  $n$ - sohalar chegarasida vujudga keladigan qatlamni  $p$ - $n$  o'tish deyiladi (6.2-rasm).

Xona temperaturasida n-tipdagи yarimo'tkazgichda qancha donor aralashmali atomlar bo'lib, amalda ular ionlashgan bo'ladir. Muvozanatlashgan erkin elektronlar va shunch miqdorda harakatsiz zaryadli ionlar bo'ladi. Kovakli yarim o'tkazgichda  $p$  erkin kovaklar va shuncha harakatsiz manfiy zaryadli ionlar bo'ladi. Ular  $p$ - va  $n$ - kontakda bo'lganda, kovak va elektron kontsentratsiyasini gradienti vujudga keladi,  $n$ - tip yarimo'tkazgichda elektronlar oqimi diffuziyasi va  $p$ -tip yarimo'tkazgichda aksincha kovaklar oqimi vujudga keladi.  $n$ -sohadan  $p$ - sohaga o'tgan elektronlar o'tish chegarasiga yaqin joyda rekombinatsiyalashadi.Xudda shunday kovaklar  $p$ -sohadan  $n$ -sohaga o'tganda rekombinatsiyalnadi. Natijada  $p$ - $n$ -

o'tish sohasi yaqinida amalda erkin zaryadlar qolmaydi,  $p$ - $n$ - o'tishning ikki tomonda harakatsiz ionli zaryadlarning ikkilangan qatlami vujudga keladi.

Yuqorida aytilganlarga ko'ra,  $p$ - $n$ - o'tish sohasi quyidagi asosiy xossalarga egadir:

1. Termodinsmik muvozanat sharoitida  $p$ - $n$ - o'tish sohasi hajmiy zaryad mavjud bo'lgan qatlamdir. Bu halmiy zaryadni asosan donor va aktseptor ionlar tashkil qiladi.

2.  $p$ - $n$ - o'tishning hajmiy zaryadiga bog'lia bo'lgan va  $n$ - sohdan  $p$ -sohaga tomon yo'nalgan elektr maydon mavjud, u esa bu sohada potentsial o'zgarishini taqazo qiladi, binobarin,  $p$ - $n$ -o'tishning chegaralari orasida potentsial lar ayirmasi vujudga keladi.

3.  $p$ - $n$ - o'tishning elektr maydoni elektronlarning  $n$ - sohdan  $p$ -soha tomon va kovaklarning p-sohadan n-soha tomon o'tishiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun hozir aytilgan ma'noda  $p$ - $n$ - o'tish potentsial to'siq bo'lib, uning balandligi  $p$ - $n$ - sohadagipotentsiallar ayirmasiga teng.

4. Yupqagina  $p$ - $n$ - o'tish qatlamdagи ichki elektr maydon elektr yurituvchi kuch hosil qilmaydi.

5.  $p$ - $n$ - sohasida harakatchan zaryadlar – elektronlar va kovaklar juda kam miqdorda bo'ladi, bu sohaning solishtirma qarshiligi juda ham katta ( solishtirma o'tkazuvchanligi juda kichikdir).

$p$ - $n$ - o'tishorqali  $n$ -sohadan  $p$ -sohaga o'tuvchi va kovaklar toklarimzichligini  $j_n^{(n)}$  va  $j_p^{(n)}$  bilan, p-sohadan n-sohaga o'tayotgan kovaklar va elektronlar toklari zichligini esa  $j_p^{(p)}$  va  $j_n^{(p)}$  bilan belgilasak, u holda muvozanat sharti quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$-j_n^{(n)} + j_p^{(p)} - j_p^{(p)} + j_n^{(p)} = 0, \quad (6.1)$$

$$\text{bundan:} \quad -j_n^{(n)} + j_n^{(p)} = 0; \quad -j_n^{(p)} + j_p^{(n)} = 0.$$

(6.1) dan ko'rinishicha, elektronlar toklari yig'indisi hamda kovaklar toklarining yig'indisi nolga teng.

$p$ -sohadan elektronlarning  $n$ -sohaga oqimi zichligi va  $n$ -sohadan kovaklarning  $p$ -sohaga oqimi zichligi to'yinish toki zichligini tashkil etuvchilaridir:

$$j_s = j_n^{(p)} + j_p^{(n)} = j_{ns} + j_{ps} = eD_n \frac{n_p}{L_n} + eD_p \frac{p_n}{L_p} \quad (6.2)$$

Agar  $p$ - $n$ - o'tishli yarimo'tkazgichni fotonning energiyasi  $\hbar\omega \geq E_g$  bo'lgan kuchsiz yorug'lik bilan yoritilsa, unda electron – kovak juftlari vujudga keladi. Agar  $p$ - $n$ - o'tishni uning chegarasi bo'ylab yoritilsa (6.1-rasm), uholla namunada nomuvozanat holatdagi zaryad tashuvchilar vujudga keladi.  $p$ - $n$ - o'tish sohasidan diffuzion uzunlik chamasidagi masofada vujudga kelgan elektron-kovak juftlar  $p$ - $n$ - o'tish chegarasi tomonga diffuziyalanadi, uning maydoni esa juftlarni ajratadi, ya'ni elektronlarni  $p$ -sohadann-sohaga o'tkazadi, kovaklarni esa  $n$ -sohadan  $p$  sohaga o'tkazadi.  $p$ - $n$ -o'tishdan diffusion uzunlik chamasidan nariroqda vujudga kelgan nomuvozanatiy elektronlar va kovaklar  $p$ - $n$ - o'tishga yetib kelolmay, rekombinatsiyalanib ketadilar.

Yorug'lik  $p$ - $n$ -o'tish tekisligiga tik tushayotgan holda (6.2,b-rasm) agar  $p$ - $n$ -o'tish yoritilayotgan sirtdan uncha ichkarida bo'lmasa, uning ikkala tarafida ham electron – kovak juftlar vujudga keladi.

Agar  $p$ - $n$  –o'tish zanjiri uzuq bo'lsa, bu holda yoritish  $n$ - sohada elektronlarning va  $p$ -sohada kovaklarning to'planishi ga sabab bo'ladi, potentsial to'siq eV qadar pasayadi,  $p$ - $n$ - o'tishning muvozanat holati buziladi.Yoritish oqibatida  $p$ - $n$ - o'tishning ikki tarafi orasida paydo bo'lgan qo'shimcha V potentsiyallar ayirmasi *salt yurish EYKi* dyeiladi.

$p$ - $n$ - o'tishni yoritganda  $j_\phi$  fototok hosil bo'ladi, u nomuvozanat holatdagi zaryad tashuvchilar tokiga mos keladi. $p$ - $n$ - o'tishni yoritganda hosil bo'ladigan  $V_\phi$  foto EYK ni aniqlash uchun natijaviy tokni quyidagicha yozib olamiz:

$$j = j_\phi - j_{n,\phi}^{(n)} + j_{n,\phi}^{(p)} - j_{p,\phi}^{(p)} + j_{p,\phi}^{(n)}. \quad (6.3)$$

Muvozanat holatdagi asosiy bo'limgan zaryad tashuvchilar toklari o'zining qiymatini saqlab qoladi:

$$j_{n,\phi}^{(p)} = j_n^{(n)} = j_n^{(p)} = j_{n,s}; j_{p,\phi}^{(p)} = j_p^{(n)} = j_p^{(p)} = j_{ns}. \quad (6.4)$$

Biroq, potentsial to'siq pasayishi tufayli  $p$ - $n$ - o'tish orqali oqadigan asosiy zaryad tashuvchilar ning toklari ortadi:

$$j_{n,\phi}^{(p)} = j_s \exp\left(\frac{eV}{k_0 T}\right); j_{p,\phi}^{(p)} = j_{ps} \exp\left(\frac{eV}{k_0 T}\right). \quad (6.5)$$

To'yinish to'la toki zichligi  $j_s = j_{ns} + j_{ps}$  bo'lishini e'tiborga olib va (6.5) ni (6.3) ga qo'ysak:

$$j = j_s \left(e^{\frac{eV}{k_0 T}} - 1\right) - j_\phi. \quad (6.6)$$

$$\text{To'la fototok} \quad I = j S_{p-n} = I_s \left(e^{\frac{eV}{k_0 T}} - 1\right) - I_\phi, \quad (6.7)$$

$$\text{bundan} \quad V = \frac{k_0 T}{e} \ln\left(1 + \frac{I_\phi + I}{I_s}\right). \quad (6.8)$$

(6.8) tehglama har qanday rejim uchun fotodiod tenglamasidir.Zanjir uzuq bo'lganda ( $I=0, R=\infty$ ) da  $V=V_{\phi, \text{ЭКК}}$  bo'ladi

$$V_{\phi, \text{ЭКК}} = \frac{k_0 T}{e} \ln\left(1 + \frac{I_\phi}{I_s}\right). \quad (6.9)$$

Qandaydir R qarshilik ulangan holda (6.8) ifoda

$$V_R = \frac{k_0 T}{e} \ln\left(1 + \frac{I_\phi - I_R}{I_s}\right), \quad (6.10)$$

ko'rinishni oladi, bunda  $I_R = \frac{V_R}{R}$ . Qisqa tutashuv holida  $p$ - $n$ - o'tishning bu ish rejiminni ventil' fotoelement rejimi deyiladi. Agar  $p$ - $n$  o'tishga yopuvchi yo'nalishda u kuchlanish berilsa, yoritish sharoitida u fotodiod rejimida ishlaydi.Bunday holda teskari VAX ning to'yinish qismi ishlash qismi bo'ladi. Teskari kuchlanish ancha katta bo'lgan holda  $p$ - $n$ -o'tish orqali oqayotgan tok fotomtok va teskari tokdan iborat:

$$I = I_\phi + I_s, \quad (6.11)$$

zanjirdagi tok esa:  $I = \frac{U - V}{R}$ ; fotodiod tenglamasi:

$$\frac{U - V}{R} = I_s \left( e^{-\frac{eV}{k_0 T}} - 1 \right) - I_\Phi, \quad (6.12)$$

$I_\Phi = 0$  bo'lganda bu diodning ma'lum tehglamasiga aylanadi.

### Muhokama uchun savollar

1. Yarimo'tkazgichli diodni ishlash jarayonini izohlang.

2. Ideal diod tenglamasini keltirib chiqaring.

### Testlar

3. Donor aralashmali yarim o'tkazgichlar qanday turdag'i o'tkazuvchanlikka ega?

A) asosan elektron o'tkazuvchalikka; B) asosan teshik o'tkazuvchanlikka;

C) elektr tokini o'tkazmaydi; D) Teng miqdorda elektron va teshikli o'tkazuvchanlikka.

4. Toza yarimo'tkazgichdan elektronlarning tartibli harakati tufayli 1 mA tok o'tmoqda. Yarimo'tkazgichdan o'tayotgan to'la tok kuchi nimaga teng?

A) 1 mA; B) 2 mA; C) 0,5 mA; D) 0.

5. Gapni davom ettiring. "Tempratura ortishi bilan yarim o'tkazgichning qarshiligi ..."

A) ... ortadi; B) ... avval ortadi, so'ngra kamayadi;

C) ... kamayadi; D) ... avval kamayadi, so'ngra ortadi.

6. Yarimo'tkazgichda teshik va elektron uchrashganda nima hosil bo'ladi?

A) musbat ion; B) neytral atom; C) manfiy ion; D) molekula hosil bo'ladi

## 7-ma'ruza. Quyosh fotoelementi

### Asosiy savollar:

1. Ideal quyosh fotoelementi.

2. Fotoelement tuzilishi va fototok generatsiyasi.

3. Zaryad tashuvchilarni jamlanishi va jamlash koeffitsienti.

**Tayanch so'z va iboralar:** fotoelement, fototok generatsiyasi,

**Darsning maqsadi:** Magistrarga ideal quyosh fotoelementi va ularning tuzilishi, fototok generatsiyasi, zaryad tashuvchilarni jamlanishi va jamlash koeffitsienti haqida ma'lumot berish.

### Idetiv o'quv maqsadlari:

7.1. Ideal quyosh fotoelementi tuzilishini va fototok generatsiyasini biladi.

7.2. Zaryad tashuvchilarni jamlanishi va jamlash koeffitsienti haqida ma'lumot bera oladi.

### 1-asosiy savolning bayoni:

#### 7.1. Ideal quyosh fotoelementi


*Ideal quyosh fotoelementi* (fotoelektrik almashtirgich, fotoelement)- elektr qurilmasi bo'lib, almashtirgichlarga o'hshab ishlaydi va elektromagnit nurlanish oqimning bir qismini almashtirishga hizmat qiladi, u (odatda, ko'rinvchi nur va infraqizil elektromagnit to'lqini) fotoelektrik effekt yordamida elektr energiyasiga aylantiriladi.

Fotoelektrik almashtirgichlarning ishlashi asosan yarim o'tkazgichlarda ichki fotoelekt effekt hodisasiga asoslangan. Yarim o'tkazgichlarga elektromagnit

nurlanish ta'sir qilish natijasida, fotoelementda erkin harakatlanuvchan musbat (kovaklar) va manfiy (elektronlar) zaryad tashuvchi juftlar hosil bo'ladi, undan kyein elektr maydoni ta'sir qilganda element ichida bo'linish sodir bo'ladi.

### **Elektromagnit nurlanishi**

### **Qarshilikning o'zgarisi**




7.1 – rasm. Fotoelektr almashtirgich

Shunga asosan, ideal yarim o'tkazgichda nurlanishning yutilishi elektron –teshik juftlikni hosil bo'lishiga olib keladi, ularning yasashda davri yarim o'tkazgich materialning tuzilish tarkibiga bog'liq bo'ladi. Elektron –teshik juftllarini annigilyatsiya jarayoniga *rekombinatsiya* deb ataladi. Nurlanishning hamma chastotalari ham elektron –teshik juftllarini generatsiya qila olmaydi, atom yadrosidagi elektronlani bog'lanish energiyasini yengib chiqishi uchun yetarli bo'lganida hosil bo'ladi. Jarayon vaqtidagi elektromagnit nurlanishning xarakteristikasini yarimo'tkazgich materialining hossalarini belgilaydi, hamma yarimo'tkazgichlar ham bunday nurlanish uchun sezgir bo'lmaydi. Elektromagnit nurlanishini yutilishi ta'siri ostida fotonlar elektronlar to'la zonadanadan erkin zonaga o'tadi, bunda foto'o'tkazuvchanlik sodir bo'ladi. Bunda yarim o'tkazgich qo'shimcha o'tkazuvchanlik hasil qiladi, lekin elektr harakatlanuvchi kuch hosil qilmaydi.

Bundan tashqari boshqa fizik hodasa ham bor, yarimo'tkazgichga tushuvchi yorug'lik nuri o'zgaritsa elektr harakatlanish kuchi ham oshadi. Buning uchun yarim o'tkazgich tekis b'olmagan yorug'lik bilan yoritiladi, bunda yarim o'tkazgich sirtining bir qismi kuchli yoritiladi, boshqa qismi kuchsiz yoritiladi. Bunda yorig' va qorong'i qismlarda potensiallar farqi vujudga keladi. Bu hodisa shuni ko'rastadiki, yoritilish vaqtida elektronlar yoritildan qismda, qoraygan qismga qaraganda ko'proq miqdorda diffuziyalana boshlaydi, teskari yo'nalishga nisbatan.

Bu diffuziyaning ustunligi shunga olib keladiki, qoraygan qism (elektron o'tkazuvchanlik mexanizimi holida) asta sekin manfiy zaryadlana boshlaydi, yoritilgan qism esa –musbat zaryadlanadi. Bu jarayon ta'sirida yarim o'tkazgich ichida elektr maydon hosil bo'ladi va asta - sekin potentsiallar farqi orta boshlaydi. Ma'lum vaqt o'tish bilan muvozanat holat yuzaga keladi, bunda va bu tomondagи elektronlar oqimining xarakeri tenglashadi. Yarimo'tkazgichchnih yorug' va qorong'i qismlarda muvozanat sodir bo'lganida, potentsiallar farqi vujudga keladi, uning kattaligi 0,2 V yetadi. Fototok hosil qilish va undan amalda foydalanishda fotoelektrik effekt hosil qilish uchun elektron – teshik juftlarni ajratish kerak bo'ladi. Ajratilgan musbat va manfiy zaryadlar energetik (taqiqlangan) to'siq hosil qilishi mumkin. Ko'pchilik fotoelementlarda energetik to'siq bo'lib, ikki hil o'tkazuvchanlikli yarim o'tkazgich materialli chegarasida sodir bo'luvchi elektr maydoni hisoblanadi, farqlanuvchi elektr o'tkazuvchi tiplar ( $n$  – elektron va  $p$  – teshik). Yarim o'tkazgich tarkibini nur bilan yoritish vaqtida, elektr maydonda

elektron- teshik juftlarni bo'linishida foto -e.y.k shakillanishiga olib keladi. 7.2-rasmda berilgan fotoelement qurilmasi bu vazifani bajaradi.



7.2-rasm. Quyosh elementi qurilmasi


Bunday fotoelement ikki qatlamlı yarımları o'tkazgich materialı, masalan, n- va p-yupqa qatlamlı qandaydır boshqa metall surkaladi, masalan kumish. Bu yupqa metall qatlam yarımları shaffof bo'lib, quyosh nurlanishini yaxshi o'tkazadi. Bu qatlam tashqi elektröd bo'lib hisoblanadi. Pastki elektröd sifatida mis plastinkasidan foydalanish mumkin. 7.2-rasmda quyosh elementi qurilmasi keltirilgan. Agar eng sodda bo'lган elektr zanjirini yig'sak-yarim shaffof kumush qatlamlı o'tkazgich simga ulab qisqich yordamida gal'vanometrغا ulasak, uning ikkinchi qisqichini mis plastinkasiga ulasak, bunday zanjirda tok manbai b'olmaydi va shu sababli ga'vanometr ko'rsatishi nulga teng bo'ladi. Agar yuqorigi yarımları shaffof kumush qatlama yorug'lik nurlanishi oqimini yo'naltirsak, unda gal'vanometr strelkasi nul holatdan ketadi, zanjirda elektr toki hosil bo'ladi. Shunday qilib, fotoelement sirtiga yoruglik nurlanishi berilsa zanjirda elektr toki hosil bo'ladi. Huddi shunga o'xshash hodisa boshqa yarımo'tkazgichlarda ham uchrashi mumkin. Bu effekt quyidagi yarımo'tkazgichlarda sodir bo'ladi: oltingugurt talliy, oltingugurt kumush, selen, germaniy, kremniy, oltingugutr kadmiyyda alohida effekt beradi. Bu fizik hodisa berkituvch qatlamlı fotoeffekt yoki ventil' fotoeffekti deb ataladi. Fotoelektr almashtirgichning elektr sxemasi 7.1-rasmda berilgan, o'zining ichiga yarımları o'tkazgichli fotosezgir qatlamlı materialni oladi, ikki elektr tokini o'tkazuvchi elertrodlar orasiga joylashtirilgan bo'ladi.

Elektrodlardan biri shaffof materialdan tayorlangan bo'lib, undan quyosh nurlanishi o'tadi va fotosezgir materialga tushadi. Bunday element to'liq yoritilganda uning elektrodlari orasida potentsiallar farqi yuzaga keladi (chiqish kuchlanishi) taxminan 0,5 V.

Quyosh nurlanishini elektr energiyasiga almashtirish mexanizimini bir qancha pog'onalarga bo'lish mumkin. Birinchi bosqichda, quyosh nurlanishi yutilishi natijasida yarımları o'tkazgichdan bir vaqtning o'zida "elektronlar" va "teshiklarni" bo'shatadi, "elektron -teshik" juftlarini hosil qiladi. Bo'shagan juftlarda shunga olib keladiki, elektronlar to'la zonadan erkin zonaga siljiy boshlaydi, shunday qilib

elektron o'tkazuvchanlik bilan almashadi, ‘teshiklar’ to'la zonada qoladi va elektr o'tkazuvchanlikda ishtirok etadi. Agar nurlanish faqat bitta yarimo'tkazgichda yutilsa, boshqa yarimo'tkazgichlar bilan kontaktta bo'lmasa, yorug'lik nuri ta'siri ostida “elektron – teshik” juftlarini faqat berilgan yarimo'tkazgich uchun o'tkazuvchanligi ortadi. Agar tizim bo'sa, unda elektron o'tkazuvchanlikli yarimo'tkazgich bo'lsa (n) harfi va teshik o'tkazuvchanlik bo'lsa (p) harfi bilan belgilanadi.

### Elektromagnit nurlanish      Fotoelektrik qatlam



### Elektrod

7.3-rasm.Berkituvchi qatlamlı quyosh fotoelement qurilmasi.

Yarimo'tkazgichlar oralig'i berkituvchi qatlamdan iborat. p va n tipdag'i yarimo'tkazgich qatlami kontaktlari, ular orasida elektr maydonni hosil qilishga olib keladi.”Teshik”li yarimo'tkazgichlarda chqish ishi elektronni chiqish ishidan katta sharti bajarilsa, (ikki yarimo'tkazgich bir xil ximiyaviy tarkibga ega bo'lsa), unda kontaktlardagi elektr maydon yo'nalishi elektronlidan “teshik” o'tkazuvchanlikka bo'ladi. “Bo'shagan” nurlanish asosiy bo'lмаган tok elitgichi bo'ladi, ya'ni elektronlar teshikli yarim o'tkazuvchda yoki “teshik” elektron yarimo'tkazgichda, bunday maydon ta'sirida berkituvchi qatlam bir yarimo'tkazgichdan boshqasiga o'tadi. Asosiy tok elitgichlar bir yarimo'tkazgichdan boshqasiga o'tishida, qaralayotgan tizimning bir tarafida ularhning yig'lishi, shu vaqtning o'zida boshqa qismda asosiy tok tashuvchilar yig'ladi. Quyosh nurlanishi hisobiga “elektron – teshiklar” juftlari bo'linishni boshlaydi: elektronlar elektron yarimo'tkazgichga kontsentratsiyalanadi, teshiklal esa teshik yarim o'tkazgichga yig'ladi.

Bu jarayon cheksiz davom etishi mumkin, ya'ni parallel holda teshiklar kontsentratsiyasi ortishi bilan “teshiklar” yarim o'tkazgichida va elektron-elektronli ortishni boshlaydi, ularning elektr maydonlari ortadi, asosiy bo'lмаган elitgichlarning bir yarimo'tkazgichdan ikkinchisiga o'tishiga berkituvch qatlam yo'l qo'ymaydi. Bir vaqtning o'zida bu maydonning ortishi natijasida, teskari oqim asosiy bo'lмаган tok elitgichi ham ortadi. Jarayonning oxirida, dinamik muvozanat yuz beradi.


Bu vaqtda elektrodlar orasida stabil potentsiallai farqi hosil bo'ladi, bu fotoelektr harakatlantiruvchi kuch bo'lib hisoblanadi. Bunday dinamik muvozanatni hosil qilishda, shuni nazarga olish keraki, asosiy bo'lмаган tok tashuvchilar soni N birlik vaqt ichida aralashishi yoritilgan yarimo'tkazgichda berkituvchi qatlam orqali boshqa yarim o'tkazgichga quyosh nurlanishining oqim zichligi intensivligiga bog'liq bo'ladi. Nurlanish intensivligi ortishi bilan N soni ham ortadi. Boshlanishda bu ortish

chiziqli qonun bo'yicha bo'ladi, keyin N ning ortishi kamaya boshlaydi, asta sekin xarakterli qiymatga yaqinlasha boradi, dinamik muvozanat holatga o'tadi.

Mos ravishda, N ning o'zgarishi quyosh nurlanishi intensivliining o'zgarishiga bog'liq holda fotoelektr harakatlanuvch kuchi kattaligini o'zgartiradi, hamda eng muhim natija berkituvchi qatlamlı fotoeffektda olinadi. Berkituvchi qatlamlı fotoeffekt "asosiy bo'limgan" tok tashuvchilar katta diffuziyali uzunlikli va mos ravishda katta yashash vaqtiga ega bo'lgan yarim o'tkazgichli sistemada aktiv o'tadi. Quyosh nutrlanish oqimi generatsiyasida zaryad tashuvchilar  $I_f$  fototok hosil qiladi. Fototok kattaligining son qymati generatsiyasidan o'tgan tashuvchi zaryadga, birlik vaqt ichida  $p-n$  o'tishga bog'liq bo'ladi va quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$I_f = (q \cdot P_n) / h\nu, \quad (7.1)$$

bu yerda  $q$  - elektronning zaryad kattaligi,  $P_n$  – monoxromatik nurlanishning yutilgan quvvati;  $h\nu$  - fotonning energiyasi, elektron – vol'tda.



7.4-rasm. Quyosh elementi fotoelektrik almashtirgichi

Bu yerda shuni e'tiborga olinganki, yarimo'tkazgich xar bir fotonni yutishida energiya  $h\nu > E_g$  (yarimo'tkazgichning taqiqlash zonasini kengligi) bitta elektron – teshik jufti hosil qiladi deb qaraladi. Bu shart kremniy asosli fotoelementlarda yaxshi bajariladi. Berkituvchi qatlamlı fotoeffektning ochilishi yarimo'tkazgichlarning amalda qo'lash imkoniyatlarini oshiradi va uning asosida ventil'i fotoelementlar yaratildi, uning asosida Quyosh nurlanish energiyasini to'g'ridan - to'g'ri elektr energiyasiga aylantiruvchi qurilmalar ishlab chiqilmoqda. Quyosh elementining sxemasi 7.4-rasmida berilgan. Bir qancha fotoelektrik almashtirgichlarni birlashtirish natijasida quyosh batareyalarini yasash mumkin.

**Yutilish koefitsienti.** Optik nurlanish bilan yarimo'tkazgich ta'sirlashganda, uning sirtidan qisman qaytadi, qisman sirtda yutiladi va qisman yarimo'tkazgichdan yutilmasdan o'tadi. Ular mos ravishda qaytuvchi, o'tuvch va yutiluvchi energiya koefisienti bilan baholanadi.

O'tkazish koefisienti

$$T = P_{o'tgan} / P_{tush}, \quad (7.2)$$

Qaytish (sochilish) koefisienti

$$R = P_{qaytgan} / P_{tush}, \quad (7.3)$$

Yutilish koefisienti

$$A = P_{yutilgan} / P_{tush}, \quad (7.4)$$

bu yerda  $P_{o'tgan}$  – o'tgan nurlanishning quvvati,  $P_{qaytgan}$  – qaytgan nurlanish quvvati,  $P_{yutilgan}$  – yutilgan nurlanishning quvvati,  $P_{tush}$  – tushuvchi nurlanish quvvati.

Ma'lumki, yorug'lik to'lqini yarimo'tkazgich sirtiga tushganda yorug'lik oqimining  $P_R$  qismi shu sirdan qaytadi,  $P_T$  qismi yarim o'tkazgichdan o'tib ketadi,  $P_r$  qismi sochiladi va  $P_\alpha$  qismi o'tkazgich hajmida yutiladi. Bu qismlarning tushayotgan to'la yorug'lik oqimi  $P_0$  ga nisbatlari quyidagiga teng:

$$R = \frac{P_R}{P_0}; T = \frac{P_T}{P_0}; r = \frac{P_r}{P_0}; A = \frac{P_\alpha}{P_0}, \quad (7.5)$$

bu yerda mos ravishda, qaytarish, o'tish, sochilish koeffisientlari bo'lib, yutilish qobilyati deb ataladi. Energiyaning saqlanish qonuniga ko'ra, bu koeffisientlarning yig'indisi 1 ga teng:

$$R + T + r + A = 1 \quad (7.6)$$

Bu koeffisientlar yarim o'tkazgichlarning xossalariiga, nurlanishning to'lqin uzunligiga, tushish burchagiga, qutublanish hamda namuna sirtining ishlanishiga, uning qalinligiga bog'liq bo'ladi.

Yorug'lik yutilishining bir necha mexanizmlari mavjud. Yorug'lik yutilishi mexanizimi qanday bo'lsa ham, yarimo'tkazgich hajmida fotonlar oqimini Buger-Lambert qonuniga binoan eksponentsal ravishda kamayib boradi:

$$I_\nu(x) = I_{\nu_0}(1 - R_\nu)e^{-\alpha x}, \quad (7.7)$$

Bu yerda  $I_0$ - yarimo'tkazgich sirtiga tushayotgan  $\nu$ -chastotali fotonlar oqimi, foton  $\text{sm}^2\text{s}$  (yoki yoruglik intensivligi,  $\text{Vt/sm}^2$ );  $I_{\nu_0}(1 - R_\nu)$ -yarim o'tkazgich ichiga kirgan fotonlar oqimi;  $I_\nu(x)$ -sirdan x masofa ichkaridagi fotonlar oqimi;  $\alpha$ -yutilish koeffisienti,  $\text{sm}^{-1}$ ;  $R_\nu$ -qaytarish koeffisienti.

Yutilishni ko'rsatgichi  $\alpha$  – sirtgacha bo'lgan masofaga teskari kattalik bo'lib, boshlang'ich tushayotgan nurlanish quvvatini  $e=2,71$  marta susaytiradi, x chuqurlikda u quyidagi ko'rinishda ifoda qilinadi:

$$P(x) = P_{tush} e^{-\alpha x} \quad (7.8)$$

$$\alpha = -\frac{1}{x} \ln \frac{P(x)}{P_{tush}}, \quad (7.9)$$

bu yerda  $P(x)$ - x-chuqurlikda nurlanishning quvvati. Yutilish koeffisienti bilan tushuvchi nurlanishning to'lqin uzunligi orasidagi bog'lanishni  $\alpha(\lambda)$  – yutilish spektri deb ataladi. Agar taqiqlangan zona uncha katta bo'lmasa ( $\Delta E = 1\text{eV}$ ), elektronning valent zonadan o'tkazish zonasiga issiqlik yoki nurlanish (boshqa) ta'sir bilan ko'chirish mumkin. Masalan, Ge uchun man qilingan zona kengligi 0,72 ev, Si uchun esa 1,11 eV. O'tkazgichlar uchun man qilingan zonaning kengligi nolga teng, yarim o'tkazgichlar uchun 2 eV dan oshmaydi, dielektriklar uchun 2 eV dan katta bo'ladi. Elektronning o'tish zonasiga o'tishi uchun yutilgan foton energiyasi ma'n qilingan zona kengligidan katta bo'lishi kerak:

$$E_{ph} = h\nu \geq E_g \quad (7.10)$$

bu yerda  $E_{ph}$  – tushuvch foton energiyasi,  $E_g$  – man qilingan zonaning kengligi, h-Plank doimiysi,  $\nu$  – nurlanishning elektromagnit tebranish chastotasi. QE asosiy xarakteristikasi FIK – aniqlashda quyosh energiyasi urlanish samaradotrligini elektr energiyasiga almashtirishda [4,5] ga asosan;

$$\eta = \frac{P_M}{P} = \frac{ff J_{sc} U_{oc}}{P}, \quad (7.11)$$

Bu yerda  $P$  – QE ning birlik yuzaga tushuvchi nurlanishning quvvati,  $PM$  – QE sirtidan maksimal chiquvchi quvvat,  $ff$  – to'latish yoki VAX shaklini ifodalovchi koeffitsent.

$$ff = \frac{J_M U_M}{J_{sc} U_{oc}}, \quad (7.12)$$

Bu yerda  $J_M$  va  $U_M$  – tok va kuchlanish zichligi,  $P_M$  nuqtaga mos keluvchi eng katta quvvat (6.6-rasm). QE FIK ko'rsatadiki, unga tushuvchi yorug'lik energiyasining qancha qismi energiyasiga aylantirishni ko'rsatadi. FIK faol maydon sirtining yuzi bilan farq qiladi va FIK umumiy sirt yuzasi bo'yicha

$$\eta_{akt} = \frac{P_{el}}{S_{akt} \Phi_0} \quad (7.13)$$

Bu yerda  $P_{el}$  – QE ishlab chiqan elektr quvvati,  $\Phi_0$  – QE ga tushgan yorug'lik oqim zichligi,  $S_{akt}$  va  $S_{umum}$  – aktiv yuza va QE umumiy sirti. Agar QE FIK ko'rsatilmagan bo'lsa, qoidaga ko'ra,  $\eta_{akt}$  bo'ladi. Salt ishlash kuchlanishi ( $U_{oc}$ )- bu maksimal kuchlanish bo'lib, QE ning ochiq holatida, unga tushayotgan yorufg'lik nurlanishidagi kuchlanish. Qisqa tutashuv ( $I_{sc}$ ) – bu maksimak tok bo'lib, QE chiqishidagi uni qisqa tutashirishda o'tuvchi tok. Qisqa tutashuv vaqtida tok zichligi quyidagicha aniqlanadi, qisqa tutashish tokini QE ni yuzasiga bo'linadi:

$$J_{sc} = I_{sc} / S_{akt}, \quad (7.14)$$

Ko'p hollarda  $S_{akt}$  aniqlash qiyin bo'lganligi sababli,  $S_{umum}$  dan foydalaniladi. Qoidaga ko'ra QE ning sirt yuzasi ko'rsatiladi. Umumuy maydon quyidagi ko'rinishda beriladi  $S=a \times b$ ,  $a$ -QE ning uzunligi;  $b$ - QE ning kengligi, yoki  $sm^2$  beriladi.

Kontsentratorlardagi elementlarda nurni yig'ish koeffitsenti alohida tartibda beriladi. Bularidan tashqari,

$$J = J_{ph} - J_d = J_{ph} - J_0 \left( \exp\left(\frac{e(U + JR_s)}{AkT}\right) - 1 \right) - \frac{JR_s}{R_n} \quad (7.15)$$

(7.15) ifodaning tarkibiga bir qator parametrlar kiradi. Bu patrametrlar QE VAX ni ko'rinishini aniqlaydi, shunga ko'ra FIK. QE amaliy ishlatishda yuqorida ko'rsatilganlarga asosan VAX optimallashtirish kerak bo'ladi.

### 7.3.Umumiy elektr tarmog'iga ulangan quyosh fotoelektrik qurilmalari

Quyosh nurlanishi yordamida olingan elektr energiyasidan foydalanishning k'op ustun jihatlari bor. Bu ekologik toza, tinch va ishonchli energiya manbaidir. Shu sababli xozirgi vaqtida, markaziy elektr ta'minoti bo'limgan uzoq hududlarda quyosh elektridan keng foydalaniladi, alohida uylarni elektr ta'minoti, ofislar va boshqa binolarga suvni ko'tarish va dorilarni sovutishda ishlatiladi.

Bunday quyosh panellariga qo'shimcha akkumulyator batareyasi ulanadi bunda elektr energiyasidan foydalanishga imkoniyat yaratiladi, kunduzgi vaqtida ishlab chiqilgan energiyadan kechquringi vaqtida foydalaniladi. Bundan tashqari, kal'kulyatorlar, telekomunikatsion tizimlar, va boshqalar quyosh elektrida ishlaydi. Quyosh fotoelektr

qurilmalari quyidagi turlarga bo'linadi:

□ avtonom – qo'llanilishi, agar ob'ekt markaziy elektr ta'minot tizimiga ulnmagan bo'lsa, quyosh moduli elektrni generatsiya qiladi, yoritish maqsadida, maishiy qurilmalarni yoki qo'lda ishlata digan qurilmalarni manbai bo'ladi; bunda odatda akkumulyator batareyasidan foydalaniladi;

□ ulanganda – agar ob'ekt markaziy elektr ta'minot tizimiga ulngan bo'lsa, quyosh batareyasidan hususiy elektr energiyasini generatsiya qilishda foydalaniladi, ortiqca elektr energiyasine elektrosetga sotadi;

□ rezerv tizimlar – fotoelektr qurilmalar setga ulangan sifati yomon va cho'qi yuklanishni qoplash uchun yoki avariya holatida foydalaniladi, odatda u o'z ichiga akkumulyatorlar va o'zgarmas tokni o'zgaruvchan tokka aylatiruvchidan tashkil topgan bo'ladi.

#### **7.4. Quyosh fotoelektrik stansiyalar**

Quyosh fotoelektrik stansiyalarni qo'lani lishi kosmik kemalardan boshlandi, ishlab chqilgan energiyani naxi ikkinchi darajali rolli edi. Yer sharoitida quyosh elektri uchun asosiy faktor bu texnologiyani harakatlanishi hisoblanadi. Keyingi 40 yilda kremniyli fotoelektr almashtirgichlarning bahosi 40 marta pasaydi. Bir kW quvvat quyosh elektrostantsiyalarida 2500\$ ga to'g'ri keladi.

Bir vaqtning o'zida quyosh nurlanishini elektr energiyasiga aylantirish samaradorligi ham oshdi. Xozirgi vaqtda FIK quyosh modulida 13 – 16 % ga yetdi, laboratoriya sharoitida samradorlik 40 %. Lekin, hamma bu yutug'larga qaramasdan, quyosh elektr energiyasi va ana'naviy issiqlik elektrostantsiyalari ishlab chiqarayotgan energiyaning taxminiy narxi tenglasha olmaydi. Asosiy omillarga ta'sir qiluvch raqobatbardoshlik quyosh energetikasida, kelajakda quyosh energiyasini elektr enrgiyasiga aylantirish texnologiyani mukamallashadi, organik va yadro yonilg'isini narxiga tenglashishadi

#### **Takrorlash uchun savollar**

1. Yarimo'tkazgichlarda o'tkazish koeffisientini izohlab bering.
2. Yarim o'tkazgichlarda qaytish (sochilish) koeffisienti tushuntiring.
3. Yarimo'tkazgichlar sirtida yorug'likning yutilish koeffisienti nima?
4. Yarimo'tkazgichlar sirtida va ichida bo'ladi gan hodisani tushuntiring.

5. Yorug'lik yutilishining yarim o'tkazgichdagi samaradorligi qanday aniqlanadi?

#### **Adabiyotlar**

1. Н.Акрамов, С/Зайнобиддинов, Ф. Тшабоев “Yarimo'tkazgichlarda fotoelektrik hodisalar”. -Т.: “О'zbekiston”, 1994. -272 б.
2. В.Ф.Греенок, М.С.Тиванов, В.Б.Залесский. Солнечные элементы на основе полупроводниковых материалов.//Международный научный журнал “Альтернативная энергетика и экология” №1(69) 2009.59-115 с.
3. Фаренбрух А., Бьюб Р.Солнечные элементы: теория и эксперимент/пер. с анг. под ред. М.М. Колтуна.М.: Энергоатомиздат, 1987.
4. Зи.С.Физика полупроводниковых приборов: в 2 т./ пер. с анг. В.А.Гергеля, В.В.Ракитина; под ред. Р.А. Суриса.М.: Мир. 1984. Т.2.
5. Васильев А.М., Ландсман А.П. Полупроводниковые фотопреобразователи М.: Сов. радио, 1971.

## 8-ma'ruza. Fotoelement parametrlari

### Asosiy savollar:

1. Spektral sezgirlik va fotovoltaik effekt.
2. Qistsa tutashuv toki va salt ishlash kuchlanishi.
3. VAX va uning tuldirish koeffitsienti. Foydali ish koeffitsienti yoki samaradorlik

**Tayanch so'z va iboralar:** fotoelement, fototok generatsiyasi, spektral sezgirlik, fotovoltaik effekt,

**Darsning maqsadi:** Magistrlarga fotoelement parametrlari, spektral sezgirlik, fotovoltaik effect, qistsa tutashuv toki va salt ishlash kuchlanishi, VAX va uning tuldirish koeffitsienti, foydali ish koeffitsienti yoki samaradorlik haqida ma'lumot berish.

### Idetiv o'quv maqsadlari:

- 8.1. Spektral sezgirlik va fotovoltaik effektini biladi.
- 8.2. Qistsa tutashuv toki va salt ishlash kuchlanishi haqida ma'lumot bera oladi.
- 8.3. VAX va uning tuldirish koeffitsienti va foydali ish koeffitsienti yoki samaradorlikni izoxlay oladi.

### 1-asosiy savolning bayoni:

Shu sababli xususiy yutilish spektri aniq chegara qiymatlar bilan ifodalanadi, uni fotoeffektning qizil chegarasi deb ataladi:

$$\lambda_{chegra} = ch / E_g, \quad (8.1)$$

$\lambda_{chegra}$  chegara sohada fononlar, eksitonlarda yutiladigan sohalarda to'g'ri bo'limgan o'tishlar kuzatilishi mumkin 8.1-rasmdagi 2 soha.  $\lambda_{chegra}$  kattalik temperatura, tashqi maydon ta'sirlari va yarim o'tkazgichning legerlashdagi aralashmalar ta'sirida bo'ladi.

Yarim o'tkazgich nurlantirilganda unda zaryad tashuvchilarda o'zgarish bo'ladi, bunday elektr o'tkazuvchanlikni –fotorezistivli effekt deb ataladi. Umumiy o'tkazuvchanlik bu holda


$$\sigma = \sigma_0 + \sigma_{ph}, \quad (8.2)$$

$$\sigma_0 = e(n_0\mu_0 + p_0\mu_p) \quad (8.3)$$

$\sigma_0$  – qorong'idagi xususiy o'tkazuvchanlik,  $\sigma_{ph}$  – foto o'tkazuvchanlik,  $\mu_n; \mu_p$  – tesik va elektronlar harakarchanligi,  $n_0$  va  $p_0$  – bir xil og'irlikli konsentrasiyadagi erkin elektronlar va teshiklar, e- elementar zaryad. Yorug'lik yutilishini yarim o'tkazgichda samaradorligini aniqlashda kvantlar chiqishi hisobga olinadi

$$\eta_{ph} = \frac{\Delta n + \Delta p}{2N_{yut}}, \quad (8.4)$$

bu yerda  $\Delta n, \Delta p$  – yorug'lik nurlarini yutishda ortiqcha zaryad tashuvchilarning miqdori,  $N_{yut}$  – yutilgan fotonlar soni [6]. Ideal holda  $\eta_{ph} \approx 1$  bo'ladi, ya'ni bir yutilgan foton bir juftli elektron va teshiklar jufti hosil qiladi deb qaraladi.




8.1-rasm.Yarimo'tkazgich materiallarning optik yutilishi (uzuluksiz egri chiziq) vafoto'o'tkazuvchanlikkaspektral bog'lanishi (shtrihlangan egri chiziq):1-xususiy yutilish; 2- fonon va eksitonning ta'sirida to'g'ri bo'lмаган o'tishlar; 3,4-qo'shimchalarning yutilishi [3]

Kirishmaning konsentrasiyasini ortishi  $\lambda_{chegra}$ pasaytiradi valent zona yuqori qismini to'lishi yoki o'tkazuvchi zonaning tubidagi energetik sathlar atrofida pasayadi. Temperatura ortishi ko'pchilik yarim o'tkazgichlarda  $\lambda_{chegra}$  qiymatini oshishiga, man qilangan zonaning kengligi kamayishiga olib keladi. Elektr maydoni ta'sirida  $\lambda_{chegra}$ uzun to'lqinli soha tomonga siljiydi (Keldish-Frans effekti), magnit maydoni ta'sirida esa qisqa to'lqinli tomon siljiydi (Landau yoyilishi). 3 va 4 soha 4.1-rasmda aralashma tomonidan yutilish ko'rsatilgan, (foton energiyasi aralashma atomlarini ionlashtirishga sarf qilinadi).

Aralashmaning ionizasiya energiyasi  $\delta E_{ar} \ll E_g$  bo'lganda, aralashmaning yutilish spektri IQ-sohaga siljigan bo'ladi. Aralashma atomlaridagi elektronlar asosan uyg'ongan holatda bo'ladi, shu sababli yutilish spektri bir qancha oraliqlarda bo'ladi (misol uchun 8.1-rasmdagi 3 va 4. Eksiton yutilish fotonning shunday yutilish energiyasiga mos holda, valent zonadagi elektron atomdan ajralmaydi, u uyg'ongan holatga o'tadi, kovak hosil bo'ladi, ya'ni elektr dipol – eksiton hosil bo'ladi. Eksitonning yutilish spektrlari ingichka chiziq bo'lib,  $\lambda_{chegra}$ sohada (rasmda ko'rsatilmagan).8.1-rasmdagi 5 soha panjarali yutilishga mos keladi, yorug'lik kvantlari fononlarni generasiya qiladi va yarim o'tkazgichning issiqlik energiyasi ortadi. Bunday yutilish spektri amalda uzuliksiz bo'ladi, chunki spektrlar orasi juda kichik bo'ladi.

*QE spektral sezgirligi.* QE optik nurlanish energiyasini aniq spektral sohasini elektr energiyasiga almashtiradi. Shu sababli QE asosiy xarakteristikalaridan biri spektral sezgirligi bo'lib hisoblanadi. QE spektral sezgirligi deganda  $J_{sc}$  ( $J_{ph}$ ,  $U_{oc}$ ) kattalik bilan tushuvchi monoxromatik nurlanish to'lqin uzunligi orasidagi bog'lanish tushuniladi, uning me'yori birlik tushuvch energiyaga nurlanishiga mos keladigan berilgan to'lqin uzunligi bo'lib hisoblanadi.QE fototokni generatsiyalashda QE

spektral seliktivligini sabablarini qarab chiqaylik. Optik nurlanishning turli to'lqin uzunligi turli chuqurliklarga o'tib boradi va o'zining taqsimotiga ega bo'ladi, yorug'lik ta'sirida elektron-teshik juftlar generatsiyasini hosil qiladi. Shu sababli  $J_{ph}$  ni aniqlashda tushuvch nurlanishning spektral tarkibi orqali va fazoviy joylashishi orqali baholanadi.




4.2-rasm. QE ning bir o'lchamli sodda modeli [4]: W-fazoviy zaryad sohasining kengligi;  $L_n$ - p-sohadagi elektronlar diffuziyasi uzunligi;  $L_p$  – n-sohadagi teshiklar diffuziyasi uzunligi;  $X_j$ - fazoviy zaryad sohasining n-sohadagi chegarasi;  $L$ - p-n – o'tishning kirib borish chuqurligi;  $H$ - Kvazineytral sohadagi p-bazaning qalinligi;  $H'$ - to'liq qalinlik

QE larini fototokni generatsiyalashda uch sohaga bo'lish mumkin (4.3-rasm). Unda

$$J_{ph} = J_p + J_n + J_{SCR}, \quad (8.5)$$

bu yerda  $J_p$ -fazoviy zaryadning sohasining, 1 sohada hosil bo'lgan teshikning tok zichligi;  $J_n$ - fazoviy zaryadning sohasining, 3 sohasidagi hodsil bo'lgan elektronlar tok zichligi;  $J_{SCR}$ - elitgichning tok zichligi, fazoviy zaryadning sohasini ichki 2 sohasida.



**4.3-rasm.** p-n – o'tishning ligerlash profili. Shtrihlangan qism birlashgan sohani bildiradi

### Takrorlash uchun savollar

1. Yarimo'tkazgichlardagi spektral sezgirlik qanday kattaliklarga bog'liqligini izohlab bering.
2. Yarim o'tkazgichlardagi fotovoltaik effektni tushuntiring.
3. Yarimo'tkazgichlarda qisqa tutashuv toki nima?
4. Yarimo'tkazgichlarda salt ishlash kuchlanishini tushuntiring.
5. Yarimo'tkazgichlarda VAX va uning tuldirish koefitsienti qanday aniqlanadi.

## 9-ma'ruza. Qarshilik xarakteristikalari

### Asosiy savollar:

1. Parazitik qarshilik effekti va ketma-ket, parallel qarshiliklar.
2. Temperatura va yorug'lik intensivligi ta'siri. Ideallik faktori.

**Tayanch so'z va iboralar:** parazitik qarshilik, ketma-ket, parallel qarshilik, ideallik faktori, fotovoltaik effekt, injektsiyalanuvch

**Darsning maqsadi:** Magistrlarga qarshilik xarakteristikalari, parazitik qarshilik effekti va ketma-ket, parallel qarshiliklar, temperatura va yorug'lik intensivligi ta'siri, ideallik faktori haqida ma'lumot berish.

### Idetiv o'quv maqsadlari:

9.1. Parazitlik qarshilik effekti va ketma-ket, parallel qarshiliklar haqida ma'lumot bera oladi.

9.2. Temperatura va yorug'lik intensivligi ta'siri. Ideallik faktorini biladi.

### 1-asosiy savolning bayoni:

**Quyosh moduli.** Quyosh moduli alohida yacheikalardan (fotoelementdan) iborat bo'lib, ular ketma-ket ulanadi. Bunday holda foto E.Y.K.yig'iladi, yachekalarning har biridagi E.Y.K. ning qiymati 0,5 V bo'ladi. Odatta modulni tashkil qilishda 30-36 yacheykadan tashkil topadi. Yacheykani modulga ularashda, mustahkamligi va konstruksiyani qatiqligi, elektr izolyatsiyani ishonliligi va iqlim ta'siridagi sharoitlardagi omillarga ta'sirchan bo'lmasligini ta'minlashi lozim. Bunday maqsadni amalga oshitrishda, yachykani elektr izolyatsiyasini ta'minlash maqsadida, rezinka yoki plastinkali kapsula qobiq bilan o'raladi. Ularni qotirishda, quyoshga qaragan tarafini kam miqdorda temir qo'shilgan shisha bilan berkitiladi, teskari tarafi – ko'p qatlamlili plastinkali(pliester)plastinka bilan bekitiladi. Ba'zi hollarda shisha shaffof plastmassali plastinka bilan almashtiriladi. Turli turdag'i materialdan tayyorlangan yacheykadan foydalanimoqda va ularning tayyorlash usullari bir biridan farq qilanadi:

1) **amorf kremniyli** yacheyka, shisha yoki metall sirtiga juda yupqa kremniy cho'kma qatlami joylashtiriladi; quyosh nurlanishining elektr energiyasiga aylantirish samaradorligi 5% va 7% ni tashkil qiladi;

2) **monokristall kremniyli** yacheyka, mahsus pechlarda ssilindrik sterjinli monokristall kremniyi tayyorlanadi; yacheka yupqa kvadrat shaklidagi plastinka bo'lib, qalinligi 0,4-0,5 mm. Quyosh nurlanishining elektr energiyasiga aylantirish samaradorligi 12% ni tashkil qiladi;

3) polikristall kremniyli yacheyka, kremniyli bloklarda ishlab chiqiladi, mahsus shaklni toza kremniyni eritish yordamida hosil qilinadi; mis asosda polikristall tuzilish shakillantiriladi; quyosh nurlanishining elektr energiyasiga aylantirish samaradorligi monokristall kremniydan pastroq;

4) **arsenit arsenida galliy (Ga As)** yacheyka, xozirgi vaqtida yuqori samaradorli (28%) quyosh nurlanishini elektr energiyasiga aylantirib beradi; ularning narhi juda yuqori, shu sababli ular asosan kosmik texnikada ishlatilmoxda.

5) kadmiy tellurli yacheyka (**CdTe**) yacheyka, quyosh nurlnishini yaxshi yutadi; ular juda arzon tayyorlanadi, bundan tashqari CdTe qotishmasini Zn, Hg va boshqa elementlardan berilgan hossali qatlama tayyorlash mumkin; CdTe qo'lanilishidagi

asosiy muommolardan biri yuqori qarshilikli CdTe qatlqidagi p-o'tkazuvchalikdir, ichki isrofga olib keladi;

CdTe asosli yacheaka tez harakatlanuvchi zaryad tashuvchidan iborat bo'ladi, ular asosidagi oquyosh elementlarining F.I.K., 10 dan 16 % gacha boradi.

6) **organik material** asosli yacheykalar keng zonali yarimo'tkazgich (odatda TiO<sub>2</sub>) bo'lib, organik qatlan qoplangan; elementning ishlash jarayoni krasitelning foto uyg'otishga va o'tkazuvchan zonada tez injektsiyalanuvch elektronga asoslangan; bunda krasitel molekulasi oksidlanadi, elementdan elektr toki o'tadi va platinali elektrodda qayta tiklanish triiodiddan iodidagacha bo'ladi. Shundan so'ng iodid elektrolit orqali foto elektrodga o'tadi, bu yerda okislenniy krasitel'qayta tiklanadi; bunday turdag'i quyosh yachekasini FIK 11%ni tashkil qladi. shu bilan birga, bo'yoq molekulasi oksidlanadi, elementdan elektr oqimi orqali o'tadi va triiodid platinaviy elektrod ustida iodidga qaytariladi. Keyin yodid elektrolitdan fotovoltaikga o'tadi, bu yerda oksidlangan bo'yoq tiklanadi;

Yarim o'tkazgich materialning qo'lanilishiga bog'liq holda va quyosh batareyasi texnologiyasi foydalanib yuqori yoki quyi samaradorli almashtirgichlar turli spektral sohalarda quyosh nurlanishini elektr energiyasiga aylantiradi. Nurlanish diapazoning spektral sezgirligi aniqlashda, yachekaning samarali ishlashi va samaradorlikning turli nurlanish sharoitidagi ta'siri o'r ganiladi. Quyosh nurlanishining asosiy qismini elektr energiyasiga aylantirish diapazoni 0,400 mkm dan 0,8 mkm gacha (ko'rinvchi nur) bo'ladi. Quyosh panellari janubiy tarafliga orientirlangan bo'ladi, quyosh nurlarini yo'nalishi nurlanishni qabul qiluvchi tekisligiga normal' joylashgan bo'ladi. Panel qurilmasini yilning vaqtiga hisobga olgan holda tuzatishlar kiritib boriladi. Buni treker yordamida amalga oshiriladi – u orientatsiyani buruvchi konstruktsiya bo'lib, panelni Quyoshga nisbatan buradi. Odatda panellar kontrolerlar bilan ta'minlanadi, akkumulyator batareyasini klemmasidagi kuchlanish sathini kuzatadi, u quyosh qurilmasidan tushuvchi energiyadir.

Quyosh batareyasini xarajatlariga quyidagilar kiradi: unga xizmat ko'rsatish, panel sirtini rejali asosda tozalash, invertorni va akkumulyatorni almashtirish (10 yilda bir marta) va kontaktlarni korroziyasini tozalash. Shu sababli, quyosh batareyalari amalda ideal'avtonom elektr energiya manbaidir. Fotoelektrik almashtirgichlarning afzal tomoniharakatlanuvchi qismning yo'qligidir, ular yuqori darajada ishonchli va stabildir. Xizmat qilish davri amalda cheklanmagan. Ularkichik massaga ega, xizmat ko'rsatish sodda, to'g'ri va sochilgan quyosh nurlanishidan samarali foydalanish mumkin. Modulli tip konstruktsiyasi amalda hohlagan quvvatli qurishga imkon beradi va ularni kelajakda ishlatishga imkoniyat yaratadi. Kamchiligi yuqori narhlarda ekanligi va FIK past (10-12%).

Kelajakda quyosh nurlanishini elektr energiyasiga aylantirib beruvchi samarali yo'nalish sifatida quyidagilar qaralmoqda:

1) arsenid galiy va alyumin materiallar turiga o'tish;

2) kontsentratordarni qo'llash, quyosh radiatsiyasini 50-100 karrali kontsentratsiyalash.

Natijada quyosh modulini FIK 30-35 % oshirish kutilmoqda. 1989 yilda "Boing" firmasi tomonidan ikki qatlamlı quyosh elementi qurildi, u ikki yarim o'tkazgichli arsenid va antimmonid galliyidan tashkil topgan. Laboratoriya sharoitida

o'tkazilgan sinov natijasida bu quyosh elementining FIK quyosh nurlanishini elektr energiyasiga aylantirishda 37% ga teng ekanligi aniqlandi, xozirgi zamонавиу issiqlik va atom elektrostantsiyalarning FIK ga solishtirish mumkin. Yangi elementning ishlashidagi alohida sifati quyidagidan iborat, birinchi shaffof qatlam (arsenid galiy) yutadi va ko'rinvchi nurni elektr energiyasiga aylantiradi, spektrning infra qizil qismi bu qatlamdan o'tib,yutiladi va ikkinchi qatlamda (antimonid galliyda) elektrga aylanadi.

Yangi turdag'i quyosh batareyalari 1991 yilda Shveeytsariyada ishlab chiqildi. Quyosh batareyasini yachekasidagi yarim o'tkazgich materiali sifatida ( $TiO_2$ ) titan dioksididan foydalanilgan.Yarim o'tkazgichda quyosh nurlanishi yutiladi, ya'ni o'simliklarning xlorofilida bo'lgandek usul kabi fotosintez bo'ladi. Laboratoriya sharoitida almashtirish samatradorliga 12% bo'ldi. Sanoat miqyosida cheklangan partiyada ishlab chiqilgan modulni FIK 5% bo'lgan.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Yarimo'tkazgichlardagi qarshilik xarakteristikalarini izohlab bering.
2. Yarim o'tkazgichlardagi parazitlik qarshilik effekti haqida ma'lumot bering.
3. Yarimo'tkazgichlarda ketma-ket, parallel ularshdagi qarshilikni hisoblash ifodalarini yozing.
4. Yarimo'tkazgichlarda temperatura va yorug'lik intensivligi ta'siri haqida ma'lumot bering.
- 5.Yarimo'tkazgichlarda ideallik faktori qanday aniqlanadi.

## **10-ma'ruza. Yarim o'tkazgichlarning optik xususiyatlari**

### **Asosiy savollar:**

1. Rekombinatsiyani kamaytirish va optik yo'qotishlar.
- 2.Nurning qaytishiga qarshi qoplamar, ularning rangi, sirt teksturasi va materialning qalinligi.
- 3.Qatqiq jism xajmida nuring traektoriyasi va Lambertning orqa nuring qaytargichlari.
- 4.Rekombinatsion yo'qotishlar va rekombinatsiya tufayli tokning kamayishi, kuchlanishning kamayishi, sirtning yuzasida rekombinatsiya.

**Tayanch so'z va iboralar:** rekombinatsiya, optik yo'qotish, nuring qaytishiga qarshi qoplam, sirt teksturasi

**Darsning maqsadi:** Magistrlarga rekombinatsiyani kamaytirish va optik yo'qotishlar, nuring qaytishiga qarshi qoplamar, ularning rangi, sirt teksturasi va materialning qalinligi,qatqiq jism xajmida nuring traektoriyasi va Lambertning orqa nuring qaytargichlari, rekombinatsion yo'qotishlar va rekombinatsiya tufayli tokning kamayishi, kuchlanishning kamayishi, sirtning yuzasida rekombinatsiya haqida ma'lumot berish.

### **Idetiv o'quv maqsadlari:**

- 10.1. Rekombinatsiyani kamaytirish va optik yo'qotishlar haqida ma'lumot bera oladi.
- 10.2. Nuring qaytishiga qarshi qoplamarini, ularning rangini, sirt teksturasi va materialning qalinligi tanlashni biladi.

10.3. Qatgiq jism xajmida nurning traektoriyasi va Lambertning orqa nuring qaytargichlarni izoxlay oladi.

10.4. Rekombinatsion yo'qotishlar va rekombinatsiya tufayli tokning kamayishi, kuchlanishning kamayishi, sirtning yuzasida rekombinatsiya haqida ma'lumot bera oladi.

### **1-asosiy savolning bayoni:**

**Yarim o'tkazgichlarning optik xossalari.** Yarim o'tkazgichlarda yorug'likni yutilishi va sochilishi, yirik namunalarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar ko'p sonli zarrachalarni o'rganishda yaqolroq namoyon bo'ladi. Masalan, kolloid eritmalar va donalangan pardalar zarrachalarning maxsus xossalari tufayli tezkor ravishda bo'galishi mumkin. Dispers muhit optik xossalarni o'rganishning eng yaxshi namunasi oltindir. O'z vaqtida Faradey oltinning kolloid eritmasi va yupqa pardasi ranglari o'xshash ekanligiga e'tibor berdi va oltinning dispers tuzilishga ega ekanligi haqida fikr bildirgan.

Yorug'likning nozik donadorlik metall pardalarida yutilishida spektrning ko'rindigan qismida yirik namunalarda uchramaydigan yutilish chiziqlari (cho'qilari) paydo bo'ladi. Masalan, Au zarralarining donadorlik 4 nm diametrli pardalari yorug'likning  $\lambda = 560 - 600 \text{ nm}$  sohasida yaqqol namoyon bo'ladigan yutilish maksimumiga ega. Shunga o'xshash Ag, Cu, Mg, Li, K, Na zarralari ham optik diapazonda eng ko'p yutilishni ko'rsatadi. Donalangan pardalarni yana alohida xususiyatlaridan biri yorug'lik spektrining ko'rinish sohasidan infraqizil sohaga o'tganda yutilishning kamayishidir. Tutash metall pardalarda esa, bundan farqli ravishda, yorug'lik to'lqin uzunligi ortishi bilan yutilish ham ortib boradi. Optik xossalarning o'lchamlik effektlari o'lchamlari yorug'lik to'lqin uzunliklaridan sezilarli darajada kichik bo'lgan va 10-15 nm dan katta bo'lмаган nanozarralar uchun muhim rol o'ynaydi. Nanozarrachalar va yirik metallar yutilish spektrlaridagi farqlar ularning dielektrik singdiruvchanliklari farqi tufayli yuz beradi  $\epsilon = \epsilon_1 + \epsilon_2$ . Diskret energetik spektrli nanozarrachalarning dielektrik singdiruvchanligi zarrachalar o'lchamlariga va nurlanish chastotalariga bog'liq. Dielektrik singdiruvchanlik nurlanish chastotasiga monoton emas, balki elektronlar holatlari orasidagi o'tishlar tufayli tez o'zgarib turuvchi holga bog'langan. Tajribalarda optik xossalarni o'lhash uchun zarrachalarning soni  $10^{10}$  dan kam bo'lmasligi kerak. Bunday miqdordagi bir xil o'lcham va shakldagi zarrachalarni hosil qilish amalda mumkin bo'lмагани uchun real sharoitlarda zarrachalar to'plami uchun tebranishlar tekislanib ko'rindi. Shunga qaramasdan  $\epsilon$  ning o'rtacha qiymati yirik namuna  $\epsilon$  sidan farq qiladi. Dielektrik singdiruvchanlikning mavhum qismi zarracha radiusi  $r$  ga teskari proportionalligini ko'rish mumkin:

$$\epsilon_2(\omega) = \epsilon_{\infty,2}(\omega) + \frac{A(\omega)}{r} \quad (10.1)$$

bunda,  $\epsilon_{\infty,2}$ - yirik kristal dielektrik singdiruvchanligining mavhum qismi,  $A(\omega)$  - chastotaga bog'liq funksiya. Tajribalarda  $\lambda = 510 \text{ nm}$  li oltin zarrachalari uchun  $\lambda = 510 \text{ nm}$  li o'zgarmas to'lqin uzunlikli nurlanishda  $\epsilon \approx \frac{1}{r}$  ekanligi tasdiqlangan. Zarrachalar o'lchamiga yutilish sohasi kengligi va uning past chastotali tomoni

shakliga ham bog'liq, Au va Ag nanozarrachalarini kichiklanganda yorug'likni yutish sohasi kengayishi tajribalarda kuzatilgan.

Yana bir o'lchamlik effekti - yorug'likning rezonans yutilishi cho'qqisining siljishidir. Diametri yirik metalldagi elektronlarning erkin yugurish yo'li  $\lambda_\infty$ , dan kichik zarralardagi elektronlarning erkin yugurish yo'li zarracha radiusi  $r$  ga teng. Bu holda yorug'lik yutilishidagi effektiv relaksatsiya vaqtini

$$\tau_{ef}^{-1} = \tau^{-1} + \frac{v_F}{r} \quad (10.2)$$

ko'rinishda ifodalash mumkin. Bunda  $\tau = \lambda_\infty / v_F$  - yirik metall namunasidagi relaksatsiya vaqt;  $v_F$  - elektronlarning Fermi sathidagi tezligi. Zonalararo o'tishlarni hisobga olnmasdan va faqat erkin elektronlar harakatini hisobga olgan holda

$$\varepsilon_1 = 1 - \frac{\omega_p^1}{\omega_p^2 + 1/\tau_{ef}}; \quad \varepsilon_1 = 1 - \frac{\omega_p^1}{\omega_p^2 + 1/\tau_{ef}}; \quad (10.3)$$

deb yozish mumkin. Bunda  $\omega_p = 4\pi Ne^2 / m^*$  plazma chastotasi, N, e, m\* - erkin elektronlar zichligi, zaryadi va effektiv massasi.

Kvant nazariyasida yorug'lik yutilishining eng katta qiymatiga  $\varepsilon_m = -\varepsilon_1(\omega_1)$  sharoitida erishiladi. Buni hisobga olgan juda mayda zarrchalar uchun  $\tau_{ef}^{-1} \approx v_F / r$  bo'lган holda (4) dan rezonans chastota

$$\omega_1 = \left( \frac{\omega_p^2}{1 + 2\varepsilon_m} - \frac{v_F^2}{r^2} \right)^{1/2} \quad (10.4)$$

ko'rinishga keladi. Bunga, asosan, zarracha o'lchami kichiklashganda rezonans chastota ham kamayadi, ya'ni yutilish sohasi past chastotalar tomoniga siljishi kerak. Lekin, kvant mexanik hisoblar zarracha o'lchamlari kichiklashganda rezonans yutilish cho'qqisi yuqori chastotalar tomoniga siljishini ko'rsatadi. Mana shunday qarama-qarshi natijalar tajribalarda ham ko'rindi. Bunday siljishlar uchun elektron bulutining zarracha sirtida juda oz miqdorda o'zgarishi ham kifoya ekanligi taxmin qilinadi. Shunga asosan, yorug'lik yutilish sohasi kengligi zarrachalar o'lchamining murakkab funktsiyasi bo'lib, u  $D \approx 1,1\text{нм}$  atrofida eng katta qiymatga erishadi.

### Takrorlash uchun savollar

1. Yarimo'tkazgichlardagi qarshilik xarakteristikalarini izohlab bering.
2. Yarim o'tkazgichlardagi parazitlik qarshilik effekti haqida ma'lumot bering.
3. Yarimo'tkazgichlarda ketma-ket, parallel ularshdagi qarshilikni hisoblash ifodalarini yozing.
4. Yarimo'tkazgichlarda temperatura va yorug'lik intensivligi ta'siri haqida ma'lumot bering.
5. Yarimo'tkazgichlarda ideallik faktori qanday aniqlanadi.

### Adabiyotlar

1. Бранд Дж., Эглинтон Г. Применение спектроскопии в органической химии: [учебное пособие для студентов химических вузов] / пер. с англ. М.Ю. Корнилова, В.А. Чуйгуга ; под ред. Ю.Н. Шейнкера. М.: Мир, 1967. 279 с.

## **11-ma’ruza. Quyosh elementi strukturasi**

### **Asosiy savollar:**

1. Quyosh elementlarini tayyorlash va kremniy asosidagi quyosh elementining strukturasi, parametrlari, samaradorligi.
2. Birinchi fotoelektrik asboblar va quyosh elementlarini olishning planar texnologiyasi.
3. Yuqori samarador elementlar va omik kontaktlari faqat orqa tomonda joylashgan elementlar.

**Tayanch so’z va iboralar:** quyosh elementi, kremniy asosi, element strukturasi, fotoelektrik asbob,

### **1-asosiy savol:**

**Darsning maqsadi:** Magistrarga quyosh elementlarini tayyorlash va kremniy asosidagi quyosh elementining strukturasi, parametrlari, samaradorligi, birinchi fotoelektrik asboblar va quyosh elementlarini olishning planar texnologiyasi, yuqori samarador elementlar va omik kontaktlari faqat orqa tomonda joylashgan elementlarni qo’llash haqida ma'lumot berish.

### **Idetiv o’quv maqsadlari:**


1. Quyosh elementlarini tayyorlash va kremniy asosidagi quyosh elementining strukturasi, parametrlari, samaradorligini izohlay oladi.
2. Birinchi fotoelektrik asboblar va quyosh elementlarini olishning planar texnologiyasi ni qo’llash haqda ma'lumot bera oladi.
3. Yuqori samarador elementlar va omik kontaktlari faqat orqa tomonda joylashgan elementlarni izoxlay oladi.

**1-asosiy savolning bayoni: Yarimo’tkazgichlar yuzalarini tuzilishi.** Kristallarning yuza tuzilishi juda ko’p yillardan beri o’rganilib kelinmoqda. Ularning ichida keyingi 20 yilda o’tkazilgan eksperiment alohida ahamiyatga ega; chunki bu eksperimentlar asosini yuqori vakuum ( $10^{-8}$ - $10^{-10}$  Pa) sharoitida kristallarni sindirish hamda ularni harorat va boshqa usullar bilan tozalash orqali amalga oshirilgan. Shunga qaramasdan hozirgi paytgacha ham eng ko’p tekshirilgan Si va GaAs yuzalarining tuzilishi haqida juda ishonarli ma'lumotlar etarli emas. Mikroelektronikada asosan Si va GaAs kristallari ishlatilgan va ishlatilib kelinmoqda. Bugungi kunda  $1 \text{ sm}^3$  ga 1000 dan ortiq p-n, n-p, p-n-p o’tishlar joylashtirilgan katta (hajmiy) integral sxemalar ishlab turibdi.  $1 \text{ sm}^3$  da milliondan ortiq o’tishlari joylashtirish imkonini beradigan o’ta katta integral sxemalar yaratish ustida ish olib borilmoqda. Shuning uchun ham Si va GaAs lar yuzasi har tomonlama o’rganilgan va o’rganish davom ettirilmoqda.

Si monokristallarining yuzi. Si ning (100), (111), (110) kristallografik yo’nalishlarga mos kelgan yuzalari juda ko’p o’rganilgan. Ular asosan yuqori vakuumda sindirib o’rganilgan (kremniy (111) yo’nalishi bo'yicha oson sinadi). Sindirilgan zahoti azot haroratigacha ( $\approx 10$  K gacha) sovitilgan kristallarning yuzasi  $2 \times 1$  yacheykacha ega ekanligi aniqlangan. Bu kristallni 500 K gacha qizdirilganda uning yuzasi ( $7 \times 7$ ) yacheykaga o’tadi. Agar qizdirishni davom ettirsak, taxminan 1170 K da ( $1 \times 1$ ) yacheyka hosil bo’lishi aniqlangan. Si yuzasiga ozgina miqdorda (0,1 monoqatlama) Te yoki Cl atomlarini o’tkazib yuza barqarorlashtirilsa ham  $1 \times 1$


yacheyska hosil bo'lganligi aniqlangan. Shuning uchun ham yuqori haroratda Si yuzasida 1x1 yacheykaning hosil bo'lishi chetki atomlarning yuzaga chiqib o'ta barqarorlashishi tufayli ro'y beradi, deb faraz qilish mumkin. Umuman 1x1 yacheyska hosil bo'lganda ham yuzadagi atomlar relaksatsiyalangan (ma'lum bir tartibda siljigan) bo'ladi. Bu siljish kattaligi eng yaxshi sharoitda 0,12-0,16 Å<sup>0</sup> ekanligi aniqlangan. 11.1-rasmida Si (111) monokristallining ideal yuzasi, birinchi qatlami relaksatsiyalangan, birinchi va ikkinchi qatlamlari relaksatsiyalangan hollar uchun to'g'ri keladigan shakllar keltirilgan.

**GaAs monokristallarining yuzi.** Arsenid galliyning kristall va elektron tuzilishi kremniy hamda germaniyidan farqli ravishda ikki xil atomlardan: arsenid va galliy atomlaridan tashkil topgan. Bu atomlar orasidagi bog'lanish faqatgina kovalent emas, qisman ionli hamdir. Yuqori vakuumda sindirilgan arsenid galliyning yuza qismida atomlar joylashishi juda ko'p hollarda hajmniki bilan bir xil bo'ladi, ya'ni 1x1 tuzilishni beradi. Arsenid galliyning (111) va (100) yon sirtlari yuzalari bir xil atomlardan: yoki Ga dan yoki As dan iborat bo'ladi.




11.1-rasm. Si (111) yuzasi (1x1) yacheysining geometrik ko'rinishi: a-ideal sirt; b-birinchi qatlam relaksatsiyalangan; d-birinchi va ikkinchi qatlam relaksatsiyalangan.

Demak, bu yo'nalishlar uchun yuzaning birinchi qatlamida galliy, ikkinchi qatlamida mishyak, uchinchi qatlamida yana galliy joylashgan bo'ladi. Arsenid galliyning (110) yo'nalishiga mos keluvchi sirtida har bir qatlamning o'zida galliy va mishyak atomlari galma-gal almashinib keladi. GaAs (100) kristalliga tepa tomonidan qaraganda atomlarning joylashishi 11.2-rasmdagi ko'rinishga ega bo'ladi.



11.2-rasm. GaAs (110) yon sirtining tepasidan ko'rinishi.


Ma'lumki, elementar yacheyska hajmiy kristallar uchun parallelepiped ko'rinishiga ega bo'lsa, sirt uchun to'rtburchak shaklga ega bo'ladi. 4.3-rasmida bu elementar yacheyska shtrix chiziq bilan ko'rsatilgan. Har bir yacheykada hammasi bo'lib ikkitadan atom joylashgan: bitta Ga va bitta As. GaAs (110) kristali yuza qismidagi uchta qatlamda atomlarning joylashishi ideal va real hoi uchun 11.3-rasmida ko'rsatilgan. Real holda, masalan, Ga atomlari o'z qatoridan ma'lum bir masofa siljigan bo'ladi. Bu bog'lanishlar qisman ionli bo'lganligi uchun juda kuchli bo'ladi. Shuning uchun ham ko'p hollarda kristali panjaraning kuchli rekonstruktsiyasi ro'y bermaydi. Ammo ozroq bo'lsa ham relaksatsiya va rekonstruktsiyaning mavjudligi GaAs yuza qismi elektron tuzilishining «hajmiy» elektron tuzilishidan farq qilishiga olib keladi.



11.3-rasm. GaAs (110) yuzasidagi 3 ta qatlamda atomlarning joylashish sxemasi.

**Yarimo'tkazgichlarning energetik zonalari xaqida tushuncha.** Juda yaxshi tozalangan va yuzadagi atomlarining joylashishi hajmdagi bilan deyarli bir xil deb faraz qilingan yarimo'tkazgichlar ideal yarimo'tkazgichlar deb hisoblanadi. Qattiq jismlarda sathlar atomlardagi kabi harflar yoki sonlar bilan belgilanadi. Qattiq jismda

elektronlarning energiya bo'yicha taqsimlanishi va sathlarning belgilanishi (germaniy misolida) 11.4-rasmida keltirilgan.



11.4-rasm. Qattiq jismda elektronlarning energiya bo'yicha taqsimlanishi:  $E_B$  – vakuum sathi,  $E_F$  – Fermi sathi,  $E_C$  – o'tkazuvchanlik zonasining (O'.Z) pastki chegarasi,  $E_V$  – valent zonasining (V.Z) yuqori chegarasi,  $E_g$  – taqiqlangan zona kengligi.

Endi bu rasmlarga izoh beramiz:

1. Yadroga eng yaqin joylashgan sath K harfi yoki 1 raqami bilan belgilanadi. Bu sathda 2 tagacha elektron joylashishi mumkin. Uni  $1s_{1/2}$  deb belgilash mumkin.

2. K dan keyingi sathlar to'plamini L yoki 2 deb belgilanadi. Bu to'plamdagi 4 ta sathda 8 tagacha elektron joylashadi. Bu sathlar  $L_1$  yoki  $(2s_{1/2})$ ,  $L_2$  ( $2p_{1/2}$ ),  $L_3$  ( $3p_{3/2}$ ) deb belgilanadi.  $L_3$  ya'ni ( $2p_{3/2}$ ) sath juda yaqin joylashgan 2 ta sathdan iborat bo'lganligi uchun unda 4 tagacha elektron bo'ladi.


Keyingi bir necha sathlar to'plami M yoki 3 deb belgilanadi. Bu to'plamda 9 ta sath bo'lib, ularda 18 tagacha elektronlar joylashishi mumkin. Bu sathlardagi belgilashlar:  $M_1$  –  $3s_{1/2}$  (2 ta elektron),  $M_2$  –  $3p_{1/2}$  (2 ta),  $M_3$  –  $3p_{3/2}$  (4 ta),  $M_4$  –  $3d_{3/2}$  (4 ta),  $M_5$  –  $3d_{5/2}$  (6 ta).

M dan keyingi sathlar to'plami N yoki 4 deb belgilanadi. Bu to'plamda 32 tagacha elektron bo'lishi mumkin. Bizning misolimiz (4.4-rasm) shartli ravishda Ge ga to'g'ri kelganligi uchun bu sathlar to'plamida 4 ta elektron bo'ladi. Bu elektronlar umumlashib valent zonani tashkil qiladi.

Sathlari hisobga olganda Ge atomi uchun elektron konfiguratsiyalarni quyidagicha yozish mumkin:  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^{10} 4s^2 4p^2$ , s, p va d larning daraja ko'rsatkichlari shu sathlardagi elektronlarning soniga teng bo'ladi. Ge atomi uchun

$4s^2 4p^2$  valent elektronlarga to'g'ri keladi. Qattiq jismda bu elektronlar valent zonani tashkil qilganligi uchun V deb belgilanadi. Boshqa belgilashlar atomdagidan farq qilmaydi.

Amalda toza yarimo'tkazgichlar deyarli ishlatilmaydi. Ularning tarkibiga ma'lum bir miqdorda chetki qo'shimchalar kiritiladi. Masalan, kremniyga bor (B), alyuminiy (Al), fosfor (P), ruh (Zn). Bu qo'shimchalarning miqdori 1,0 % atrofida bo'lishi mumkin. Qo'shimchasi bor yarimo'tkazgichda, agar bu qo'shimchalar kristallning hamma joylarida bir tekis taqsimlangan va yuzadagi atomlar hajm bilan bir xil joylashgan bo'lsa, u aralashmali ideal yarimo'tkazgich deb ataladi. Masalan, kremniyga (4 valentli) fosfor (5 valentli) kiritilsa va u kremniyning o'rmini olsa, uning 4 elektroni atrofdagi kremniylarning valent elektronlari bilan kovalent bog' hosil qiladi, bittasi esa bo'sh qoladi. U bu elektronni osongina elektr maydon ta'sirida yoki boshqa biror ta'sir natijasida o'tkazuvchanlik zonasiga bera oladi. Bunday hosil bo'lgan o'tkazuvchanlik «donorli yoki elektronli yoki n-tipli o'tkazuvchanlik» deb ataladi. Agar kremniyga bor kiritilgan bo'lsa (3 valentli), uning uchta elektroni atrofidagi uchta Si bilan kovalent bog'lanish hosil qiladi, bitta kremniyga esa elektron yetishmay qoladi, ya'ni u «musbat» ishoraga ega bo'lib qoladi va o'ziga valent zonadan elektron olishga harakat qiladi. Bunday o'tkazuvchanlik «aktseptorli o'tkazuvchanlik» yoki «teshikli (yoki p-tip) o'tkazuvchanlik» deb ataladi. 11.5-rasmda toza va aralashmali o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan ideal yarimo'tkazgichlar energetik zonalarining tuzilishi ko'rsatilgan.




11.5-rasm. Toza va aralashmali yarimo'tkazgichlar energetik zonalarining sxematik ko'rinishi.

11.5-rasmdan ko'rindiki, termoelektron chiqish ishi  $\varphi$  har qanday yarimo'tkazgich uchun (toza yoki aralashmali) va har qanday haroratda ham Fermi

sathidan hisoblanadi. Fotoelektron chiqish ishi  $F$  esa ko'p xollarda yarimo'tkazgichning turiga va harortaiga bog'liq bo'ladi. 11.5-rasmdagi belgilashlar quyidagicha:  $x$  – yarimo'tkazgich o'tkazuvchanlik zonasining kengligi,  $E_g$  – taqilangan zonaning kengligi,  $\varphi$  – termoelementlarning chiqish ishi,  $F$  – fotoelektronlarning chiqish ishi,  $E_D$  – donor sathlari,  $E_A$  – aktseptor sathlari.

«Toza» yarimo'tkazgichda  $F$  ning qiymati valent zonaning eng yuqori sathidan vakuum sathigacha bo'lgan energiyaga teng bo'ladi ( $T > 0$  K da:  $\Phi = E_V - E_B$ ). n-tip yarimo'tkazgichda  $F$  ning qiymati  $T=0$  K da donor sathlaridan hisoblanadi:  $\Phi = E_D - E_B$ . p-tip yarimo'tkazgichda  $T=0$  K uchun  $\Phi = E_B - E_A$ ,  $T>0$  K uchun esa  $\Phi = E_A - E_B$ . Bunga sabab r-tip yarimo'tkazgichda  $T=0$  K da aktseptor sathlarda elektronlar mavjud bo'lmaydi.  $T>0$  K da aktseptor sathlarga valent zonadan o'tgan elektronlar joylashishi mumkin. Ushbu 11.5-rasmdagi holatlar etarli darajada yuqori legirlangan p- va n-tip yarimo'tkazgichlarga taalluqli. Umuman ko'p hollarda fotoemissiya valent elektronlarning emissiyasi bilan aniqlanadi va  $F$  aralashmali yarimo'tkazgichlar uchun ham valent zonaning yuqori sathi  $E_B$  dan hisoblanadi.

Yarimo'tkazgichlar yuzasining real holdagi energetik tuzilishi. Real holdagi yarimo'tkazgichning yuzasi juda murakkab kristall tuzilishiga ega, shuningdek u murakkab elektron tuzilishga ega bo'ladi. Real kristallarning elektron tuzilishi haqida umumiyl mulohazalarga suyangan holda ayrim ma'lumotlarni berish mumkin bo'ladi. Har qanday kristallning energetik holatini tasvirlashda «har qanday sharoitda (aralashma qo'shilsa, boshqa modda bilan birikma hosil qilsa va hokazo) ham ularning Fermi sathlari o'z joyini o'zgartirmaydi» degan tushunchaga asoslanish kerak. Ma'lumki, eng tashqi, ya'ni yuzadagi atomlar, masalan, kremniy atomlarining bittadan elektronlari bog'lanmagan holda bo'ladi, ular neytrallanishi uchun bu atomlar bittadan elektron qabul qilib olishi kerak. Yuzadagi har bir atomning bittadan bo'sh elektroni bor bo'lgani uchun yuzaga tegishli yangi sathlar hosil bo'ladi. Bu sathlar Tamm sathlari deyiladi (yoki «adashgan atomlar sathlari» deyiladi). Toza yarimo'tkazgichda Tamm sathlarining yarmisi elektronlar bilan to'la, yarmisi bo'sh bo'ladi (11.6-a rasm). n-tip yarimo'tkazgichda ortiqcha va oson harakat qila oladigan elektronlar mavjud bo'lganligi uchun bu elektronlar yuzadagi Tamm sathlarini to'ldira boshlaydi.



11.6-rasm. Toza va aralashmali yarimo'tkazgichning tuzilishi.

Natijada kristallning yuza qismi manfiy, yuza osti qismi esa musbat zaryadlanadi va donor elektronlarning yuzaga o'tishi qiyinlasha boradi; bu esa zona chegaralarining egilishiga olib keladi. Egilish qismining kengligi donor

elektronlarining konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi. Donor elektronlarining konsentratsiyasi qancha katta bo'lsa, egilish kengligi L shuncha qisqa bo'ladi; chunki bu elektronlar qancha ko'p bo'lsa, shuncha tez va qisqa masofada Tammning bo'sh sathlarini to'ldirishga ulguradi (11.6- b rasm). r-tip yarimo'tkazgichda ortiqcha teshiklar mavjud bo'lganligi uchun ular Tamm sathlaridagi elektronlari o'ziga qabul qila boshlaydi. Yuza musbat yuza osti esa manfiy zaryadlanib qoladi (11.6-d rasm).


Shunday qilib, yuzada zonalar egilishining vujudga kelishi yarimo'tkazgich n-tip bo'lsa, elektronlarning chiqish ishini kattalashtiradi, p-tip bo'lsa, kamaytiradi. 11.6-d rasmdan ko'rindiki, yarimo'tkazgichlarda termoelektron chiqish ishi sirdagi (yuzadagi) Fermi sathining holati bilan aniqlanadi va uning qiymati yarimo'tkazgichga qanday aralashma kiritilishidan qat'i nazar (p-tipdan n-tipga o'tsa ham) deyarli o'zgarmaydi hamda quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\varphi \cong \chi + \frac{1}{2} E_s \quad (11.1)$$

Bu yarimo'tkazgichlarning yuzasida Fermi sathi holati o'zgarmaydi, ammo hajmdagi Fermi sathi o'zgaradi. Bunday yarimo'tkazgichlar yuzasidagi Fermi sathining holati fiksatsiyalangan (muvofiqlashgan) yarimo'tkazgichlar deb ataladi: agar u elektronli (donorli, ya'ni n-tip) yarimo'tkazgich bo'lsa, uning yuzasi har doim «manfiy», agar kovakli (aktseptorli, ya'ni p-tip) bo'lsa, «musbat» zaryadlanadi. Ko'rib o'tilgan yarimo'tkazgichlarda fotoelektronlarning chiqish ishi (valent zonasining eng yuqori sathidan hisoblanganda) aralashmaning turiga qarab sezilarli darajada o'zgaradi. Bu o'zgarishning eng maksimal qiymati yarimo'tkazgichning taqiqlangan zonasi kengligiga yaqin bo'ladi (masalan, Si uchun  $\sim 1$  eV, GaAs uchun  $\sim 1,4$  eV). Agar yarimo'tkazgich yuzasida zonalar egilishi yo'q deb faraz qilinsa, Fermi sathi fiksatsiyalanmagan bo'ladi. Bunda yarimo'tkazgich n-tipdan p-tipga o'tganda (yoki aksi) fotoelektronlar chiqish ishi o'zgarmaydi va aksincha termoelektronlar chiqish ishi o'zgaradi. Ammo deyarli hamma yarimo'tkazgichlarda (ayrim ion bog'lanishli birikmalardan tashqari) zonalar egilishi kuzatiladi. Zonalar chegaralarining egilishi toza va aralashmali kremniyda yaqqol ko'rindi. GaAs va Ga kabi ikki komponentli yarimo'tkazgichlarda yuzadagi atomlarning joylashishi hajmdagi joylashishga juda yaqin bo'ladi, ya'ni  $1\times 1$  tuzilish hosil bo'ladi. Ammo real holda hattoki qisman ion bog'lanishga ega bo'lgan kristallarda ham ma'lum bir miqdorda relaksatsiya yoki rekonstruktsiya ro'y beradi. Natijada yuzada bitta qatorda turishi kerak bo'lgan atomlar bir oz siljiydi (4.7-rasm). Tajribalarning ko'rsatishicha siljish natijasida hosil bo'lgan burchak -  $\varphi \sim 25 \div 30^\circ$  atrofida bo'lishi mumkin. Natijada GaAs ning yuza qismidagi elektron tuzilish hajmnikidan sezilarli farq qiladi. Bu farq 11.7-rasmda aks ettirilgan.

Ideal holda hajm uchun taqiqlangan zonaning ( $E_v$  va  $E_c$  orasidagi masofa) kengligi 1,4 eV ni tashkil etadi. Yuzadagi atomlarning hosil qiladigan energetik sathlarining tuzilishi hajmnikidan farq qiladi. O'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, bu farq asosan Tamm sathlari (bog'larning uzilishi tufayli hosil bo'ladigan sathlar) tufayli vujudga keladi. Bunda mishyak atomlari Ga dan elektron qabul qilib olib, valent zonaning ichkarirog'iga joylashgan to'la sathlarni vujudga keltiradi. Ga atomlari esa elektronlarini bergani uchun o'tkazuvchanlik zonasida

bo'sh sathlar hosil qiladi. Yuzaga tegishli bo'lgan to'la va bo'sh sathlar orasidagi masofa, ya'ni taqiqlangan zona kengligi 2,6 eV ni tashkil qiladi.



11.7-rasm. GaAs (110)ning relaksatsiyalangan yuzasi elektron va fazoviy tuzilishining sxematik tasviri.

#### **4.3.Yarimo'tkazgichlarning magnit va optik xossalari. Magnit xossalari.**

Tarkibida nodir Yer elementlari va o'tish guruhi metallari ionlari bo'lgan molekular kristallarga magnit molekular nanoklasterlar deyiladi. Bu kristallarning tarkibiy qismi bo'lgan molekulalar murakkab tuzilishga ega. Ular qo'shimcha ichki erkinlik darajasi-magnit momentiga ega. Aynan shu magnit momenti ularning hossalariga xilma-xillik bag'ishlaydi va ularni tashqi magnit maydoni yordamida boshqarishga imkon beradi. Aytish joizki, magnetizm mohiyatan kvant mexanik hodisadir. Mendelev jadvalining ko'pgina elementlari atomlari, elektron spinlari kompensatsiyalangan magani tufayli magnit momentiga ega. Ular orasida o'tish guruhi metallari (Fe, Co, Ni, Mn va boshqa) lantanoidlar (nodir Yer elementlari va aktanoidlar) eng ko'p e'tiborga molikdir.


Odatda, molekulalar diamagnitdir, ammo ba'zida masalan, kislород molekulalari bundan istisno bo'lishi ham mumkin. Mikroskopik moddalarning magnit xossalari unchalik oddiy emas, chunki alohida atom yoki molekulalarning magnit momentlari murakkab darajada bo'ladi. Alohida atomlarning magnit xossalari juda yaxshi tushunarli. Hozirga qadar, tarkibida o'tish guruhi yoki nodir yer elementlari atomlari mavjud bo'lgan magnit kristallarning xossalari batafsil o'rganilgan bo'lsada, qator savollar ochiq qolmoqda.

Gap shundaki, bu materiallarda mavjud uzoq magnit tartib alohida atomlarning magnit xossasi hissalarining oddiy superpozitsiyasi emas. Magnit tartiblanish - bu jamoaviy kvant mexanik hodisa bo'lib, uning asosida Pauli printsipi bilan bog'liq atom spinlari orasidagi o'ziga xos ta'sirlashuv yotadi. Bu almashinuv ta'sirlashuvi deyiladi.

Almashinuv ta'sirlashuvi moddaning makroskopik sohalarida spinlarning parallel joylashuvini (ferromagnitizm) panjarasining qo'shni tugunlarida antiparallel joylashivi ferromagnetizm yoki magnit tartiblanishning boshqa murakkab shakllarini yuzaga keltirish mumkin. Magnetik klasterlar yoki magnit molekulalar alohida

atomlarning mikroskopik magnetizmini va kristall holda amorf jismlarning makroskopik magnetizmini birlashtiruvchi bo'g'imdir. Shuning uchun ular ba'zan mezoskopik atamasi o'rta, o'raliq ma'nosini bildirib, modda makroskopik jism sifatida shakllanmagan, biroq alohida atom emas, balki atomlar majmuasi bo'lganda ularning xossalarni tavsiflashda ishlataladi

Ana shunday xossalarga ega molekulalar o'tish guruhi elementlari ishtirokida qurilgan (Fe, Mn va b.) yuqori spinli metalloogranik molekulalar yoki magnit molekulalar deb ham ataladi (11.8-rasm).



11.8-rasm. Yuqori spinli molekulalar klasterlar.  $Fe_{10}(a), Mn_6(b), Mn_{12}(d), Fe_8(e)$

Ta'kidlash lozim, bu molekularning uyg'unligi va mukamalligi kishini xayratda qoldiradi. Misol tariqasida oddiy  $Fe_{10}$  klasterlarni ko'rib chiqaylik. Bu – xlor, kislород va uglerod ionlari bilan o'ralgan o'nta Fe ionlari, ular orasidagi ta'sirlashuv antiferromagnit xarakterga ega. Shu sabab molekularning asosiy holatiga spini nolga teng S, O, Fe magnit klasterini bir molekula doirasidagi antiferromagnit deyish mumkin.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Quyosh elementlarini qanday tayyorlanadi?
2. Kremniy asosidagi quyosh elementining strukturasi va parametrlari qanday bo'ladi?
3. Birinchi fotoelektrik asboblar qanday edi?
4. Yuqori samarador elementlar qanday bo'ladi?

## **12-ma'ruza. Kremniy plastinalarini olish**

### **Asosiy savollar:**

1. Kremniyning turlari va ularni tozalash va monokristall kremniy.
2. Choxralskiy va zonalar eritish usullarida kremniy olish.
3. Texnik, mul'ti-, poli- va mikrokristal kremniy.
4. Amorf kremniy va kremniy plastinalarini olish usullari.

**Tayanch so'z va iboralar:** quyosh elementi, kremniy asosi, element strukturasi, fotoelektrik asbob,

## **1-asosiy savol:**

**Darsning maqsadi:** Magistrlarga kremniyning turlari va ularni tozalash va monokristall kremniy, choxralskiy va zonalar eritish usullarida kremniy olish, texnik, mul'ti-, poli- va mikrokristal kremniy, amorf kremniy va kremniy plastinalarini olish usullari haqida ma'lumot berish.

## **Idetiv o'quv maqsadlari:**

1. Kremniyning turlari va ularni tozalash va monokristall kremniyning izohlay oladi.
2. Choxralskiy va zonalar eritish usullarida kremniy olish haqda ma'lumot bera oladi.
3. Texnik, mul'ti-, poli- va mikrokristal kremniy, amorf kremniy va kremniy plastinalarini olish usullarini izoxlay oladi.

## **1-asosiy savolning bayoni:**

Tabiatda Si faqat birikmalar holada uchraydi. Uni birikmalardan ajratib olish – uncha oson ish emas. Buni yo'lini yaqinda bilib oldik. Qum tuproq - Si ning eng ko'p uchraydigan birikmalaridan biri, ya'ni Si oksidlarining biri - "oddiy modda, balki metalning bir nav oksididan iborat birikma ekanligini" Lavuaz'e birinchi bo'lib fahmladi. 1810 yili shved ximigi I. Bertselus oddiy kvarts qumini Fe qirindilari va maydalangan ko'mir bilan aralashtirib, aralashmani qattiq qizdirdi. Natijada Si va Fe qotishmasini oldi. 1825 yilda qilingan keying tajribalarida bir muncha uzil-kesil natijalarni oldi: u gazsimon SiF ni metall K bilan qaytarib, toza Si ajratib oldi. Bu elementning oddiy qumdan hech olib bo'lмагan element bilan bir xilligini ham I. Bertselius aniqladi: shuncha mashaqat bilan olingen jigar rang kukun kislorod bilan birikanida allaqachon ma'lum bo'lgan va tekshirib chiqilgan qum tuproqni hosil qilar edi.

Kremniy olishning sanoat usulini 1865 yilda N.N. Beketov taklif etdi. Bunday Si tetraxloridni Zn (rux) bug'lari bilan qaytarish yo'li bilan Si olindi. Hozi Si olishning birdan- bir usuli bu emas. Suyultiiriilgan Na SiF ni gidroliz qilish yo'li bilan ham, qum tuproqni koks bilan qaytarish yo'li bilan ham Si olinadi. Bu jarayon maxsus yoyli elektr pechlarda olib boriladi. N.N. Beketov mayin jigar rang kukun hosil qilgan edi. Bu kukun aslida mayda-mayda kristalchalardan tashkil topgan bo'lsa ham, hozir amorf Si deb ataladi. Bu kukunni suytirish mumkin, lekin bunga 1415 gradusli temperature kerak bo'ladi. 2600 gradusda Siqaynaydi. Uni sovutib, yirik kristalik Si hosil qilsa bo'ladi, u – salga shishani tirnaydigan, juda qattiq, yerga tushib ketsa chil-chil sinadigan, juda mo'rt, metaldek yaltillab turadi, shunga ko'ra uni ba'zan metal Si deb ataydilar.

## **Takrorlash uchun savollar**

1. Quyosh elementlarini qanday tayyorlanadi?
2. Kremniy asosidagi quyosh elementining strukturasi va parametrlari qanday bo'ladi?
3. Birinchi fotoelektrik asboblar qanday edi?
4. Yuqori samarador elementlar qanday bo'ladi?

## **13-ma’ruza. Quyosh elementlari tayyorlash texnologik liniyalari.**

### **Asosiy savollar:**

1. Quyosh elementlarini tayyorlash texnologik liniyalari va xomashyolar.
2. Kremniy sterjenlarini o’stirish hamda plastinalar olish hamda ularga mexanik va kimyoviy ishlov berish.
3. Sirtni teksturlash va diffuziya orqali emitterni shakllantirish.
4. Chekkaparni izolyatsiyalash va nur qaytarish qatlamlarini qoplash

**Tayanch so’z va iboralar:** texnologik liniyalari, quyosh elementi, kremniy asosi, element strukturasi, fotoelektrik asbob,

### **1-asosiy savol:**

**Darsning maqsadi:** Magistrlarga quyosh elementlarini tayyorlash texnologik liniyalari va xomashyolar, haqida ma’lumot berish.

### **Idetiv o’quv maqsadlari:**

1. Quyosh elementlarini tayyorlash texnologik liniyalari va xomashyolarni izohlay oladi.
2. Kremniy sterjenlarini o’stirish hamda plastinalar olish hamda ularga mexanik va kimyoviy ishlov berish haqda ma’lumot bera oladi.
3. Sirtni teksturlash va diffuziya orqali emitterni shakllantirishni izoxlay oladi.
4. Chekkaparni izolyatsiyalash va nur qaytarish qatlamlarini qoplash haqidama'lumpt bera oladi.

### **1-asosiy savolning bayoni:**

QFE larini ishlab chiqarish uchun asosiy materiallar quyidagilardan iborat:

**Kremniy (Si)** –ozirgi vaqtida quyosh fotoelektr elementlarini ishlab chiqarishda qo’laniladigan eng muhim material bo’lib hisoblanadi.

**Galliy arsenidi (GaAs)** – yuqori samarali QFE larining ishlab chiqarish uchun foydalaniladi. Bu material ko’p hollarda kontsentratsiyalangan fotoelektr tizimi va kosmik qurilmalarda ishlatiladi. Kontsentratsiyalangan quyosh radiatsiyasida uning FIK 25%dan 28% gacha bo’ladi. Maxsus turlarida esa 30% dan ortadi.

**Kadmiy telluridi (CdTe)** – yupqa plenkali material, cho’kish va changlatish bilan hosil qilinadi, fotoelektr tizimlar uchun kelgusida orzon istiqbolga ega bo’lgan material. Laboratoriya nuxxalarida quyosh fotoelementlarining FIK 16% , sanoatda ishlab chiqilgan nuxxalarda 8% gacha bo’ladi.

**Mis – indiyli diselenid (CuInSe<sub>2</sub> yoki CIS)** –yupqa plyonkali material bo’lib, FIK 17% gacha bo’ladi.U istiqbolli material bo’lib, ishlab chiqarish jarayoni o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lganligi uchun xozirgi davda keng foydalanilmaydi.

Xozirgi vaqtida fotoelementlardan sanoat miqyosida foydalanish uchun juda ko’p texnologik jarayonlarda ishlatish uchun ishlanmalar ishlab chiqilgan. Lekin ularning hammasi ham quyidagi asosiy texnik talablarga mos kelishi kerak bo’ladi:

- foydalaniladigan yarimo’tkazgischli material yuqori darajali ximiyaviy toza, fizik hususiyatlari o’zgarmas bo’lishi kerak;
- fotoelementni sanot miqyosida ishlsab chqarishda minimal narxli va talabning uzoq muddatli (hizmat qilish vaqt 20 yildan kam bo’lmagan);
- atrof muhit ta’siriga chidamli (ishchi temperatura diapazoni -30 dan +200 °C gacha) germetik va hamma turdagи korroziyadan muhofazalangan bo’lish kerak;

- bir yoki bir necha fotoelement ishdan chiqanda butun tizim funktsiyasiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

Таблица 3  
Солнечные элементы на основе кремния [83-86]  
Table 3  
Silicon based solar cells [83-86]

Структура	$S_{\text{общ}}, \text{см}^2$	$U_{OC}, \text{мВ}$	$J_{SC}, \text{мА/см}^2$	$ff, \%$	КПД, %	Дата	Производитель
c-Si	4,00	709	40,9	82,7	24,0	9/94	UNSW
c-Si	45,7	694	39,4	78,1	21,6	4/94	UNSW
c-Si	22,1	702	41,6	80,3	23,4	5/96	UNSW
mc-Si	1,00	636	36,5	80,4	18,6	12/91	Georgia Tech.
mc-Si	100	610	36,4	77,7	17,2	3/93	Sharp
tf-Si	240	582	27,4	76,5	12,2	3/95	Astro Power
tf-Si	4,04	699	37,9	81,1	21,1	8/95	UNSW
a-Si:H	1,06	864	16,66	71,7	10,3	10/90	Chronar
a-Si:H	0,99	886	17,46	70,4	10,9	9/89	Glass tech.
a-Si:H	1,00	887	19,4	74,1	12,7	4/92	Sanyo
a-Si:H	1,08	879	18,8	70,1	11,5	4/87	Solarex
ITO/c-Si/a-Si	1,0	644	39,4	79,0	20,0	9/94	Sanyo
a-Si:H	1,0	891	19,13	70,0	12,0	9/94	Solarex
p-a-Si:H	1,0	923	18,4	72,5	12,3	9/94	Fuji-Elect.
a-Si/a-Si/a-SiGe		2320	7,3	73,0	12,4	9/94	Sumitomo
a-Si:H	1,0	887	19,4	74,1	12,7	9/94	Sanyo
a-C/a-SiML/a-SiC/a-Si	1,0	936	19,6	71,8	13,2	9/94	Mutsui-Toatsu
a-C/a-Si/a-SiC/a-Si	1,0	909	19,8	73,3	13,2	9/94	Mutsui-Toatsu
ITO/a-Si:H/a-SiGe:H	0,28	1621	11,72	65,8	12,5	1/92	USSC/Cannon
a-Si/ $\kappa$ -Si	0,03	1480	16,2	63,0	15,0	9/94	Osaka Univ.
a-SiC/a-Si	1,0	1750	8,16	71,2	10,2	9/94	Solarex
a-Si/a-Si	1,0	1800	9,03	74,1	12,0	9/94	Fuji
a-SiC/a-SiGe/a-SiGe	1,0	2290	7,9	68,5	12,4	9/94	Sharp
a-Si/a-Si/a-SiGe	1,0	2550	7,66	70,1	13,7	9/94	ECD/Sovonics
p-a-SiO:H/a-Si:H//n-a-Si:H	1,0	899	18,8	74,0	12,5	9/94	Fuji-Elect.
ITO/a-Si:H/-Si:H/a-SiGe	0,27	2541	6,96	70	12,4	2/88	ECD
a-Si:H/a-Si:H/a-SiGe:H	1,00	2289	7,9	68,5	12,4	12/92	Sharp
a-Si/CuInSe <sub>2</sub>	–	871 432	16,4 17,4	72,0 68,0	10,3 5,3	9/94	ARCO
a-Si/mc-Si	–	917 575	10,4 30,2	76,0 79,2	7,25 13,75	9/94	Osaka Univ.

## Takrorlash uchun savollar

1. Quyosh elementlarini tayyorlash texnologik liniyalari va xomashyolar haqida ma'lumot bering.
2. Kremniy sterjenlarini o'stirish hamda plastinalar olish hamda ularga mexanik va kimyoviy ishlov berishni izoxlab bering.
3. Sirtni teksturlash va diffuziya orqali emitterni shakllantirishni tushuntiring.
4. Chekkaparni izolyatsiyalash va nur qaytarish qatlamlarini qoplash haqida ma'lumpt bering.

### 14-ma'ruza. Elementlar parametrlarini o'lhash va baholash

#### **Asosiy savollar:**

1.p-n-o'tish chuqurligini o'lhash va elementlar parametrlarini nurqaytarish qatlamlarisiz va ular bilan o'lhash.

2. Tayyor elementlar parametrlarini o'lhash, baholash, samaradorligini hisoblash.

**Tayanch so'z va iboralar:** o'tish chuqurligi, texnologik liniyalar, quyosh elementi, kremniy asosi, element strukturasi, fotoelektrik asbob, nurqaytarish qatlamlarisiz, o'lhash, baholash, samaradorligini hisoblash

#### **1-asosiy savol:**

**Darsning maqsadi:** Magistrlarga p-n-o'tish chuqurligini o'lhash va elementlar parametrlarini nurqaytarish qatlamlarisiz va ular bilan o'lhash, tayyor elementlar parametrlarini o'lhash, baholash, samaradorligini hisoblash haqida ma'lumot berish.


#### **Idetiv o'quv maqsadlari:**

1. Elementlar parametrlarini o'lhash va baholashni aytib bera oladi.

2.p-n-o'tish chuqurligini o'lhash va elementlar parametrlarini nurqaytarish qatlamlarisiz va ular bilan o'lhash haqida ma'lumot bera oladi.

3. Tayyor elementlar parametrlarini o'lhash, baholash, samaradorligini hisoblashni izohlay oladi.

#### **1-asosiy savolning bayoni**



14.1-rasm.Yorug'likning yarimo'tkazgichning xususiy (1) va (2,3) kirishmaviy yutilishi.

Yorug'likning xususiy yutilishi (bunda yotrug'lik kvanti energiyasi  $\hbar\omega > E_g$ ) va kirishmaviy yutilishi  $\hbar\omega < E_g$  zaryad tashuvchilar juftlarini yoki ( ikkinchi

holatda) bir ishorali zaryad tashuvchilarniyuzaga keltiradi (6.1-rasm). Shu tufayli fotoo'tkazuvchanlik ning kirishmaviy va xususuy turlari mavjud.

Yorug'likning yutilishi hisobiga paydo bo'lgan ortiqcha  $\Delta n$  elektronlar va  $\Delta p$  kovaklar kristall panjara tebranishlari va nuqsonlari bilan o'zaro ta'sirlashishi natijasida  $10^{-10}$ - $10^{-12}$  s vaqtichidaenergiya va kvaziimpul'slar bo'yicha muvozanat holatdagi zaryad tashuvchilarniki kabi taqsimotga ega bo'lib qoladilar. Shuning uchun ham nomuvozanat holatdagi zaryad tashuvchilar harakatchanligidanfarq qilmaydi va yoritilayotgan yarim o'tkazgich elektr o'tkazuvchanliginingo'zgarishiga erkin zaryad tashuvchilarkonsentrasiyasining ortishi sabab bo'ladi. Qorong'ilikdagi elektr o'tkazuvchanlik

$$\Delta\sigma = \sigma_{yo} - \sigma_0 = e\mu_n \Delta n + e\mu_p \Delta p, \quad (14.1)$$

kattalik qadar ortadi. Mana shu kattalik yorug'likdagi o'tkazuvchanlik yoki fotoo'tkazuvchalikni ifodalaydi. Nomuvozanat holatdagi zaryad tashuvchilarning ortiqcha konsentrasiyalari uzuluksizlik tenglamalaridan topiladi:

$$\frac{\partial \Delta n}{\partial t} = g_n - \frac{\Delta n}{\tau_n} + \frac{1}{e} \vec{div} \vec{j}_n, \quad (14.2)$$

$$\frac{\partial \Delta p}{\partial t} = g_p - \frac{\Delta p}{\tau_p} - \frac{1}{e} \vec{div} \vec{j}_p. \quad (14.3)$$

Yorug'likning xususiy yutilishi elektronlar va kovaklar generasiyasi tezliklari o'zaro teng, ya'ni  $g_n = g_p = g$ . Doimiy yoritilganlik sharoitida  $\frac{\partial \Delta n}{\partial t} = \frac{\partial \Delta p}{\partial t} = 0, \vec{\varepsilon} = 0$  da tekis generasiyalash sharoitida  $\vec{div} \vec{j}_n = \vec{div} \vec{j}_p = 0$  bo'lganligi sababli

$$\begin{aligned} \Delta n_{st} &= g_n \tau_n, \\ \Delta p_{st} &= g_p \tau_p. \end{aligned} \quad (14.4)$$

Bu ifodanifotorezistiv effekt uchun birinchi xarakteristik munosabatlar deyiladi. Bularni e'tiborga olib, stasionar fotoo'tkazuvchanlikni

$$\Delta\sigma_{st} = e\mu_p (bg_n \tau_n + g_p \tau_p), \quad (14.5)$$

ko'rinishda yoziladi, bunda  $b = \mu_n / \mu_p$ . Optik generasiya ifodasini (14.5) tenglamaga qo'ysak

$$\Delta\sigma_{st} = e\alpha I_v (1 - R_v) (\mu_p \tau_n \beta_n + \tau_p \mu_p \beta_p) \quad (14.6)$$

ko'rinishdagi ifodani olamiz. Nurlanishning yutilish koeffisienti  $\alpha$  va elektronlar hamda kovaklar uchun kvant chiqishlar  $\beta_n, \beta_p$  to'g'risida batafsil gapirilgan. Tutuvchi markazlar yo'q va xususiy generasiya mavjud bo'lgan holda:

$$\Delta n = \Delta p; \tau_p = \tau_n = \tau; \beta_n = \beta_p = \beta; \Delta\sigma_{st} = e\alpha\beta(1 - R_v)I_p(1 + b) \quad (14.7)$$

Kirishmaviy yutilish holida (donorlarda) yoki  $\tau_n > \tau_p; \mu_n > \mu_p$  bo'lganda (14.6) ifodadagi hadlardan biri tashlab yuboriladi:

$$\Delta\sigma_{st} = e\alpha\beta(1 - R_v)I_{v0}\mu_n\tau_n. \quad (14.8)$$

Fotoo'tkazuvchanlik  $\Delta\sigma$  ning yorug'lik intensivligi  $I_{v0}$  ga nisbatini yarim o'tkazgichning solishtirma fotosezgirligi deyiladi:

$$S_F = \Delta\sigma / I_{v0} \quad (14.9)$$

Fototok zichligining stasionar qiymati ifodasi quyidagi ko'rnishga ega bo'ladi:


$$\vec{j}_F = \vec{j}_{yo} - \vec{j}_q = \Delta\sigma_{F,st} \cdot \vec{\varepsilon} = e\mu_p (g_p\tau_p + g_n\tau_n b) \vec{\varepsilon}. \quad (14.10)$$

Agar yarim o'tkazgichning maydon yo'nalishdagi uzunligini l orqali, undagi kuchlanishni V orqali ifodalasak, u holda maydon kuchlanganligi  $\varepsilon = V/l$ , elektron va kovakning dreyf tezliklari mos ravishda


$$v_{dn} = \mu_n \frac{V}{l}, v_{dp} = \mu_p \frac{V}{l}. \quad (14.11)$$

Kengligi W, qalinligi d va uzunligi l bo'lgan to'g'ri to'r burchakli plastoinadan iborat yarim o'tkazgichning sirti  $\hbar\omega \geq E_g$  energiyalifotonlar oqimidan iborat yorug'lik bilan y o'qi qalinlik koordinatasi bo'ylab yoritilgan bo'lsin(14.2-rasm). Yarim o'tkazgich namunasi yetarlicha uzun bo'lsin, uholda yonsirtdagirekombinasiyani nazarga olmaslik mumkin. Optik generasiya qalinlik koordinatasiga y ga bog'liq bo'ladi

$$g(y) = g_0 e^{-\alpha y} = \alpha \beta I_{v0} (1 - R_v) e^{-\alpha y}$$




14.2-rasm.Xususiy fotoo'tkazuvchanlikni hisoblashga oid chizma.




14.3-rasm.Xususiy fotoo'tkazuvchanlikning yorug'likning to'lqin uzunligiga bog'liqligi. Fotoo'tkazuvchanlik  $\Delta P$  ning yutilish koeffisienti  $\alpha$  ga bog'liq

bo'limgan, ammo fotoo'tkazuvchanlik s ga bog'liq bo'lgan o'zgarmas qiymatga asimptotik ravishda intiladi.

14.4-rasmdagi sxema yordamida stasionar fotoo'tkazuvchanlikni o'lchash qiyin, ba'zanesa umuman mumkin bo'lmaydi. Qorong'likdagi tokni kompensasiyalash usuli (14.4, b-rasm). Yorug'lik oqimini modulyasiyalash usuli (14.5-rasm).



14.4-rasm. Stasionar fotoo'tkazuvchanlikni oddiy (a) va kompensasiya usuli bilan (b) o'lchash sxemalari: 1- namunaning qorong'likdagi qarshiligi, TM- tok manbai, G-gal'venometr.



14.5-rasm. Fotoo'tkazuvchanlikni yorug'lik oqmini modulyasiyalash (uzib-uzib yoritish) usuli bilan o'lchash: a-sektor ko'rinishli shakl qirqilgan disk; b- dumaloq teshikli disk.

Bu usullar bilan fotoo'tkazuvchanlikni o'lchashdanamunaaga ketma-ket ravishda V kuchlanishli tok manbai,  $R_{yu}$  yklama qarshilik ulanadi. Fotosignalni  $R_{yu}$  yklama qarshilik orqali yoki ham o'zgarmas, ham modulyasiyalangan yoritishda namuna orqali olinadi.

**Yarim o'tkazgichli injektsion lazer.** Ideal p-n getroo'tishlarning energetik diagrammalariga asosan to'g'ri yo'nalish bo'yicha kuchlanish qo'yilganda , tokni keng z0nali o'tkazgichdan tor zonali yarim o'tkazgichga asosiy zaryad tashuvchilarning injeksiyasi orqaliotishi ni aniqlaydi, chunki kovakning n-sohasiga engib o'tadigan potensiyalto'siq balandligielektronning p-sohasiga engib o'tish potensial to'siq balandligidan katta.

Yarim o'tkazgichli lazer qurilmasida xarakteristikalarini, generatsiyalarini o'rganish va uni tekshirish mumkin. Buning uchun aktiv sterjen va rezanator ko'zgularini almashtirish kerak. Lazer qurilmasi quyidagi qismlardan iborat: lazer boshi, optikaviy rezanator, istemol manbai, yuqori kuchlanishli kondensatorlari, blakirovka.

Aktiv muhitni kuchaytirish ikki diskret sathlarda o'tishda quyidagi ifoda bilan muhitning kuchayish ko'rsatgichi aniqlanadi

$$\chi_0 = \frac{c^2 \left( N_2 - N_1 \frac{g_2}{g_1} \right) \varphi(v)}{8\pi v^2 n^2 \tau}, \quad (14.12)$$

$\varphi(v)dv = 1$ ; bunda  $\varphi(v)$  – chiziq formasini normallashtiruvchi funksiya;  $N_i$  – santimetr kubdagi atomlar soni;  $g_i$  – sathning statistik og'irligi;  $n$ -yarim o'tkazgich materialning sindirish ko'rsatgichi;  $\tau$  – elitgichlarning yashash vaqt. Hamma OKG kabi yarim o'tkazgichli laserlarda ham generatsiya sharti

$$\rho e^{(\chi_0 \delta)L} \geq 1,$$

$\chi_0$  – aktiv muhitning to'yinmaganlik ko'rsatgich koeffitsienti;  $L$  – aktiv muhitning uzunligi;  $\rho$  – yarim o'tkazgichning qaytarish koeffitsienti;  $\delta$  – yarim o'tkazgich qalinligida isrof bo'lish koeffitsienti. Yarim o'tkazgichli laserlarning alohida xususiyatlaridan biri, uzuliksiz elektron spektrlar sathini turli usullardan foydalanib inversiya hosil qilishdir.

**Kuchli elektr maydoni ta'sirida uyg'otish.** Toza va aralashmali yarim o'tkazgichlar uchun kuchli elektr maydoni ta'siridan foydalanish mumkin. Toza yarim o'tkazgichlarga kuchli elektr maydoni ta'siri qildirilsa, unda mos ravishda o'tkazuvchi va valent zonalarda teng bo'limgan elektronlar va teshiklar hosil qilinadi. Bunda tepki ionizatsiya hisobiga o'tkazuvchini energiyasi tezlashadi, bu atomni ionlashtirish uchun etrli bo'ldi va elektron-teshik juftlar hosil qiladi, yoki elektronlar va teshiklarni kuchli elektr maydon ta'sirida ajratib olinadi. Agar elektronlar va teshiklar kontsentratsiyasi o'tkazuvchi zonada oshirilsa u holda valent zonada funksiya taqsimoti muvozanatli holatdan farq qiladi.

Bunda erkin elektron va teshiklar keng energetik polosada mos zonalarda taqsimlanadi. Invertsya hosil bo'lishi uchun  $\tau_s \ll \tau_c$ ; shart bajarilishi kerak bo'ladi, bunda  $\tau_s$  – ichki mos zonalardagi harakat tezligining energiyasi qiymatini  $-kT$  gacha tenglashguncha ketgan vaqt;  $\tau_c$  – qarama – qarshi ishorali elitgichlarning rekombinatsiya vaqt. Turli isimli zaryad tashuvchilarning rekombinatsiyasi natijasida foton nurlanadi, uning energiyasi

$$\Delta W < h\nu. \quad (14.13)$$

Nurlanuvchi fotonlar energiyasi kattaligini umumiyl holda

$$\Delta W < h\nu < \Delta W + W_c + W_V \quad (10.14)$$

bo'radi.  $W_c$ -o'tkazuvchi zonaga mos keluvchi to'latilgan holat energiyasi,  $W_V$ -valent zonadagi to'limgan holatga mos keluvchi energiya.

**Muhokama uchun savollar:**

1.14.1-rasmni tushintiring, hariflarni izohlang.

2.14.2-14.4-rasmlarni tushuntiring va undan olinadigan qiymatlarini izohglang.

3.Yarim o'tkazgichli lazerlar qanday ishlaydi?

**Adabiyotlar**

- 1.H.Akramov, S.Zaynobiddinov, A.Teshaboyev. Yarim o'tkazgichlarda fotoelektrik hodisalar. Toshkent. Uzbekiston 1994.271-,.
2. B. Gatehouse.J. Inog.Nucl Chem.,8(6), 79 (1958).
3. A. Burgess, M.J.Seaton. Monthiy Notices Roy.Astron. Soc., **120**, 121(1960)
4. Karzas W.J., Latter R. Astrophys. J. Suppl.VI, no 55, 167 (1961).
5. M.A. Yelyashevich «Atomnaya I molekularnaya spektroskopiya» M., Fizmatgiz. 2002 g.64-88 betlar.
6. S.E. Frish «Opticheskie atomnye spektry» M. Fizmatgiz.1963g.
7. Leshe «Fizika molekul». M., «Mir». 1987 g.
8. Biberman L.M., NormanG.E., Ulyanov K.H."Astronoicheskiy jurnal", **39**, 107(1962)

## **15-ma'ruza. Fotovoltaika materialshunosligi**

**Asosiy savollar:**

1. Fotovoltaika materialshunosligi.
2. Fotovoltaikada qo'llaniladigan boshqa yarimo'tkazgich materiallari.
3. Konstruktsion va texnologik materiallar. Birinchi, ikkinchi va uchinchi avlod fotoelementlari.

**Tayanch so'z va iboralar:** o'tish chuqurligi, texnologik liniyalar, quyosh elementi, kremniy asosi, element strukturasi, fotoelektrik asbob, nurqaytarish qatlamlarisiz, o'lhash, baholash, samaradorligini hisoblash

**1-asosiy savol:**

**Darsning maqsadi:** Magistrlarga fotovoltaika materialshunosligi, fotovoltaikada qo'llaniladigan boshqa yarimo'tkazgich materiallari, konstruktsion va texnologik materiallar, birinchi, ikkinchi va uchinchi avlod fotoelementlari haqida ma'lumot berish.

**Idetiv o'quv maqsadlari:**

1. Elementlar parametrlerini o'lhash va baholashni aytib bera oladi.
- 2.p-n-o'tish chuqurligini o'lhash va elementlar parametrlerini nurqaytarish qatlamlarisiz va ular bilan o'lhash haqida ma'lumot bera oladi.
3. Tayyor elementlar parametrlerini o'lhash, baholash, samaradorligini hisoblashni izohlay oladi.


Kristall moddalarda rentgen nurlarining difraksiyasidan foydalanish, ularning kristall strukturfviy tuzilishini va fazoviy tarkibini aniqlashda o'rganishdagi asosiy

metodlardan biridir. Bu metodning mazmuni shundan iboratki, ob'ektdagi rentgen nurlarining difraksiyasining o'lchami tushuvch nurlanishning to'lqin uzunligiga yaqin bo'ladi. Rentgen nurlari difraksiyasining nazariyasi Bregga tenglamasiga asoslanadi, rentgen nurlarining kuchayishini ifoda qiladi, u kristallning atom tekisligida sochilishini belgilaydi, natijada ularning interferensiyasi hosil bo'ladi [1,2]:

$$2ds\sin\theta = n\lambda \quad (15.1)$$

bu yerda  $\theta$  – nuring tushish burchagi,  $\lambda$  – tushuvchi nurlanishning to'lqin uzunligi;  $n$  – maksimumlar tartibi,  $d$  – kristalldagi tekisliklar orasidagi masofa. Bregga formulasidan shu narsa ko'rindiki, diffraksiyon maksimumlar kattaligi tushish burchagi va rentgen nurlanishining to'lqin uzunligi orqali beriladi. Agar  $\lambda$  doimiy bolsa,  $\sin\theta$  o'zgarsa, unda diffraksiyon maksimumlarning tushish burchagiga bog'lanishini olish mumkin bo'ladi – namunaning rentgenogrammasi (5.1-rasm).

Odatdarentgen nurlanishining manbai sifatida standart rentgent trubkasidan foydalilanadi ( ko'pincha medisinada ishlataladigan CuK rentgan nurlanishning to'lqin uzunligi  $\lambda = 1,542 \text{ \AA}$  bo'ladi).



**15.1-rasm.**  $\text{CuIn}_x\text{Ga}_{1-x}\text{Se}_2$  plenkadagi rentgen nurlarining diffraksiyon rentgenogrammasi

Rentgenogrammaga asosan  $d(\theta)$  [2] bog'lanishning jadvali tuziladi. Shundan so'ng d tekisliklar orasidagi masofa bo'yicha ruxsat etilgan reflekslar bo'yicha intifisiyalashtiriladi. Identifikasiyanı o'lchashda rentgenogrammadagi reflekslar orasidagi masofadan (diffraksiyon maksimumlar) foydalanamiz, undan so'ng ular orasidagi proporsionallik koeffisienti aniqlanadi.

Bu munosabatlar turli turdag'i kristall panjaralar uchun doimiydir [2]:

I panjara uchun  $2\frac{1}{2}, 4\frac{1}{2}, 6\frac{1}{2}, 8\frac{1}{2}$ ;

F panjara uchun  $3\frac{1}{2}, 4\frac{1}{2}, 8\frac{1}{2}, 11\frac{1}{2}, 12\frac{1}{2}, 16\frac{1}{2}, 19\frac{1}{2}, 20\frac{1}{2}$ ;

P panjara uchun  $1\frac{1}{2}, 2\frac{1}{2}, 3\frac{1}{2}, 4\frac{1}{2}, 5\frac{1}{2}, 6\frac{1}{2}, 8\frac{1}{2}$ .

Panjara turi aniqlangandan so'ng, diffraksiyon maksimumlar joylashishiga qarab reflekslarning o'zlari ruxsat etilgan jadval asosida identifikasiya qilinadi berilgan

turdagi kristall panjara uchun, shundan so'ng berilgan strukturaga mos kelmayigan reflekslar aniqlanadi, va ular orqaliboshqa birikma yoki kristall modifikasiyasi indentifikasiya qilinadi.

Kristall strukturasini eng sodda usulda aniqlash usuli rentgenogrammani ma'lumotlarini nazariy hisoblash yo'li bilan kristall panjarani uchun olingan ma'lumotlar bilan solishtirishdir. Agar yupqa plenkaning CIGS strukturasi tahlil qilinayotgan bo'lsa, u holda berilgan birikmalarning olingan rentgenogrammasi nazariy yo'l bilan hisoblangan rentgenogrammaning to'lqin uzunligi bilan solishtiriladi [3].

Rentgenogramma mos kelsa shunday hulosaga kelish mumkin, olingan plenka xal'kopirit kristall strukturasiga ega va uning panjara parametrlai  $a$  va  $c$ . Reflekslar hisoblash bilan mos kelmasa, boshqa birikma hisoblashlarining rentegenogrammasi bilan solishtiruiladi, chunki texnologik jarayon natijasida boshqa birikma hosil bo'lishi mumkin. Intensivlikni o'lchash va identifikasiya qilingan reflekslarni aniqlashda kristallning orientasiyasi polikristallar plenkalarda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Kristall strukturasini baholashda rentgent kuzatish usuli taqribiy plenka qalinligini aniqlashga imkon beradi. Difraksion intensivlikning bir qismi kuzatilayotgan qatlamga kelayotganx qalinlik bo'lsin, u quyidagicha beriladi:

$$G_x = \left( 1 - \exp\left( -\frac{2\mu_x}{\sin \theta} \right) \right), \quad (15.2)$$

bu yerda  $\mu$  – rentgen nurlanishining yutilish koeffisienti;  $\theta$ -difraksiya burchagi.

Yutilish koeffisientini CIS uchun ning nisbiy qiymatidan foydalanib aniqlanadi, nisbiy qiymatni hisoblash mumkin uni Cu, In va Se uchun 1-jadvaldan olinadi [4].

$$\frac{\mu}{\rho}(CuInSe_2) = \frac{1}{4} \left( \frac{\mu}{\rho}(Cu) + \frac{\mu}{\rho}(In) + \frac{\mu}{\rho}(Se) \right) \quad (15.3)$$

Unda plenkaning tahminiy qalinligi quyidagiga teng bo'ladi:

$$x = \frac{-\sin \theta \cdot \ln\left(1 - \frac{I}{I_{his}}\right)}{2\mu} \quad (15.4)$$

bu yerda  $I_{his}$  – hisoblashdagi intensivlik;  $I$  – refleksning real' intensivligi.

CuK-nurlanishning yutilish koeffisienti [4] Jadval 1

Element	$\frac{\mu}{\rho}, sm^2 / g$	$\rho, g / sm^3$
Cu	52,7	8,96
In	252	7,31
Se	82,8	4,81
Mo	164	10,2

Eslatma :  $\lambda = 1,542 \text{ \AA}$ ;  $\rho(CuInSe_2) = 5,77 \text{ g/cm}^3$ ;  $\mu(CuInSe_2) = 678 \text{ cm}^{-1}$ .

Shunday qilib, rentgent kuzatishida standart o'lhash usulidan qurilmadan foydalaniladi va [4] ning metodikasi kristall strukturasini va fazoviy tarkibini anqlashga imkon yaratadi.

### **Fotovoltaik materiallarda zaryad tashuvchilarining yashash vaqtini aniqlash.**

Molekulaning o'rtacha yashash vaqtini erkin yugirish vaqtini ta'riflanganda

$$\tau = 1 / S_m \bar{v}_T N_0, \quad (15.5)$$

ifodadan foydalanib, bunda  $\bar{v}_T$  – molekulaissiqlik harakatining o'rtacha tezligi,  $S_m = \pi R_m^2$  – uning ko'ndalang kesimi,  $R_m$  – radiusi,  $N_0$  – molekulalar konsentrasiyasi. Shunga o'xshash, sochilish nazariyasida va rekombinasiya nazariyasida bu jarayonlarning xarakterli vaqtini aniqlashda sochilish hamda tutilish ko'ndalang kesimi tushinchalari kiritiladi. Molekulalarning bevosita tegishli ko'rinishdagi to'qnashishlari holida ko'ndalang kesim molekulaning geometrik kesimidan iborat bo'ladi. Biroq, zaryadlangan zarralarning zaryadlangan zarralar bilan, kristall panjaraning turli nuqsonlari bilan to'qnashish hollari uchun kiritiladigan ko'ndalang kesimlar to'qnashish markazlarining geometrik ko'ndalang kesimini ifodalamaydi, balki bu kesimlar zaryad tashuvchilarining mazkur to'qnashish, tutilish kesimlar zaryad tashuvchilarining mazkur to'qnashish, tutilish markazlari bilan o'zaro ta'sirning xarakterlaydigan va umuman bir necha omillargga bog'liq bo'lgan effektiv fizikaviy kattaliklardir. Masalan, elektronlarning panjaraning zaryadli nuqsoni bilan o'zaro ta'siri nuqsonning o'z radiysidan ancha uzoq masofalarda boshlanadi, bu holda effektiv ko'ndalang kesimni o'zaro ta'sir sferasi radiusi aniqlaydiki, u nuqsonning geometrik kesimidan ko'p marta ortiqdir.

Endi rekombinasiya jarayonida foydalaniladigan "tutish kesimi" tushunchasi bilan tanishamiz. Nomuvozanatiy zaryad tashuvchi, masalan, elektron kristall panjarada harakatlanayotib muayyan ehtimollik bilan teshikka duch kelib qolishi va unda tutilishi mumkin. Umumiy holda yarim o'tkazgichda teshiklarning (elektronni tutib olish markazlarining) bir necha tipi mavjud bo'la oladi: valent zonadagi erkin teshiklar, turli kirishmalarning energetik sathlari, panjara nuqsonlari sathlarida o'rinalashgan teshiklar va h.k.

Elektronning teshik bilan har bir uchrashuvi ushlanish bilan yakunlanadi deb hisoblaymiz. Elektronning mazkur k tipdagи teshiklar bilan birlik vaqtida uchrashishlar soni  $N_{nk}$  shu teshiklar konsentrasiyasi  $P_k$  ga va elektronning o'rtacha nisbiy tezligi  $v_{nk}$  ga proporsionaldir:

$$N_{nk} = S_{nk} P_k v_{nk}, \quad (15.6)$$

bo'ladi, uni mazkur holdanomuvozanatiy elektronlarning o'rtacha yashash vaqtini deyiladi. Bu yerda  $S_{nk}$  – elektronning k tipdagи teshik tutib olishi effektiv kesimi. Elektronning teshiklar bilan ikki ketma-ket duch kelishi orasida o'tgan o'rtacha vaqt

$$\tau_{nk} = 1 / N_{nk} = 1 / S_{nk} v_{nk} p_k, \quad (15.7)$$

bo'ladi, uni mazkur holda nomuvozanatiy elektronning ortacha yashash vaqtini deyiladi. (15.5) va (15.8) larni taqqoslab, ular shaklan o'xshash ekanligini ko'ramiz ( $v_{nk} \rightarrow v_T, p_k \rightarrow N_0, S_{nk} \rightarrow S_M$ ). (15.8) ifodani teshiklarning ko'p turlari mavjud bo'lgan hol uchun umumlashtirish mumkin. Bu holdaelektronning barcha turdagи teshiklar bilan birlik vaqtida uchrashish soni:

$$N_n = \sum_k S_{nk} p_k v_{nk}, \quad (15.8)$$

o'rtacha yashash vaqt:

$$\tau_{nk} = 1 / \sum_k S_{nk} v_{nk} p_k, \quad (15.9)$$

(15.9) ni quyidagicha ifodalasa ham bo'ladi:

$$1 / \tau_n = \sum_k 1 / \tau_{nk}, \quad (15.10)$$

Yuqoridagi mulohazalarni valent zonadagi erkin teshikning electron to'ldirgan markaz tomonidan tutilishi holi uchun ham takrorlash mumkin. Bunday markazlarning bir necha turlari mavjud. (15.8) va (15.10) ifodalarga o'xshash, teshikning bir turdag'i markazda tutilishishigacha bo'lgano'rtacha yashash vaqt:

$$\tau_{pk} = 1 / S_{pk} v_{pk} n_k, \quad (15.11)$$

bir necha turdag'i markazlatda turlicha bo'lgan o'rtacha yashash vaqt:

$$\tau_p = 1 / \sum_k S_{pk} v_{pk} n_k, \quad (15.12)$$

$$\frac{1}{\tau_p} = \sum_k \frac{1}{\tau_k}, \quad (15.13)$$

bundagi  $S_{pk}$  – teshikni k-markaz tutib olishi effektiv kesimi,  $v_{pk}$  – teshikning o'rtacha nisbiy tezligi,  $n_k$  – esa k-maarkaz konsentrasiyasi.

$$\gamma_{pk} = S_{pk} \cdot v_{pk}, \quad (15.14)$$

$$\gamma_{nk} = S_{nk} \cdot v_{nk}, \quad (15.11)$$

kattaliklar tutib olish (rekombinasiya) koefisientlari deyiladi.

$$\tau_{nk} = 1 / \gamma_{nk} \cdot p_k, \quad (15.12)$$

$$\tau_{pk} = 1 / \gamma_{pk} \cdot n_k, \quad (15.13)$$

(15.12) va (15.13) larni nazarga olsak, tutilish kesmining effektiv kattaliklari (ularni tutilish kesimi deb ataymiz), tutuvchi markazlar tabiatiga hamda tutilish jarayoni qanday sharoitda yuz berayotganniga bog'laqbo'ladi. Nomuvozanatiy zaryad tashuvchilarning yashash vaqt ma'nosini quyidagicha tushuntirish mumkin: generasiyalash tezligi(ya'ni birlik hajimda birlik vaqtida yorug'lik hosil qiladigan electron-teshik juftlar soni) ifodasidir. Rekombinasiyalash tezligi( $r_n$ ,  $r_p$ )nomuvozanatiy tashuvchilar konsentrasiyasiga proporsional:

$$r_n = \Delta n / \tau_n; r_p = \Delta p / \tau_p. \quad (15.14)$$

Nostasionar sharoitda, doimiy tashqi kuchlar ta'siri ostida stasionar holat o'rnashishigacha nomuvozanat zaryad tashuvchilar konsentrasiyasining ozgarishi ni generasiyalash va rekombinasiya tezliklari farqini aniqlaydi:

$$\frac{d\Delta n}{dt} = g_n - r_n = \alpha \beta I - \frac{\Delta n}{\tau_n}; \quad (15.15)$$

$$\frac{d\Delta p}{dt} = g_p - r_p = \alpha \beta I - \frac{\Delta p}{\tau_n}; \quad (15.16)$$

bu yerda  $g = \alpha \beta I$  – kattalik zaryad tashuvchilarni vujudga keltirish (generasiyalash) tezligidir,  $\alpha$  – yorug'lik yutilish koefisienti,  $\beta$  – bir yorug'lik kvanti(foton) vujudga keltirgan elektron-teshik juftlar sonini aniqlaydigan kvant

chiqish, I –yorug'lik intensivligi.n,p-indekslar mos kattaliklarning elektronlar va kovaklarga tegishli ekanini ko'rsatadi.

t=0 vaqt momentida yoritish (generasiyalash) to'xtatiladideb qaraylik, uholda

$$d\Delta n / dt = -\Delta n / \tau_n, \quad (15.17)$$

$$d\Delta p / dt = -\Delta p / \tau_p \quad (15.18)$$

tenglamalarni integrallasak,

$$\Delta n(t) = \Delta n(0) \exp(-t / \tau_n), \quad (15.19)$$

$$\Delta p(t) = \Delta p(0) \exp(-t / \tau_p) \quad (15.20)$$

Elektron va teshiklarning  $\tau_n; \tau_p$  yashash vaqtleri muvozanat holat o'rnatishtishi va unga teskari jarayon-nomuvozanat (xususan stasionar) holat o'rnashish jarayoni vaqtini belgilaydi.

### Muhokama uchun savollar:

1. Fotovoltaik materiallarda zaryad tashuvchilarning yashash vaqtini qanday aniqlanadi?
2. Fotovoltaik materiallarda zaryad tashuvchilarning xarakatchanligini qanday aniqlanadi?
3. Fotovoltaik materiallarda zaryad tashuvchilarning chegarada rekombinatsiya tezligi qanday aniqlanadi?
4. Fotovoltaik materiallarda zaryad tashuvchilarning termoemissiya qobiliyatlarni qanday aniqlanadi?

### Adabiyotlar

- 1.H.Akramov,S.Zaynobiddinov, A.Teshaboyev. Yarim o'tkazgichlarda fotoelektrik hodisalar. Toshkent. Uzbekiston 1994. -271b.
2. B. Gatehouse.J. Inog.Nucl Chem.,8(6), 79 (1958).
3. A.Burgess, M.J.Seaton. Monthiy Notices Roy.Astron. Soc., **120**, 121(1960)
4. Karzas W.J., Latter R. Astrophys. J. Suppl.VI, no 55, 167 (1961).
5. M.A.Yelyashevich «Atomnaya i molekularnaya spektroskopiya» M., Fizmatgiz. 2002. 64-88 betlar.
6. S.E.Frish «Opticheskie atomnye spektry» M.Fizmatgiz.1963.
7. Leshe «Fizika molekul». M., «Mir». 1987.
- 8.Bberman L.M., NormanG.E., Ul/yanov K.H."Astronoicheskiy jurnal", **39**,107(1962)
9. Фелдман Л., Майер Д. Основы анализа поверхности и тонких пленок / под ред. В.В. Белошицкого. М.: Мир, 1989.
10. Ормонт Б.Ф. Введение в физическую химию и кристаллохимию полупроводников. М.:Высшая школа, 1973.
11. JCPDS-International center for diffraction data, PCPDFWIN, v. 2.00, 1998
12. Shay J.L., Wernick J.H. Ternary chalcopyrite semiconductors: growth, electronic properties and applications. New York: Pergamon Press, 1975.

## 1-seminar mashg'uloti: Fotovol'taik effekt

Mashg'ulot turi-seminar

### 1. Fotovol'taik effekt

**Tayanch so'z va iboralar:** Yutilish koeffitsienti, qaytarish koeffitsienti, otish koeffisienti, optik nutrlanish, yutilish spektri, fotoeffektning qizil chegarasi,


**Darsning maqsadi:** Magistrlarga yutilish va qaytarish koeffitsientlari orasidagi bog'lanish haqida ma'lumot berish.

### Idetiv o'quv maqsadlari:

1. Quyosh nurlarini almashtirishni tushuntirib bera oladi.
2. Yutilish koeffitsenti haqida ma'lumot bera oladi.
3. Qaytarish koeffitsientini izohlay oladi.

*Quyosh nurlarining tabiatи va spektral tarkibi*

**1-asosiy savolning bayoni.** Ko'pchilik muqobil energiya turlari - gidroenergiya, mexanik va issiqlik energiyasi, okean, shamol va geotermal' energiya – cheklangan potentsialga egaligi bilan undan keng foydalanish qiyinligi bilan xarakterlanadi. Lekin yana bir energiya manbai bor –Quyosh energiyasi. Quyosh elementlarida (QE) p-n o'tishli fotovol'taik hodisasida, optik nurlanish energiyasini to'g'ridan – to'g'ri elektr energiyasiga aylantiradi, bunda issiqlik va mexanik energiya oraliq shakllar bo'lmaydi. Uning ishlashi yarimo'tkazgichlardagi ichki fotoeffekt asoslangan bo'lib, tarkibidagi p-n o'tishdan (getroo'tish, Shottki to'sigi) iborat. QE ning eng sodda konstruktsiyasi ikki qatlamlı turli xildagi o'tkazuvchanlika ega bo'lgan (elektron-n va kovak-p) yarim otkazgichdan iborat (1.6-rasm) [1].



1.6-rasm. Kremniyli monokristalli QE sxemasi n-tipidagi yarimo'tkazgich ma'lum miqdorda donor tipidagi aralashma atomlardan iborat bo'ladi, uy temperaturasida amalda hammasi ionlashadi, ya'ni  $n_0$  erkin muvozanatdagi erkin elektronlar va shuncha miqdorda harakatsiz musbat zaryadli ionlar bo'ladi. Kovakli yarimo'tkazgich (p- tipidagi yarimo'tkazgich)  $p_0$  erkin kovaklar va shuncha miqdorda manfiy zaryadlangan ionlar bo'ladi. p- va n- soha (1.7-rasm) kontaktida elektronlar va kovaklar kontsentratsiyasi gradienti sababli, diffuzion elektronlar oqimi n-tipli yarim o'tkazgichdan va bunga teskari, p- tipdagli kovaklar oqimi n-tipga yo'naladi.

Quyosh spektral tarkibi bo'yich ikkinch darajali yulduz hisoblanadi, sariq karlik, gaz shaklidagi radiusi 6,955 mln km massasi  $1,98 \cdot 10^{30} \text{ kg}$  o'zining parametrlari

(massasi, radiusi, temperaturasi va absolyut qiymati) bilan o'rtacha yulduz hisoblanadi. Quyoshda keng tarqalgan element vodorod va geliydir (Ras.1.6.)[2].

Quyosh tarkibiga mikroskopik kontsentratsiyali temir, nikel, kislород, кремни, олtingugurt, magniy, uglerod, neon, kal'tsiy va xrom kiradi [3]. Bu yulduz alohida hususiyatga ega Yerga  $2 \cdot 10^{17} \text{Vt}$  quvvatli energiya beradi, 12,7 ming kmsirtni yoritadi. Yorug'lik nurining dengiz sathidagi intensivligi ekvator kengligida Quyosh zenitda bo'lganda  $1 \text{kVt/m}^2$  bo'ladi.

Quyosh energiyasining manbai termoyadro reaktsiyasi bo'lib hisoblanadi [2,5] proton-proton va uglerod –azor tsikllardan iborat bo'ladi, natijada to'rt proton geliy hosil qiladi.




$e^+$ -pozitron,  $\nu_e$ -elektronli neytrino, xar sekundda  $6 \cdot 10^{11} \text{ kg}^{-1} \text{H}$  geliga aylanadi  ${}^4\text{He}$ . Deffekt massa  $4 \cdot 1,008 \text{ g} ({}^1\text{H}) = 4,003 \text{ g} ({}^4\text{He}) + 0.029 \text{ g}$ , bunda  $4 \cdot 10^9 \text{ kg}$  tashkil qiladi bu Eyishteyn munosabatidan ajralgan energiya  $\sim 3,8 \cdot 10^{26} \text{ J}$ .

$$\Delta E = (4m_{{}^1H} - m_{{}^4He})c^2, \quad (1.17)$$

c- yorug'likning tezligi.


Bu energiyaning asosiy qismi elektromagnit nurlanish diapazonida UF dan IQ gacha 99% to'lqin uzunligi 100-4000 nm (Ras.1.7)



1.7-rasm. p-n-o'toshlarning hosil bo'lishi



Ras.1.6.Quyosh tarkibidagi elementlar [2]



Ras.1.7.Hisoblash natijasida olingan qiuyosh nurlanishining quvatini taqsimoti yassi sirtli maydonga tushuvci astronomik tush payti.


Umumiyl quyosh nurlanishi Q hamma to'lqin uzunligi uchun  $3,8 \cdot 10^{26}$  Vt. Atrof muhitga Quyosh nurlanishi sochilganligi sababl L masofaning kvadratiga teskari praportsional bo'ladi.

$$\Phi = \frac{Q}{4\pi L^2}, \quad (1.17)$$

Yerdan Quyoshgach bo'lgan masofa 149,5 mln km va yer orbitasidagi o'rtacha quyosh nurlanishining energiya zichliga  $1370 \text{ Vt/m}^2$  ni tashkil qiladi. Bu kattalikka quyosh doimiysi deb ataladi ( $\Phi_0$ )[6,7]. Quyosh spektri uch qisimdan tashkil topadi: UB ( $\lambda < 390 \text{ nm}$ ) - hamma nurlanish energiyasini 9%; ko'rinvchi nurlar ( $390 \text{ nm} < \lambda < 760 \text{ nm}$ ) - 47%; IQ ( $\lambda > 760 \text{ nm}$ ) - 44%. Atmosferadan quyosh nurlari o'tishi natijasida so'nadiasosan IQ- nurlanishning suv bug'larida yutilishi sababli, UB -nurlanish ozon va havo tarkibidagi chang zarralari hamda aerozollarda yutiladi. Atmosferaning ta'sirini ko'rsatuvchi kattalik quyosh nurlanishi intensiligidir u atmosfera massasi orqali AM [6] orqali ifoda qilinadi:

$$AM = \frac{y}{y_0} \frac{1}{\sin \theta}, \quad (1.18)$$

Bu yerda  $y$ - atmosfera bosimi,  $y_0$ -normal atmosfera bosimi(101,3 kPa),  $\theta$ - Quyoshning yfqdan balandlik burchagi(Ras.1.8).



**Рис. 13. Расстояние, проходимое в атмосфере солнечными лучами при различных положениях Солнца над горизонтом**  
**Fig. 13. Distance covered by solar beams in the atmosphere at different positions of the Sun over the horizon**

Ras.1.8.Quyoshning turli vaziyatida atmosferadan o'tishi.

Yer sirtiga tushuvchi yorug'lik oqimi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Phi_0 = \int_0^{\infty} \Phi_{0\lambda} e^{-\tau_{\lambda} h} d\lambda = \int_0^{\infty} \Phi_{0\lambda} e^{-\frac{\tau_{\lambda} h}{\sin \theta}} d\lambda = \int_0^{\infty} \Phi_{0\lambda} P^{\frac{1}{\sin \theta}} d\lambda, \quad (1.19)$$

Bu yerda  $\tau_{\lambda}$  - atmosferaning yutilish koeffisienti,to'lqin uzunlika bog'liq, mamasofa, atmosferadan o'tuvchi quyosh nurlari,  $h$ - atmosfera balandligi,  $P = \Phi_{p\lambda} / \Phi_{0\lambda} = e^{-\tau_{\lambda} h}$  - shaffoflik koeffisienti, atmosferani yutilishini xarakterlaydi.

**Yutilish koeffisienti.** Optik nurlanish bilan yarimo'tkazgich ta'sirlashganda, uning sirtidan qisman qaytadi, qisman sirtda yutiladi va qisman yarim o'tkazgichdan yutilmasdan o'tadi. Ularni mos ravishda qaytuvchi, o'tuvch va yutiluvchi energiya koeffisienti bilan baholanadi.

$$O'tkazish koeffisienti \quad T = P_{o'tgan} / P_{tush}, \quad (1.20)$$

$$Qaytish (sochilish) koeffisienti \quad R = P_{qaytgan} / P_{tush}, \quad (1.21)$$

$$Yutilish koeffisienti \quad A = P_{yutilgan} / P_{tush}, \quad (1.22)$$

bu yerda  $P_{o'tgan}$  - o'tgan nurlanishning quvvati,  $P_{qaytgan}$  - qaytgan nurlanish quvvati,  $P_{yutilgan}$  - yutilgan nurlanishning quvvati,  $P_{tush}$  - tushuvchi nurlanish quvvati.

Ma'lumki, yorug'lik to'lqini yarimo'tkazgich sirtiga tushganda yorug'lik oqimining  $P_R$  qismishu sirtdan qaytadi,  $P_T$  qismi yarim o'tkazgichdan o'tib ketadi,  $P_r$  qismi sochiladi va  $P_{aqismi}$  o'tkazgich hajmida yutiladi. Bu qismlarning tushayotgan to'la yorug'lik oqimi  $P_0$ ga nisbatlari:

$$R = \frac{P_R}{P_0}; T = \frac{P_T}{P_0}; r = \frac{P_r}{P_0}; A = \frac{P_{aqismi}}{P_0}, \quad (1.23)$$

Mos ravishda, qaytarish, o'tkazish, sochish (sochilish) koeffisientlari, yutilish qobilyati deb ataladi. Energiyaning saqlanish qonuniga ko'ra, bu koeffisientlarning yig'indisi 1 ga teng:

$$R + T + r + A = 1. \quad (1.24)$$

Bu koeffisientlar yarim o'tkazgichlarning xossalariiga, nurlanishning to'lqin uzunligiga, tushish burchagiga, qutublanish hamda namuna sirtining ishlanishiga, uning qalinligiga bog'liq bo'ladi.

Yorug'lik yutilishining bir necha mexanizmlari bor. Yorug'lik yutilishi mexanizimi qanday bo'lsa ham, yarimo'tkazgich hajmida fotonlar oqimi Buger-Lambert qonuniga binoan eksponensial ravishda kamayib boradi:

$$I_\nu(x) = I_{\nu_0}(1 - R_\nu)e^{-\alpha x} \quad (1.25)$$

Bu yerda  $I_0$ - yarimo'tkazgich sirtiga tushayotgan v-chastotalifotonlar oqimi, foton/  $\text{sm}^2\text{s}$ (yoki yoruglik intensivligi,  $\text{Vt/sm}^2$ );  $I_{\nu_0}(1 - R_\nu)$ -yarim o'tkazgich ichiga kirgan fotonlar oqimi;  $I_\nu(x)$ -sirdan x masofa ichkaridagifotonlar oqimi;  $\alpha$ -yutilish koeffisienti,  $\text{sm}^{-1}$ ;  $R_\nu$ -qaytarish koeffisienti. Yutilishning ko'rsatgichi  $\alpha$  – sirtgacha bo'lgan masofaga teskari kattalik bo'lib, boshlang'ich tushayotgan nurlanish quvvatini  $e=2,71$  marta susaytiradi, x chuqurlikdau quyidagi ko'rinishda ifoda qilinadi:

$$P(x) = P_{tush} e^{-\alpha x}, \quad (1.26)$$

$$\alpha = -\frac{1}{x} \ln \frac{P(x)}{P_{tush}}, \quad (1.27)$$

bu yerda  $P(x)$ - x-chuqurlikda nurlanishning quvvati. Yutilish koeffisienti bilan tushuvchi nurlanishning to'lqin uzunligi orasidagi bog'lanishni  $\alpha(\lambda)$  – yutilish spektri deb ataladi. Agar man qilingan (taqiqlangan) zona uncha katta bo'lmasa ( $\Delta E = 1\text{eV}$ ), elektronning valent zonadan o'tkazish zonasiga issiqlik yoki nurlanish (boshqa) ta'sir bilan ko'chirish mumkin. Masalan, Ge uchun man qilingan zona kengligi 0,72 ev, Si uchun esa 1,11 eV. O'tkazgichlar uchun man qilingan zonaning kengligi nolga teng, yarim o'tkazgichlar uchun 2 eV dan oshmaydi, dielektriklar uchun 2 eV dan katta bo'ladi. 1.9-rasmdan energiyaning bir qismi valent zonaning 1 buzilishiga sarflanadi va qolgan qismi elektronni valent zonadan o'tkazish zonasiga ko'chishiga sarflanadi. Elektronning o'tish zonasiga o'tishi uchun yutilgan foton energiyasi ma'n qilingan zona kengligidan kata bo'lishi kerak:

$$E_{ph} = h\nu \geq E_g \quad (1.28)$$

bu yerda  $E_{ph}$  – tushuvch foton energiyasi,  $E_g$  – man qilingan zonaning kengligi, h-Plank doimiysi,  $\nu$  – nurlanishning elektromagnit tebranish chastotasi. Shu sababli xususiy yutilish spektri aniq chegara qiymatlar bilan ifodalanadi, uni fotoeffektning qizil chegarasi deb ataladi.

$$\lambda_{chegra} = ch/E_g, \quad (1.29)$$

$\lambda_{chegra}$  chegara sohada fononlar, eksitonla yutiladigan sohalarda to'g'ri bo'lмаган o'tishlar kuzatilishi mumkin 1.9-rasmdagi 2 soha.  $\lambda_{chegra}$  kattalik temperatura, tashqi maydon ta'sirlari va yarim o'tkazgichning legerlashda aralashmalar ta'sir qiladi. Yarim o'tkazgich nurlantirilganda unda zaryad


tashuvchilarda o'zgarish bo'ladi, bunday elektr o'tkazuvchanlikni –fotorezistivli effekt deb ataladi. Umumiy o'tkazuvchanlik bu holda

$$\sigma = \sigma_0 + \sigma_{ph}, \quad (1.30)$$

$\sigma_0 = e(n_0\mu_0 + p_0\mu_p)$  – qorong'idagi xususiy o'tkazuvchanlik,  $\sigma_{ph}$  – foto o'tkazuvchanlik,  $\mu_n, \mu_p$  – tesik va elektronlar harakarchanligi,  $n_0$  va  $p_0$  – bir xil og'irlikli konsentrasiyadagi erkin elektronlar va teshiklar, e – elementar zaryad. Yorug'lik yutilishini yarim o'tkazgichda samaradorligini aniqlashda kvantlar chiqishi hisobga olinadi

$$\eta_{ph} = \frac{\Delta n + \Delta p}{2N_{yut}}, \quad (1.31)$$

bu yerda  $\Delta n, \Delta p$  – yorug'lik nurlarini yutishda ortiqch zaryad tashuvchilarning miqdori,  $N_{yut}$  – yutilgan fotonlar soni [6]. Ideal holda  $\eta_{ph} \approx 1$  bo'ladi, ya'ni bir yutilgan foton bir juftli electron vateshiklar jufti hosil qiladi. Kirishmaning konsentrasiyasini ortishi  $\lambda_{chegra}$  pasaytiradi valent zona shipida to'lishi yoki o'tkazuvchi zonaning tubida energetik sathlar atrofida pasayadi. Temperatura ortishi ko'pchilik yarim o'tkazgichlarda  $\lambda_{chegra}$  qiymatini oshishiga, man qilangan zona kengligi kamayishiga olib keladi. Elektr maydoni ta'sirida  $\lambda_{chegra}$  uzun to'lqinli soha tomonga siljiydi (Keldish-Frans effekti), magnit maydoni ta'sirida esa qisqa to'lqinli tomon siljiydi (Landau yoyilishi). 3 va 4 soha 4.1-rasmda aralashma tomonidan yutilish ko'rsatilgan, (foton energiyasi aralashma atomlarini ionlashtirishga sarf qilinadi).



1.9-rasm. Yarimo'tkazgich materiallarning optik yutilishi(uzuluksizegri chiziq) vafoto'o'tkazuvchanlikkaspektral bog'lanishi (shtrihlangan egri chiziq): 1-xususiy yutilish; 2- fonon va eksitonning ta'sirida to'g'ri bo'lмаган o'tishlar; 3, 4-qo'shimchalarning yutilishi [5]

Aralashmaning ionizasiya energiyasi  $\delta E_{ar} \ll E_g$  bo'lganda, aralashmaning yutilish spektri IQ-sohaga siljigan bo'ladi. Aralashma atomlaridagi elektronlar asosan uyg'ongan holatda bo'ladi, shu sababli yutilish spektri bir qancha oraliqlarda bo'ladi (misol uchun 4.1-rasmdagi 3 va 4. Eksiton yutilishfotonning shunday yutilish

energiyasiga mos holda, valent zonadagi elektron atomdan ajralmaydi, u uyg'ongan holatga o'tadi, kovak hosil bo'ladi, ya'ni elektr dipol – eksiton hosil bo'ladi. Eksitonning yutilish spektrlari ingichka chiziq bo'lib,  $\lambda_{\text{chehra}}$  sohada (rasmda ko'rsatilmagan). 4.1-rasmdagi 5 soha panjarali yutilishga mos keladi, yorug'lik kvantlari fononlarni generasiya qiladi va yarim o'tkazgichning issiqlik eneriyasi ortadi. Bunday yutilish spektri amalda uzuliksiz bo'ladi, chunki spektrlar orasi juda kichik bo'ladi.

### **Muhokama uchun savollar**

1. Yarimo'tkazgichlardagi o'tkazish koeffisientini izohlab bering.
2. Yarim o'tkazgichlarda qaytish (sochilish) koeffisienti tushuntiring.
3. Yarimo'tkazgichlar sirtida yorug'likning yutilish koeffisienti nima?
4. Yarimo'tkazgichlar sirtida va ichida bo'ladigan hodisani tushuntiring.

### **Adabiyotlar**

1. В.Ф.Греенок, М.С.Тиванов, В.Б.Залесский. Солнечные элементы на основе полупроводниковых материалов.//Международный научный журнал "Альтернативная энергетика и экология" №1(69) 2009.59-115 с.
2. Фаренбрух А., Бьюб Р.Солнечные элементы: теория и эксперимент/пер. с анг. под ред. М.М. Колтуна.М.: Энергоатомиздат, 1987.
3. Зи.С.Физика полупроводниковых приборов: в 2 т./ пер. с анг. В.А.Гергеля, В.В.Ракитина; под ред. Р.А. Суриса.М.: Мир. 1984. Т.2.

### **2-seminar mashg'uloti: Quyosh energetikasi sohasida nanotexnologiyalarning o'rni. Energetik zonalar diagrammasi**

1.Taqiqlangan zona.

2.Yarim o'tkazgichlarni legirlash.

3.Asosiyva noasosiy yoki muvozanatli va nomuvozanatli zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi.

Barcha qattiq jismlar o'zlarining elektr xossalari ko'ra uch sinfga ajratiladi: metallar, yarimo'tkazgichlar, dielektriklar. Metallarning elektr o'tkazuvchanligi ancha katta bo'ladi, dielektriklar esa tokni deyarli o'tkazmaydi. Ularning orasida kichik elektr o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan juda ko'p moddalar mavjudligi aniqlangan.

Metallar bilan yarim o'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligi bir-biridan faqat miqdoriy jihatdan emas, balki muhim sifatiy jihatdan, ham farqlanadi. Masalan, temperatura ortganda metallarning elektr qarshiligi ortadi (elektr o'tkazuvchanligi kamayadi), yarim o'tkazgichlarning elektr qarshiligi esa kamayadi. Yorug'lik ta'sirida metallarning elektr o'tkazuvchanligi o'zgarmaydi, ammo yarim o'tkazgichlarniki ko'p marta o'zgarib ketishi mumkin. Yarim o'tkazgichlarning elektr va optik xossalari tashqi ta'sirga metallarnikiga nisbatan beqiyos darajada sezgirdir.

Qattiq jismlarning kvant nazariyasi metallar, yarimo'tkazgichlar va dielektriklarning elektr xossalarni tushintirib beradi. Mazkur nazariya Shryodinger tenglamasi yordamida yechiladi. Adiabatik bir elektronli tarkibning ma'nosi shundaki, bunda bir elektronning barcha atomlar yadrolari hamda qolgan barcha elektronlarning elektr maydonidagi harakati qaraladi. Kristall shaklidagi qattiq jismlarda bu maydon fazoviy davriy maydon bo'lishini eslatadi. Elektronlarning

davriy elektr maydondagi harakati bir necha hollar uchun qaralgan va ularning barchasi bir qator muhim xulosaga olib kelgan.

Davriy elektr maydonda harakatlanayotgan elektronning to'lqin funksiyasi sifatida Blox funksiyasi quyidagi ko'rinishda yoziladi

$$\psi_{\vec{k}}(\vec{r}) = u_{\vec{k}}(\vec{r}) e^{i \vec{k} \cdot \vec{r}}, \quad (2.1)$$

bundagi  $u_{\vec{k}}(\vec{r})$ -panjara davriyligiga ega bo'lgan funksiya:

$$u_{\vec{k}}(\vec{r}) = u_{\vec{k}}(\vec{r} + \vec{a}_n), \quad (2.2)$$

bu yerda  $\vec{r}$ -radius -vektor,  $\vec{a}_n$ -to'g'ri panjara vektori. To'lqin vektori  $\vec{k}$  ning muayan davr bilan takrorlanadigan qiymatlari elektronning bir xil holatlarini ifodalaydi. Agar kristall panjarasining asosiy vektorlarini  $\vec{a}_1, \vec{a}_2, \vec{a}_3$  bilan belgilasak, birinchi davr  $\vec{k}$  ning sanoq boshiga nisbatan

$$-\pi \leq k \cdot \vec{a}_i \leq +\pi, \quad (2.3)$$

bilan ifodalanadi va  $\vec{k}$  fazodagi hajmni beradi, bu hajm birinchi(keltirilgan) Brullyun zonasi deyiladi, uning qiymati  $(2\pi)^2 / V_0$ ga teng bo'lib, bu yerda  $V_0$ -elementar yacheyka hajmidir.

(2.1) Blox funksiyasini Shredinger tenglamasi

$$(\hbar^2 / 2m) \nabla^2 \psi_{\vec{k}} + V(\vec{r}) \psi_{\vec{k}} = E_{\vec{k}} \psi_{\vec{k}}, \quad (2.4)$$

ga qo'ysak va  $V(\vec{r})$  davriy potensialning tayinli ko'rinishini tanlab olinsa, u holda kristalldagi elektron energiyasi  $E(\vec{k})$  ning mumkin bo'lgan qiymatlari spektrni aniqlash mumkin.

Turli ko'rinishdagi davriy maydonlarda (bir o'lchovli modellar asosida, kuchsiz va kuchli bog'lanish hollarida va hakazo) elektron harakatini tekshirish va umumiylulohazalar kristalldagi elektron energiyasining hamma qiymatlari ham ruxsat etilgan qiymatlar bo'lavermasligini, balki, *ruxsat etilgan qiymatlari orliqlari (zonalari) taqiqlangan energiya qiymatlari orliqlari (zonalari) bilan bir-biridan ajralgan* bo'lishini ko'rsatadi. Ya'ni atomlar bir-biriga yaqinlashib, qattiq kristall jism hosil qilganda yakka atomdagi elektron energiyasi sathlari parchalanib, ruxsat etilgan energiya zonalari hosil qiladi, deb tasavvur qilish mumkin.

Ba'zi hollarda yakka atomdagi elektronlarning turli enertiya sathlariga mos keladigan qattiq jism elektronlarining energiya zonalari bir-biri ustiga qisman tushishi ham mumkin.

Ruxsat etilgan energiyalar zonasida elektronlarning energiyasi uzuluksiz o'zgaradi deb hisoblash mumkin, chunki uning ichida energiya sathlari juda zinch joylashgan. Yuqorilashgan sari ruxsat etilgan zonalar kengayib, taqiqlangan zonalar esa torayib boradi.

Har bir zona ichida elektronning energiyassi  $E$  vektor  $\vec{k}$  ning funksiyasi bo'ladi.  $E(\vec{k})$  funksianing ko'rinishi murakkab bo'lishi, u bir necha maksimum va minimumlarga ega bo'lishi mumkin.  $E(\vec{k})$  ning ushbu zonadagi eng kichik minimumi zonaming pastki chegarasini (tubini) aniqlaydi, uning eng katta maksimumi esa

zonaning yuqori chegarasini (shipini) aniqlaydi (bundan tashqari, bir zonaning o'zida bir necha ekvivalent ekstremumlar bo'lishi ham mumkin).  $\vec{P} = \hbar \vec{k}$  vektor elektronning kvazi impulsini ifodalaydi.

Maksimum yoki minimum yaqinida  $E(\mathbf{k})$  funksiyani qatorga yoyib, bu yoyma asosida *effektiv massa tenzori* tushunchasi kiritiladi. Eng sodda holda-izotrop kristalda bu tenzoring tashkil etuvchilari bir-biriga teng bo'lib, sklyar effektiv massa  $m^*$ ni beradi.

Erkin elektronning to'lqin vektori orqali ifodalangan energiyasining formulasi

$$E = \hbar^2 k^2 / 2m_0, \quad (2.5)$$

ko'rinishida bo'ladi; bunda  $m_0$ -erkin elektron massasi. N'yutonning 2-qonuni esa erkin elektron uchun  $\vec{F} = m_0 \left( d\vec{v} / dt \right)$  ko'rinishida bo'ladi. Izotrop kristalldagi elektronning energiyasi va N'yutonning 2-qonuni formulalari yuqoridagi shakillarda yoziladi, ammo bunda erkin elektronning massasi  $m_0$  o'rniga kristalldagi elektronga tegishli effektiv massa  $m^*$  yoziladi. Bundan ajoyib bit xulosa keltirib chiqariladi: effektiv massa

$$m^* = \hbar^2 / \frac{\partial^2 E}{\partial k^2}, \quad (2.6)$$

formuladan aniqlanadi. Minimum yaqinida ikkinchi hosila musbat, binobarin, effektiv massa ham musbat bo'ladi. Ammo, maksimum yaqinida  $\frac{\partial^2 E}{\partial k^2}$  hosila manfiydir, binobarin,  $m^* < 0$  bo'ladi. Bunda ichki maydon elektronga tashqi maydonnikiga qarama-qarshi ta'sirni ko'rsatadi. Agar elektron o'rniga musbat zaryadli zatta +e qaralsa, bu holda uning massasi  $-m^* = m_p > 0$  musbat bo'ladi. Demak, zonaning maksimumi (shipi) yaqinida elektron harakati o'rniga musbat +e zaryadli zarra harakati qaralsa, energiya va Nyutonning qonuni ifodalari o'z klassik shakillarini saqlaydi. Bunday musbat zaryadli kvazizarra kovak deb nomlangan. Bu nomning kelib chiqishi quyidagicha: biror zonaning yuqori chegarasidagi elektron yuqorigi zonaga o'tib olgan bo'lsa, bu holda u egallagan holat bo'sh holda (kovak hosil bo'ladi). Endi shu zonaning shipi yaqinida qolgan elektron harakati o'rniga musbat zaryadli kovak harakatini tekshirish ma'quldir, chunki bunda oddiy munosabatlar o'z kuchini saqlaydi.

Endi kristall qattiq jismlarda elektron energiyasi spektri zonaviy tuzilishining ba'zi xususiyatlari ustida to'xtalib o'tamiz.

Neytral yakka atomda elektronlar energiyasining eng yuqori sathlari (valent sathlar) to'la to'ldirilgan yoki chala to'ldirilgan bo'lishi, yanada yuqori sathlar bo'mbo'sh bo'lishi mumkin. Ichki sathlarning parchalanishidan paydo bo'lган energiya zonalarni hamma vaqt elektronlar to'la to'ldirgan bo'ladi. Valent sathlardan paydo bo'lган valent energiya zonalarni elektronlar to'la to'ldirgan yoki chala to'ldirgan bo'lishi mumkin. Valent zonadan yuqorigi zona esa bo'sh bo'ladi.

### **Muhokama uchun savollar**

1. Yorug'lik ta'sir qilganda qanday materiallar o'zining o'tkazuvchanligini o'zgartiradi?
2. Qattiq jismlarning kvant nazariyasini nimani tushuntiradi?

3. Energetik zonalar diagrammasini tushiuntiring.
4. Taqilangan zona deganda nimani tushunasiz?
5. Yarim o'tkazgichlarni legerlash nima?

**3-seminar mashg'uloti: Quyosh elementlari va batareyalarining samaradorligi, kamchiliklari va istiqbollari. Asosiy va noasosiy yoki muvozanatli va nomuvozanatli zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi**

Yarim o'tkazgichlar tashqi ta'sir ostida, ya'ni yorug'lik, rentgen,  $\gamma$ - kvantlar, tezlashtirilgan neytral, zaryadlangan zarrachalar hamda p-n o'tiss orqali injektsiya, elektr maydonida zarbadan ionlanish, tunneljarayonlari tufayli nomuvozanat zaryad tashuvchilaning paydo bo'lishi mumkin.

Yarim o'tkazgichlarda nomuvozanat zaryad tashuvchilar xususiyati quyidagicha:

elektronlar va kovaklar tok zichliklari, elektronlar kontsentratsiyasi n va kovaklar kontsentratsiyasi p ga bog'liq bo'ladi, ya'ni o'tkazuvchan pastki zona sohadagi elektronlar kontsentratsiyasi va valent zona yaqinidagi kovaklar kontsentratsiyasi blan ifodalanadi. Bu zarralar Fermi- Dirak statistikasiga bo'yсинади, energiya taqsimotini quyidagi formula yordamida yozish mumkin:

$$dn = \frac{4\pi(2m_n^*)^{3/2}}{h^3} f_n E^{1/2} dE, \quad (3.8)$$

$$dp = \frac{4\pi(2m_p^*)^{3/2}}{h^3} f_p (-\Delta E - E)^{1/2} dE, \quad (3.9)$$

bu yerda dn- birlik hajmdagi elektronlar soni, uning energiyasi E dan E+dE gacha oraliqda,  $m_n^*$ -elektronning effektiv massasi;  $f_n$ -elktron uchun Fermi -Dirak funktsiyasi; E-energiya,  $E_0$  dan shartli ravishda nul'dan boshlab hisoblanadi; dp- birlik hajmdagi kovaklar soni, energiyasi (- $\Delta E$ -E)dan (- $\Delta E$ -E)+dE gacha (kovaklar energiyasi elektronlar energiyasiga teskari ishora bilan olinadi);  $m_p^*$ -kovakning effektiv massasi;  $f_p$ -kovak uchun Fermi -Dirak funktsiyasi. Fermi -Dirak funktsiyasi:

$$\text{elektronlar uchun} \quad f_n = \frac{1}{e^{\frac{E-F}{kT}} + 1}, \quad (3.10)$$

$$\text{kovaklar uchun} \quad f_p = 1 - f_n, \quad f_p = \frac{1}{e^{-\frac{E-F}{kT}} + 1}. \quad (3.11)$$

O'tkazuvchan sohadagi elektronlar va valent sohadagi kovaklar kontsentratsiyasini aniqlashda (3.8) va (3.9) ifodani integrallash lozim bo'ladi:

$$n = \int_0^{E_2} \frac{4\pi(2m_n^*)^{3/2}}{h^3} f_n E^{1/2} dE, \quad (3.12)$$

$$p = \int_{-E_1}^{-\Delta} \frac{4\pi(2m_p^*)^{3/2}}{h^3} f_p (-E - \Delta E)^{1/2} dE. \quad (3.13)$$

Hususiy yarimo'tkazgichlardagi o'tkazuvchan sohaga o'tuvchi elektronlar soni odatda o'tkazuvchan sohadagi elektronlar soniga qaraganda juda kam bo'ladi, shu sababli  $f_n \ll 1$  yoki  $\frac{1}{e^{\frac{E-F}{kT}} + 1} \ll 1$  bo'lganligi sababli

$$e^{\frac{E-F}{kT}} \gg 1, \quad (3.14)$$

$$\frac{E-F}{kT} \gg 0$$

va (3.10) va (3.11) ifodadagi mahrajdagagi birni hisobga olmaslik ham bo'ladi. (3.13) va (3.14) integralni hisoblab, quyidagini hosil qilamiz:

$$n = 2(2\pi n_n^* kT)^{3/2} h^{-3} e^{\frac{F}{kT}} = N_s e^{\frac{F-E_s}{kT}}, \quad (3.15)$$

$$p = 2(2\pi n_p^* kT)^{3/2} h^{-3} e^{-\frac{\Delta E+F}{kT}} = N_v e^{\frac{E_v-F_s}{kT}} \quad (3.16)$$


bu yerda  $N_s$  va  $N_v$  –mos ravishda, o'tkazuvchan va valent zonadagi effektiv zilik holatni ifodalaydi:  $N_s = 2(2\pi n_n^* kT)^{3/2} h^{-3}$ ;  $N_v = 2(2\pi n_p^* kT)^{3/2} h^{-3}$ ;  $E_s = 0$ ;  $E_v = -\Delta E$ .

Hususiy o'tkazuvchanlik yarimo'tkazgichlarda  $n=p$  bo'lganligi uchun, (3.15) va (3.16) ifodalarni logoriflab bir oz almashtirishlarni amalga oshirsak quyidagini hpsil qilamiz:


$$F = -\frac{\Delta E}{2} - \frac{3}{4} kT \ln \frac{m_n^*}{m_p^*} \quad (3.17)$$

Agar  $T=0$  bo'lsa  $F = -\Delta E/2$  bo'ladi, ya'ni absolyut nolda Fermi sathi hususiy o'tkazuvchanlikli yarim o'tkazgichlarda taqiqlangan zona o'rtasida bo'ladi.

**Tranzistor haqida tushuncha.** Ikkita p-n o'tishga ega bo'lgan yarim o'tkazgichli sistemaga *tranzistor* deyiladi. Tranzistor yordamida elektr tebranishlari hosil qilinadi, boshqariladi va kuchaytiradi. Tranzistor tayyorlash uchun elektron o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan germaniy kristalining ikki tomoniga indiy kavsharlanadi. Germaniy kristalining qalinligijuda kichik bo'ladi (bir necha mikrometr). Mana shu qatlam tranzistor asosi, ya'ni bazasideb ataladi (3.6-rasm).



3.6- rasm. Tranzistorning umumiy ulanish sxemasi



3.7-rasm.Tranzistorning elektr cxemasi.

#### Muhokama uchun savollar:

1. Ideal va real kristallarning asosiy farqlari nimada?
2. Kristallarning nuqsonlarini turlari va paydo bo'liash sabablarini ayting?
3. Frenkel va Shotki nuqsonlarini tushuntiring?
4. Radiatsion nuqsonlarning paydo bo'lislari mexanizmlari qanday? Optik rekombinasiya qanday turlarga bo'linadi?

#### Adabiyotlar

1. S.Zaynobiddinov, SH.Yo'lchiyev, D.Nazirov, M. Nosirov "Yarimo'tkazgichlarda atomlar diffuziyasi". -T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati ", 2012. -175 b.
2. A. Teshaboyev, S.Zaynobiddinov, S.Vlasov, I. Karimov, V. Abduazimov "Yarimo'tkazgichlar sirti fizikasi". -T.: "Ilm zyo", 2010. -167 b.
3. В.Ф.Греенок, М.С.Тиванов, В.Б.Залесский. Солнечные элементы на основе полупроводниковых материалов.//Международный научный журнал "Альтернативная энергетика и экология" №1(69) 2009.59-115 с.

#### 6-seminar mashg'uloti: Quyosh elektr stantsiyalari

#### Umumiylar elektr tarmog'iga ulangan quyosh fotoelektrik qurilmalari

Quyosh nurlanishi yordamida olingan elektr energiyasidan foydalanishning k'op ustun jihatlari bor. Bu ekologik toza, tinch va ishonchli energiya manbaidir. Shu sababli xozirgi vaqtida, markaziy elektr ta'minoti bo'limgan uzoq hududlarda quyosh elektridan keng foydalaniladi, alohida uylarni elektr ta'minoti, ofislar va boshqa binolarga suvni ko'tarish va dorilarni sovitishda ishlataladi.

Bunday quyosh panellariga qo'shimcha akkumulyator batareyasi ulanadi bunda elektr energiyasidan foydalanishga imkoniyat yaratiladi, kunduzgi vaqtida ishlab chiqilgan energiyadan kechquringi vaqtida foydalaniladi. Bundan tashqari, kal'kulyatorlar, telekomunikatsion tizimlar, va boshqalar quyosh elektrida ishlaydi. Quyosh fotoelektr qurilmalari quyidagi turlarga bo'linadi:

- avtonom – qo'llanilishi, agar ob'ekt markaziy elektr ta'minot tizimiga ulnmagan bo'lsa, quyosh moduli elektrni generatsiya qiladi, yoritish maqsadida, maishiy qurilmalarni yoki qo'lida ishlatadigan qurilmalarni manbai bo'ladi; bunda odatda akkumulyator batareyasidan foydalaniladi;

- ulanganda – agar ob'ekt markaziy elektr ta'minot tizimiga ulngan bo'lsa, quyosh batareyasidan hususiy elektr energiyasini generatsiya qilishda foydalaniladi, ortiqcha elektr energiyasini elektrosetga sotadi;

- rezerv tizimlar – fotoelektr qurilmalar setga ulangan sifati yomon va cho'qi yuklanishni qoplash uchun yoki avariya holatida foydalaniladi, odatda u o'z ichiga akkumulyatorlar va o'zgarmas tokni o'zgaruvchan tokka aylatiruvchidan tashkil topgan bo'ladi.

### **Quyosh fotoelektrik stansiyalar**


Quyosh fotoelektrik stansiyalarni qo'lanilishi kosmik kemalardan boshlandi, ishlab chqilgan energiyani naxi ikkinchi darajali rolli edi. Yer sharoitida quyosh elektri uchun asosiy faktor bu texnologiyani harakatlanishi hisoblanadi. Keyingi 40 yilda kremniyli fotoelektr almashtirgichlarning bahosi 40 marta pasaydi. Bir kW quvvat quyosh elektrostantsiyalarida 2500\$ ga to'g'ri keladi.


Bir vaqtning o'zida quyosh nurlanishini elektr energiyasiga aylantirish samaradorligi ham oshdi. Xozirgi vaqtda FIK quyosh modulida 13 – 16 % ga yetdi, laboratoriya sharoitida samradorlik 40 %. Lekin, hamma bu yutug'larga qaramasdan, quyosh elektr energiyasi va ana'naviy issiqlik elektrostantsiyalari ishlab chiqarayotgan energiyaning taxminiy narxi tenglasha olmaydi. Asosiy omillarga ta'sir qiluvch raqobatbardoshlik quyosh energetikasida, kelajakda quyosh energiyasini elektr enrgiyasiga aylantirish texnologiyani mukamallashadi, organik va yadro yonilg'isini narxiga tenglashishadi.

*Quyosh elementining ekvivalentnaya sxema va uning vol't-amper xarakteristikasi.*

Drefli fototokning asosiy bo'lган nomuvozanat zaryad tashuvchilarini chegaradan o'tishi 6.3-rasmida ko'rsatilgan. Muvozanatlashmagan asoiy elitgichpotentsial to'siqdan o'taolmaydi va generatsiya sohasida qoladi. Natijada optik generatsiyalangan elitgichlarda bo'linish konstentratsiyasiya bo'yich vujudga keladi, teshiklar p-sohada va elektronlar n-sohada ortadi, harakatsiz aralashmali ionlarda hajmiy zaryadlarning kompensatsiyasi hosil bo'ladi.

**Границы слоя обеднения в темноте**





**6.3-rasm.** p-n –o’tishda elektron va kovalarning bo’linishi (shtrixlangan qism qorong’ida energetik zona chegarasi) [2]

Potentsial to’siqdan o’tish foto EYK kattaligida kamayadi (salt kuchlanish). Potentsiyal to’siqning kamayishi, asosiy elitgichlarning o’tishidadagi diffuziya tokining oshishiga olib keladi, u fototok yo’nalishiga qaramaqarshi bo’ladi. Statsionar holatda diffuziya tok zichligi  $J_{dif}$ , dreyf tok zichligiga  $J_{ph}$  teng bo’ladi, u o’z navbatida fototok zichligi  $J_{ph}$  va o’tishdagি issiqlik tok zichligi  $J_0$  ga teng bo’ladi, yani dinamik muvozanat sharti bajariladi:

$$J_{dif} = J_{ph} + J_0. \quad (6.13)$$

$J_{dif}$ -  $J_{ph}$  farq diodning tok zichligi bo’lib hisoblanadi va  $J_d$  bilan belgilanadi. Ideal p-n- o’tishda diffuziya tok zichligi va issiqlik tok zichligi quyidagi munosibat bilan bog’langan bo’ladi

$$J_{dif} = J_0 e^{U_{oc}/V_T}, \quad (6.14)$$

$$\text{Unda } J_{dif} = J_d = J_0 (e^{U_{oc}/V_T} - 1), \quad (6.15)$$

bu yerda  $U_{oc}$ - salt ishslash kuchlanishi;  $V_T = kT/e$  –issiqlik potentsiali. Salt ishslash kuchlanishini fototok orqali ifodalash mumkin:


$$V_{os} = J_T \cdot \ln\left(1 + \frac{J_{ph}}{J_0}\right). \quad (6.16)$$

Lekin  $U_{oc}$ ( xar qanday  $J_{ph}$ )da ham p-n-o’tish uchun kontakt potentciallar farqidan oshmaydi [2,3]. To’liq kompensattsiyalashda harakatsiz hajmiy zaryad elitgich aralashmali ionlarda tugaydi. Agar QE elektrodlari tashqi yuklamaga berk bo’lsa, unda kuchlanish U kam bo’ladi  $U_{os}$  dan va diod fototokni kompensatsiya qila olmaydi.

Ideal holatga yaqinlashganda diodtok zichligi tashqi yuklamada quyidagicha bo’ladi


$$J = J_{ph} - J_d = J_{ph} - J_0 \left( \exp\left(\frac{eU}{kT}\right) - 1 \right). \quad (6.17)$$

(6.17) tenglama ideal QE elementining (VAX) volt-amper xarakteristikasini ifodalaydi. Ideal QE elementining qisqa tutashuv toki  $J_{sc}=J_{ph}$  bo’ladi. Ideal QE elementlarining ekvivalent sxemasi tok generatoriga parallel ulangan ideal diod (6.4-rasm) ko’rinishida bo’ladi.



6.4-rasm. Ideal QE- elementining ekvivalent sxemasi: R- yuklanish qarshiligi.

Bu ifoda eksperiment bilan mos kelmaydi, chunki QE- qurilmalari yuqori tok zichligi bilan ishlash uchun mo'ljallangan, parallel qarshilikni  $R_p$ (o'tkazish qarshiligidini) va keta-ket qarshilik  $R_s$  [1,3,4] hisobga olish kerak bo'ladi.



6.5-rasm.QE ekvivalent sxemasi


QE almastirilgan mos ravishda ekvivalent sxemasi (6.4-rasm).  $J_{Ph}$  yorug'lik bilan yoritilganda tok generatori modelyatsiyalanadi,unga parallel dioddan injektsion tok ( $J_{dif}$  va  $J_0$ ) larni hisobga olinadi.Ketma-ket ulangan  $R_s$  qarshilik kontakkt qarshiliklar qatlamidan tashkil topgan bo'lib, xar bir  $p$ - va  $n$ - soha elementlaridan iborat bo'ladi, o'tiuvchi metall-yarimo'tkazgichlar, parallel  $R_p$  qarshilik tokni oqish ehtimoli bo'lgan kanallarga parallel  $p$ - $n$ - sohaga tarqatadi.

6.5-rasmga asosan tenglama hosil qilamiz, u QE VAX ni yaxsh ifodalaydi [4,5]:

$$J = J_{Ph} - J_d = J_{Ph} - J_0 \left( \exp\left(\frac{e(U + JR_s)}{AkT}\right) - 1 \right) - \frac{JR_s}{R_n}. \quad (6.18)$$

*QE asosiy parametrlari va xarakteristikasi.* QE ni yozish uchun bir qator maxsus parametrlar to'plami va xarakteristikalarini turli tipdagi QE solishtirish kerak bo'ladi. Maxsus xarakteristikaga VAX va spektral xarakteristika kiradi.Maxsus parametrga FIK (samaradorlik), ff (to'latish omili),  $U_{OC}$  (salt kuchlanish yo'li),  $I_{SC}$  (qisqa tutashuv toki) yoki  $J_{SC}$ (qisqa tutashuv tok zichligi) kiradi.

QE VAX shunday bog'lanishni ko'rsatadiki QE ning chiqish toki va kuchlanishi ko'rsatadi (6.6-rasm).Spektral tarkib o'zgarsa va yorug'lik oqimi kattaligi o'zgarsa, QE tushuvchinur o'zgarsa, uning VAX o'zgaradi.



6.6-QE ning volt-amper xarakteristikasi

Shunga ko'ra ishonchli qiymat olish uchun standart o'lchash sharoiytlarini test o'tkaziladigan na'munalar uchun, jumladan beriladigan tushuvchi yorug'lik nurini spektral tarkibini tanlash kerak bo'ladi [4].

Spektral xarakteristika deganda kvat samaradorlik (QE ning samaradorlik qiymati bo'lib, shunday bog'lanish kattaligi tushiniladiki monoxromatik yorug'lik bilan nurlantirilgandagi to'lqin uzunligini ifodalaydi) tushuvchi uzun to'lqin uzunligi nurlanishi bo'lib hisoblanadi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Yarimo'tkazgichlardagi o'tkazish koeffisientini izohlab bering.
2. Yarim o'tkazgichlarda qaytish (sochilish) koeffisienti tushuntiring.
3. Yarimo'tkazgichlar sirtida yorug'likning yutilish koeffisienti nima?
4. Yarimo'tkazgichlar sirtida va ichida bo'ladigan hodisani tushuntiring.
5. Yorug'lik yutilishining yarim o'tkazgichdagi samaradorligi qanday aniqlanadi?

### **Adabiyotlar**

1. Фаренбрух А., Бьюб Р. Солнечные элементы: теория и эксперимент / пер. с англ. под ред. М.М.Колтуна. М.: Энергоатомиздат, 1987.
2. Бонч-Бруевич В.Л., Калашников С.Г. Физика полупроводников. Москва: Наука, 1977.
3. Мартынов В.Н., Кольцов Г.И. Полупроводниковая оптоэлектроника. М.: МИСИС, 1999.
4. Колтун М.М. Оптика и метрология солнечных элементов М.: Наука, 1984.

## **1-laboratoriya mashg’uloti: laboratoriya mashg’ulotlari va ularni tashkil qilish usullari**

Laboratoriya mashg’ulotlari nazariya va amaliyotni bog’lovchi, ularning birligini ta’minlovchi asosiy omil bo’lib, talabalarning bilimlarini mustaxkamlash bilan bir qatorda o’lchov asboblari bilan ishlash va tajriba o’tkaza bilish ko’nikmalarini shakllantirishda va rivojlanishda katta ahamiyat kasb etadi. Oliy o’quv yurtlarida o’tkaziladigan laboratoriya mashg’ulotlarini uch usulda tashqil qilish mumkin: *umumiylar*, *aralash vassiklli*.

*Umumiylar.* Har bir talaba ma’ruzada o’tilgan mavzuga taalluqli muayyan bir ishni bajarish imkoniyatiga ega bo’ladi. Ushbu usul darsni tashqil qilish va o’tkazishni, dars davomida talabalarning faoliyatini boshqarib borishni engillashtiradi. Umumiylar laboratoriyalarda bir xil qurilmalardan bir nechta bo’lganda laboratoriya xonalarining kengaytirilishi va barcha talabalarning bir xil mazmunli va bir tartibdagi vazifalarni bajara olishga sharoit tug’dirilishini talab qiladi. Bundan tashqari laboratoriya ishlarining bir xilligi, qiyin o’zlashtiradigan talabalarning fikrlash qobiliyatini chegaralaydi.

Laboratoriya mashg’ulotlarining *aralash bajarish usuli*. Har bir talaba ma’ruzada o’tilgan yoki o’tilmaganidan qat’iy nazar alohida – alohida laboratoriya ishlarini bajaradi. Bu ishlarning mazmuni ham, bajarish usuli ham turlicha. Laboratoriya va ma’ruza mavzularining bir – biri bilan mos kelmasligi talabalarning tegishli adabiyot bilan mustaqil ishlashga o’rgatadi, fikrlash jarayonlarini aktivlashtiradi.

*Siklli usul.* Bu usulda esa amaliyotga kiritilgan laboratoriya ishlari, umumiylar fizika kursining ma’lum bilimlari asosida yoki biron – bir fizik kattalikning turli o’lchash usullarini umumlashtirish yo’li bilan birlashtirilib tashqil qilinadi. Laboratoriya ishlarining yoki ma’ruza mashg’ulotining matnini moslashtirish laboratoriya ishlarini bajarishda unumli variantlarni qo’llash imkonini beradi. YUqorida bayon etilgan usullarni tahlil qilish oliy o’quv yurtlarida fizikadan o’tkazilgan laboratoriya mashg’ulotlarinissiklli usulda olib borish maqsadga muvofiqligini ko’rsatadi.

## **O’LCHASH NATIJALARINI ISHLASH**

Biz qo’llayotgan o’lchov asboblarini va sezgi organlarimizning uncha yaxshi takomillashmagani tufayli har qanday o’lchash natijalari ma’lum bir darajadagina aniqlikka ega bo’ladi. SHuning uchun ham o’lchash natijalari bizga o’lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatini emas, taqrifiy qiymatinigina beradi. O’lchashning o’lchov birligining qanday eng kichik ulushigacha ishonchli bajarish mumkin bo’lsa, ana shu o’lchash natijasining aniqlik darajasi bo’ladi. O’lchash aniqligining darajasi bu o’lchashda ishlatilayotgan asboblarga, o’lchashning umumiylariga bog’liq bo’ladi: biron muayyan sharoitda erishilishi mumkin bo’lgan aniqlikdan ham aniqroq natijalar olish uchun urinish vaqtini bekorga sarflash demakdir. Odatda, o’lchanayotgan kattalikning 0,1 protsentigacha aniqlik bilan kifoyalansa bo’ladi.

Eng oxirgi natijaning aniqligini oshirish uchun har qanday fizik o'lhashni bir martagina emas, balki tajribada o'tkazilayotgan sharoitni o'zgartirmay turib, bir necha marta takrorlash lozim. Haqiqatan ham biz o'lhashda va sanoqda hamma vaqt ozmi, ko'pmi xato qilamiz. Bu xatolar ikki sababga ko'ra yuz berishi mumkinligidan, ular ikki guruhgaga: hamma vaqt bo'ladigan (sistemali) va tasodify xatolarga bo'linadi.

Sistemali xatolar o'lchov asboblarining buzuqligi, o'lhash usulining noto'g'rilibini yoki kuzatuvchining biror xato qilib qo'yishi natijasida yuz beradi. Ravshanki, o'lhashni bir necha marta takrorlash bu xatolar ta'sirini kamaytirmaydi. Bu xatolarning yo'qotish uchun, o'lhash usuliga tanqidiy ko'z bilan qaray bilish, asboblarga aniq qarab turish va ish bajarishni amalda yaratilgan qoidalariga kattiq roya qilish kerak.

Tasodify xatolar esa tajriba o'tkazuvchi har qanday kishining sanoq vaqtida mutlaqo ixtiyorsiz qilib qo'yishi mumkin bo'lgan xatosi vujudga keladi. Bu xatolarga sezgi organlarimizning uncha yaxshi takomillashmaganligi va o'lhash vaqtida yuz beradigan (oldindan e'tiborga olinishi mumkin bo'lman) boshqa ko'pgina hollar sabab bo'ladi. Tasodify xatolar ehtimollar nazariyasinng qonunlariga bo'ysa'nadi. Demak, biror kattalikn bir marta o'lchanganda olingan natija shu kattalikni keyingi o'lhashlardan birining natijasi, ehtimol haqiqiy qiymatda kichik bo'lib chiqishi mumkin. Bunday holda ayni bir kattalikni bir necha marta o'lhash natijasida tasodify tomonga chetlanishlardan ko'proq bo'lishining ehtimoli ortiq emas. Shuning uchun ham, juda ko'p o'lhash natijalarining o'rtacha arifmetik qiymati, o'lhash natijalarining har qaysisidan ko'ra, o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatiga yaqinroq bo'ladi. Faraz qilaylik, ayrim kattaliklarni o'lhash talab etilsin:

Ayrim o'lhashlarning natijlari  $N_1, N_2, N_3, \dots, N_n$  bo'lsin,  $n$  - alohida o'lhashlar soni. U holda bu natjalarning o'rtacha arifmetik qiymati:

$$\bar{N} = \frac{N_1 + N_2 + N_3 + \dots + N_n}{n} = \frac{1}{n} \cdot \sum_{i=1}^n N_i \quad (1.32)$$

Bir miqdor o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy qiymatiga eng yaqin bo'ladi. Har bir alohida o'lhashlarning bir o'rtacha qiymatdan farqi, ya'ni:

$$\begin{aligned} |\bar{N} - N_1| &= \Delta N_1 \\ |\bar{N} - N_2| &= \Delta N_2 \\ |\bar{N} - N_3| &= \Delta N_3 \\ &\vdots \\ |\bar{N} - N_n| &= \Delta N_n \end{aligned} \quad (1.33)$$

alohida o'lhashlarning absolyut xatosi deyiladi. Bu xatolarning ishorasi har xil bo'ladi: ular musbat hamda manfiy bo'lishlari mumkin. O'rtacha absolyut xatoni hisoblash uchun ayrim xatolar son qiymatlarining o'rtacha arifmetik qiymati olinadi.

$$\Delta \bar{N} = \frac{\Delta N_1 + \Delta N_2 + \Delta N_3 + \dots + \Delta N_n}{n} \quad (1.34)$$

$\frac{\Delta N_1}{N_1}, \frac{\Delta N_2}{N_2} \dots$  nisbatlarga ayrim o'lchashlarning nisbiy xatolari deyiladi. O'rtacha absolyut xato  $(\Delta \bar{N})$  ning o'lchanayotgan kattalikni o'rtacha arifmetik qiymati  $(\bar{N})$  ga nisbati o'lchashning o'rtacha nisbiy xatosi  $(E)$  deyiladi.

$$E = \frac{\Delta \bar{N}}{\bar{N}} \quad (1.35)$$

nisbiy xatolar foizlarda ifodalanadi:

$$E = \frac{\Delta \bar{N}}{\bar{N}} \cdot 100\% \quad (1.36)$$

o'lchash kattaliklarni haqiqiy qiymati:

$$N_x = \bar{N} \pm \Delta \frac{\bar{N}}{N} \quad (1.37)$$

Bundan  $N_x$  – ikki qiymat  $\bar{N} + \Delta \bar{N}$  va  $\bar{N} - \Delta \bar{N}$  ga ega deb tushunish yaramaydi.  $N_x$  faqat bir qiymatga egadir.  $(-)$  va  $(+)$  ishoralar o'lchanadigan kattalikning haqiqiy qiymati:

$$\bar{N} + \Delta \bar{N} \text{ ba } \bar{N} - \Delta \bar{N} \quad (1.38)$$

intervalida ekanligini ko'rsatadi, ya'ni

$$\bar{N} + \Delta \bar{N} \leq N_x \leq \bar{N} - \Delta \bar{N} \quad (1.39)$$

Ehtimollik nazariyasi absolyut xato  $N$  topishlikni yanada aniqroq formulasini berib, natijasining  $\Delta N_m$  – ehtimolligi katta deb ataluvchi xatolik tushunchasini beradi.

$$\Delta N_m = \pm 0,6743 \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (\Delta N_i)^2}{n(n-1)}} \quad (1.40)$$

Bu holda o'lchanayotgan kattalikning natijalovchi qiymati:

$$N_x = \bar{N} \pm \Delta N_m \quad (1.41)$$

Agar asbobning aniqligi shunday bo'lsaki, har qanday o'lchash sonida ham, asbob bir xil qiymatni ko'rsatsa, u holda xatolikni hisoblashning yuqorida keltirilgan usuli qo'llanilmaydi. Bu holda o'lchash bir marta o'tkazilib, uning natijasi qo'yidagicha yoziladi:

$$N_x = \bar{N} + \Delta N_{mex} \quad (1.42)$$

bunda  $N_x$  – izlanayotgan o'lchash natijasi,  $\bar{N}$  – ikki o'lchashning o'rtacha arifmetik qiymati.  $\Delta N_{mex}$  – asbob shkalasi bo'linmalarini yarmiga teng bo'lgan chegaraviy xatolik. To'g'ridan – to'g'ri o'lchash xatoliklarini quyidagi jadval ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

1.3-jadval

O'lchashlar soni	$N_i$	$\Delta N_i$	$\frac{\Delta \bar{N}}{N} \cdot 100\%$	$N_x = \bar{N} + \Delta N_{mex}$
1.	$N_1$	$\Delta N_1$		
2.	$N_2$	$\Delta N_2$		

3.	$N_3$	$\Delta N_3$		
...				
$n$	$N_n$	$\Delta N_n$		

## **FOTOVOL'TAIKANING FIZIK ASOSLARI FANIDAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARIDA KOMPYUTER TEXNIKASIDAN FOYDALANISH**

Laboratoriya mashg'ulotlarida turli kompyuterlardan foydalanish tajriba natijalarini hisoblash va ularn analiz qilishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu usuldan foydalanish: tajriba natijalarini o'rghanishda matematik statistikaning yuqori aniqlikka ega bo'lgan usullarini qo'llaniladi: asosiy o'quv materiallari ko'lamenti matematik amallar bajarishga ketadigan vaqt ni tejash hisobiga kengaytirish; o'quv laboratoriylarini ilmiy tadqiqot laboratoriylariga yaqinlashtirish kabi imkoniyatlarini beradi.

Laboratoriya ishlarining natijasini o'rghanishda kompyuterdan foydalanish uchun qo'yidagilarni bajarish zarur:

- hisoblash formulasini mumkin qadar sodda holga keltirish, hususan, o'rganilayotgan tajriba uchun matematik ifodaning doimiy qismini ajratish;

- o'lchanan va jadvaldan olingan kattaliklarni bitta o'lchov birliklar sistemasiga keltirish va ularning asosiy harakteristikalarini nomi belgilab yozilishi.

Hisoblashda ishlatiladigan kattaliklarni aniqlash:

- hisoblash algoritmining: a) analitik va b) grafik-blok sxemasini tuzish;

- dasturlar ya'ni o'rganilayotgan hodisa yoki aniqlanayotgan kattalik ifodasini kompyuter dasturi tilida ifodalash;

- o'lchanan kattalikni kompyuter dasturiga kiritish;

- dastur to'g'riligini tekshirib ko'rish;

- kompyuterda hisoblash;

- dastur va hisoblash natijalarini tashqi xotira qurilmasisiga o'tkazish.

Hozirgi davrda eng ko'p ishlatiladigan ayrim laboratoriya ishlari virtual tizimda ishslash uchun yaratilgan.

### **1.3. Quyosh energiyasini o'lhash va hisoblash**

Quyosh nurlanishining parametrlarini o'lhash aktinometrik stansiyalarda amalga oshiriladi. Bunday stantsiyalar O'zbekistonda mavjud. Ushbu stantsiyalarda amalga oshirilgan o'lchovlar turli xil quyosh energiyasi qurilmalarining usullari va parametrlarini hisoblashda ishlatilishi mumkin.

Yil davomida Yer Quyoshdan taxminan  $6 \cdot 10^{17}$  Kw·soat nurlanish enyergiyasini oladi, bu insoniyat xozirgi vaqtida sarflayotgan enyergiyadan 20 ming martadan ko'proqdir. Uning 0,001 qismidan kamrog'ini o'simliklar va odamlar ishlatadilar. Enyergianing nurlanish manbaii sifatida quyosh o'zidan, turli tuman elektromagnit to'lqinlarni chiqaradi. Quyosh nurlarining katta qismi spektrning infraqizil sohasiga, deyarli yarmini ko'zga ko'rindigan spektrning  $4 \cdot 10^{-7}$  m  $\div$   $7 \cdot 10^{-7}$  m gacha to'lqin uzunliklar sohasiga to'g'ri keladi. Bu enyergiya yer yuzasiga yorug'lik ko'rinishida etib keladi. Atmosfyerada ro'y byeradigan hamma hodisalar quyosh radiassiyasi

ta'sirida sodir bo'ladi. Yorug'lik va issiqlik xususiyatiga ega bo'lgan quyosh nurlari quyosh radiassiyasi deb ataladi.

Atmosfyeraning yuqori chegaralariga kirib kelayotgan quyosh enyergiyasi bir qancha omillarga bog'liq bo'lgan holda, ular ta'sirida solyar (quyosh) iqlimi shakllanadi. Bu miqdor quyosh doimiysi deb ataladi. Yerning Quyoshgacha bo'lgan o'rtacha joylashishida quyosh doimiysining qiymati 1 yanvar 1981 yildan  $1,367 \pm 0,007 \text{ kW/m}^2$  deb qabul qilingan. Ayni vaqtida kirib kelayotgan quyosh radiatsiyasi oqimi quyosh doimiysi qiymatiga, quyoshgacha bo'lgan masofaga,  $\delta$  – quyoshning og'ishi,  $\varphi$  – joyning geografik kengligiga va  $\tau$  – vaqtga bog'liq bo'ladi. Yer sirti atmosfyerasi va umuman yer sayyorasi radiatsion rejimining shakilantiruvchi omili bo'ladi. Bu quyosh doimiysi parametrleri qiymati: quyoshning og'ishi, kun soatlari, atmosfyera tarkibi undagi aerozollar va suv bug'larining miqdori va turi, yer sirti al'bedosi, yer sirtining turi holati bilan aniqlanadi. Sanab o'tilgan omillar yer sirti va atmosfyera radiatsion balansi hamda uni tashkil etuvchilar (to'g'ri, sochilgan, yig'indi radiatsiyasi va effektiv nurlanishi)ning kunlik va yilik o'zgarishlariga sabab bo'ladi.

Aktinometriya-metrologiyaning bir qismi bo'lib, nurlanish enyergiyasining (radiatsiyasi) oqimini o'lchanash bilan shug'ullanadi. Quyosh radiatsiyasining yer sirtiga tushuvchi parallel nurlari to'g'ri quyosh radiatsiyasi deyiladi. Quyosh radiatsiyasining yer sirtiga tushishini xaraktyerlaydigan kattalik uning intinsivligidir. U issiqlik miqdori bilan baholanadi. Quyosh nurlariga pyerpendikulyar joylashgan  $1\text{sm}^2$  yuzali qora jism sirtiga 1 minut vaqt ichida tushuvchi quyosh nurlarini yutib issiqlik miqdoriga aylantirish intensivlik bilan ifodalanadi. Atmosfyera chegarasidagi quyosh raditssiyasining intensivligi quyosh doimiysi deyiladi.

Quyosh enyergiyasining yassi sirtga tushishni xaraktyerlaydigan kattalik insolyatsiya ( $E$ ) deyiladi, u ham  $\text{W/m}^2$  birlik bilan o'lchanadi. Insolyatsiya va intensivlik orasida quyidagicha bog'liqlik bor:

$$E = E_0 \cdot \sinh_{\circ} = E_0 \cos Z_{\circ}, \quad (1.43)$$

bunda  $h_{\circ}$ -quyosh balandligi;  $Z_{\circ}$ -quyoshning zenit masofasi. Quyoshning balandligi quyidagi astronomik formula yordamida hisoblanadi:

$$h_{\circ} = 90 - \varphi - \delta; \quad \sinh_{\circ} = \sin \varphi \cdot \sin \delta + \cos \varphi \cdot \cos \delta \cdot \cos \tau \quad (1.44)$$

bu yerda  $\varphi$  – joyning geografik kengligi, Guliston shahri uchun  $\varphi = 40, 5^{\circ}$ ; Toshkent uchun  $\varphi = 41^{\circ}3'$ ;  $\delta$  – quyoshning og'ishi;  $\tau$  – quyoshning soat burchagi. Har bir oyning 21 sanasi uchun quyoshning og'ish qiymatlarini quyidagi jadvalda keltirilgan. Aniq kengliklar uchun, quyosh radiatsiyasi intensivligining normal  $J_H$  sirtga tushishini aniqlashning turli usullari mavjud.  $J_H$  ning  $38-63^{\circ}$  geografik kengliklar uchun hisoblashda

$$J_H = \frac{Q_{\circ} \sinh_{\circ}}{\sinh_{\circ} + c}, \quad (1.45)$$

formuladan foydalilanadi. Bu ifodada  $c$  – atmosfera tozaligini ifodolovchi koefitsient.

$$c = (1 - \rho) / \rho, \quad (1.46)$$

$\rho$ -quyosh nurlari normal bo'yicha atmosfyeradan o'tishdagi tozalik koeffitsientini, bulutsiz kunlar uchun  $\rho = 0,7 - 0,8$  qiymat atrofida tebranadi.


Quyoshning og'ishini quyidagi formuladan

$$\delta_i = 23,45 \cdot \sin \left( 360 \frac{n_i + 284}{365} \right) \quad (1.47)$$

foydalanim aniqlanadi, bu yerda  $n_i$ -kalendarndagi kunlar soni.

Har bir oyning 21 sanasi uchun quyoshning og'ish qiymati. 1.4-jadval.

t/r	Oylar	$\delta$ , quyoshning og'ishi	t/r	Oylar	$\delta$ , quyoshning og'ishi
1	Yanvar	$-19^{\circ}57'$	7	Iyul	$+20^{\circ}32'$
2	Fevral	$-10^{\circ}38'$	8	Avgust	$+12^{\circ}12'$
3	Mart	$-0^{\circ}09'$	9	Sentyabr	$0^{\circ}48'$
4	Aprel	$+11^{\circ}47'$	10	Oktyabr	$-10^{\circ}38'$
5	May	$+20^{\circ}09'$	11	Noyabr	$-19^{\circ}53'$
6	Iyun	$+23^{\circ}27'$	12	Dekabr	$-23^{\circ}27'$



1.10-rasm. Ekvatorial koordinatalar sistemasi:  $\varphi$  – joyning geografik kengligi,  $\delta$  – quyoshning og'ishi,  $\tau$  – quyoshning soat burchagi, PP'-dunyo o'qi,  $h_0$  – quyosh balandligi. Quyosh balandligi har qanday kenglik uchun, har qanday kun vaqtida, yil va yo'nalish sirtining hisoblash (1.48) formula yordamida bajariladi. Quyosh radiatsiyasining o'rtacha intensivligi  $I_{o'r}$ , tushuvchi nur va sirt burchak orasidagi ifoda quyidagi formula yordamida aniqlanadi;

$$I_{o'r} = I_{\perp} \cos i, \quad (1.48)$$

bu yerda cosi- kosinus burchak, sirt bilan normal orasidagi burchak.

Quyosh balandligi har qanday kenglik uchun, har qanday kun vaqtida, yil va yo'nalish sirtining hisoblash (1.49) formula yordamida bajariladi. Quyosh radiatsiyasining o'rtacha intensivligi  $I_{o'r}$ , tushuvchi nur va sirt burchak orasidagi ifoda quyidagi formula yordamida aniqlanadi;

$$I_{o'r} = I_{\perp} \cos i, \quad (1.49)$$

bu yerda cosi- kosinus burchak, sirt bilan normal orasidagi burchak.

Sutkaning har xil vaqtida turli yo'nalishdagi sirtlar uchun cosi qiymati quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\text{yassi sirtlar uchun: } \cosh_0^G = \sin \delta \sin \varphi + \cos \varphi \cos \delta \cos \varphi \quad (1.50)$$

$$\text{tik sirtlar uchun: } \cos \otimes_j^v = \cos \delta \sin \varphi \cos \varphi - \sin \delta \cos \varphi, \quad (1.51)$$

$$\cos \otimes_{shimol}^v = \sin \delta \sin \varphi - \cos \delta \sin \varphi \cos \delta, \quad (1.52)$$

$$\cos \otimes_{G-sharq}^v = \cos \delta \sin \varphi, \quad (1.53)$$

$$\cos \otimes_{j-G,j-sharq}^v = 0,707(\cos \delta \sin \varphi \cos \varphi + \cos \delta \sin \varphi - \sin \delta \cos \varphi), \quad (1.54)$$

$$\cos \otimes_{sh-G,sharq}^v = 0,707(\cos \delta \sin \varphi + \sin \delta \cos \varphi - \cos \delta \cos \varphi + \cos \delta \sin \beta \varphi \cos \varphi); \quad (1.55)$$


bu formulalarda  $\otimes = h_0$  bo'lib, uning yuqoridagi indeksi: yoritiluvchi sirtning joylashishini belgilaydi ( G-yassi, V-tik); pastki indeks esa yoritgichga nisbatan yo'naliш (j-janub, sh-shimol, g'-g'arb, sharq, j-g'-janubiy - g'arbiy, sha-j-sharqiy-janubiy, sh-g'-shimoliy-g'arbiy, sha- sh sharq- shimoliy).

Atmosfyeraning tiniqligi o'zgarib turganidan quyosh radiatsiyasining intensivligi tush vaqtidagi qiymati nisbatan simmetrik ravishda o'zgarmaydi. Qish oylarida tush vaqtida quyosh radiatsiyasi intensivligi o'zining maksimal qiymatiga erishadi. Yoz oylarida esa tush vaqtida yaqinlashgan sari intensivlik o'zgarmay qoladi, ba'zan tush vaqtida intensivlik kamayib qolishi ham mumkin. Bunga sabab shuki, yilning issiq oylarida tush vaqtida yaqinlashgan sari atmosfyeradagi suv bug'lari hamda turli xil chang zarralarining miqdori oshib ketadi, natijada ular quyosh radiatsiyasining yutish va sochishi sababli yer sirtiga tushadigan qismi kamayadi. Yassi va tik sirtlardagi farq sezilarlidir, bu farq ayniqsa qish oylarida juda katta bo'ladi. Yoz oylarida quyosh osmon sfyerasidan balandda bo'lganida to'g'ri quyosh radiatsiyasining tik va yassi sirtida intensivliklar bir-biriga ancha yaqin bo'ladi.

Quyosh nurlanishi enyergiyasini o'lchash kalorimetrik, fotoelektrik, fotografik va ko'rish usullarida olib boriladi. Kalorimetrik usulda o'lchash quyosh nuri enyergiyasini qora jismlarda yutilib issiqlik enyergiyasiga aylantirish orqali amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtida eng ko'p qo'llaniladigani asbob termoelektrik aktinometrdir. Aktinometrning ishlashi uchun termoelektrik effekt asos qilib olingan. Ikki turdag'i metall o'tkazgichning uchlari o'zaro kavsharlanib, berk elektr zanjiri hosil qilingan. Kavsharlangan uchlarning tempyeraturasi bir-biridan farqlanganda zanjirdan kam miqdorda elektr toki o'tadi. Zanjir ochiq bo'lganda vujudga keladigan tyermo E.Y.K. kattaligi kavsharlangan uchlар orasidagi tempyeraturalar ayirmasiga va kavsharlangan moddaning matyerialiga bog'liq bo'ladi. Metallar elektr tokini yaxshi o'tkazishi bilan issiqlikni ham yaxshi o'tkazadilar. Shu tufayli kavsharlangan uchlardagi tempyeraturalar ayirmasi  $\Delta T$  ning katta qiymatlariga erishish qiyin. Bunda hosil bo'lgan termo E.Y.K. miqdori ham katta bo'lmaydi. Shu sababli kattaroq qiymatli E.Y.K. olish uchun ko'p sonli termomyerlarni o'zaro ketma-ket ulanadi (1.11-rasm).

**Termoelektrik aktinometrning asosiy qismlari.** Termobatareyali yutgich, ichiga termobatareyali disk joylashtirilgan quvur va shtativdan iborat. Yutgich disk kumush fol'ga 1 dan iborat bo'lib qalinligi 2 mk, diametri 11 mm ni tashkil qiladi. Quyoshga qaragan tarafi qoraytirilgan. Pastki tarafiga papiros qog'oziga termoelektrik batareyaning manganin va kanstantta poloskalar mahkamlangan. 1.11-rasmida 8 elementdan tashkil topgan sxema ko'rsatilgan. Zamona viy aktinometrlarda 35 va undan ortiq termoelementdan foydalilanadi. Barcha toq nomyerli


kavsharlangan uchlar markaz atrofida, juft nomyerli kavsharlangan uchlar esa mis tashqi xalqaga ulangan bo'ladi. Toq nomyerli kavsharlar markazdagi qoraytirilgan kumush diskning teskari tomoniga ishqor laki surkab yopishtirilgan papiros qog'oziga ustiga o'rnatilgan.



1.11-rasm. Termoelektrik yutgich sxemasi.

1-oq kavshar, 2-qoraytirilgan kavshar, 3-gal'vanometr, m-magnin, k-konstanta.

Termoyulduzchaning juft nomerli kavsharlari esa mis halqaning ustiga ishqor laki surkalib unga yopishtirilgan papiros qog'oziga ustiga o'rnatilgan. Natijada tyermobatareya kumush diskdan va mis halqadan elektr jihatdan izolyatsiyalangan bo'ladi. Aktinometr quvurining ochiq uchi ro'parasiga teskari tomonidan toq nomyerli kavsharlangan uchlar yopishtirilgan va quyosh nurlari tushadigan tomon qoraytirilgan va kumush diska joylashtirilgan (1.12-rasm).



1.12-rasm. Aktinometr termoyulduzchalarining sxemasi.

1-kumush fol'gali disk, 2-ichki kavsharlar, 3-tashqi kavsharlar, 4-mis disk, 5-izolyatsiyalangan taglik.

Agar aktinometr quvurini quyoshga qaratsak, kumush disk to'g'ri quyosh nurlanishining ta'sirida qiziydi, mis halqa isimaydi. To'g'ri quyosh nurlanishining intensivligi qancha katta bo'lsa issiq va sovuq kavsharlar uchidagi tempyeraturalar ayirmasi ham shuncha ortadi. Natijada tyermotok E.Y.K. kattaligi ham to'g'ri quyosh nurlanishi intensivligiga proportional ortadi. Termobatareya kavsharlariga tushuvchi to'g'ri quyosh nurlanishi enyergietik yoritilganlik enyergiyasi termoelektrik tok kattaligiga proportional bo'ladi:

$$S = a \cdot N \quad (1.56)$$


bu yerda  $N$ -gal'vanometr strelkasining og'ishi, bo'lim;  $a$ -o'tkazuvchi ko'paytma,  $VT / (m_{bo'lim}^2)$ . Asbobga GSA-1 turidagi strelkali gal'vanometr ularadi. O'tkazuvchi ko'paytma har bir juftlik uchun alohida bo'lib, uni nazorat asbobi bilan solishtirish yoki gal'vanometr va aktinometr syertifikatidan foydalanib elektrik

xaraktyeristikalarini hisoblab chiqish orqali aniqlash mumkin. Bu o'tkazuvchi ko'paytmaning qiymati:


$$a = \frac{\alpha}{1000k} (R_s + R_r + R_{oo}), \quad (1.57)$$

bu yerda  $\alpha$  – o'tkazuvchi ko'paytma;  $\alpha$  – gal'vanometr bo'limlarning shkaladagi baholanishi,  $\text{mkA}$ ;  $k$  – termoelektrik asbobning sezgirligi,  $\text{mv}/(698VT/m^2)$ ;  $R_s$  – termobatareya qarshiligi om da;  $R_r$  – gal'vanometrning ichki qarshiligi;  $R_{oo}$  – gal'vanometrning qo'shimcha qarshiligi. Misol, laboratoriyadagi asboblar uchun:  $R_s = 16,1\text{om}$ ;  $R_r = 40,7\text{om}$ ;  $R_{oo} = 75,5\text{om}$ ;  $\alpha = 0,91 \cdot 10^{-6} \text{ A}$ ;  $k = 6,45\text{mv}/(1\text{kal/sm}^2 \text{ min})$ .

**Ishni bajarish tartibi.** To'g'ri quyosh nurlanishini o'lchashda M-3(AT-50) termoelektrik aktinometrlari keng foydalaniladi. Xozirgi vaqtida turli quyosh radiassiyasini o'lchashda eng ko'p qo'llanadigan asbob termoelektrik aktinometrlardir. Shuning uchun Savinov - Yanishevskiy termoelektrik aktinometrining tuzilishi va ishlash prinssipi bilan tanishamiz. 1.13 - rasmda termoelektrik aktinometrning tashqi ko'urinishi ko'rsatilgan.



1.13-rasm. Termoelektrik aktinometrning tashqi ko'rinishi.



1.14-rasm. Termobatareya sxemasi.

Ma'lumki, ikki xil metall o'tkazgichning uchlarini o'zaro kavsharlab, berk elektr zanjiri hosil qrlsak, kavsharlangan uchlarning temperaturasi bir-biridan farq qilganda zanjirdan juda oz miqdorda tok o'tadi. Metallar elektr tokini yaxshi o'tkazishi bilan birga issiqlikni ham yaxshi o'tkazadi. Shu tufayli kavsharlangan uchlardagi temperaturalar ayirmasi  $\Delta t$  ning katta qiymatlariga erishish qiyin. Bunda hosil bo'lgan termo e.y.k. miqdori ham katta bo'lmaydi. Shu sababli kattaroq qiymatlari e.y.k. ni olish uchun ko'p sonli termoparalarni o'zaro ketma-ket ulanadi.

Termoelektrik aktinometrlarning asosiy qismlari: termobatareyali yutgich, ichiga termobatareyali disk joylashtirilgan trubka va shtativdan iborat.

Zanjir ochiq bo'lganda vujudga keladigan termo e.y.k. ning kattaligi kavsharlangan uchlar orasidagi temperaturalar ayirmasiga va kavsharlangan o'tkazgichlarning moddalariga bog'liq bo'ladi.

#### **1.4. Quyosh energiyasi to'g'risida ma'lumotlar bazasi**

Yorug'lik energiyasidan foydalanish imkonini beradigan quyosh qurilmalari yaratilgan.

Yarim silindr shaklidagi quyosh qurilmalari sirtiga tushayotgan to'g'ri quyosh radiatsiyasining o'rtacha integral burchagini hisoblash.  $\tau_{n_n}^{To'g'}$  ning qiymatini va uning asosida  $\tau_{kir}^{To'g'}$  aniqlash uchun to'g'ri quyosh radiatsiyasini qaralayotgan sirtga tushish burchagi haqida ma'lumot kerak bo'ladi. Yarim silindr shaklidagi shaffof pylonka to'siqlarning yassi shaffof to'siqlardan alohida farqi shundaki, bir xil tashqi sharoitda to'g'ri quyosh nurlanishining yarim silindr shaklidagi nur qabul qiluvchi sirtlarga tushish burchagi ( $i$ ) istalgan vaqt momentida mazkur sirtdagagi ko'p sonli nuqtalarning koordinatalarga bog'liqligidir.

Agar yarim silindrli sirtini cheksiz sonli ( $N$ ) kichik sirtlarga bo'lsak  $i$  hisoblash soddalashadi.  $i$  ning qiymatini aniqlashda,  $n$  - sirtning kichik deb qaralsa uni doimiy deb hisoblash mumkin bo'ladi. Shunday qilib hamma yarim silindrik sirtlarni yig'indisi sifatida qaralganda, bir sirtdan ikkinchisiga o'tganda  $i$  ning qiymati o'zgaradi.

Hisoblash ishlari [1] ishlarida olib borilgan va  $i$  ning qiymati: yilning mavsumiga

( $\delta$ ), kunning yoritilgan ( $\tau$ ) vaqtiga, geografik kenglikka ( $\varphi$ ), shaffof to'siqli inshoatning yoritgichga nisbatan orientatsiyasiga ( $\gamma$ ), bog'liqligi aniqlangan, uning bog'lanishini quyidagi ko'rinishda yozish qulay.

$$\cos i = f(\delta, \tau, \varphi, \gamma). \quad (1.57)$$

Qaralayotgan sirtdagagi  $\cos i$  ning o'rtacha qiymatini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

$$\overline{\cos i} = \frac{1}{N} \sum_{n=1}^N \cos i_n; \quad (1.58)$$

yoki

$$\overline{\cos i} = \frac{\int \cos idm}{\int dm}. \quad (1.59)$$

bu yerda,  $m$  - yarim silindrli to'siqdagi elementar sirtning og'ish burchagi bo'lib, diametal sirtga nisbati bilan ifoda qilinadi. (1.59) dagi integrallash chegarasi yarim silindrik sirtdagagi burchak qiyaligiga mos kelishi kerak bo'ladi.  $\cos i$  ning (1.58) formuladan aniqlangan qiymati o'rtacha arifmetik qiymat deb ataladi, (1.59) dagi qiymat esa o'rtacha integral qiymat deb ataladi. [1] hisoblashlaridan ko'rindiki, (1.58) formulada hisoblash aniq natijalarni beradi va (1.59) dagi hisoblashga qaraganda ancha kam vaqt sarflanadi.

Yarim silindrik sirtlarining yon sirtiga tushuvchi to'g'ri quyosh radiatsiyasini hisoblash usulida  $\overline{\cos i}$  kattalikni aniqlashga asoslangan bo'lib, [1] ishda o'zining aksini topgan. Lekin, olingan natijalarni amaliy hisoblashlar uchun qo'llab bo'lmaydi.  $\overline{\cos i}$  aniqlashda, issiqxona katta o'qi shimoldan janubga qaraganda ( $\gamma = 0$ ; meridian yo'naliish) sharq va g'arb taraflarni yarim silindr sirti yarmida simmetrik deb qaralgan va hisoblashlar faqat bir taraf uchun bajarilgan, ya'ni silindrik sirtning to'rtadan biri uchun hisoblash ishlari olib borilgan. Bunda elementar sirtlarning og'ish burchagini integrallash chegarasi yarim silindrik sirt uchun ( $m$ ) ning qiymati  $\frac{\pi}{2}$  dan 0 gacha olingan. Bunda to'g'ri quyosh radiatsiyasini sirt ustiga tushuvchi qarama-qarshi tomonidagi qismi hisobga olinmagan.  $\overline{\cos i}$  hisoblashda issiqxona o'qi sharqdan - g'arbgan yo'nalgan hol uchun ( $\gamma = 270^\circ$ ; ekvator yo'naliishi) (1.57) formuladagi integrallash chegarasi janubiy qismlar uchun yarim silindr ( $\frac{\pi}{2} \div 0$ ) olingani to'g'ri, shimoliy tomon uchun ( $0$  dan  $90 - \varphi + \delta$ ; *gacha*) olinganligi to'g'ri emas. Integrallash chegarasi (1.59) formuladagi yilning mavsumiga, kunning yoritilganlik vaqtiga bog'liq bo'ladi. O'rtacha arifmetik hisoblash usuli  $\overline{\cos i}$  ni tahminiy va katta hisoblash hajmidagi ishni bajarishga to'g'ri keladi. Qaralayotgan masalani integrallash usuli bilan yechaylik

$$\begin{aligned} \cos i = & (\cos \delta \cos \varphi \cos \omega z + \sin \delta \cos m + \\ & + [(\sin \delta \cos \varphi - \cos \delta \sin \varphi \cos \omega z) \cdot \sin \gamma + \cos \delta \sin \omega z \cos \gamma] \cdot \sin m) \end{aligned} \quad (1.60)$$

(1.58) formulaning integrallash chegarasi meridian yo'naliish uchun ( $\gamma = 0$ ),  $+ \frac{\pi}{2}$

dan  $m^*$  gacha  $z \geq 0$  bo'lganda va  $- \frac{\pi}{2}$  dan  $m^*$  gacha  $z \leq 0$  bo'lgan qiymati olingan.

Ekvator yo'naliishida joylashgan inshoat uchun ( $\gamma = 270^\circ$ ), integrallash chegarasi  $z$  ning xar qanday qiymati uchun  $+ \frac{\pi}{2}$  dan  $m^*$  gacha olingan. Berilgan masalani yechishda bunday yaqinlashish bilan quyidagi natijaga erishiladi:

- meridian yo'naliishdagi gelioiteplitsalar uchun;

$$\overline{\cos i} = \frac{1}{m^* - \frac{\pi}{2}} [(\cos \delta \cos \varphi \cos \omega z + \sin \delta \sin \varphi)(\sin m^* - 1) - \cos \delta \sin \omega z \cos m^*]; \quad z \geq 0 \quad (1.61)$$

$$\overline{\cos i} = \frac{1}{m^* + \frac{\pi}{2}} [(\cos \delta \cos \varphi \cos \omega z + \sin \delta \sin \varphi)(\sin m^* + 1) - \cos \delta \sin \omega z \cos m^*]; \quad z \leq 0 \quad (1.62)$$

- ekvator yo'naliishidagi gelioissiqxonalar uchun,

$$\overline{\cos i} = \frac{1}{m^* - \frac{\pi}{2}} [(\cos \delta \cos \varphi \cos \omega z + \sin \delta \sin \varphi)(\sin m^* - 1) - (\cos \delta \sin \varphi \sin \omega z - \sin \delta \cos \varphi) \cos m^*] \quad (1.63)$$

$m^*$  ning (1.63) formuladagi qiymatlarini aniqlashda  $\cos i = 0$ , shartdan foydalanib, (1.61) hisobga olingan bo'lsa, meridian yo'naliishdagi inshoat uchun ( $\gamma = 0$ ), ya'ni

$$m^* = -\operatorname{arctg} \frac{\cos \delta \cos \varphi \cos \omega z + \sin \delta \sin \varphi}{\cos \delta \sin \omega z} . \quad (1.64)$$

Ekvatorial yo'nalishdagi gelioissiqxonalarda  $m^*$  ning qiymatini hisoblashda yuqoridagilarni hisobga olgan holda  $\gamma = 270^\circ$ ,

$$m^* = -\operatorname{arctg} \frac{\cos \delta \cos \varphi \cos \omega z + \sin \delta \sin \varphi}{\cos \delta \sin \varphi \cos \omega z - \sin \delta \cos \varphi} \quad (1.65)$$

Shunday qilib hisoblash usuliga ko'ra universal va nisbatan aniqroq qiymat hosil qiladi. Ekvator va meridian yo'nalishlar uchun (1.64) va (1.63) shartlardan foydalanib bo'lmaydi. Shuning uchun yuqoridagi kamchiliklarni yo'qotish maqsadida  $\overline{\cos i}$  ni hisoblashning aniqroq usuli taklif qilinadi. Elementar sirtchalardagi  $\cos i$  ni yarim silindr yon sirti uchun hisoblashda ixtiyoriy sirtlar uchun quyidagi shaklda ifodalash mumkin bo'ladi.

$$\cos i = M \cos m + N \sin m \quad (1.66)$$

bu yerda

$$M = \cos \delta \cos \varphi \cos \omega z + \sin \delta \sin \varphi , \quad (1.67)$$

$$N = B \cos \gamma - A \sin \gamma , \quad (1.68)$$

$$A = \cos \delta \sin \varphi \cos \omega z - \sin \delta \cos \varphi , \quad (1.69)$$

$$B = \cos \delta \sin \omega z . \quad (1.70)$$

Matematik shakl almashtirish yordamida integrallab, mos ravishda quyidagini hosil qilinadi

$$\overline{\cos i} = \frac{M(1 - \sin m^*) + N \cos m^*}{\frac{5\pi}{2} - m^*} ; \quad z \leq 0 \quad (1.71)$$

$$\overline{\cos i} = \frac{M(1 + \sin m^*) - N \cos m^*}{m^* - \frac{3\pi}{2}} . \quad z \leq 0 \quad (1.72)$$

$m^*$ ning o'zgaruvchan qiymati quyidagicha aniqlanadi (1.15-rasm)


$$m^* = \pi n - \operatorname{arctg} \frac{M}{N}, \quad n \in \mathbb{Z} \quad (1.73)$$

$n = 2$  uchun quyidagini xosil qilamiz

$$\overline{\cos i} = \frac{M \left( 1 + \sin \operatorname{arctg} \frac{M}{N} \right) + N \cos \operatorname{arctg} \frac{M}{N}}{\frac{\pi}{2} + \operatorname{arctg} \frac{M}{N}} ; \quad z \geq 0 \quad (1.74)$$

$$\overline{\cos i} = \frac{M \left( 1 - \sin \operatorname{arctg} \frac{M}{N} \right) - N \cos \operatorname{arctg} \frac{M}{N}}{\frac{\pi}{2} - \operatorname{arctg} \frac{M}{N}} . \quad z \leq 0 \quad (1.75)$$

(1.74) va (1.75) ning yechimi  $\cos i$  ning o'rtacha integral qiymatini aniqlashda ishlataladi. Agar  $z \leq 0$  bo'lsa,  $\gamma = 0$  bo'ladi,  $N$  ning qiymati manfiy bo'ladi ( $N \leq 0$ ) va (1.71) yechim (1.72) ko'rinishiga o'tadi. (1.71) formulani hususiy hollardagi qiymatini ko'rib chiqaylik: 1. Shaffof pylonka to'siqli gelioissiqxonalar yarim silindrik shaklda bo'lib, meridian yo'nalishida ( $\gamma = 0$ ) joylashgan bo'lzin.



1.15-rasm. Yarim silindr shaklidagi shaffof pylonka to'siqli gelioinshoatlar sirtiga tushuvchi quyosh nurlarining  $\cos i$  qiymatini yuqori va pastki integrallash chegarasini aniqlash.

Bu holda  $N = B$  bo'lib,  $n = 2$  bo'ganda (1.66) ning ko'rinishi quyidagi holatga o'tadi

$$m^* = 2\pi - \operatorname{arctg} \frac{\cos \delta \cos \varphi \cos \omega z + \sin \delta \sin \varphi}{\cos \delta \sin \omega z}. \quad (1.76)$$

$m^* = 0$  (yoki  $2\pi$ ) bo'lganda, integrallash 0 dan  $\pi/2$  (yoki  $2\pi$  dan  $\frac{5\pi}{2}$  gacha), ya'ni yarim silindrning yarmi uchun yechim quyidagi ko'rinishni oladi.

$$\overline{\cos i} = \frac{\pi}{2} (\cos \delta \cos \varphi \cos z + \sin \delta \sin \varphi + \cos \delta \sin \omega z), \quad (1.77)$$

Bu formuladagi qiymat,  $\gamma = 0$  va  $m^* = 0$  bo'lgan hol uchun [51, 52] ishlariga mos keladi.

2. Yarim silindr shaklidagi shaffof pylonka to'siqli quyosh issiqxonalarining ekvator yo'nalishda ( $\gamma = 270^\circ$ ) joylashgan holati uchun hisoblash ishlarini bajarishda, bu hol uchun  $\gamma = 270^\circ$  bo'lib,  $N = A$  bo'ladi, yuqoridagi ifodalarni hisobga olgan holda  $n = 2$  teng bo'lganida

$$m^* = 2\pi - \operatorname{arctg} \frac{\cos \delta \cos \varphi \cos \omega z + \sin \delta \sin \varphi}{\cos \delta \sin \varphi \cos \omega z - \sin \delta \cos \varphi}. \quad (1.78)$$

Agar  $m^* = 0$  bo'lsa (yoki  $2\pi$ ), unda integrallash chegarasi 0 dan  $\frac{\pi}{2}$  gacha (yoki  $2\pi$  dan  $\frac{5\pi}{2}$  gacha), ya'ni yarim silindrning yarmi uchun yechim quyidagi ko'rinishni oladi

$$\overline{\cos i} = \frac{\pi}{2} [(\cos \delta \cos \varphi \cos z (\sin \varphi + \cos \varphi) + \sin \delta (\sin \varphi - \cos \varphi)]. \quad (1.79)$$

formula bilan mos keladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgandek, yechimlar umumiy yechimlar bo'lib hisoblanadi va  $\overline{\cos i}$  ning issiqxonaning yarim silindr shaklidagi yon sirt bo'yicha hisoblashda aniqligi yuqori hisoblanadi. Bu ifodani integrallash chegarasi 0 dan  $\frac{\pi}{2}$  bo'lganda [3,4] ishlarida ko'rsatilgan natija  $m^* = 0$  bo'lganda farqli bo'lib chiqadi. Yuqorida takidlab o'tilganlarga asoslanib  $m^*$  ning qiymati yilning vaqtiga ( $\delta$ ) hamda sutkaning vaqtiga ( $z$ ) bog'liq bo'ladi. Yuqoridagi

ko'rsatib o'tilgan ifodalardan ko'rnatadiki  $m^* = 0$  bo'lishi uchun  $\delta = 0$  va  $\bar{z} = 90^\circ$  shart bajarilishi kerak bo'ladi, u faqat yilning teng kunliklarida (22.03. va 22.09) da quyosh chiqish vaqtiga (6 soat) va botish vaqtiga (18 soat) momentlarida sodir bo'ladi.  $\cos i$  ning o'rtacha arifmetik qiymatini aniqlashda [2] ishda yarim silindrik sirtni hammasini  $N$  bir xil elementar sirtchalarga bo'ldi, har biri uchun har bir soatda  $\cos i$  ning qiymatini shaffof pylonka to'siqning yo'naliishiga bog'lab aniqladi. Shundan so'ng  $\cos i$  ning o'rtacha arifmetik qiymatini keltirib chiqargan. Har bir elementar sirtchalarning gorizontga nisbatan og'ish burchagi

$$m_n = 90 \left[ 1 - \frac{2N-1}{2N} \right], \quad (1.80)$$

bo'ladi. Bu yerda  $n = 1, 2, \dots, N$  - yarim silindr sirtidagi elementar sirtchalarning tartib raqami. Hisoblashlar shuni ko'rsatadiki,  $\cos i$  ning qiymati taklif qilgan usul bilan [5] hisoblagan qiymat  $N = 36$  bo'lgan hol uchun 99 % mos keladi. Albatta [5] hisoblagan usulda hisoblash hajmi 36 marta katta bo'lgan.  $\cos i$  ning kunlik yo'li yarim silindrik pylonka to'siqli gelioinshoat uchun, ekvator va meridian yo'naliishlarda yoritgichga nisbatan yanvar, fevral, mart oylari uchun hisoblash ishlari bajarilgan.

Ekvator yo'naliishdagi quyosh inshoatida  $\cos i$  ning qiymati ancha yuqori. Isitish mavsumi davomida to'g'ri quyosh nurlarining radiatsiyasi shaffof to'siqlar orqali meridian yo'naliishga nisbatan ko'proq kiradi. Hisoblashlarda  $\cos i$  ning yillik yo'li qiymatini olishda Quyoshning og'ishi ( $\delta$ ) quyidagi tenglik asosida aniqlandi

$$\delta = 23,45 \sin \left( 360 \frac{\frac{284+n}{365}}{365} \right); \quad (1.81)$$

bu yerda,  $n$  - yildagi kunning raqami, 1 yanvardan boshlanadi.

Quyosh energiyasi bu muqobil energiyalar ichida asosiysi hisoblanadi, lekin u past potentsiali bo'lgani uchun undan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'li quyosh energiyasini ishlatishga mo'ljallangan issiqxonalar qurilmalarining tuzilishi issiqlik-texnikaviy ko'rsatkichlarining yaxshilash hisoblanadi. Hozirgi paytda ishlatilayotgan quyosh issiqxonalar qurilmalarining tuzilishi va texnikaviy xarakteristikalari o'rganilib chiqiladi, quyosh issiqxonalar qurilmalarining harorat rejimlarini quyosh nurlanishning va atrof - muhit haroratinining nobarqaror issiqlik rejimlari tatqiq qilindi va shu asosda ularning issiqlik texnikaviy parametrlarini optimallashtirish bo'yicha takomillashtirilgan uslubni ishlab chiqildi. Quyosh issiqxonani optimal ish rejimi yuqorida keltirilgan nazariy hisoblashlardan foydalanilgan. Yarim silindr shaklidagi shaffof pylonka qoplamlari issiqxonaga kirayotgan quyosh nurlanishini hisoblashning o'rtacha integral uslubini qo'llab, issiqxonaga kirayotgan yig'indi quyosh nurlanishining o'rtacha kirish koeffitsienti yillik o'zgarishning issiqxonada o'qining dunyo tomonlariga nisbatan joylashishiga va pylonka qoplamlarning bir yoki ikki qavatli bo'lishiga bog'liqligini aniqlovchi formula hosil qilingan va bu formula asosida qoplamlarning issiqlik-texnikaviy tavsiflari ishlab chiqildi.

## 2-laboratoriya mashg'uloti

### Mavzu: Yer sirtiga yetib kelgan quyosh radiatsiyasining adbedosini tajribida aniqlash


**Ishni bajarishdan maqsad:** Albedometr yordamida o'simliklar bor va yo'q bo'lgan tuproqdan qaytgan quyosh radiatsiyasini o'lchash.

**Kerakli asbob va materiallar:** M-69 turidagi albedometr, GSA-1 strelkali galvanometr, ulovchi simlar.

#### Ish to'g'risida nazariy ma'lumotlar

Dala sharoitida yig'indi, sochilgan va qaytgan radiatsiyani o'lchashda ko'chma M-69 albedometrdan foydalilaniladi. Amaliy ishlarni bajarishda asosan o'simliklar sirtidagi albedoni aniqlashda bunday qurilmadan foydalilaniladi. Sanoatda ishlab chiqarilgan piranometrlar, yig'indi quyosh radiatsiyasini o'lchab bo'lgandan keyin, sharnir yordamida  $180^\circ$  ga buriladi va qaytgan radiatsiyani ( $R$ ) o'lchash mumkin. Albedometr bir vaqtning o'zida piranometr va aktinometr vazifasini bajarshi mumkin.

Nurlanish elektromagnit to'lqinlarini chiqaruvchi jismning nur chiqarishdagi foton energiyasi bilan bog'liq bo'ladi. Ko'zga ko'rinvchi nurlar 0,4-0,8 mkm sohasida issiqlik uzatilishi uncha katta bo'lmasa ham, 0,8-40 mkm sohada issiqlik uzatilishi ancha katta qiymatni tashkil qiladi. Bu oraliqdagi to'lqin uzunligiga issiqlik nurlanishi deb ataladi. Agar qaralayotgan muhit toza bo'lsa, va ikki jism orasida temperatura farqi vujudga kelsa, u holda albatta issiqlik almashinishi sodir bo'ladi. Umumiyl holda ixtiyoriy joylashgan jismning energetik balansini ko'rib chiqaylik (1-rasm).



1-rasm. Nurlanish balansining energiyasi.  $Q$ -tushuvchi nurning energiyasi,  $Q_r$ -qaytuvchi nur energiyasi,  $Q_d$ -o'tuvchi nur energiyasi,  $Q_a$ -utiluvchi nur energiyasi.

Energiyaning saqlanish qonuniga ko'ra balans tenglamasini tuzamiz;

$$Q = Q_r + Q_a + Q_d \quad (1)$$

(1) o'ng va chap tarafini  $Q$  ga bo'lsak


$$\frac{Q_r}{Q} + \frac{Q_a}{Q} + \frac{Q_d}{Q} = r + a + d = 1 \quad (2)$$

ifodani hosil qilamiz.  $r$ ,  $a$ ,  $d$ -kattaliklar, nurning qancha qismi qaytishini, o'tishini va utilishini ifoda qiladi. Bunda uch hol bo'lishi mumkin:

- 1)  $r=0$ ;  $d=0$ ;  $a=1$  - ideal absolyut qora jismda nurlanish to'liq yutiladi;
- 2)  $r=1$ ;  $d=0$ ;  $a=0$  - ideal absolyut oq jismda nurlanish to'liq qaytadi;
- 3)  $r=0$ ;  $d=1$ ;  $a=0$  - ideal absolyut toza jismda nurlanish to'liq o'tadi.

Bunday ideal qora va oq toza jism tabiatda bo'lmaydi. Ideal qora jismni sun'iy usulda maxsus optik sistemalar yordamida hosil qilish mumkin. Agarda  $Q$  issiqlik energiyasiga ega bo'lgan nur, maxsus ichkarisi qoraytirilgan kameraga kiritilsa,

nurning ko'pgina qismi yutiladi. Juda ko'p qaytish natijasida dastlabki nurga nisbatan juda kam miqdordagi nur tashqariga qaytib chiqadi (2-rasm).



2-rasm. Ideal qora jism sxemasi.

### Lambert qonuni.


Yassi sirtlarning nurlanishini o'rganish natijasida, yassi sirtning nurlanish energiyasi normal yo'nalishitdan og'dirilganda, normal qiymatga nisbatan kosinus burchakka kamayganligi aniqlandi.

$$Q_\beta = Q_\perp \cos\beta \quad (3)$$

Agar nurlanuvchi element yuzasi  $dF_1$  ga teng deb qaralsa, unda

$$dQ_\beta = E_\perp dF_1 \cos\beta_1 \quad (4)$$


bu yerda  $E_\perp$ - normal yo'naliishda birlik yuzadagi nurlanishning enegiyasi.  $dF_1 \cos\beta_1$  esa yo'naliish sirtining proektsiyasini ifoda qiladi, normal yo'naliishdan  $\beta_1$  burchakka og'gan.  $dF_1$  yuzali ideal qora jism elementining  $dF_2$  yuzalari ikkinchi qora jism vaqtida nurlanish qanday energiya almashinishini aniqlaylik. Lambert qonuniga asosan bu energiya  $dF_1$ , proektsiyasiga to'g'ri proporsional,  $dF_2$  ning ko'rinvchi yuzasiga to'g'ri proporsional va bu ikki sirt orasidagi masofaning kvadratiga teskari proporsional bo'ladi:



3-rasm. Og'ma sirtlar sxemasi.

$$dQ = E_{0\perp} \frac{dF_1 \cos\beta_1 dF_2 \cos\beta_2}{S^2} \quad (5)$$

$dF_1$  elementar ideal qora jism sirti yuzasidani  $dF_2$  elementar yuzaga energiya miqdori uzatiladi.  $dF_1$  yuza yarimsferaga kirishda bo'lgan hol uchun uni tadbiq qilaylik. Sferaning radiusi  $r$  ga teng bo'lgan hol uchun,  $n$  normal bilan qutub vaziyati  $\beta_1$  burchak hosil qilinganda quyidagi ko'rinishda bo'ladi.



5-rasm.  $dF_1$  elementning  $dF_2$  yo'nalishdagi elementga nurlanishi (5) tenglamani ko'rinishini esa o'z navbatida

$$dQ = E_{0\perp} \frac{dF_1 \cos \beta_1 2\pi r^2 dF_2 \cos \beta_2}{r^2}, \quad (6)$$

bo'ladi. Shunga o'xshash

$$\frac{dQ}{dF_1} = dq = E_{0\perp} 2\pi \sin \beta_1 \cos \beta_1 d\beta_1 \quad (7)$$

$2\sin \beta_1 \cos \beta_1 q \sin 2\beta_1$  tengligidan

$$dq = E_{0\perp} 2\pi \frac{\sin 2\beta_1}{2} d\beta_1 \quad (8)$$

Agar hamma yarim sferaning  $dF_1$  yuzaga berayotgan energiyasini hisoblasak  $\beta_1 = 0$  dan  $\beta_2 = \frac{\pi}{2}$  gacha o'zgaradi.

$$q = \pi E_{0\perp} \sin^2 \beta; \beta_1 = 0, \beta_2 = \frac{\pi}{2}$$

$$q = \pi E_{0\perp}.$$

Yer sirtiga quyoshdan kelayotgan radiatsiya taqsimlanadi: bir qismi yrdan atmosferaga qaytadi, uning qisqa to'lqinli qaytgan radiatsiyasini  $R$  deb belgilaylik, qolgan qismi yer yuzida yutiladi va uni  $V_q$  qisqa to'lqinli yutilgan radiatsiya deb qaraylik. Qaytgan radiatsiya miqdori yerning aktiv yuzasining xossalariiga bog'liq (rangiga, namligiga, tuzilishiga va boshqalarga) bog'liq bo'ladi. Yuzani qaytaruchanlik xossasini xarakterlaydigan kattalikka sirtning albedosi  $A$  deb ataladi va u biror sirdan qaytgan radiatsiyaning shu sirtga tushuvchi yig'indi radiatsiyasiga nisbati orqali ifodalanadi va foizlarda baholanadi.

$$A = \frac{R}{Q} \cdot 100\%; \quad (9)$$

Qisqa to'lqinli nurlar bilan bir qatorda, er sirtiga uzun to'lqinli nurlar atmosferadan  $E_a$  ham tushadi. Ko'pincha  $E_a$  ni uchrashuvchi nurlanish deb ham ataladi. O'z navbystida yer sirti ham temperaturaga mos holda uzun to'lqinli nurlanish  $E_3$  (xususiy nurlanish) chiqaradi.

Yer sirtining xususiy nurlanish bilan  $E_3$ , atmosferadagi  $E_a$  nurlanishning farqini effektiv nurlanish deb ataladi.

Istalgan vaqtida Yer sirtiga keluvchi va undan chiqib ketuvchi nurlanish energiyasi bo'ladi. Ularning algebraik yig'indisi radiatsion balans deb ataladi.

$$B = B^1 + D = E_a - R - E_a \quad (10)$$

yoki

$$B = Q - R - E_{eff} \quad (11)$$

Yer sirtining istalgan joyidagi albedosi shu joyning tekis-tekismasligiga, o'simliklar bilan qoplanish darajasiga va boshqa xossalariiga bog'liq bo'ladi. Yer

sirtining turli ko'rinishlari uchun albedoning qiymatiga oid kattaliklar quyida kaltirilgan.

1-jadval. Tabiiy sirlarning xarakteristikasi.

Nº	Sirt xarakteristikasi	A %
Tuproqlar		
1.	Taqir tuproq (quruq)	30-33
2.	Quruq taqir tuproqda, cho'l o'simlik bo'lganda	36-30
3.	Quruq sho'r tuproq	25-35
4.	Qora rangli (quruq)	30-35
5.	Qizil qum rangli (quruq)	22-26
6.	Botqoqlik tuproq	12-14
Qor sirti va muzliklar		
7.	Yangi yog'gan qor	85-90
8.	Toza nam qor	50-55
Suvlar		
9.	Toza suv	6-8
10.	Orol dengizi suvi	6-8
11.	Tog' daryosi suvi	20
12.	Tinch oqayotgan daryo suvi	10
13.	Paxtaning gullagan davrida, tuproq nam	13-15
14.	Paxtaning gullagan davrida, tuproq quruq	18-20
15.	Paxta gullah davrida, tuproq quruq	19-21
16.	Bahorgi kartoshka, tuproq nam	14-18
17.	Kartoshka, turoq quruq	18-22
18.	Qovun yashil, hosili bilan	15-17
19.	Yashil o't	26
20.	Qurigan o't	19
Qurilish materiallari		
21.	Beton	30-35
22.	Asfalt	10-30
23.	G'isht	28

Shuni aytish kerakki, albedoning kattaligi Quyoshning balandligiga ham bog'liq. Quyosh balandligi kamayishi bilan tuproq, suv sirtining albedosi oshib ketadi. To'g'ri quyosh radiatsiyasi uchun balandligi katta katta bo'lganda dengiz suvining tekis sirti uchun albedo 4 foizga yaqin, quyosh balandligi  $4^\circ$  ga teng bo'lganda esa albedo 65 foizga etadi. Suv yuzining tiniq-loyqaligi ham albedoning qiymatini o'zgartirib yuboradi. Sochilgan radiatsiya uchun suv sirtining albedosi 5-10 foiz chamasida o'zgaradi. Shunday qilib, er sirtiga tushayotgan yig'indi quyosh radiatsiyasining

$$Q = (S \sin h_{\theta} + D) \quad (12)$$


$$R = A(S \sin h_{\theta} + D) \quad (13)$$

qismi qaytadi.

$$Q_{yutil} = (S \sinh_{\theta} + D) \cdot (1 - A) \quad (14)$$

qismi esa yutilib tuproqning ustki qismini qizdirishga sarf bo'ladi. Bu radiatsiyani *yutilgan radiatsiya* deb yuritiladi. Al'bedometrning qabul qiluvchisi 3 piranometrning qopqog'i hisoblanadi, 2 quvurga 6 quvur burab kardonli osma 5 va 4 ushlagich yordamida  $180^{\circ}$  burchakka o'zgartirish mumkin. Kuzatuvchidan qaytgan nurni kamaytirish uchun 2 metr yog'och dasta ushlagichga o'rnatiladi. Albedometr yumshoq sim yordamida GSA-1 galvanometrning (Q) va S klemmalariga ullanadi. Agar galvanometr strelkasi noldan pastga tomon ketsa, simning o'rirlari almashtiriladi. O'lchash vaqtida albedometr yer yuzasidan 1-1,5 m balandlikka o'rnatiladi. Yig'indi va tarqoq radiatsiyani o'lchashda albedometr quyoshga tomon buriladi.

Asbobning tavsifi M-69 albedometr quyidagicha tuzilgan:



6-rasm. M-69 albedometrning tuzilishi. 1-rezinkali tiqin, 2-quvur, 3-piranometr qopqog'i, 4-ushlagich, 5-kardonli osma, 6-quvur.

### Ishni bajarish tartibi

1. O'lchashdan 3 minut avval galvanometrning nol vaziyati aniqlanadi. Albedometrning kopqog'i berkitiladi va galvanometr ko'rsatishi  $N_0^1$  yozib olinadi. Albedometr yuqoriga qaragan holda bo'lib,  $N_1, N_2, N_3$  bo'lsin.

2. Uch marta o'lchash olingandan so'ng, qabul qiluvchi qurilma pastga buriladi va 1 minut o'tgandan so'ng, uchta o'lchash olinadi, bunda qaytgan radiatsiyaning qiymatlari  $N_4, N_5, N_6$  o'lchanadi.

3. Shundan so'ng quyosh radiatsiyasi qabul qiluvchi qurilma buralib yuqoriga qaratiladi va 1 minut vaqtdan so'ng yana uchta yig'indi radiatsiya o'lchanadi  $N_7, N_8, N_9$ .

4. Shundan keyin qabul qiluvchi qurilma qopqog'i bilan berkitiladi va galvanometrning  $N_0^{11}$  nol holat hisobga olinadi. Hamma olingan natijalar 2-jadalga kiritiladi.

2-jadval.

Albedometr №

Galvanometr №

Vaqt	Hisoblash tartibi	Galvanometrdan olingan hisob		
		Nol holati	Yig'indi radiatsiya	Qaytgan radiatsiya


### O'lhash natijalarini qaytv ishlash

1. Dastlabki no vaziyat va har bir turdag'i radiatsiya uchun  $\bar{N}_0$ ,  $\bar{N}_a$ ,  $\bar{N}_{Rk}$  o'rtacha qiymati aniqlanadi:

$$\bar{N}_0 = \frac{N_0^1 + N_0^{11}}{2}; \quad \bar{N}_a = \frac{N_1 + N_2 + N_3 + \dots + N_6}{6}; \quad \bar{N}_{Rk} = \frac{N_4 + N_5 + N_6}{3}$$

2. Shundan so'ng o'rtacha qiymatdan foydalanib, shkalaning qo'shimchasi  $\Delta N_Q$  va  $\Delta N_{Rk}$  qurilma guvohnomasidan olinadi.  $N_0$  holat aniqlanadi va  $N_a$ ,  $N_{Rk}$  ning to'g'irlangan qiymati:

$$N_Q = N_Q \pm \Delta N_Q - N_0; \quad N_{Rk} = \bar{N}_{Rk} \pm \Delta N_{Rk} - N_0.$$

3. Bizga ma'lumki, al'bedo qaytgan radiatsiyaning yig'indisi radiatsiyaga nisbatiga teng bo'lganligi uchun

$$A = \frac{N_{Rk}}{N_Q} \cdot 100\%$$

shaklda yozish mumkin. O'qituvchining ko'rsatmasi, asosida haydalagan toza tuproq, o'simligi bo'lgan tuproq, suv va asfaltning albedosi aeiqlanadi. Shundan so'ng hisobot tayyorlanadi.

### Muhokama uchun savollar

1. Albedo nima?
2. Albedometr va aktinometrlar orasida qanday farq bor?
3. Albedoning Quyosh balandligiga bog'liqligi qanday aniqlanadi?
4. Ish to'g'risida tushuncha bering?
5. Albedoni o'lhashni ahamiyati nimada?


### Adabiyotlar ro'yxati

1. M.D.Pavlova. "Praktikum po agrometeorologii"., A, Gidrometeoizdat. Leningrad, 1984, 183s
2. Sh.K. Niyazov, A.Abdullaev. Maxsus kurs "Quyosh energiyasidan foydalanishning fizik asoslari" GDU Guliston. 1995. 48 b
3. Vayenberg V.B, "Optika i ustavokax dlya ispozovaniya solnechnoy energii". Obrongaz. 1959.
4. Spravochnik po klimatu.... Vipusk 19. Solnechnaya radiatsiya, radiatsionno'y balans i solnechnoe siyanie. Gidrometeoizdat. Leningrad. 1966. 75s.

### 3-laboratoriya mashg'uloti: Yarim o'tkazgichlarning volt-amper xarakteristikasini o'rganish

**Ishning maqsadi.** Yarim otkazgichli dioddan o'tuvchi tok kuchining qo'yilgan kuchlanishga bog'liqligini o'rganish.

**Kerakli asboblar:** 1) yarimo'tkazgichli diod (kolodkada); 2) o'zgarmas tok manbayi (36–42 V); 3) uzib-ulagich; 4) o'tkazgich simlari; 5) milliampermestr; 6) reostat; 7) vol'tmetr.



2.4-rasm.

### Ishning bajarilishi


- 1.Kerakli asboblarni to'plab, 2.4-rasmdagi chizma bo'yicha elektr zanjiri yig'iladi.
- 2.Reostat jildirgichini surib chiqishda 0 V bo'ladigan holatga qo'yiladi.
- 3.Uzib-ulagich ulanadi.
- 4.Reostat jildirgichni surib, tashqi zanjirga beriladigan kuchlanish ortirib boriladi.

Voltmetr va ampermetr ko'rsatishlari yozib boriladi.

5.O'lchash natijalari quyidagi jadvalga kiritiladi.

<b>U,V</b>							
<b>I,A</b>							

- 6.Tok manbaining qutublari almashtirib ulanadi va tajriba takrorlanadi.
- 7.Natijalarga muvofiq yarim o'tkazgichli dioddan o'tuvchi tok kuchining qo'yilgan kuchlanishga bog'liqlik grafigi chiziladi.



2.5-rasm.

- 8.Yarim o'tkazgichli dioddan to'g'ri p-n o'tish va teskari p-n o'tish yo'naliishida o'tadigan tok kuchining qo'yilgan kuchlanishga bog'liqligi 2.5-rasmdagi grafikda keltirilgan.

Diodga teskari yo'naliishdagi kuchlanish qo'yilganda diodning pasportida yozilgan qiymatdan katta kuchlanishni qo'yish mumkin emas.

**5-laboratoriya mashg'uloti:** Quyosh elementlarni parallel va kema-ket ulash. Quyosh elementlarini VAX

## **I oraliq nazorat savollari (ma’ruza)**

1-variant

1. Fotovoltakning fizik asoslari fanining asosiy tushunchasi va qonunlari.
2. Yarimo’tkazgichlar ning materiallari
3. Ideal diod tenglamasi

2-variant

1. Quyosh energiyasi
2. Yarimo’tkazgichlar fizikasi
3. p-n- o’tish. Yarim o’tkazgichlarda zaryad tashuvchilar harakati

3-variant

1. Quyosh nurining xususiyatlari
2. Yarimo’tkazgichlar fizikasining asosiy tushunchalari
3. Diod krishmasi va diod teng’lamasi

4-variant

1. Quyosh nurining xossalari
2. Energetik zonalar diagrammasi
3. Quyosh fotoelementlari

5-variant

1. Foton energiyasi
2. Taqiqlangan zona
3. Fotoelement parametrlari

6-variant

1. Spektral nurlanishlar
2. Generatsiya va rekombinatsiya
3. Ideal quyosh elemenvtlari

## **I oraliq nazorat savollari (laboratoriya va seminar mashg’ulari)**

1-variant

1. Quyosh elementlari
2. Fotovoltaik effekt.
3. Quyosh energetikasi soxasida nanotexnologiyalarning o’rni

## 2-variant

1. Quyosh elementlari va batareyalarining samaradorligi, kamchiliklari va istiqbollari.
2. Optik va rekombinatsion yo'qotishlar
3. Quyosh elektr stantsiyalari.

## 3-variant

1. Qyosh elementlarida yarimutkazgichlar va dielektriklarning qo'llanilishi: yutuqlari va kamchiliklari
2. O'zbekistonning o'uziga xos iqdimi va uni quyosh batareyalarida qo'llashdagi axamiyati
3. Zaryad tashuvchilarni jamlash.Jamlarsh koeffitsenti

## 4-variant

1. Quyosh nurining xossalari
2. Energetik zonalar diagrammasi
3. Quyosh fotoelementlari

## 5-variant

1. Foton energiyasi
2. Taqiqlangan zona
3. Fotoelement parametrlari

## 6-variant

1. Spektral nurlanishlar
2. Generatsiya va rekombinatsiya
3. Ideal quyosh elemevntlari

## **Yarimo'tkazgichli fotoelektrik o'zgartgichlar**

Ma'lumki, har qanday mamlakatning rivojlanish darajasi birinchi navbatda uning energiya ishlab chiqarish imkoniyatlari va undan foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Barcha mamlakatlarda aholi soni tez sur'atlar bilan oshib bormoqda, shu bilan birga uning energiyaga bo'lgan ehtiyojining yana ham kuchayishiga olib kelmoqda. XXI asrda kelib qazilma yonilg'ilar energiyasidan foydalanish muammolari yaqqol ko'zga tashlana boshlandi.

Hozirgi paytda ishlab chiqarilayotgan energiya asosan qayta tiklanmas qazilma boyliklar (neft, gaz, ko'mir va uran) energiyasi xisobiga xosil qilinmoqda. Ular dunyo energetika balansining asosi hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra hozir energiya ishlab chiqarishda ishlatilayotgan birlamchi xom ashyoning 33 % ni neft, 28 % ni ko'mir, 25 % ni tabiiy gaz tashkil etayotgan bo'lsa, 14 % ni atom, suv va boshqa tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanilgan holda hosil qilinadi.

Lekin, qazilma boyliklarining zahiralari cheklangan. Shu bilan birga izlab topish va foydalanishga topshirish xarajatlari tobora ortib bormoqda. Shu tufayli keyingi yillarda noan'anaviy muqobil yoki tiklanuvchi energiya manbalarini (TEM) deb nom olgan energiya manbalaridan foydalanish ko'lamenti va samaradorligini oshirish dolzarb muammoga aylanmoqda.

Insoniyat o'z faoliyatida eng ko'p ishlata digan energiqa – elektr energiyadir. Elektr energiyasi boshqa xildagi energiyalarga (issiqlik, atom, mexanik, kimyoviy, yorug'lik, suv oqimi) nisbatan oson usullar bilan xosil qilinadi va boshqa hil energiyalarga oson aylantirilish xossasiga ega. Uni turli masofalarga uzatish qulay. Ishlab chiqarishda elektr energiyasidan foydalanish mehnat unum dorligining oshishiga olib keldi, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va yangi usublarni tatbiq etish imkoniyatini yarati. Hozirgi paytda jahonda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning 96 % qazilma yonilg'ilan hisobiga to'g'ri keladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojning o'sishi hozirgi darajada saqlangan taqdirda ham uning bir necha o'n yildan so'ng yonilg'i tanqisligi ta'sir ko'rsata boshladи. Bu dolzarb muammo zahiralari kamayib borayotgan an'anaviy energiya manbalarini o'rmini qoplash uchun muqobil energiya manbalarini o'zlashtirishni kun tartibiga qo'yamoqda.

Ikkinchidan energiya ishlab chiqarishda tabiiy yonilg'ilardan foydalanish ekotizimning buzilishiga olib kelmoqda. Bunda, birinchi navbatda, tabiiy yonilg'ilardan foydalanib ishlaydigan inshoat va qurilmalar yonilg'inining 55-60 % dan ortiq energiyani birinchidan issiqlikga aylantirib ob-havoning isishiga, ish jarayonida hosil bo'layotgan zaharli chiqindilar atrof muhitning ifloslantirishiga olib kelmoqda. Bu masalalar echimini ijobjiy hal qilish uchun hozirgi davrga kelib faqat ilmiy doiralardagina emas, shuningdek barcha rivojlangan davlatlar rahbarlari ham katta tashvish bildirib tegishli ishlarni amalga oshirmoqdalar.

2002 yil 26 avgustdan – 4 sentyabrgacha Yoxannesburgda (Janubiy Afrika) ko'plab davlatlarning rahbarlari, olimlari va mutaxassislari ishtirok etgan va barqaror taraqqiyotga bag'ishlangan xalqaro sammitda insonning tabiat bilan mutanosib xolda sog'lom va ijodiy hayot kechirishini ta'minlaydigan ustivor masalalar ko'rsatib berildi.

Tizimli tadqiqotlar asosida "kelajak energetikasi" andozasi yaratildi. Bunga ko'ra uzoq kelajakda ham zaxiralari tugamaydigan birlamchi energiya manbai bo'lib Quyosh energiyasi xisoblasa, ko'lami va imkoniyatlariga ko'ra ikkilamchi energiya vositalari bo'lib u elektr energiyasi va vodorod yuqori sifatli energiya manbalarini xisoblanadi.

Vodorod ajratib olinishi va ishlatilishi jixatidan ancha texnikaviy murakkabliklarga ega. Bu borada elektr energiyasi beqiyos ustunliklarga ega. Shu sababli hozirgi paytda sanoatda elektr energiyasini ishlatishga asosiy o'rinni

berilmoxda va uning bu ustunligi uzoq muddatlargacha saqlanib qoladi deb aytish mumkin.

Quyosh energiyasini asosan ikki usul bilan o'zlashtirilmoqda. Birinchisi temodinamik usul bo'lib, bu usul quyosh energiyasini o'zlashtirish borasidagi dastlabki usullardan xisoblanadi va u ancha keng rivojlangan.

Ikkinchidan, fotoelektrik usul bo'lib, u quyosh energiyasini to'g'ridan to'g'ri elektr energiyasiga aylantirishdan iborat bo'lib, birinchisiga qaraganda ancha soddaligi, harakatlanuvchi qismlar bo'lmasligi, konstruktiv materiallar kam ishlatalishi, ko'chirib yurish qulayligi va ishga tushirish ososnligi kabi jihatlari bilan farq qilib, hozirgi paytda katta e'tiborga sazovor bo'lmoqda. Termodinamik usulda quyoshning issiqlik energiyasidan foydalanish nazarda tutiladi. Bu usulda ishlovchi qurilmalarning samaradorligi ishchi jismlarning haroratiga bevosita bog'liq bo'lib, ba'zi hollarda  $400^{\circ} - 500^{\circ}$  S gacha qizdirish kerak bo'ladi. Buning uchun quyosh nurini to'plovchi murakkab tuzilishli qurilmalar (kontsentrator)dan foydalaniladi. Bu esa hosil qilingan energiyaning tannarxiga sezirarli ta'sir ko'rsatadi. Termodinamik o'zgartgichlar turli maqsadlarda ishlatalishi mumkin. Masalan, issiqlik bilan bog'liq texnologik jarayonlarni amalga oshirishda, turli mexanizmlarni harakatga keltirish, elektr generatori rotorini aylantirishi va h.k.

Fotoelektrik o'zgartgichlar esa quyosh nuri ta'sirida bevosita elektr energiyasi hosil qiluvchi generatorlar xisoblanadi. Keyingi yillarda ularning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari ancha kengaydi. Natijada fotoelektrik o'zgartgichlarning foydali ish koeffitsienti termodinamik o'zgartgichlarnikiga yaqinlashib bormoqda.

Xo'sh, bunday xossaga ega bo'lgan fotoo'zgartgichlar qanday tuzilishga ega, ular qanday yasaladi va qanday moddalar ishlataladi. Bu savollarga hozirgi paytda juda ko'pchilikni qiziqtirmoqda. Hozirgi ko'pchilik davlatlarda energiya ishlab chiqarish va iste'mol qilishning tejamkor texnologiyasi ustida yirik bahslar kuchayib bormoqda. Bunday bahslarda gap albatta, energiya ishlab chiqarishning noan'anaviy usullardan biri, fotogeneratorlar to'g'risida so'z bo'lib o'tishi shubxasiz. Fotogeneratorlar to'g'risidagi munozaralar oddiy o'quvchidan tortib, to rahbar mutaxassislarni ham o'ziga chorlamoqda. Munozara ishtirokchilari yuqoridagi kabi turli savollar bilan olimlarga murojoat qilishadilar. Shu sababli ushbu risolada yarimo'tkazgichli fotoelektrik o'zgartgichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni shunday savollar bo'yicha berishni ma'qul topdik.

### **1.Yarimo'tkazgich deganda nimani tushunasiz?**

Qattiq jismlar elektr o'tkazuvchanligi jihatidan uch guruhga bo'linadi: **metallar**, **yarimo'tkazgichlar** va **dielektriklar** (izolatorlar). Metall eletkr tokini eng yaxshi o'tkazuvchilar hisoblansa, dielektriklar elektr tokini deyarlik o'tkazmaydi. Metallarning o'tkazuvchanligi tashqi ta'sirlarga jumladan, haroratga juda kuchsiz bog'liq, amalda bog'liq emas deb qaraladi. Shu sababli ularidan tashqi ta'sirlarga sezgir asboblar kam yaratiladi.

Dielektriklar kundalik turmush sharoitida elektr o'tkazuvchanlikga ega emas va ular asosan izolatorlar sifatida ishlataladi.

Yarimo'tkazgichlar elektr o'tazuvchanlik jihatidan metallar va dielektrik moddalar oralig'idagi holatni egallaydi. Lekin, ular elektr o'tkazuvchanligi tashqi

ta'sirlarga (masalan, haroratga, yoritilganlikga, tarkibiga begona atomlar kiritilishiga) kuchli bog'liq. Masalan, ayrim yarimo'tkazgchilar xona haroratlarda elektr tokini juda yaxshi o'tkazsa, past haroratlarda juda yomon o'tkazadi, hatto dielektrik xossasini namoyon eta boshlaydi. Ularning bu xossasidan issiqlikga o'ta sezgir asboblar yaratilgan.

## 2. Qattiq jismlar elektr o'tkazuvchanligini nimalar xosil qiladi?

Kimyo fanidan ma'lumotga ega bo'lgan barchaga ma'lumki, qattiq jismlar o'zaro bog'langan va tartib bilan joylashgan atomlar to'plamidan iborat. Bu to'plam **kristall panjara** deb ataladi. Kristall panjarada atomlarning joylashishini tasavvur etish uchun qisqacha atom tuzilishini ko'rib chiqaylik. Kristalldagi har bir atom musbat va manfiy zaryadli zarralardan iborat. Musbat zaryadli zarralar atomning markazi yadrosida joylashgan. Yadro atrofida undagi zarralar soniga teng manfiy zaryadli zarrachalar – elektronlar ma'lum orbitalarda harakatlanib turishadi. Elektronlar orbitalar orasida ma'lum fizikaviy qonuniyatlar asosida taqsimlangan. Shuningdek, bu qonuniyatga ko'ra har bir elektron orbitada alohida energetik sathlarda harakatlana oladi. Bu sathlar elektronlar uchun **ruhsat etilgan sathlar** deb ataladi. Umuman olganda, har bir atom elektronlar uchun ruhsat etilgan va ruhsat etilmagan sathlardan iborat energetik sohalarga ajraladi. Pastki orbitadagi sohalarning ruhsat etilgan sathlari elektronlar bilan to'ldirilgan va ulardagi elektronlar yadro bilan kuchli bog'lanishga ega. Bu elektronlarni ajratib olish uchun katta energiya talab qilinadi. Elektronlar elektr o'tkazuvchanlikda ishtirok etishi uchun ular energetik sohalarda erkin harakatlanish imkoniga ega bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda energetik sohada sathlar soni elektronlar sonidan ko'p bo'lishi kerak. Elektronlar bilan to'ldirilgan eng yuqori soha **valent soha** deb nomini olgan. Undagi ruhsat etilgan sathlar soni elektronlar soniga teng. Shu sababli bu sohadagi elektronlar ham o'tkazuvchanlikda ishtirok eta olmaydi.

Valent sohadan yuqorida **o'tkazuvchanlik sohasi** joylashgan. Bu sohada bo'sh sath ko'p va ularga o'tgan elektronlar elektr o'tkazuvchanlikda ishtirok eta oladi. Ular **erkin elektronlar** deb ataladi. Qattiq jismlarning metallar, yarimo'tkazgchilar va dielektriklarga bo'linishi asosan ularda o'tkazuvchanlik va valent sohalarning o'zaro joylashishiga bog'liq.

Metallarda valent va o'tkazuvchanlik sohalarining qo'shni chegaralari o'zaro qorishib ketgan. Shu sababli metallarning o'tkazuvchanlik sohasida hamma vaqt erkin elektronlar mavjud bo'ladi va binobarin metallar har qanday sharoitda elektr o'tkazuvchanlikga ega bo'ladi.

Yarimo'tkazgichlar va dielektrik moddalarda valent va o'tkazuvchanlik sohalari orasida elektronlar joylashishi mumkin bo'lмаган **tirqish** joylashgan. Bu tirqish elektronlar uchun **taqiqlangan soha** deyiladi. Taqiqlangan soha kengligi turli moddalar uchun turlicha. Bu soha kengligi 3 eV gacha bo'lgan moddalar yarimo'tkazgichlar hisoblanadi, 3,5 eV dan katta bo'lgan moddalar dielektriklar hisoblanadi.

Taqiqlangan sohaning kengligi turli yarimo'tkazgichlar uchun turlicha. Masalan, xona haroratida sof germaniy uchun 0,7 eV, kremniy uchun 1,1 eV, galliy arsenidi uchun 1,45 eV ga teng.

Yarimo'tkazgichlardagi bog'langan elektronlar turli tashqi ta'sirlar (issiqlik, yorug'lik va h.k.) tufayli o'z energiyasini taqiqlangan soha energiyasi qadar oshirib valent sohadan o'tkazuvchanlik sohasiga o'tib, elektr o'tkazuvchanlikda ishtirok eta oladi.

### **3. Yarimo'tkazgichlar elektr o'tkazuvchanligining metallar o'tkazuvchanligidan qanday farqlari bor?**

Metallarda elektr o'tkazuvchanlikni o'tkazuvchanlik sohasidagi erkin elektronlarning tashqi ta'sir maydonidagi tartibli harakati hosil qiladi. Metallardagi erkin elektronlar sonini tashqi ta'sirlar bilan oshirishning iloji yo'q. Shu sababli tashqi ta'sirlar metallar elektr o'tkazuvchanligini deyarlik o'zgartira olmaydi. Masalan, metall o'tkazgich harorati oshirilsa, uning o'tkazuvchanligi kamayadi, qarshiligi oshadi. Bu hodisa maetalldagi erkin elektronlarning issiqliq ta'sirida energiyasi oshib, ularning ionlarga to'qnashishlari soni ortishi bilan izohlanadi. Yarimo'tkazgichlarda esa aksincha, harorat ortishi bilan erkin elektronlar soni ko'payib, o'tkazuvchanligi ortadi, qarshiligi kamayadi.

Yarimo'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligi metallarnikidan sifat jihatdan ham farq qiladi. Gap shundaki, yarimo'tkazgichda elektronlar tashqi ta'sir tufayli valent sohadan o'tkazuvchanlik sohasiga o'tganda uning o'mida musbat zaryadli ion hosil bo'ladi. Bu musbat zaryadli bo'sh o'rinni yarimo'tkazgichlar fizikasida "**kovak**" deb ataladi. Kovaklar kristallda bir atomdan ikkinchisiga ko'chib yurishi mumkin. Bu esa musbat zaryadning **erkin ko'chishi** deb ataladi. Tashqi elektr maydon ta'sirida kovaklar ham tartibli harakatga kelib, kovaklar elektr o'tkazuvchanligi xosil qiladi. Shunday qilib, yarimo'tkazgichlarda elektronli va kovakli o'tkazuvchanlik bo'ladi.

Erkin kovaklar soni ko'p bo'lgan yarimo'tkazgichlar **r-tur** yarimo'tkazgichlar, erkin elektronlar soni ko'p bo'lgan yarimo'tkazgichilar **n-tur** yarimo'tkazgichlar deb ataladi.

### **4. Yarimo'tkazgichlar o'tkazuvchanligini yana qanday usul bilan oshirish mumkin?**

Yarimo'tkazgichlarning o'tkazuvchanligini ularga juda kam miqdorda begona atomlarni, ya'ni aralashma kiritish yo'li bilan oshirish mumkin. Bu aralashmaning turiga qarab, yarimo'tkazgich elektron yoki kovak o'tkazuvchanlikka ega bo'lib qoladi. Masalan, agar 4 valentli kremniy kristalliga 5 valentli aralashma (surma, fosfor, mishyak va b.) kiritilsa, ular yarimo'tkazgich kremniy atomi o'rmini egallab, 4 ta elektroni bilan qo'shni atomlarga bog'lanadi. Qolgan beshinchi elektroni hech qanday bog'lanishda ishtirok etmaydi va u erkin bo'lib qoladi. Shunday qilib, bu elektronlar hisobiga kristallda erkin elektronlarning soni keskin ortib ketadi, ya'ni kremniy elektron o'tkazuvchanlikka ega bo'lib qoladi. Yarimo'tkazgichda ortiqcha erkin elektronlarni hosil qiluvchi aralashma **donor** deb ataladi. Bunday yarimo'tkazgich esa **n-tur** yarimo'tkazgich deb ataladi.

Agar kremniy kristalliga 3 valentli aralashma (indiy, alyuminiy, galliy va b.) kiritilsa, kristallda bog'lanish to'la bo'lishi uchun bitta elektron etishmaydi va kristalldagi neytrallashmagan ion hisobiga bo'sh musbat o'rinnlar - kovaklarning soni ortadi va kremniy kovakli o'tkazuvchanlikka ega bo'lib qoladi. Yarimo'tkazgichda ortiqcha erkin kovaklarni hosil qiluvchi aralashma **akseptor** deb ataladi. Bunday yarimo'tkazgich esa **r-tur** yarimo'tkazgich deb ataladi.

Yarimo'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligini boshqa tashqi ta'sirlar bilan ham sezilarli darajada o'zgartirish mumkin. Masalan, sof yarimo'tkazgich qizdirilganda uning elektr o'tkazuvchanligi 20 martagacha ortishi mumkin. Absolyut nolga yaqin haroratlarda esa deyarlik barcha yarimo'tkazgich moddalar izolyatorlik xossasini namoyon qiladi.

Shunday qilib, yarimo'tkazgichlar elektr o'tkazuvchanligi jihatdan tarkibida begona moddalar (aralashmalar) bo'lisi yoki tashqi ta'sirlarga (haroratga, elektr va magnit maydon va h.k.) bog'liq moddalar hisoblanar ekan.

### **5. Yarimo'tkazgich kristalli qanday hosil qilinadi?**

Yarimo'tkazgichli asboblar ishlab chiqarishda yarimo'tkazgichlarning monokristallaridan foydalilanadi. Monokristall deb, kristall tuzilishida nuqsonlari bo'limgan, alohida atomlar hosil qilgan kristallik jismlarga aytiladi. Lekin tabiatda sof xoldagi yarimo'tkazgich kristalli mavjud emas. Ular turli moddalarining birikmalari – minerallar tarkibida uchraydi. Sof monokristall xosil qilish murakkab texnologik jarayon xisoblanadi. Ularning minerallari parchalanib, tarkiblovchi moddalardan turli usullar bilan ajratib olish yo'li bilan tozalanadi. Ayrim moddalar bir necha qayta ishlovlardan so'ng sof xolda hosil bo'lsa, boshqalari uchun juda murakkab usullar talab qilinadi. Bunda ekologik jihatdan havfli mahsulotlar ajralishi yoki ishlatilishi mumkin. Moddalarni saralash jarayoni ko'p miqdordagi energiya sarflanishi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, hozirgi zamon elektronikasining asosiy moddasi bo'lgan kremniyning kristallarini hosil qilish shunday murakkab jarayonlar bilan amalga oshiriladi. Garchi, kremniyning Er sharoitidagi ulushi 29,5 % ni tashkil etadi. Shu sababli kremniydan (umuman, yarimo'tkazgich moddalardan) yasalgan asboblar tannarxi hozirgi paytda ancha qimmat. Olimlar yarimo'tkazgich modadalarni xosil qilishning arzon, shu bilan birga ekologik jihatdan xavfsiz bo'lgan texnologik usullarini topish ustida tinimsiz tadqiqot ishlari olib bormoqdalar. Jumladan, ushbu risola mualliflari ishtirokida polikristall kremniyni quyosh energiyasidan foydalaniib o'stirish usuli taklif etilgan. Bu usul ekologik jihatdan sof va tejamkor usul hisoblanadi. Lekin, ayrim texnik murakkabliklar tufayli bu usul polikristall kremniy ishlab chiqarishda o'z o'rmini topgani yo'q.

### **6. Sof yarimo'tkazgich qanday xossalarga ega?**

Sof yarimo'tkazgich deganda tarkibida begona moddalarining atomlari bo'limgan yoki juda kam miqdorda bo'lgan yarimo'tkazgich modda kristallari tushiniladi. Sof yarimo'tkazgichda erkin elektron va kovaklar soni juda kam (lekin ular o'zaro teng). Bunday yarimo'tkazgich xususiy yarimo'tkazgich deb ataladi. Xususiy yarimo'tkazgich elektr tokini yomon o'tkazadi.


Sof monokristallarda aralashmalar kontsentratsiyasi juda kam bo'ladi. Masalan, aralashmalar kontsentratsiyasi germaniyda  $10^{10} \text{ sm}^{-3}$  dan, kremniyda  $10^{13} \text{ sm}^{-3}$  dan kam bo'lgandan ular xususiy hisoblanadi. Xususiy yarimo'tkazgichning elektr o'tkazuvchanligi juda kichik bo'ladi va bu o'tkazuvchanlikning tashqi ta'sirlar (masalan, harorat) tufayli o'zgarishi ham juda kichik bo'ladi. Shu sababli, yarimo'tkazgichli asboblar ishlab chiqarishda xususiy yarimo'tkazgichlar juda kam ishlatiladi.

### **7. Yarimo'tkazgichga nechta aralashma kiritiladi.**

Yarimo'tkazgichlardan elektron asboblar yaratishda legirlangan r- yoki n-xildagi monokristallardan foydalaniladi. Yarimo'tkazgichli asbobning qanday maqsadda ishlatalishiga qarab turli darajada legirlangan kristalldan foydalaniladi va odatdag'i yarimo'tkazgichli elektron asboblar yaratishda ishlataligan yarimo'tkazgich kristallarda aralashmalar miqdori  $10^{15}$  dan  $10^{19} \text{ sm}^{-3}$  gacha etadi.

### 8. Yarimo'tkazgichlardan qanday elektron asboblar tayyorlanadi?


Yarimo'tkazgichlarni xossalariga asoslanib yaratilgan eng birinchi elektron asbob – bu termorezistor (termoqarshilik) hisoblanadi. Termorezistor qarshiligi harorat ortishi bilan tez kamayadi. Uning asosida temperaturani o'lchaydigan asboblar yaratilagan. Termorezistorlar past haroratlarda ham, yuqori haroratlarda ham, shuningdek turli agressiv muhitlarda ham benuqson ishlay oladi.



### 1-rasm. Termoqarshilik konstruktsiyasi va sxemalardagi belgisi.

1-rasmida termoqarshilikning konstruktsiyasi va uning sxemadagi belgisi ko'rsatilgan. Uning asosiy qismi – issiqlikka sezgir elementi yarimo'tkazgichlik xossasiga ega bo'lgan selen  $\text{Mn}_3\text{O}_4$  va  $\text{SuO}$  aralashmlari yoki germaniy, kremniy singari elementlar hisoblanadi. Odatdag'i termorezistorlar tsilindr shaklidagi issiqlikga sezgir yarimo'tkazgich material (1) va unga ulangan metall elektrodli kontakt qalpoqchalardan (2) tuzilgan. Termoqarshilik elektrodlar yordamida elektr zanjiriga ulanadi.

Termoqarshiliklar kichik o'lchamli, tayyorlanishi oson, issiqlik o'tkazishiga kuchli sezgirligi kabi xossalari bilan issiqliknii o'lchaydigan boshqa asboblardan farq qiladi. Ular bilan temperaturani uzoqdan va markazda turib katta aniqlikda o'lchash mumkin. 2-rasmida temperaturani uzoqdan va markazdan turib o'lchovchi termoqarshilikli asbobning sxemasi ko'rsatilgan.




## 2-rasm. Termoqarshilikni o'lchaydigan termistorli o'lchov asbobining elektrik sxemasi.

Dastlab 1 kalit bilan sxema elektr manbaiga ulanadi. 2-surgich  $R_1$ ,  $R_2$ ,  $R_3$  qarshiliklar yordamida galvonametr shkalasi nolga so'ngra termoqarshilik temperaturasi o'lchanadigan muhitga joylanadi. O'lchanayotgan temperaturani bevosita kuzatish uchun galvanometr shkalasi tselsiy gradusida darajalanadi. Termistor solishtirma qarshiligi kata bo'lgan materialdan qilingani uchun zanjirdagi tok asosan termistorning qarshiligi kattaligiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ulovchi simlarning qarshilagini va uning temperaturaga qarab o'zgarishini hisobga olmasa ham bo'ladi. Bu esa o'lchov asbobidan yuz metr masofada joylashgan obektlarning temperaturasini etarlicha aniqlikda o'lhash mumkin.

Temperaturani o'lhashning bunday usuli sodda va ishonchli bo'lishi bilan birga insonning kirishi mumkin bo'lмаган (zaharovchi moddalar, nurlanishlar, yuqori harorat va h.k.) joylardagi temperaturani o'lhash imkonini beradi.

3-rasmda termistor va metall o'tkazgich qarshiligining temperaturaga bog'liqlik grafigi ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinish turibdiki, metallar va yarimo'tkazgichlar qarshiligining temperaturaga bog'liqligi bir-birian katta farq qiladi.



## 3-rasm. Metall va yarimo'tkazgich qarshiligining temperaturaga bog'liqlik grafigi, 1-metall, 2-yarimo'tkazgich.

Temperatura ortishi bilan metall qarshiligi biroz ortadi, yarimo'tkazgichlar qarshiligi esa keskin kamayib ketadi. Bu holda temperatura ortishi bilan yarimo'tkazgich hajmidagi erkin zaryadlar kontsentratsiyasi keskin ortib ketishi bilan tushuntiriladi.